

SAYYORA XAYDAROVA

**PSIXOLOGIYA
NAZARIYASI VA TARIXI**



O'QUV QO'LLANMA

82
125

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

S.Xaydarova

PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

O'quv qo'llanma

Bilim sohasi:	100 000 - Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nallishi:	5110900 - Pedagogika va psixologiya



Tuzuvchi: S.Xaydarova.- Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi Psixologiya nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. 210-bet

Ushbu qo'llanmada psixologiya fanining vujudga kelishi, tarixi, mohiyati, psixikaning rivojlanishi, shaxs psixologiyasi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, individual psixologik xususiyatlari, psixologik holatlar hamda shaxsning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan psixologik fiziologik va jismoniy o'zgarishlar shuningdek shaxsga xos sifat, xususiyat, holatlar, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishning yoshga bog'liq jihatlarining psixologik mexanizmlarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 19 iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan berilgan 233-0513-raqamli guvohnoma

В данном пособии рассмотрены происхождение, история, сущность, развитие психики, психология личности, познавательные процессы, эмоционально-волевая сфера личности, индивидуально-психологические особенности, психологические состояния и психологические физиологические и физические изменения, происходящие в процессе формирования личности, качество, особенности, условия; включает психологические механизмы возрастных аспектов правильной организации учебного процесса.

This manual discusses the origin, history, essence, development of the psyche, personality psychology, cognitive processes, the emotional-volitional sphere of the personality, individual psychological characteristics, psychological conditions and psychological, physiological and physical changes that occur in the process of personality formation, quality, features, conditions; includes psychological mechanisms of age-related aspects of the correct organization of the educational process.

Taqrizchilar: *D.E.Toshtemirov Guliston davlat universiteti, pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.*
S.Dj.Sharopova (PhD) Falsafa fanlari doktori

GulDU,2022.

MUNDARIJA

I BO'LIM (MODUL). MUTAXASSISLIKKA KIRISH.....7	
I bob. Kasblar va professionalism. Mutaxassislikka kirish	8
II bob. Malakali psixolog tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari	15
III bob. Amaliyotchi psixologning faoliyat sohalari	23
IV bob. Amaliyotchi psixolog faoliyatining umumiy masalalari	26
V bob. Psixologning kasbiy o'zini-o'zi anglashning axloqiy jihatlarini	30
II BO'LIM (MODUL). PSIXOLOGIYA TARIXI	
VI bob. Psixologiya tarixi faniga kirish	34
VII bob. Psixologiyaning dastlabki va o'rta asrlarda rivojlanishi	39
VIII bob. XVIII-XIX asrlarda psixologiyaning rivojlanishi	50
IX bob. XIX-XX asrlarda xorijda psixologiyaning rivojlanishi	55
X bob. XX asrlarda psixologiyaning rivojlanishi	66
XI bob. XX Asrning yangi yo'nalishlarining yuzaga kelishi.....	78
III BO'UM (MODUL). UMUMIY PSIXOLOGIYAGA KIRISH	
XII bob. Umumiy psixologiya fanining predmeti, vazifalari, metodlari	84
XIII bob. Psixologiya zamonaviy fanlar tizimida	94
XIV bob. Psixika va uning evolutsiyasi.....	102
XV bob. Faoliyat	109
XVI bob. Shaxs	118
IV BO'LIM (MODUL). KOGNITIV PSIXOLOGIYA	
XVII bob. Diqqat.....	125
XVIII bob. Sezgi	130
XIX bob. Idrok.....	140
XX bob. Xotira	143
XXI bob. Xayol.....	158
XXII bob. Tafakkur.....	164
XXIII bob. Nutq	173
V BO'LIM (MODUL). HISSIY-IRODAVIY SOHA PSIXOLOGIYASI	
XXIV bob. Hissiyot.....	178
XXV bob. Iroda.....	184
XXVI bob. Shaxs yo'nalganligi va faoliyat motivlari	
VI BO'LIM (MODUL). INDIVIDUAL FARQLAR PSIXOLOGIYASI	
XXVII bob. Temperament.....	192
XXVIII bob. Xarakter	199
XIX bob. Qobiliyat.....	208
GLOSSARIY	213
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	218

СОДЕРЖАНИЕ

РАЗДЕЛ I (МОДУЛЬ). ВВЕДЕНИЕ В СПЕЦИАЛИЗАЦИЮ.....	7
Глава I. Профессии и профессионализм. Введение в специальность.....	8
Глава II. Теоретические и практические основы подготовки квалифицированного психолога.....	15
Глава III. Направления деятельности практикующего психолога.....	23
Глава IV. Общие вопросы практики практикующего психолога.....	26
Глава V. Этические аспекты профессионального самосознания психолога.....	30
Раздел II (МОДУЛЬ). ИСТОРИЯ ПСИХОЛОГИИ	
Глава VI. Введение в историю психологии.....	34
Глава VII. Развитие психологии в ранние и средние века.....	39
Глава VIII. Развитие психологии в XVIII – XIX вв.....	50
Глава IX. Развитие психологии за рубежом в XIX-XX вв.....	55
Глава X. Развитие психологии в XX веке.....	66
Глава XI. Появление новых направлений XX века.....	78
Раздел III (МОДУЛЬ). ВВЕДЕНИЕ В ОБЩУЮ ПСИХОЛОГИИ	
Глава XII. Предмет, задачи, методы общей психологии.....	84
Глава XIII. Психология в системе современных наук.....	94
Глава XIV. Психика и ее эволюция.....	102
Глава XV. Деятельность.....	109
Глава XVI. Личность.....	118
РАЗДЕЛ IV (МОДУЛЬ). КОГНИТИВНАЯ ПСИХОЛОГИЯ	
Глава XVII. Внимание.....	125
Глава XVIII. Интуиция.....	130
Глава XIX. Разум.....	140
Глава XX. Память.....	143
Глава XXI. Воображение.....	158
Глава XXII. Мышление.....	164
Глава XXIII. Речь.....	173
РАЗДЕЛ V (МОДУЛЬ). ПСИХОЛОГИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОГО РАЗДЕЛА	
Глава XXIV. Эмоция.....	178
Глава XXV. Смелость.....	184
Глава XXVI. Личностная направленность и мотивы деятельности.....	
РАЗДЕЛ VI (МОДУЛЬ). ПСИХОЛОГИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ	
Глава XXVII. Темперамент.....	192
Глава XXVIII. Характер.....	199
Глава XIX. Способность.....	208
ГЛОССАРИЙ.....	213
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	218

CONTENT

Section I (MODULE) INTRODUCTION TO SPECIALIZATION.....	7
Chapter I. Professions and professionalism. Introduction to the specialty.....	8
Chapter II. Theoretical and practical foundations for the training of a qualified psychologist.....	15
Chapter III. Areas of activity of a practicing psychologist.....	23
Chapter IV. General questions of the practice of a practicing psychologist.....	26
Chapter V. Ethical aspects of the professional self-awareness of a psychologist...	30
Section II (MODULE) HISTORY OF PSYCHOLOGY	
Chapter VI. Introduction to the history of psychology.....	34
Chapter VII. The Development of Psychology in the Early and Middle Ages.....	39
Chapter VIII. The development of psychology in the XVIII – XIX centuries.....	50
Chapter IX. The development of psychology abroad in the XIX-XX centuries.	55
Chapter X. The Development of Psychology in the Twentieth Century.....	66
Chapter XI. The emergence of new trends of the twentieth century.....	78
Section III (MODULE) INTRODUCTION TO GENERAL PSYCHOLOGY	
Chapter XII. Subject, tasks, methods of general psychology	84
Chapter XIII. Psychology in the system of modern sciences.....	94
Chapter XIV. Mind and its evolution.....	102
Chapter XV. Activity.....	109
Chapter XVI. Personality.	118
Section IV (MODULE) COGNITIVE PSYCHOLOGY	
Chapter XVII. Attention.....	125
Chapter XVIII. Intuition.....	130
Chapter XIX. Intelligence.....	140
Chapter XX. Memory.....	143
Chapter XXI. Imagination.....	158
Chapter XXII. Thinking.....	164
Chapter XXIII. Speech.....	173
Section V (MODULE) PSYCHOLOGY OF EMOTIONAL-VOLITIONAL SECTION	
Chapter XXIV. Emotion.....	178
Chapter XXV. Courage.....	184
Chapter XXVI. Personal orientation and motives of activity	
Section VI (MODULE) PSYCHOLOGY OF INDIVIDUAL DIFFERENCES	
Chapter XXVII. Temperament.....	192
Chapter XXVIII. Character.....	199
Chapter XIX. Ability.....	208
GLOSSARY.....	213
BIBLIOGRAPHY.	218

KIRISH

Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiqot etishga mo'jallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko'lamini kengaytib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu bois psixolog mutaxassislariga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko'payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda, mutaxassislar oldiga ulkan talablar va mas'ul vazifalar yuklamoqda.

Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda "Psixologiya nazariyasi va tarixi fan" muhim rol o'ynaydi. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakillantirish borasida ustuvor o'rin egallaydi. Mazkur qo'llanma "Psixologiya nazariyasi va tarixi dasturiga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, talabalar uchun zarur materiallar izchil ravishda, muayyan tartibda joylashtirilgan. O'quv Qo'llanma psixologiya nazariyasi va tarixiga kirish, shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari yuzasidan ma'lumotlar umumlashtirilgan. O'quv qo'llanma matni oliy ta'limning pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishidagi kunduzgi bo'lim talabalari uchun mo'jallangan.

Psixologiya nazariyasi va tarixi fanidan darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazilishi, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan samarali foydalanish, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammo savollarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar fan mavzularini chuqur egallashni ta'minlaydi.

Manzilimiz: Guliston shahri, Guliston
davlat universiteti Pedagogika fakulteti,
"Psixologiya" kafedrasida.

1 BO'LIM . MUTAXASSISLIKKA KIRISH

1- foh. KASBLAR VA PROFESSIONALIZM. MUTAXASSISLIKKA KIRISH FANINING D'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI PSIXOLOG MUTAXASSISLIGIGA KIRISH

Asosiy savollar:

1. Kasb va professionalizm haqida
2. Kasbiy kompetentlik va mutaxassislikka kirish
3. Psixolog kasbining shakllanish tarixi va bugungi imkoniyatlar

Tayanch so'z va iboralar: professiogramma, kasb tanlash, konsultatsiya, professionallik, empirik tadqiqotlar, interpretatsiya, individ, shaxs.

Kasb va professionalizm haqida

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq qilish ko'p jihatdan o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish, o'quvchilar yosh xususiyatlarini bilish, har qaysi yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan pedagogik, psixologik jarayonlar xususiyatlarini yaxshi bilgan mutaxassislarga bog'liq. Yuqorida sanalgan muammolarni hal qilishda qator gumanitar va maxsus fanlar yordam beradi. Pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, muhandislik (injenerlik) psixologiyasi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi singari fanlar shular jumlasidandir.

Ishchining kasb faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bar qanday masala uning kasb mahorati, texnikani qanchalik egallaganligi darajasi, kasbini sevishi darajasi bilan bog'liq.

Ilmiy texnika taraqqiyoti (ITT) hozirgi kunda tobora jadallashib borayotgan texnika bilan bog'liq, uni yaratish va ishlatish ko'nikmalarini egallagan shaxsni tayyorlashni kun tartibiga keskin qilib qo'ymoqda. Bu muammoni tezroq hal qilish tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'z mahoratlarini yoshlarga, o'z o'rinbosarlariga qay darajada bera olishlariga bog'liq.

Shuning uchun bugungi muhandis ham o'z kasb sirlarini, ham shu kasb mahoratini yoshlarga bera olishi lozim. U umumiy psixologiyani, yosh psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, kasb-ta'limi va uning psixologiyasini bilishi talab qilinadi.

Bugungi yoshlar u yoki bu faoliyat jarayonida o'zlarida mavjud bo'lgan harcha jismoniy va intellektual imkoniyatlari ko'lamini yaqqol namoyon etishlari juda muhim.

Aql, fikr yuritish tezligi va boshqa individual xususiyatlar kasbiy faoliyat jarayonida namoyon etiladi. Buni aniqlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish bilan muhandislik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi fani sbug'ullanadi.

Boshqa har qanday mehnat qurollari singari texnika ham inson imkoniyatlariga maksimal darajada moslashtirilishi kerak. Bu eng avvalo mehnatning xavfsizligini ta'minlash bilan hogliq bo'lsa, keyinroq ishchining salomatligi va nihoyat ishlab chiqarishda texnikani

qo'llash hisobiga mehnat samaradorligini o'rtirish masalasi bilan bog'liqdir. Odam va texnika munosabatlari bir-biriga mosligi masalalarini mehnat psixologiyasi, uning tarmog'i hisoblangan muhandislik psixologiyasi fani o'rganadi.

Kasb-hunar ta'limi kollejlari o'quvchilariga texnikaning konstruktiv xususiyatlarini, muhandislik psixologik talablarini hisobga olishni, eng muhimi qo'llanadigan texnika inson imkoniyatlarini qay darajada hisobga olganligini, ya'ni texnikaning gumanizatsiyalashuvini hisobga olishni bilib ishga yondashuvi masalalarini aniq tasavvur qilishi bilan bog'liq. Bu muammo muhandislik psixologiyasida o'rganiladigan markaziy bosh mavzu inson— mashina—tizimi (IMT) hisoblanadi. Inson— mashina— tizimi va uning asosiy muammolari kasb ta'limi o'qituvchisi va kasb ta'limi ustasi mahoratining nazariy, pedagogik-psixologik tayyorligining asosini tashkil qiladi.

Muhandislik psixologiyasi mehnat psixologiyasining bir tarmog'i bo'lib, u odam va mashina o'zaro axborot almashuvidagi o'zaro ta'sir otkazishning ob'yektiv qonuniyatlarini, ularning amaliy qo'llanish va «jamoat» odam-»mashina» tizimini loyihalash va ekspluatatsiya qilish muammolarini o'rganadi.

Kasb tanlashga yollash. Kasb ta'limi psixologiyasining asosiy muammosi — shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yollash masalalaridir. Bular professiografiyadan boshlanadi.

Professiografiya. Insonga qo'yiladigan talablar nuqtayi nazaridan kasblar va uning o'z ichiga olgan ixtisosliklarini umumlashtirib tavsiflanishi professiografiya deyiladi. Professiografiya natijasi professiogramma bo'lib, bir kasb doirasidagi ixtisoslarning insonga, odamlar guruhiga qo'yishi mumkin bo'lgan talablar asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir.

Professiogrammalar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lishi mumkin: kadrlar tayyorgarligini asoslash, gigiyenik sharoitlarni hisobga olish va uni sog'lomlashtirish; kasb tanlashni asoslash; kasbiy maslahat va kasbiy tanlovnini asoslash; mehnatga baho berish me'yorlarini, mehnat xavfsizligi saviyasini ko'tarish va boshqalar.

Mehnatni tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan fanlar (tibbiyot, mehnat fiziologiyasi, mehnat psixologiyasi va boshqalar). Professiografiya o'z oldiga turlicha vazifalarni qo'yadi. Mehnat psixologiyasi sohasidagi barcha tadqiqotlar, xoh nazariy, xoh amaliy vazifalarni qo'ymas, eng avvalo konkret kasb faoliyatini o'rganishdan boshlanadi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, ilmiy-texnika taraqqiyoti munosabati bilan mehnat faoliyati sharoitlarigina emas, mehnat mazmuni ham o'zgarib bormoqda. Masalan, teplovaz va parovoz mashinisti kasbi kechagisi va bugungisi bilan bir xil emas. Kasb faoliyati o'zgarishiga qarab kasb professiogrammasiga mos keladigan kasb dasturi ham o'zgarishi kerak. Ayrim kasblar yo'qolib borsa, yangilari paydo bo'lib boradi, yoki o'zgarib boradi. Shuning uchun professiografiya ishlari hech qachon tugamaydi.

Kasb tanlashga yo'llash va kasb maslahatlarini uyushtirish. Kasb tanlashga yo'llash eng avvalo odam imkoniyatlari va u yashayotgan muhitning bir qancha sharoitlarini o'rganishdan boshlanadi. Bularni umumlashtirib mehnat ekspertizasi deb aytiladi.

Mehnat ekspertizasi — bu odamning konkret kasb bo'yicha mehnatga yaroqliligini ma'lum mutaxassislar tomondan aniqlanishidir.

Odamning u yoki bu mehnat turiga yaroqliligi eng avvalo uning yoshiga, tegishli bilim, ko'nikma va malakasiga, mazkur kasbga qiziqishi va iste'dodiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Mehnat ekspertizasiga turli mutaxassislar va tashkilotlar jalb qilinadi, jumladan, vrachlar, psixologlar, pedagoglar, injenerlar va boshqa mutaxassislar qabul komissiyalari, xodimlar bo'limi, tibbiy ekspert komissiyalari, harbiy vrachlik komissiyalari, turli sohalardagi tanlov komissiyalari va boshqalar.

Psixodiagnostika ma'lumotlari asosida Prognostik psixologik mehnat ekspertizasi kishining kelgusi mehnat faoliyatini belgilashga yordamlashadi. Bu talablarni har bir pedagog va ota-onalar bilishi, amal qilishi, ayniqsa bolaning 9-sinfni tugatish va hayot yo'llini belgilab olishi davrida juda muhimdir.

Mehnat ekspertizasining navbatdagi turi retrospektiv mehnat ekspertizasi deyiladi (Retrospektiv — o'tmishga nazar solish ma'nosida).

Retrospektiv mehnat ekspertizasi kuzatuvchining o'tmishi o'quv va ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish, baholash va uning xatolarini aniqlashga, ayrim ko'ngilsizlarga sabab bo'lgan holatlarni (avariya, yaroqsiz mahsulot, jarohat) o'rganishga xizmat qiladi. Bu o'quvchi yoki ishchining kelgusi mehnat faoliyatini belgilab olishida katta ahamiyatga ega. Mehnat ekspertizasi bir vaqtning o'zida kasbga yo'llash muammolarini hal qilishga ham yordam beradi.

Kasb tanlashga yo'llash — bu psixologik-pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari majmuyi bo'lib, hayotga kirib kelayotgan odamga ilmiy asoslangan shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyat va shaxsiy manfaatlarga mos keladigan faoliyat turini tanlab olishda yordam berishdir. Kishining qobiliyatlariga mos kelmaydigan kasb tanlashi ko'pincha fojialarga sabab bo'lib, shaxs uchun moddiy, ma'naviy zarar yetkazishi bilan jamiyatga ham qimmatga tushishi mumkin. Jumladan, oila va jamiyat mablag'ini sovurish, kadrlar qo'nimsizligi, qayta tayyorlash harakatidagi xarajatlarning ortishi kabi holatlarning namoyon etilishi bunga yaqqol misol bola oladi. Taniqli psixolog olim K.K. Platonov o'tgan asrning 80-yillarida kasb tanlashga yo'llashning kompleks dasturini ishlab chiqib, «kasb tanlashga yo'llash uchburchagi» g'oyasini ilgari surdi.

Unga ko'ra mazkur uchburchakning bir tomoni kasblarning kishi va uning organizmiga qo'yadigan talablari, ikkinchi tomoni bozor imkoniyatlari (mehnat bozor talablari, qaysi kasbdagilar kerakligi), uchinchi tomoni o'smir qobiliyatlarini bilish va davlat siyosatini hisobga olishdan iborat.

Kasbiy maslahat (profkonsultatsiya) — kasbga yo'naltirish tizimining bir qismi bo'lib, odamning qobiliyatlarini o'rganishga, tegishli maslahatlar berishga, batafsil shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uch bosqichi bor: tayyorlov, hal qiluvchi (yakunlovchi) va aniqlovchi.

Tayyorlov bosqichida oila va maktabdagi o'rganish-o'qish faoliyatini rivojlantirish bilan

bog'liq maslahatlar amalga oshiriladi.

Yakunlovchi tayyorgarlik bosqichida 9-sinfidagi olib boriladigan ishlar (o'qishni davom ettirish shaklini tanlash bilan bog'liq) ko'lami belgilanadi.

Aniqlovchi kasbiy maslahat bosqichi esa o'rta maktab doirasidan tashqariga chiqib, o'qishning keyingi bosqichlarida, ya'ni kollejda, litseyda, oliy o'quv yurtida davom etadi.

Kasbiy tanlov - mehnat Prognoslik ekspertizasi shakli bo'lib, odamning qaysi kasbga yaroqliligi haqida kafolat berish bilan bog'liq jarayon. Eng muhimi qaysi kasb uning uchun nomaqbul, zararli ekanligidan ogohlantirishdir. Kasbiy tanlov natijalari kasb-hunar bilim yurtlarida hisobga olinib, o'quvchi qaysi kasb bo'yicha o'qishi yoki boshqa sohaga ishga o'tkazilishi muhokama qilinadi.

Kasb qobiliyati vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Shuning uchun zarur sharoitlar yaratish, kelgusi faoliyat turini belgilab olishga maslahat berilishi mumkin. Profadaptatsiya, uning asosi va mohiyati. Kasb tanlashga yo'llashning hal qiluvchi davri o'quvchini hiror kasb ichiga asta-sekin kirib borishi, moslashuvi bosqichidir. Bunda o'quvchi shogirdlikdan malakali ishchi darajasi sari takomillashib boradi. Profadaptatsiyaning ikki bosqichi mavjud: tayyorgarlik va bevosita kasb egallash bosqichi. Tayyorgarlik o'quv jarayonida umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganadi, ayrim konkret ko'nikmalarni hosil qiladi. Bu biologik, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya ko'rinishiga ega.

Korxonada bevosita ishlab chiqarishda profadaptatsiya nihoyasiga yetkaziladi. Profadaptatsiyani muvaffaqiyatli nihoyasiga yetishi quyidagi uch holatga bog'liq:

- ▶ kollej o'qituvchilari va ustalarining o'z sohalariga qanday tayyorlashlariga nazariy va amaliy bilim berishlari, ko'nikma va malaka hosil qilishlari, kasbga qiziqish uyg'ota olishlari;
- ▶ ishchilar va murabbiylar o'rtasidagi shaxslararo munosabat shakli;
- ▶ o'quvchi borib tushgan mehnat jamoasidagi ijtimoiy psixologik muhit (sinchkov, mehribon, loqayd, yangi bolaga ishonchsizlik bilan qarash va hokazo).

Ijtimoiy psixologik adaptatsiya jarayonida bilish, shaxslararo munosabat, umumiy muloqot, hissiy-irodaviy sifatlarning namoyon etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Novatorlik va ratsionalizatorlik xususiyatlarini aniqlash. Kasbiy adaptatsiya malakali ishchi yetishuvi bilan nihoyasiga yetadi. Bunda eng ko'zga tashlanadigan sifat ishchining ijodiy mehnat qilishidir.

Novatorlik — ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga intilish.

Ratsionalizatorlik — ijodiy mehnat qilish orqali kam mablag' va kuch sarflagan holda ko'p va sifatli mahsulot chiqarishga kirishish, shaxsiy takliflari bilan chiqish va boshqalardir.

Kasbiy kompetentlik va mutaxassislikka kirish

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tatbiqiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab AQSH, Angliya va boshqa shu kabi

rivojlangan mamlakatlarda psixologik muammolarga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Hozirgi kunga kelib har bir sohaga psixologlar jalb qilingan. Har bir sohada psixolog maslahatiga ehtiyoj sezilmoqda.

Inson qalbini qanday tushunmoq kerak? Nima uchun insonlar turli xil qobiliyatlarga ega? Ruh nima va uning tabiati qanday? Bunday savollar insonlarni asrlar davomida qiynab kelgan, ular o'zlarining savollariga javob topa boshlashgan. Insonni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning yana bittasi B.G. Ananyev tomonidan taklif qilingan bo'lib, u inson psixikasini o'rganishda yangi metodologik uslubni ishlab chiqqan. U insonga xos bo'lgan to'rtta asosiy sifatlarni ajratgan: individ, sub'yekt faoliyati, shaxs va individuallik.

Umuman, bugungi kunda xalq orasida psixologlar haqida turli xil mulohazalar uchramoqda. Biz ularning ba'zilarni tahlil qilishga harakat qilamiz:

1. Psixologiya — bu insonning psixik jarayonlari kechishini biladigan fandir, psixologlar insonning ichki ruhiy holatini yaxshi biladi.

2. Psixolog — bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mutaxassis hisoblanadi.

3. Psixolog — bu insonlarning xatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shunga maxsus o'rgatilgan insondir. U shunga xos bo'lgan texnikalardan foydalana oladi, masalan, gipnoz yo'li bilan.

4. Psixolog — bu o'zini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham o'zini boshqara oladigan inson.

5. Psixolog — bu hayot haqidagi ko'proq tasavvurlarga ega bo'lgan domshmanddir, uning vazifasi qiynalgan insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, hayotda o'z yo'lini yo'qotganlarga to'g'ri maslahatlar berishi bilan alohida ajralib turadi.

Psixolog — bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi.

Kasb tushunchasi nima ekanligini aniqlab olishimiz zarur. Taniqli psixolog Y.A. Klimov kasbning turli xil holatlarini quyidagicha tahlil qilgan:

1. Kasb — bu insonlarning ma'lum bir holatlaridagi bir xilligidir. To'g'ri, turli xil kasb egalarining yashash sharoitlari turlicha bo'lishi mumkin. Hattoki bitta kasbda ham yashash darajasi turlicha bolishi mumkin. Bunda ularning oldiga qo'ygan maqsadlari ham muhim o'rin tutadi, biroq kasblaridagi boshlang'ich qadriyatlar bir-biriga yaqin bo'ladi.

2. Kasb insonlarning xatti-harakatlarini ajratadigan holatdir. Bunda psixolog mutaxassis sifatida o'zini qanday namoyon qilishi ko'zda tutilgan. Ma'lumki, psixologiya sohasi hali ham o'rganilayotgan va qarimaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ularning usullari ham takomillashib bormoqda.

3. Shaxs xususiyatlari uning kasbiy faoliyatida yaqqol ko'rinadi. Bu esa kasb va shaxs uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Kasb bu tarixiy rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. «Professiya» so'zi lotinchadan olingan bolib, barchaning oldida gapirmoq so'zini bildiradi. Kasbning o'zi insonlarning yashash sharoitlariga qarab o'zgaradi. Asosan psixologiya kasbi mashhur bo'lgan shaxslarning hayoti

bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

5. Psixologiya kasbi reallikdir, bu subyektning o'zini shakllanish imkoniyatini yaratadi. Demak, psixologiya kasbida insonlarning xatti-barakati orqali xulosaga kelishi mumkindir. Bunda yo'riqnomalar ish bermasligi mumkin. Psixologiya sohasida insonlarga yordam berish holati eng ustun jihatlardan biri hisoblanadi.

Kasb tushunchasidan tashqari yana bir nom mavjud, bu mutaxassislik hisoblanadi. Masalan: psixologiya sohasi ijtimoiy psixologiya mutaxassisligi bo'lishi mumkin. Umuman olganda kasb o'z ichiga quyidagi tavsiflarni kiritadi:

1. Bu mehnatning chegaralangan ko'rimlari bo'lib, psixolog uchun boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.
2. Bu kasb doimiy maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan holat bo'lib, bunda mutaxassislar doimiy tarzda malakalarini oshirishlari talab qilinadi.
3. Bu ma'lum bir maqtovlar, taqdirlash usullari kerak bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.
4. Jamiyat uchun foydali bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.
5. Bu kasb insonlarga ma'lum hir statusni berishi mumkin.

Hammaga ma'lumki, ko'pgina insonlar o'zlarini yaxshi psixolog deb hisoblashadi, ularning bu fikrga kelganliklariga sabab ular insonlar bilan muloqot qilishadi, hushqalariga baxtdor bo'la olishadi. Hayotiy psixologiya insonlarning hayotida kerak bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi, hattoki haqiqiy psixologlar ham hir necha bor hayotiy psixologiyaga murojaat qilishadi.

Psixolog kasbining shakllanish tarixi va hozirgi imkoniyatlari

Psixologik bilimlar haqida so'z ketar ekan, albatta mutaxassis psixolog va qiziquvchi psixologlar o'rtasida tafovutlar mavjuddir. Insonlar qiziqish doirasida bir- biriga yordam qo'lini cho'zishlari mumkin, bu esa yaxshigina samara berish imkoniyati hisoblanadi. Unda mutaxassis psixologlarning nima zarurati mavjud? Bu savol hammaga berilishi mumkin. Ko'pincha birinchi va ikkinchi kurs talabalari o'zini psixolog sanash mumkinligi yoki yo'qligi haqida o'ylanib qolishadi. Mutaxassis psixolog va qiziquvchi psixologlarning orasida bir qator farqlar mavjuddir. Bular quyidagilar:

- a) mutaxassis psixologlarda nazariy bilimlar tizimining mavjudligi, psixika va psixologiya tushunchalarining umumlashtirilganligi. Qiziquvchi psixologda bu bilimlar ko'p bo'lishi mumkin. U ko'plab adabiyotlarni o'qigan bolishi mumkin, biroq ular haqidagi bilimlari yuzaki hisoblanadi, ular ma'lum bir davralarda o'z bilimlarini namoyon qilishlari mumkin. Lekin, bunday odamlar nazariy bilimlarga ega bo'lmaganliklari uchun olingan bilimlaridan noto'g'ri foydalanishlari mumkin;
- b) mutaxassis psixologning eng tayanch nuqtasi albatta bu uning ilmiy bilish usullaridan xahardorligi hisoblanadi. Agar psixolog ko'p bilimga ega bo'lsada, biroq usullarga ega bo'lmasa ham qiynaladi. Shuning uchun ham usullardan keng foydalana olishi talab qilinadi;
- d) mutaxassis psixolog har doim nazariy asoslarga ega bo'lgan metodikalardan foydalana

oladi. Bunda nazariya va amaliyotni bir maromda amalga oshiradi. Hatto ki ba'zi vaqtlarda nazariy bilimlari oqsagan mutaxassis psixologlar to'g'ri tanlangan metodikalar yordamida vaziyatlardan oson chiqib ketishlari mumkin. To'g'ri, qiziquvchilar ham turli metodikalardan foydalanishlari mumkin, biroq ular bu metodikalarning mazmun- mohiyatlarini tushunmagan holda ishlatishlari mumkin, bu holatlar esa sinalluvchilarga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi;

e) qiziquvchi psixolog faqat yaqinlariga yordam ko'rsatsa, mutaxassis psixolog mijozlar bilan ishlab, ularga to'g'ri maslahat ko'rsatishi talab qilinadi. Bundan tashqari qiziquvchi psixolog hamma mas'uliyatni o'ziga olsa, mutaxassis psixolog esa mas'uliyatni mijozda shakllantiradi;

f) mutaxassis psixolog boshqa mutaxassislar bilan doimiy aloqada bo'lib turadi, demak mutaxassis psixologlar har doim ma'lumotlarga ega bo'ladi, bundan qiziquvchi psixolog mustasnodir;

g) mutaxassis psixologda psixologik bilimlarning mavjudligi haqidagi hujjatning mavjudligi, bu esa mijozlarning ularga murojaat qilishlarida muhim o'rin tutadi, chunki mijozlar albatta mutaxassislarga murojaat qilishni ma'qul ko'rishadi;

h) kasbiy axloqiy qoidalarga rioya qilish bo'yicha ham shu ikki psixologlar o'rtasida albatta farq mavjud. Bunda axloqiy qoidalar albatta mutaxassislarga o'qish davomida o'qitiladi;

i) mutaxassis psixolog o'zini rivojlantirishda mutaxassislarning xizmatlaridan foydalanadi, qiziquvchi psixolog kitoblardan foydalanishi mumkin, biroq bu tizimli bilimlar hisoblanmaydi. Mutaxassis psixolog mustaqil o'rganishga yo'naltiriladi;

j) psixolog mutaxassisda mehnat psixologiyasi mavjud. Bunda mutaxassis psixolog boshqalarga yordam berish asnosida o'zining sog'lig'iga ham befarq emasligini bilishi kerak bo'ladi;

k) mutaxassis psixolog ko'pgina yangi o'ylab topilgan usullarga tanqidiy nigoz bilan qaraydi, masalan, astrologiya, xirromantiya va boshqalarga.

Mutaxassis psixologning asosiy faoliyati albatta mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Inson o'zini mehnat orqali namoyon qilishi mumkin. Psixologning mehnati haqidagi tasavvurlarni keltirib olamiz:

1. «Yengil mehnat» ideali. Bunda inson mehnat qilmasdan ko'proq maosh olishni o'ylaydi. Bu aynan psixologlar uchun noto'g'ri bo'lgan faoliyatlardan biri hisoblanadi. Chunki ular mehnatidan zavqlanishlari zarur.

2. Noaniqlik tushunchasini kamaytirishga qaratilgan faoliyat (antientropizm). Murakkab obyektlarni osonlashtirish qobiliyati hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda ijodiy faoliyat uchun o'rin qolmaydi.

3. Qalban ko'rlik. Ular boshqa insonlar bilan xursand va xafa bo'la olishmaydi.

4. Boshqalardan ustun bo'lish xohishi. Bu ko'plab psixologlarning bir-birlari bilan kurashishlariga sabab boladigan holatlardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy layoqat deganda nimani tushunasiz?

2. Amaliy psixolog tadqiqotchi psixologdan qanday farq qiladi?
3. Faollik deganda nimani tushunasiz?
4. Faoliyatni tanlashda dastlabki omil nima sanaladi?
5. Professional jihatlar deganda nimani tushunasiz?

II bob. MALAKALI PSIXOLOG TAYYORLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Asosiy savollar:

1. Amaliy psixologiya haqida umumiy tushun
2. Amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishi
3. Psixoprofilaktik ishlarning muhim vazifalari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishisifatida

Tayanch tushunchalar: psixologik tadqiqotlar, psixoprofilaktika, psixologik yordam, psixologik himoya va psixologik yo'naltirish.

Amaliy psixologiya haqida umumiy tushuncha

E. Fromm, I. Saliven, V. Shuts, G. Sheparde, V. Bayon kabi olimlar tomonidan guruhlar psixologiyasi nazariyasining yaratilishi amaliy psixologiya borasidagi bilimlarni bir qadar rivojlantirdi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orqali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin. G'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, L. Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi, T. Nyuxomning hamkorlik kommunikativ nazariyasi (o'zgalarga va umumiy faoliyat obyektiga ijobiy munosabatlarni tarkib toptirishga asoslangan), Ch. Osgud va P. Tanenbaumaning «kongruentlik» (inson kognitiv tuzilishi asosidagi obyektini baholashga qaratilgan) nazariyasi, G. Ollport, A. Maslou, K. Rodjers kabi ijtimoiy psixologlarning gumanistik doiradagi qator tadqiqiy izlanishlari shular jumlasidandir. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik tanikli psixolog Abraham Maslouning «Insonga bir butun yondashuv konsepsiyasi» psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivatsion rivojlantirish muammasi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslouning fikricha, insonning barcha tug'ma potensial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro'yobga chiqishi va kamol topishi mumkin.

A. Maslou fan olamida o'ziga xos "motivatsion tizimning iyerarxik modeli"ni kiritdi. Unga muvofiq individ xulq-atvoridagi ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan yuqori ehtiyojlarining yo'nalishi quyi ehtiyojlarining qay tarqqa qondirilishi asosidagina tarkib topishi mumkin.

Psixologik xizmatda insonning ijtimoiy ehtiyojlari muammosi ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilinishi lozim. Bu borada qator tanikli sotsiologlar, psixolog va faylasuflar tomonidan e'tirof etilgan ilmiy mulohazalarga tayanish mumkin. Masalan,

D. N. Uznadzening "...ehtiyoj tushunchasi...tink organism uchun zarur bo'lgan va ayni paytda qo'lga kiritilmagan barcha narsalarga taalluqli" va M. S. Kagan, A. V. Margulis.

E. M. Etkindlarning "ehtiyoj hu - inson shaxsi va organism faoliyati uchun kerak bo'lgan zarurat va etishmovchilik mahsuhi" kabi fikrlari shaxs taraqqiyotini ta'minlash yo'lida ehtiyojlarning biologik va ijtimoiy uyg'unligini hisobga olgan holda psixologik xizmatning navbatdagi vazifalarini belgilash imkonini beradi.

Chet el ilg'or psixologiyasida psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim o'rinni tutuvchi quyidagi yo'nalishlarga asos solindi: Ch. Spirmen tomonidan "ikki omil" nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq insonning har bir faoliyatida barcha faoliyatlar uchun umumiy bo'lgan (2-omil) barcha xususiyatlar o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilinadi. Tadqiqotchi ushbu omillarning inson va faoliyat uyg'unligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan psixologik mohiyati va mazmunini ochib beradi.

L. Terston, D. J. Gilford tomonidan yaratilgan «Multiaktor» nazariyasiga binoan birlamchi aqliy qobiliyatlar (idrok tezligi, xotira assotsiatsiyalari va hokazo)ning har bir individdagi tarkib topganlik ko'lamini tadqiq qilindi va shu asosda har bir shaxs faoliyatiga alohida yondashuvni taqozo etuvchi psixologik xizmatning metodologik prinsiplari ishlab chiqildi. Umuman, psixologiyada individual farqlanishning 56 xil yo'nalishidagi tipi ma'lum va mashhur. Masalan, obyektiiv va subyektiiv tip (A. Bine tajribalarida qayd etilgan) tikrovchi taol tip, ratsionalistlar va empiriklar (Djems tadqiqotlari hoyicha) «chubur-tor» va «maydakeng» tip, (G. Gross tadqiqotlari bo'yicha, nazariy, iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, sivosiy, diniy) tiplar (E. Shpranger tadqiqotlari bo'yicha); sbizoid va sikloid tiplar (E. Krecmer tadqiqotlari bo'yicha); ekstraveri va introvert tiplar (K. G. Yung va G. Yu. Ayzenk) haqidagi empirik ma'lumotlarning qayd etilishi shular jumlasidandir. B. M. Teplov, V. S. Merlin, V. D. Nebilitsin va ularning sbogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug'na sifatlarini, oliy nerv faoliyatining okziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta'sir etuvchi ta'lim-tarbiya, tashqi muhit va taoliyatning nechog'liq tasbiil etilish jarayonini mukammal o'rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo'llarini belgilashi uchun katta imkoniyat yaratdi.

Shaxs faoliyatiga individual yondashuv yo'nalishi bilan bog'liq psixologik xizmatning ma'lum metodologik tamoyillarini ilmiy-tatbiqiy jihatdan asoslab beruvchi olim N. S. Leytes ma'lumotlariga qaraganda, asab tizimi nisbatan kuchsiz bo'lgan kishilarda ko'pincha bir xildagi ishning bajarilishida ma'lum afzalliklar borligi aniqlangan: ularning yuqori sezgirligi ta'sirchanlik muvaffaqiyatini ta'minlaydi, lekin u yoki bu faoliyat jarayonidagi favqulodda va kuchli qo'zg'aluvchilar asosida namoyan bo'luvchi vaziyatlarda kuchsiz tipdagi kishilar aynan o'zlarining fiziologik xususiyatlariga ko'ra ishni uddalay olmay qolishlari mumkin. Chunonchi, asab tizimi tipi ancha kuchli bo'lgan kishilar bir xil, ancha sust tipdagi kishilar esa

boshqa xil vazifalarni birmuncha oson hal qiladilar. Asab tizimining kuchi bo'yicha farqlanadigan kishilar bir xildagi vazifani hal etishga ko'pincha har xil yollar bilan harishlari kerakligini N.S.Leytes o'z asarlarida har tomonlama asoslab berdiki, bu — psixologik xizmatda hisobga olinishi mumkin bo'lgan muhim jarayondir. Zero, faoliyat unumdorligi insonning o'z potensial imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanishning mahsulidir. Y.A.Klimov, V.S.Merlin, V.M.Rusalov, B.M.Teplov tadqiqotlarida ham shaxs temperamenti asosida uning mashg'ul bo'lgan u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishdagi individual uslubning belgilanishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi ma'lumotlar bor.

Amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishi

Amaliy psixologiyaning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan fikr- mulohazalar psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy yo'nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi.

1. Amaliyotchi psixolog har bir shaxsning faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi lozim.
2. Amaliyotchi psixolog shaxsning faoliyat jarayonidagi o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga bo'lgan munosabatlaridagi iyerarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog'liq izlanishlar ko'lamini o'z ichiga oladi.
3. Amaliyotchi psixolog faoliyat jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy muhim ko'rsatkichlarning tahlili har bir shaxs faoliyati uchun xarakterli bo'lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustanovkaning qaror toptirilishini o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.
4. Amaliyotchi psixolog ijtimoiy jarayonni ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma'lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi.

Amaliy psixolog mavqega ega bo'lishni istagan insonga bir qator talablar qo'yiladi, ularning birinchisi u oliy ma'lumotli psixolog bolishi zarur. Bunday diplom oliy o'quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan xahardor bolishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilmadi. Amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan xahardor bo'lishi lozim. Amaliy psixolog albatta hamma sohalarda ishlaydi. Amaliy psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo'ladi va sbu bilan birga u hammaga hamdard bo'la oladigan maslahatchi talab qilinadi. U mjoz bilan suhbatlashayotqanda albatta mjozning psixologik mavqesini ta'minlashi zarur bo'ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishlayotqanda albatta psixologik diagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat hera olishi talab qilinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog EHM sohasini yaxshi bilishi talab qilinadi.

Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson

muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblanadi, u suhbatga kirisha olishi va insonlarni o'ziga jalb qila olishi, ularni ishonira olishi zarur bo'ladi. U o'zida ishonch uyg'ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta'sir o'tkaza olishi zarur bo'ladi. Demak, ho'lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularda muloqot qila olish qobiliyatining mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o'z ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin muomalada bo'lishi talab qilinadi. Ularning axloqiy jihatlari quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Professional faoliyatda amaliy psixolog albatta hamma uchun mas'uliyatli bo'lishi zarur.
2. Amaliy psixolog o'z vazifasini siddiqildan bajarishi lozim, u atrofda qilamning so'zlariga qarab o'zgarmasligi zarur.
3. Psixologning vazifasi mustaqil va avtonom tarkibga ega, u hech kimga bo'ysunmaydi. Uning psixologik nuqtayi nazardagi qarori yakuniy natijaga ega bo'lishi zarur.
4. Psixologning qarorini inkor qilish huquqiga faqat maxsus komissiya ega, ular yuqori malakali mutaxassislar hisoblanib, ularga bunday huquqlar berilgan.
5. Psixolog haqqoniy va samimiy bo'lishi zarur.
6. Unda kasbiy mas'uliyat hissi bo'lishi lozim.
7. Psixolog himoyachi sifatida ham ishtirok etishi mumkin, u o'z mijozlarining psixologik holatlarini himoya qiladi.
8. U psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirayotgan vaqtida ehtiyotkor bo'lishi zarur.
9. Agar psixolog mijozining haq-huquqlari paymol qilinayotgan bo'lsa, u bu to'g'risida yuqori tashkilotlarga yetkazish imkoniyatiga egadir.
10. U siyosiy g'oyalardan, ijtimoiy g'oyalardan, falsafiy fikrlardan xoli bo'lishi zarur.
11. Amaliy psixolog psixodiagnostik, psixokorreksion, psixoterapevtik natijalarni mutaxassis bo'lmaganlarga ko'rsatish huquqiga ega emas.
12. U insonlarga zarar keltiradigan holatlardan uzoqroq bo'lishi talab qilinadi.
13. Psixolog o'zining qila olmaydigan ishlari haqida mijozga va'da bermasligi kerak.
14. Psixolog ota-onaga yoki yuqori mansabdagi insonlarga mijoz haqida tafsilotlarni bermasligi zarur.
15. U o'rganilmagan metodikalarni mijozlarida qo'llash huquqidan mahrumdir.
16. Psixolog albatta sir saqlashni bilishi zarur, u mijozining sirini hech kimga aytmasligi zarur.
17. Psixologik maslahatda albatta o'z me'yorlariga amal qilishi talab qilinadi.
18. Agar psixolog shu me'yorlarni buzsa, albatta amaliy psixologlar jamoasida ko'rib chiqiladi va tegishli jazo qollaniladi.

**Psixoprofilaktik ishlarning muhim vazifalari, psixodiagnostika
amaliy psixolog faoliyatining yo'nalish sifatida**

Psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo'naltiradi, ijtimoiy o'sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik xususiyatlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.

Amaliy psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotdagi, xulq-atvor muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotda uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihatida esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi va butun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi.

Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus ishi;

b) mashg'ulot ayrim bolalar, o'quvchilar, talabalar guruhiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;

d) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Diagnostika uchun ma'lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlari ba'zi belgilarining ko'rinishlarini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan: darsda o'quvchi diqqatining harqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi, Lekin xulq-atvorining ko'rsatilgan belgilari bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari iyerarxiyasining (bosqichma-bosqich) o'zgarishi natijasi bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi shaxs normal holati ko'rinishlaridan biriga yoki miya yodlashmuvchiligidaning funksional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu o'quvchi o'zlashtirishi va intizomning pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi, psixologik holat belgilari ham o'rganiladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyot darajasi, yoshi va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma'lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma'lum hosqiehdada bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funksiyalar rivojlanishi dolzarh zonasi aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longityud) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qishi haqida masala hal ho'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomondan foydalanishi mumkin.

4. Bolada pavo ho'lgan yetarlicha o'rganilnagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda, tadqiqotchilarni qiziqtirgan masala ho'yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkaziladi. U yerda olingan natijalarning statistik ishonchliliqi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini tahlil qilib, psixologik xizmat doirasida alohida diagnostik ish, alohida korreksion ish haqida gapirish mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin. Psixologik xizmatda diagnostik-rivojlantiruvchi yo'nalishlar ishning yagona yo'nalishlaridir. D.B. Elkoninning ta'kidlashicha, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo'naltirilgan maxsus diagnostika zarur. Taraqqiyotda bo'lishi mumkin ho'lgan chetlashishlarni ertaroq tuzatish uchun psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarur. Amaliyotchi psixolog faqatgina diagnoz qo'yish bilan cheklanmasdan, keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o'zi bergan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni o'zi ham olib boradi.

Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo'lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qilishi bilan birpa, kam ishlangandir. Bu jarayon birinchi bolib, tarbiyasi qiyin va normal holalarni o'rganishga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlarda I. S. Vigotskiy tomondan qo'llangan. Bu sxema bo'yicha I. Shvansar shaxs taraqqiyotini diagnostika qilishning bosqichli eksperimental-psixologik nuqtayi nazarini taklif etadi.

Bu bosqichlar quyidagilar:

- 1) psixologga rasmiy iltimos;
- 2) psixologik muammomni aniqlash;
- 3) tadqiqot metodini tanlash;
- 4) psixologik diagnoz qo'yish;
- 5) amaliy tavsiyalar.

Psixologning rasmiy iltimosga javob tarzidagi ishini birinchi nuqtayi nazar sifatida psixologning yoki bu tarbiyasi qiyin o'quvchiga nisbatan o'qituvchining ma'lum ijtimoiy talabiga javobini ko'rsatish mumkin. Bu holda o'quvchiga «tarbiyasi qiyin» tashxisi o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha nazorat xodimlari

tomonidan qo'yilgan bo'ladi. Psixologning vazifasi - qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularga mos tuzatish metodlarini topishdan iborat.

Psixoprofilaktik ish ~ amaliyotchi psixologning eng kam ishlangan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Psixoprofilaktika muammolari ko'proq amerika adabiyotlarida aks etgan.

Psixoprofilaktikada uch bosqich ajratib ko'rsatiladi:

Birinchi bosqich — dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog' bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Ko'pchilik muallimlarning ta'kidlashicha, maktab psixik sog'lik profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi. Ular maktab psixologlarini dastlabki profilaktikani o'tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.

Ikkinchi bosqich — profilaktika muammolari mavjud holatlarga qaratiladi. Uning maqsadi - o'qishdagi va xulq-atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erka aniqlab, ularni yo'qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqich ota-onalar va o'qituvchi larga maslahatni ham o'z ichiga oladi (bolaning o'qishi o'zgarishi uchun ta'lim uslubini o'zgartirish).

Uchinchi bosqich - psixolog o'qishdagi va xulq-atvordagi yaqqol ko'rinib turadigan muammolari bor bolalarga o'z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi – jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo'qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya ni «tarhiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va o'quvchilarning asosiy qismi psixolog e'tiboridan chetda qolib ketadi.

Hozirgi amerika psixologlari maktablardagi psixologik xizmatni psixik sog'lik xizmati sifatida faoliyat ko'rsatishning tarafdori ho'lih chiqimoqdalar.

Psixoprofilaktika amaliyotchi psixolog faoliyatining maxsus turi bo'lib, maktabdagi harcha o'quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Shunday qilib, psixolog profilaktik ishining asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish.
2. Shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o'z vaqtida oldini olish hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi bamma tomonidan tan olingan, lekin undan amalda foydalanish asosiy ish emas. Bunga maktabda o'qituvchilarning hola haqida ko'p gapirishlari dalil ho'ladi. Chunki maktabda o'quvchining qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan mutaxassis yo'q.

Ta'lim-tarbiyada individual yondashuv bolani boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi.

Bunday diagnostik ishning asosiy maqsadi — o'quvchi psixik taraqqiyotining umumiy holatini bilishdan iborat. Bunday ko'p qirrali va to'liq diagnostika natijalari psixolog uchun ham, ota-onalar, o'quvchilar uchun ham «tarbiyasi qiyin» bola bilan olib boriladigan tuzatish va rivojlantirish ishlarining yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul yutuqlar bilan birga, kamchiliklarga ham ega.

Birinchidan, bu usulni qo'llash juda ko'p vaqtni olganligi uchun, uni amalga oshirishning har doim ham iloji bo'lmaydi. Bu usul ko'p vaqtni talab qilganligi uchun faqatgina psixolog emas «tarbiyasi qiyin» o'quvchi ham charchaydi, tekshiruvda ishtirok etishdan hosh tortadi, topshiriqlarni o'zi sezmagandek holda nomiga bajaradi. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, ayniqsa og'zaki metodikalar qanchalik to'liq bo'lmasin, qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari bunday metodikalar shaxsni to'liq xarakterlash uchun yetarli bo'lmaydi.

Rasmiy iltimosga qanday munosabatda bolish kerak? Kollej psixologi javob beradigan birinchi savol mana shu. Rasmiy iltimosning ikki xilma-xil ish uslubi mavjud. Birinchisi rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishdir. Bu ikki usul bilan amalga oshiriladi.

Birinchidan, rasmiy talabga javob tarzida uning mazmuniga bog'liq bo'lmagan holda psixodiagnostik metodlar to'plami qo'llaniladi.

Ikkinchidan, rasmiy talabga o'ziga xos javob qaytarishning usuli bo'lib mashhur amerikalik psixolog K.Rodjers psixologiya va amaliyotiga kiritgan psixologik ish to'g'ri hisoblanadi. Uning fikricha «tarbiyasi qiyin» bola bilan ishlash uchun, rasmiy talabning mazmuni qiyinchiliklar sabablarini tushunishga teng, lekin bu muhim ahamiyatga ega emas. Bola shaxsini rivojlantiradigan shunday sharoit yaratish kerakki, bu sharoit uni xulq-atvoringiz salbiy shakllaridan voz kechishga va yana yangi ijobiy shakllarini yaratishga majbur qilsin.

Rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishga teskari uslub - bu rasmiy talabga qat'iy mos tushadigan diagnostik metodikalarni tanlashdan iborat. Masalan: yomon o'zlashtirish haqida shikoyat tushganda, birinchi navbatda bilish jarayonlarining taraqqiyoti tahlil qilinadi. Bunday diagnostika o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlay olmasagina, boshqa ko'rsatkichlar qaraladi. Diagnostika natijalariga mos ravishda, ko'pincha trening turida amalga oshiriladigan tuzatish ishlari olib boriladi.

Nazorat savollari:

1. Tadqiqotchi psixolog deganda nimaning tushunasiz?
2. Amaliy psixologiya haqida gapirib bering.
3. Psixologik yordam, psixologik himoya va psixologik yo'nalarish.
4. Amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishini tushuntiring.
5. Psixoprofilaktik ishlarining muhim vazifalari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida.
6. Amaliyotchi psixolog vazifalariga nimalar kiradi?

III bob. AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING FAOLIYAT SOHALARI

Asosiy savollar:

1. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning asosiy vazifalari
2. O'zbekistonda amaliyotchi psixologlar tayyorlash muammosi
3. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch tushunchalar: psixokorreksiya, psixologik jarayonlar, trening, oilaviy munosabatlar dinamikasi, o'smir yoshi, o'tish davri, depressiya.

Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning asosiy vazifalari

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqarilgan hujjatlar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining tashabbusi bilan tashkil etilgan «amaliyotchi psixolog» kurslarining ish faoliyati bugungi kunda O'zbekistondagi psixologik xizmatni rivojlantirish uchun eng optimal tadbir sifatida muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash mumkin. Respublika miqyosida barcha maktablarda amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik xizmat jarayonining tashkil etilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1994-yilda tuzilgan «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limida psixologik xizmat, xalq ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqida Nizomning Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi (1996-yil 5 aprel) amaliyotchi psixologlarning faoliyatini yanada kengroq ko'lamda tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim rasmiy asos bo'lib xizmat qildi. «Amaliyotchi psixologlar» tayyorlash masalasi hayran etilar ekan, bu o'rinda O'zbekistonda «amaliyotchi psixologlar» tayyorlashning eng birinchi tashabbuskori bo'lgan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti psixologlari tomonidan tashkil etilgan «amaliyotchi psixologlar» fakulteti faoliyatini alohida qayd etish lozim. Chunki bu fakultetni (ikkinchi muta-xassislik bo'yicha) muvaffaqiyatli tugatgan yuzlab amaliyotchi psixologlar bugungi kunda psixologiya fanining ilmiy amaliy tatbiqi bilan shug'ullanib, Respublika miqyosida psixologik xizmatning keng quloch yoyishida o'z xizmatlarini qo'shmoqdalar. Yuqorida keltirilgan misollar, tahlillar va xulosalardan ko'rinadiki, O'zbekistonda psixologik xizmatni takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu — amaliyotchi psixologlar tayyorlash mexanizmini har tomonlama puxta va muvaffaqiyatli tarzda ishlab chiqishdir. Chunki, barcha sohalarda malakali mutaxassislardan saralangan va puxta tayyorlangan psixologlar safini ham son jihatidan, ham sifat jihatidan kengaytirib turib, psixologik xizmat tizimining amaliy faoliyatdagi tatbiqini Respublika miqyosida keng ko'lamda amalga oshirib bo'lmaydi.

Shunga muvofiq, amaliyotchi psixologlar tayyorlash muammosi bugungi kunda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan eng dolzarb muammo bo'lib turibdi. Albatta, mazkur muammoni bartaraf etish yo'lida talaygina ishlar qilinmoqda. Masalan, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Andijonda va Samarqandda maxsus tashkil etilgan amaliyotchi

psixolog tayyorlov kurslari, maktabda amaliyotchi psixolog shtatining joriy qilinganligi va unga jiddiy e'tibor berib borilayotganligi kabi tadbirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, amaliyotchi psixologlar tayyorlashning bugungi dunyoviy ta'lim taraqqiyoti talablariga har jihatdan javob beradigan ilmiy-tashkiliy jihatlarni o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq barcha inikoniylarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda amaliyotchi psixologlar tayyorlash muammosi

Dastlabki tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda amaliyotchi psixologlar tayyorlash muammosi juda keng va ko'p qamrovli muammo bo'lib, bugungi kunda qismangina hal qilingan xolos, ya'ni Respublikada amaliyotchi psixologlar tayyorlash haqida dastlabki Nizom tasdiqlanib (1996- yil 5-aprel), ushbu Nizom asosida bugungi kunda bir qancha viloyatlarda (Toshkent, Buxoro, Andijon, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo) amaliyotchi psixologlar tayyorlash tizimi amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holatiga tavsif berishga oid yuqorida bayon etilgan barcha tahlillarimiz O'zbekistonda psixologik xizmat tizimini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlarni belgilashni taqozo etadi.

Chunki psixologik xizmat tizimining Respublika miqyosidagi keng qamrovli ilmiy- amaliy yo'nalishlarini belgilamay turib Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunga muvofiq, barcha sohalardagi hozirgi zamon ilg'or psixologik adabiyotlarga va tadqiqotlarga tayanib psixologik xizmatning asosiy amaliy yo'nalishlari va uning ilmiy- tashkiliy ish jihatlarni o'rganish borasida ma'lum izlanishlar olib borildi. Shuningdek, barcha yo'nalishlar uchun umumiy va juz'iy bo'lgan ijtimoiy psixologik holatlar, vazifalar va tadqiqotlar ko'lami va ularni amalga oshirish yollari belgilandi. Bugungi kunda qator sohalarda psixologik xizmat tizimining joriy etilishi va rivojlantirilishi uchun ijtimoiy ehtiyojlarning nihoyatda ortib borayotganligi va bu ehtiyojlarni qondirishga nisbatan yuqori tashkilotlardan tegishli qarorlar qabul qilinayotganligini alohida qayd etish mumkin. Tadqiqotlar davomida mazkur qarorlarning va tadbirlarning maqsadidan kelib chiqib va shularga asoslanib O'zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirishning dastlabki bosqichi quyidagi 7 yo'nalishlar asosida amalga oshirilmoqda:

- ta'lim tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- mehnat jamoalarida psixologik xizmat;
- oilaviy hayotni tashkil etish tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- transport muassasalarida psixologik xizmat;
- sogliqni saqlash tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- ichki ishlar, huquq-tartibot tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- sport muassasalarida psixologik xizmat.

Demak, bugungi kunda mazkur yetti yo'nalish bo'yicha shaxs psixologiyasi va jamiyat

uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy psixologik tadbirlar baholi qudrat amalga oshirilmoqda. Bu esa eng birinchi navbada mazkur yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning o'z-o'zini anglash, bilish va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik muhofaza imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalana olishlariga, ya'ni learning faoliyatida kamroq muvaffaqiyatsizlikka uchrashlariga va ko'proq samarali mehnat qila olishlariga benihoya yordam beradi.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari

Oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy sikli bilan bog'liq. Ayrim olimlar, masalan, V. Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog'laydi. Shunga ko'ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

- Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Bosh qa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

- Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo'lishi. Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlari sinovdan o'tkazadi va ular o'ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydi do bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlarini si- novdan lar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea — bu er va xotinga yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas'uliyatni o'ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir. Ko'plab xalqlarda, ayniqsa, o'zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda. Shunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, yevropa xalqlarida oilada farzandning tug'ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba'zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas'uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba'zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo'ladi.

- Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar — maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang'ich o'chog'i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolani i ng qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki u endi nafaqat o'zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko'chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday axloqiy va ma'naviy o'gillarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi — maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o'tadi. Ya'ni bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham

jamoatchilik oldida o'ziga xos sinov va tekshiruvdan o'tayotganday o'zlarini his qiladilar. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko'pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshdan kechiradilar.

- Bola o'smirlilik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro'si, keraklilik daraja pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarni o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo'layotgan o'zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o'tkazadi. Sinovdan yaxshi o'tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o'tib oladi, aks holda o'smirlilik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-onabola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

- Bolalar katta bo'lib, balog'at yoshiga yetadilar, o'qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, «Bola-ota-ona» munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat yevropa xalqlariga mos, balog'at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o'zlaricha, o'z bilganlaricha hal qila boshlaydilar.

- Keksalikning dastlabki belgilari — tanada keksalik alomatlarini, klimakterik holatlarning kelib chiqishi bosqichida inson qalbi qarimasada, ayrim jismoniy quvvatsizliklar paydo bo'ladi. Odam nafaqaga chiqadi, suygan kasbi, mashg'ulotidan uzoqlashadi, dokstlari davrasi torayadi va hokazo. Lekin keksalikni tan olish va unga ruhan tayyor bo'lish, etnik madaniyat va uning qadriyatlariga bog'liq.

Xalq ma'naviyati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, keksalikka munosabat ham shunchalik yuqori boladi.

- Oilaviy munosabatlarning tugashi odatda turmush o'rtoqlardan birining o'limi bilan boshlanadi. Er-xotunlarning birlik qolgan beva bo'lib qolishi munosabati bilan u ham yangicha rollar tizimiga kiradi.

Nazorat savollari:

1. Psixologik xizmatning qanday vazifalari mavjud?
2. Oilaviy maslahatning qanday turlari bor?
3. Oilaviy nizolar deganda nima tushuniladi?
4. Oilaga psixologik xizmat ko'rsa
5. tishning o'ziga xos qanday xususiyatlarini bilasiz?

IV bob. AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATINING UMUMIY MASALALARI

Asosiy savollar:

1. Amaliyotchi psixolog xizmatini tashkil etish masalalari
2. Amaliyotchi psixologlarning faoliyat sohalari
3. Psixokorreksion dasturlar tuzishga qo'yiladigan talablar

Tayanch tushunchalar: stress, shaxsiy dispoziitsiyalar, kognitiv dissonans, nizolar, bashorat, hevosita ta'sir, ruhiy iztirob, psixologik himoya, guruh destruksiyasi.

Amaliyotchi psixolog xizmatini tashkil etish masalalari

Jaxon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash buyicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tabiiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. Yigirmanchi asrning 60-yillaridan boshlab AQSh, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda psixologik xizmat sohasi yuzasidan bir talay izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu soha alohida yunalish sifatida vujudga kelsa-da, lekin aslida u amaliy psixologiyaning kulami kengaytirilgan bir kurinishini aks ettirish xususiyati bilan boshkalardan muayyan tarzda tafavutlanib turadi, xolos.

• Jaxon mamlakatlari amaliyotida psixologik xizmatni tashkil etishning uziga xos xususiyatlari, mazmuni, tarkibiy kislmlari tugrisida muxokama kilinayotganida, uning tuzilishi, ijtimoiy turmushning barcha jabxalariga oid faoliyat turlariga taalukli tomonlari kamrah olinishi nazarda tutilgan edi. Xozirgi davrda Angliyaning aksariyat universitetlarida, AQSh va Ispaniyaning bir kator universitetlarida korreksion psixologiya mohiyatidan kelib chiqib psixolog mutaxassislar tayyorlanmoqda.

• Psixologiya fanining tobora ijtimoiy hayotda barqaror, ustuvor ahamiyat kasb etishi munosabati bilan korreksion psixologiyaning roli ortib bormoqda, natijada nazariyot bilan amaliyot o'rtasidagi jips aloqa uyg'unlikka ega bo'lmoqda. Psixologik xizmat ikki muhim funktsiya bajarish bilan boshqa psixologiya sohaslaridan farqlanib turadi, shuningdek, u tarmoqlarning sintezi sifatida gavdalanadi. Uning asosiy funktsiyasidan biri - ijtimoiy hayotning turli jihhalarda (ta'lim tizimi, tibbiyot muassasalari, sanoat, qishloq ho'jaligi, sport, transport va hokazo) psixologik amaliy xizmatni tashkil qilishdir. Psixologik xizmatning ikkinchi funktsiyasi u yoki bu muassasa xususiyatidan kelib chiqib ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish, natijalarni taxlil qilish, psixologiya fanini yangi ma'lumotlar, qonuniyatlilar bilan boyitishdir. Psixologik xizmatning tabiiy jihatlari xalq ta'limi tizimi, ishlab chiqarish korxonalarini, tibbiyot muassasalari, transport (havo yo'llari, avtomobil, temir yo'l va suv transporti va boshqalar), oila, sport qo'mitasi singan tashkilotlarda o'z ifodasini topmoqda. Xuddi shu maqsad mohiyatiga ko'ra, psixologiya bo'yicha bakalavrlar, magistrilar tayyorlash uchun taslikiliy psixologiyadan saboq berish, amaliy ko'nikmalar shakllantirish davr talabiga aylanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining universitetlarida psixolog mutaxassislar

tayyorlashda ilg'or jahon amaliyotidan foydalanish, etnopsixologik, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda muayyan ilmiy nazariyalar ishlab chiqish, insonlarga ta'sir o'tkazishning yangi texnologiyasini yaratish maqsadga muvofiq.

Amaliyotchi psixologlarning faoliyat sohalari:

Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin

- A) psixologik madaniy-oqartuv ishlari
- B) psixoprofilaktika
- V) psixodiagnostika
- G) Psixik rivojlantirish va korreksion psixologiya
- D) psixologik maslahatlar

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashfiqot ishlaridan iborat 3 ta vazifadan tashkil topadi.

Ilmiy tadqiqot vazifalari -o'quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim muammolarini, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini, o'quvchilar bilan o'qituvchilar, maktab psixologlari bilan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirini hamda maktab psixologining etikasini o'z ichiga oladi.

Amaliy vazifalar-psixologik tadqiqotning natijalarini amalda qo'llab bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash, o'quvchilarning o'qish faoliyatini osonlashtirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'quvchilarning qobiliyat va mayllarini aniqlash va rivojlantirish, talabalar bilan kash-hunarga oid suhbat, maslahat ishlarini olib borish, tarbiyasi qiyin holalar bilan turli xildagi ish olib borish kabi asosiy vazifalarni xal qilishdan iboratdir.

Tashfiqot ishlari- psixologik bilimlarni, psixologik ta'limni tashfiq qilib o'quvchilarning psixologik bilimlarini oshirish, ota onalar uchun seminarlar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, anjuman teleko'rsatuv va radioda chiqish, yakkama yakka maslahatlar tashkil etish, muloqot treninglarini uyushtirishdan iboratdir.

Psixologik xizmatning uchala vazifasi o'zaro bog'lik ularni birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Maktabdagi psixologik xizmat O'zbekiston Respublikasi Xalk Ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilib quyidagi tartib va darajaga egadir:

1. *Yuqori daraja* - psixologik xizmat vazifalarini aniqlash, uning hujjallarini tartibga keltirish, Respublika xalk ta'limi vazirligi qoshidagi psixologik xizmat markazining buyurtmasiga binoan yuqori malakali psixologlar (pedagogika institutlari va universitetlarining psixologiya kafedralari) tomonidan amalga oshiriladi.

2. *O'rtia daraja*- mazkur hujjatlar tomonidan xalixisobga olinmagan yangi masalalarni amaliy ravishda xal etish psixologik mutaxassislar (xalk ta'limi vazirligi qoshidagi maktab psixologik xizmat markazi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. *Asosiy onunciviy daraja* - psixologik xizmatning kundalik vazifalarini (maktabdagi psixologik xizmat haqidagi qonun va qoidalarga binoan) psixologik jihatdan tugri xal

kilib. Bu ish amaliyotchi psixologlar (maktab psixologlari) viloyat xalk ta'limi boshqarmasi qoshidagi psixologik xizmat bulimlari, noxiya, shaxar xalk ta'limi bulimlari qoshidagi psixologik xizmat (bulimlari) xonalari maktab, maktabgacha tarbiya muassasalari, hunar texnika bilim yurtlari amaliyotchi psixologlari tomonidan amalga oshiriladi.

Psixokorreksiion dasturlar tuzishga qo'yiladigan talahlar

Psixokorreksiion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- korreksiion ishning aniq maqsadini belgilash,
- korreksiion ishning konkret maqsadini aniqlovchi vazifalarni aniqlash,
- Ishning formasini aniqlash (individual, guruhii yoki aralash)
- Metodika va texnikani ishlah chiqish,
- Korreksiion ishga ketadigan umumii vaqtni aniqlash,
- Uchrashuv kunlarini belgilab olish,
- Vaqtini aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat)
- Korreksiion dasturni ishlah chiqish va mazmun moxiyatini belgilab olish,
- Korreksiion ishda yaqin qarindoshlarining qatnashuvini belgilash,
- Korreksiion dasturni boshlasbda dinamika va o'zgartirishlar bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilash.

Korreksiion tadbir so'ngida korreksiion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga haho heruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksiion tadbirlarning samaraliligini baxolash quyidagicha mezonda aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning echilishi barxam topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi korreksiion effektivligi o'zoq muddatdan so'ng ish davom etayotganda, oxirida aniqlanadi.

Korreksiion dastur muammoning hutunlay hal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va echilishiga xar tomondan baho berilayotganiga ham qaraladi.

Masalan: mijoz uchun dasturda ishtirok etayotgan vaktida uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobii his qilishi bilan belgilanadi.

Psixolog uchun korreksiion dastur tashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.

Mijozning yaqinlari uchun esa, mijozda paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobii hal etilganligi bilan aniqlanadi. Korreksiion dasturlarning ijobii ta'sir doirasi uning intensivligidadir.

Korreksiion mashg'ulotlar 1-1,5 soatdan oshmasligi, olib borilayotgan o'yinning ma'no jihatdan o'ylanganligi bilan ham bog'liq. Mashg'ulotlar tugagandan keyin ham iloji boricha mijozning taraqqiy etishi bilan qiziqib horish muloqotni yo'qotmaslik 1,2 oyda 1 marotaba uchrashi lozim. Korreksiion dasturlar qancha erta aniqlanib ish boshlansa shuncha

tez samara beradi.

Nazorat savollari:

1. Amaliyotchi psixolog xizmatini tashkil etish nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Amaliyotchi psixologlarning qanday faoliyat sohalari mavjud?
3. Psixokorreksion dasturlar tuzishga nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baholash qanday mezonda aniqlanadi?
5. Korreksion mashg'ulotlar qancha muddat davom etishi mumkin?

Vbob. PSIXOLOGNING KASBIY O'ZINI- O'ZI ANGLASHNING AXLOQIY JIHATLARI

Asosiy savollar:

1. Psixologning axloqiy sifatleri
2. Psixolog faoliyatining muhim etnopsixologik imkoniyatlari
3. Psixologlarning kasbiy o'zini-o'zini anglashning axloqiy jihatlari
4. Ta'lim muassasasida psixologlar namoyon qiladigan 8 xil xulq-atvor usullarini

Tayanch tushunchalar: psixodiagnostik tadqiqotlar, etnopsixologiya, etnik tadqiqotlar, milliylik, aqliy zaiflik, psixik taraqqiyot, etnik jihatlari, kasbiy o'zini-o'zi anglash, kasbiy motivatsiya.

Psixologning axloqiy sifatleri

Psixologiyada etnik muammolar asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, o'zbek mentalitetidan kelib chiqqan muammoga psixologik yondashish juda muhim. Psixologiyaning mazkur etnopsixologik yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayonida faol ishtirok etishni taqozo qiladi. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganuvchi tadqiqotchilarning ko'pchiligi, uni ijtimoiy tarixiy kategoriya ekanligini e'tirof etsalarda, uni o'rganish «qiyin obyekt» ekanligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, bu masala tekshirish va o'rganish uchun murakkab va shuning bilan birga eng dolzarb, kam uchragan muammo hamdir.

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar quyidagilar asosida vujudga kelgan:

- Milliy psixologik qiyofani o'rganuvchi etnopsixologiya fanining bizda endi rivojlanib kelayotganligi va uning umumiy masalalarini hozirga qadar to'la ishlab chiqarilmaganligi.
- Etnik xususiyatlar ko'zga yaqqol tashlab turgan holda, uni tashkil etuvchi ruhiy xislatlar yashirin bo'lib, uni bevosita emas, bevosita, ya'ni ularning mahsulotlarga qarab baho berish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, ayrim olimlar hu masalani butunlay obro'sizlantirib yuborishgani uchun, etnopsixologiya fani uzoq vaqt ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o'z o'rnini topa

olmadi. Lekin bu qiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruhiy xususiyatlari mavjud ekanligini inkor etishga asos bo'la olmaydi. Bu sohada muvaffaqiyatli ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini takomil- lashtirish va qator fan vakillari — faylasuf, tarixchi, etnograf, sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san'atshunoslarning hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Darhaqiqat, tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik, turli tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o'rtasida ma'lum psixologik farqlarni vujudga keltirgan. Turli xalqlarda oila a'zolari o'rtasida boladigan munosabatlarning bir xil bo'lmasligi, urf-odat va an'analardagi fikrlar, narsa-hodisalarni idrok etishda mavjud bo'lgan turfa xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilan tushuntirib berish mumkin.

Psixolog faoliyatining muhim etnopsixologik imkoniyatlari

Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ayrim, ya'ni urug, qabila, millatlarga xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil — tabiiy muhit ta'siri bilan vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida uchta omil ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omil — bu siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, ikkinchisiga shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar kiradi. Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruhiyatining mazmuni avvalo birinchi omil — siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar belgilab beriladi. Tabiiy geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan kishi nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz unda psixologik o'chmas iz qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqealarning doim ta'siri natijasida kishilar bu voqeadagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rgand qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob axborotlar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi, natijada evolyutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muhit bilan adekvat (munosib) munosabatini taqin ettiruvchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. Bu jarayon ma'lum darajada kishilarning sezgi va idroklari orqali namoyon etiladi.

Agar oliy nerv faoliyatining rivojlanishi yuz ming yillar davom etganligi sinfiy jamiyatning vujudga kelganligi esa bir necha ming yil bo'lganligini nazarga oladigan bo'lsak, inson oliy nerv faoliyati mexanizmi sinfiy jamiyat barpo bo'lmasdan ancha ilgariroq shakllanganligi ravshan bolib qoladi. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan, doimiy taraqqiy etib turli xarakteriga ega bolgan iqtisodiy-ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib boradi.

Psixologlarning kasbiy o'zini-o'zini anglashning axloqiy jihatlari

Psixolog kasbi mashhur va obro'li kasblardan biri bo'lib qoldi, u haqda hamma biladi va psixologdan ko'p narsa kutadi. Har bir tashkilotlarda psixologlar o'zlari ishlayotgan jamoaning boshdan kechirayotgan muammolar va qiyinchiliklar yanada chuqurlashadi. Ta'lim tashkilotlaridagi psixologlar ishlarini oladigan bo'lsak, psixologlar ta'lim muassasiga kelgach, ular boshdan kechiradigan muammolar va qiyinchiliklar yanada chuqurlashadi, chunki ta'lim muassasasi psixologga o'z talablarini qo'ya boshlaydi. Ilgari agar psixolog qanday vazifalarni bajarishni bilmasalar, hozirda vaziyat tubdan o'zgardi.

Ta'lim muassasasi, xususan maktabgacha ta'lim muassasasi amaliy psixologga qanday talablar qo'yadi va undan nimalarni kutishi haqida to'xtalib o'taylik. Ta'lim muassasasi Sehrgar - psixologni kutadi. Pedagoglar va ma'muriyat psixolog kelishi bilan hamma narsa yaxshi bo'lib qoladi deb o'ylaydilar. Tarbiyachilar pedagogik faoliyat bilan samarali shug'ullanadilar. Muassasadagi nizolar, har qanday noma'qulchiliklar yo'qoladi. Ma'muriyat pedagogik jamoa bilan iliq munosabatlar o'rnatadilar. Ota - onalar bo'lsa, farzandlari bilan muammolarini xal qiladilar.

Ta'lim muassasasi psixologni «kuchli vazirlikning vakili» sifatida kutadi

Psixolog muassasagaga kelgach, tarbiyachi va ota - onalar tarbiyasi og'ir bolalar, oilaviy nizolar qurboni bo'lgan bolalar, janjalkashota-onalar, shuningdek xamma norozi rahbar bilan bilan shug'ullaning, «nima qiling» deb murojaat qila boshlaydilar.

Ta'lim muassasasi psixologni sudya sifatida kutadi Bu «psixolog kelgach nima to'g'ri, nima noto'g'riligini kim aybdor, kim aybdor emasligini aytadi», degan fikrlarda ifodalanadi. Bunday vaziyatlarda psixologga turli iltimos va imkoniyatlar tushadi: aqlan orqada qolgan bolalar ro'yxatini berib, ularni tekshirib, maslahat berishni so'rashadi, ota-ona va ma'muriyat o'rtasidagi nizolarni xal qilishni so'rashadi.

Ta'lim muassasasi psixologni gigienam saqlaydigan mutaxassis sifatida kutadi Psixolog barcha muammolarni «tugatib», ularni ham tuzatishini kutadi. Bunday hollarda asosan psixologga tarbiya jarayonining mazmumini qayta o'zgartirish haqida g'oyalari mavjud pedagog-tarbiyachilar ham murojaat qiladilar. Ular ta'lim tarbiyaning turli innovatsion kontseptsiyalari bilan tanishlar, ma'muriyat ularni qo'llab - quvvatlashmagan. Psixolog oldida bu kabi muammolarda «nima qilish kerak?» degan doimiy savol turadi.

Tarbiyachi yoki xodim o'z o'rnini qanday topish mumkin? qanday qilib kasbiy obro'ga erishish mumkin?

Shunday qilib, psixologning o'z kasbidagi mahorati, ishini boshlashda va keyin davom ettirishda eng asosiy muammo hisoblanadi. Psixolog faoliyatining muvaffaqiyati shaxsiy va kasbiy o'zini aniqlashiga bog'liq: kasbiy yordamning mahsuldorligi kasbiy obro'ga ega bo'lishga hamda o'zining bolalarga, ota-onalariga kerakli ekanligini his qilishga bog'liq.

Amaliy psixologning shaxsiy va kasbiy o'zini aniqlash yillar davomida hayotiy va kasbiy tajribaning to'planishi, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish, ichki etuklik bilan, yutuqlar bilan quvonish, xato va kamchiliklardan o'kinish hissi bilan amalga oshadi.

Ta'lim muassasasida psixologlar namoyon qiladigan 8 xil xulq-atvor usullarini

«Psixologiya qirq yoshlilarning kasbi!» - deb bejiz aytishmaydi. Ta'lim muassasasi psixologlari xulq-atvorining turli usullarini taqqoslab, psixologlar namoyon qiladigan 8 xil xulq-atvor usullarini yoki ijtimoiy rollarni tavsiflash mumkin.

Psixolog vositachi - ta'lim muassasasida neytral holatni egallashga harakat qiladi. U o'z vazifasini urishib qolgan va nizolashayotganlarini yarashtirish, o'qituvchiga o'quvchisi nima uchun yomon o'qishi yoki dar qoldirishining ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini tushuntirishga harakat qiladi: ota-onalarga ma'muriyat bilan gaplashishni yoki unga ta'sir ko'rsatishini va'da beradi. Murakkab vaziyatdagi har qanday holatda u vositachi uchinchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Agar muassasa hayoti kuchli nizoli mubitdan iborat bo'lsa, psixologning vositachi rolini bajarishi mahsuldor bo'ladi. Psixologning vositachilik yarashtiruvchilik funksiyasini bajarishda «barchasi yaxshi», qabilida bo'lmasdan vositachilik texnikalarining madaniyatli usullarini qo'llash yagona talab hisoblanadi.

Psixolog-advokat barcha xafa bo'lgan kishilarga achinadi ularni himoya qilishga intiladi: adolati munosabatlar o'rnatishga harakat qiladi, bolalarning tarafini oladi. Avvalo, ota - onalar, ma'muriyat oldida uyaliq qolmaslik uchun vaziyatni sinchiklab o'rganib chiqish zarur.

Psixolog-do'st hamma bilan do'stlashadi, insoniy iliq munosabatlar o'rnatadi. Unga yordam uchun, hamdardlik, maslahat va gaplashish uchun murojaat qiladilar. U hammani birday qabul qiladi, u hamma bilan baxtli. Bunday psixolog hissiy peshqadam hisoblanadi. Psixolog-do'st hammani o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa bolalar u bilan yaxshi kelishadilar, ota-onalar esa doim maslahatga keladilar. Tarbiyachi va pedagoglar undan jo'yali maslahat olish mumkin bo'lganligi uchun tashrif buyurishadi.

Psixolog - o't o'chiruvchi «yonayotgan» nuqtalar bilan shug'ullanadi, bir yong'indan ikkinchisiga yuguradi. Masalan bola ota - onasining qattiq kaltaklaridan iztirob chekadi, psixolog uning oilasiga borib, oila hoshiyiga qattiq «tarbiyaviy ta'sir»ning salbiy oqibatlarini tushuntiradi, oilaviy nizolarni bartaraf qilish xarakatiga tushadi.

Psixolog bunday vazifalarni bajarishi zarur. Lekin psixologning o'zi tezda charchaydi, uning ruhiy kuchlari qolmaydi. Shuning uchun unda yo'qotgan energiyasini to'ldirish, qayta tiklash uchun «kasbiy gigiena» usullarini yaxshi bilish lozim. Bu muammoni hal qilish ham mumkin: psixolog maktabda maxsus «o't o'chiruvchi» komandani tashkil qilishi mumkin. Bunday komandaga boshiga og'ir ish tushganlarga yordam berishni istovchi o'qituvchilar kirishi mumkin.

Psixolog-diagnost psixodiagnostik metodlarga qiziqadi. U doim holalar va tarbiyachilarda test sinovlarini o'tkazadi, har bir ishtirokchiga individual karta to'ldiradi, unda test natijalarini aks ettiradi hamda bola taraqqiyoti dinamikasini tasvirlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, psixodiagnostik ish doimo rivojlantiruvchi va

psixokorreksiya ishlar bilan to'ldirilishi lozim. Agar muassasada ikki psixolog ishlasa nur ustiga nur. Ulardan biri diagnostik ishlar bilan, ikkinchisi korreksiya ishlar bilan shug'ullanadi.

Birinchi psixolog olgan natijalar, ikkinchi psixologning tuzatish ishlari uchun asos bo'ladi. Ikkinchi psixologning psixokorreksiya natijalari diagnostik materialni to'ldiradi. *Psixolog - eruditi* psixologik seminarlar o'tkazish va leksiya o'qishi bilan shug'ullanadi. U ota-ona va tarbiyachilar orasida psixologik bilimlarni ommalashtirish bilan shug'ullanadi. Albatta, bunday ish zarur, faqat bu bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Leksiya va seminar ishlari psixodiagnostik tadqiqotlar va korreksiya mashg'ulotlar bilan to'ldirilishi lozim.

Psixolog - novator muassasaga o'zining ta'lim va tarbiya haqidagi nazariyasi bilan keladi. Ta'lim tizimini qayta qurish, ta'limning innovatsion dasturlarini tatbiq qilish bilan shug'ullanadi. Turli konferentsiya va konkurslarda ishtirok eta boshlaydi, boshqalarni ham shunga jalb etadi. Lekin ta'lim va tarbiyaning an'anaviy shakliga o'rganib qolgan o'qituvchilar psixolog novatorning faoliyatiga qarshi chiqadilar. Psixolog novator qat'iy xarakter, maqsadga intiluvchanlik qobiliyatlarini namoyon qilishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Psixologiyada etnik muammolarning qayta ko'rib chiqilishi.
2. Psixologiyada ilmiy-tadqiqotlar olib borishdagi etnopsixologik imkoniyatlar.
3. Psixolog faoliyatining muhim etnik tamoyillari.
4. Psixolog faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar muammosi.
5. Amaliyotchi psixologning qanday shaxsiy xususiyatlariga ega?
6. Psixolog faoliyati uchun zarur kasbiy xususiyatlar nimelardan iborat?
7. Ta'lim tizimida psixologning huquq va majburiyatlari?

II BO'LIM

PSIXOLOGIYA TARIXI HAQIDA

VI bob. PSIXOLOGIYA TARIXI FANIGA KIRISH

Asosiy savollar:

1. Psixologiya tarixi haqida
2. "Jon" tushunchasining paydo bo'lishi
3. Psixik faoliyatni ilmiy tushunish yo'lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar
4. Garaklit, Demokrit, Aflotun, Aristotel, Gerofil, Erazistrat va Galen qarashlari

Tayanch tushunchalar: materializm, antikvarizm, prezentizm, determinizm, idealizm, tendensiya, bixevionizm, internalistik, eksternalistik ijtimoiy omillar, kategorial yondashish.

Psixologiya tarixi haqida

Psixologiya tarixi boshqa fanlar tarixi singari, qiziq va mazmundor bilimlar sohasidan iborat.

Psixologiya tarixi - bu avvalo insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonga xos bo'lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borish tarixidir. Insonning o'z-o'zi haqidagi bilimlarni to'plash hamda chuqurlashtirib borishidir.

Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o'rganishga bo'lgan intilish kishilar hayotning har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlari bilan taqozo qilganligini, ba'zi bir ma'lumotlar, ya'ni psixik hodisalar qay tarzda kashf qilingan, qaror topgan va aniqlanganligini, ular qanday tushuntirilganligini, ularning ba'zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilish olamiz. Bundan tashqari, psixologiya tarixi tarixiy hayotning har xil bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlab yakka-yu yagona bo'lgan psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlari sistemasi darajasiga ko'tarilganligi haqida ham ma'lumot beradi.

Psixologiya tarixida psixikani yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradigan, psixologiya fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan foydali ilmiy-tekshirish metodlarining izlanishi va yaratilishi katta o'rin tutadi.

Psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi. Ammo shu narsa ravshanki, keltirilgan ta'rif ham psixologiyaning predmeti to'g'risida so'z yuritilganda bu psixik jarayonlar, xususiyatlar, holatlar va shu kabilarni o'rganadigan fan ekanligi haqidagi an'anaviy ta'riflar kabi juda muhim izoh talab qiladi. Psixik hodisalarning "alohida hodisalardan" ekanligi, ularning "ichki dunyoni" tashkil etishi haqidagi ta'kidlar o'z holicha psixikaning mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatini ochib hera olmaydi. Psixika nima degan savolga javob berishdan oldin, eng avvalo, psixik hodisalarning mohiyati va xarakteri haqidagi tasavvurlar asrlar davomida qanday o'zgarib borganligiga, qisqacha bo'lsada, nazar tashlash shart.

"Jon" tushunchasining paydo bo'lish

Psixologik ijtimoiy hayot ehtiyojlari qadim zamonlar ta'limotlardan huyon kishini tevarak-atrofidagi odamlarning psixik jihatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o'z xatti-harakatlarida hisobga olishga majbur etib kelgan. Dastlab bu xususiyatlarga jonning ta'siri deb izoh berilgan. "Jon" tushunchasining paydo bo'lishi ibtidoiy xalqlarning animistik qarashlari bilan bog'likdir. Ibtidoiy odamning tasavvurida ruh tanadan batamom ajratilmagan bo'ladi. Bunday tasavvurlar hayot hodisalari va ongni, shu jumladan, uyqu, o'lim, xushdan ketish va shu kabilarni noilmiy, primitiv- materialistik tarzda talqin qilish oqibatida tarkib topgandir. Ibtidoiy odam bu xildagi hodisalarning sabablarini tushuntirish berish vositalariga ega bo'lmasdan, bevosita idrok qilisadigan yuzadagi narsani haqiqiy mohiyat sifatida qabul qilib kelgan. Jumladan, tush ko'rish uxlayotganda tanani tark etib, er yuzida kezib yuruvchi ruhning ta'ssurotlari deb tasavvur qilingan. Ibtidoiy odam o'limni

hayotiy jarayonning ohirgi bosqichini deb tushunmagan. Shu bois o'lim uyquning bir turi sifatida idrok etilib, hunda ruh allaqanday sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi deb izohlangan. Ibtidoiy odam bu hodisalarni taxminan quyidagicha tushungan: ruh - kishining aynan o'zi, uning ehtiyojlari va odatlari, hayot kechirish shart-sharoitlari tirik odamlarnikidekdir.

Marhumlarning ruhlari ham go'yo odamlarniki kabi mashgullotlar va sotsial tartib mavjud bo'lgan jamiyatni tashkil etarmish. Tirik odamlar va marhumlarning ruhi o'zaro aloqada bo'lib, moddiy va ho'jalik jihatidan bir-biriga bogliqdir.

Yovvoyi odamning tahlil qarshisidagi o'zligi sahahli individ (shaxs) ning ham, jamiyatning ham ruhdan ana shu tarzda tobeligi nakidagi tasavvurlar natijasida ruhga toatibodal tarzidagi munosahatlar tarkib topdi. Bu esa dinning dastlabki shakli edi. Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari, planlashtirish va ijroning jismoniy mehnat va "ishlab chiqarishning ma'naviy kuchlari"ning tabakalashuvi, sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi va kishining mavhumlashtirish qobiliyati rivojlana borishi munosabati bilan jonning moddiylikdan toli tahliali haqidagi goyalar paydo ho'ldi. Shu bilan birga oldingi antimistik, afsonaviy tasavvurlar urnini ruhni borliqning naturfilosofik manzarasi nuqtai nazaridan tushuntirishga urinishlar egallay boshladi. Ioniy naturfilosoflari - Fales (eramizdan oldingi VII - VI asrlar), Anaksimenes (eramizdan oldingi V asr) va Geraqlit (eramizdan oldingi VI - V asrlar) ruhni olamning ibtidosini tashqil etuvchi narsa (suv, xavo, olov)keng odamlar va hayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzida talqin qilishgan. Qadimgi yunon faylasuflarining bu goyani izchillik bilan o'tkazishlari materializmning o'ziga hos shakli - materiyaning jonliligi (gilozoizm) to'g'risidagi hulosata olib keldi. Bu materialistik goyalarning Demokrit (eramizdan oldingi V- IV asrlar), Epikur (eramizdan oldingi IV - IP asrlar) va Lukreitsiy (eramizdan oldingi I asr) kabi atomistlar tomonidan rivojlantira borishi oqibati ularok ruh tanaga jon bagishlovchi moddiy jism, shuningdek moddiy asos xisoblanmish aql, ya'ni, boshqacha qilib aytganda, haetning butun jarayonini boshqarish vazifasini bajaruvchi idrok bilan idora etiladigan a'zo sifatida talqin etila hoshladi. Ruh bilan aqlning o'zi tananing a'zolari bo'lgani uchun ularning uzi ham tana hisoblanadi va, atomistlarning fikriga ko'ra, sharsimon, kichik va shuning uchun ham ancha harakatchan atomlardan tarkib topadi. Bu fikrning soddaligiga qaramay unda jonli narsa - tananing eng sodd funkqiylaridan tortib to psixikaga, aql-idrokka qadar jonliligi hususiyatining materiyagagina hos hususiyat ekanligining tasdiklanishi progressiv hol edi.

Psixik faoliyatni ilmiy tushunish yo'lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar

Shunday qilib, psixik faoliyatni ilmiy tushunish yo'lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar uning fizikaviy olam qonunlariga ho'ysunishini isbot qilish bilan, uning ko'rinishlari organizmning anatomik-fiziologik tuzilishiga hogliqligini kashf etish bilan uzviy bogliqdir. Shu bilan birga o'sha davr materializm namoyondalari ihtiyondagi ma'lumotlar yordamida kishiga hos mavhum mantiqiy tafakkur qanday bo'lishini, shabsning ma'naviy

fazilatlarini qay tarika tarkib topishini, kishining maqsad kuzlashi va gavdani o'z izmiga buysundira bilish qobiliyati kay yusinda ta'mm etilishini va shu kabilarni tushuntirib berish qiyin edi.

Chinakamiga insoniy hulk-atvorga oid ushbu alomatlarni atomlar barakati doirasidan tashqariga olib chiqish, "sharbatlar" aralashmasi yoki miyaning tashqi tuzilishi bilan tushuntirish mumkin emas edi. Bu esa quldorlik jamiyati manfaatlarini himoya qiladigan faylasuflarning psixika haqidagi idealistik karashlarning rivojlanishi uchun - sharoit yaratib berdi. Bu faylasuflar orasida Aflotun (eramizdan oldingi 428G'427 - 347 yillar) alohida ajralib turadi. U jonning qismlari to'g'risidagi tushunchani yaratdi. Shunday qismlardan: a) aql-idrokni, b) jasoratni, v) orzu- istakni alohida ajratib ko'rsatdi va ular tananing turli qismlari (bosh, kukrak, qorin bo'shligi) ga joylashgan bo'ladi degan fikrni ilgari surdi. Aflotunning fikricha, jonning qismlari odamlarda bir hil taqsimlangan bo'lib, ulardan birining boshqalariga qaraganda ustun bo'lishi indivudning u yoki bu soqial guruhga mansubligini belgilaydi. Jumladan, oddiy mehnatchilar jon kuchi qismining, ya'm nafsning ustunligi bilan ajralib turadilar. Ularning azaliy qismlari- o'zlarida ruhning aql-idrokli, oliy qism hukmron bo'lgan aristokrat(aslzoda)larga - faylasuflarga hizmat qilish emish. Bu o'rinda Aflotun dunyoqarashlarining sinfiy mohiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Uning "goyalar" ko'rinmas, lekin tabiatning narigi tomonidagi oliy dunyoni tashqil etuvchi azaliy va o'zgarmas mohiyatlar ekanligi to'g'risidagi ta'limoti katta ahamiyatga ega bo'ldi. sonning aql-idroqli qismi omonat tanaga joy bo'lgunga qadar ana shu dunyoga daxldor. U tanaga joy bo'lib olgach, to'gilishga qadar kurilgan narsalarni eslay boshlaydi. Xotiralar qanchalik erkin bo'lsa, unda haqiqiy bilimlar sbunchalik ko'p ochilib boraveradi.

Aflotun, psixologiyada dualizmning, ya'ni moddiy va ruxiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil va antagonistik ibtidolar tarzida tushuntiradigan ta'limotning asoschisidir. Aflotunning dualizmiga qaraganda uning shogirdi Arastu (eramizga qadar 384 - 322 yillar) ning ta'limoti ancha muvafraqiyatli ravishda ilgari lab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy-ilmiy asosga qayta ko'rib, uni biologiya va tibbiat bilan bog'ladi. Arastuning "Jon to'g'risida"gi asari psixologiyaning bu davrga kelib o'ziga hos bilimlar sohasi sifatida ajralib chiqqanligidan dalolat beradi. Uning yutuqlari ham hayvonlardagi, ham odamlardagi konkret haqiqiy urinishlarni kuzatish, tasvirlash va tahlil qilish bilan bog'liq edi. Arastu ruhiy faoliyatni o'rganishning tajriba metodini, ob'ektiv metodni himoya qilib chikkan edi.

Iskandar Zulqamaynning yurishlari davrida uning tarhiyachisi bo'lmish tabiatshunos Arastuning kuz o'ngida turli tabiiy sharoitlarga muvofiqlashgan rang barang hayvonot dunyosi namoen bo'ldi. Bu esa Arastuning jon haqidagi ta'limotni yaratishi uchun shart-sharoit yaratdi. Arastuga qadar materialistlar ham (ular ruhni materiyaning bir turi deb hi soblashardi), idealistlar ham (ular ruxni tanadan boli deb izohlashardi) ruh va tana bir-biridan alohida yashashi mumkm, deb hisoblashardi. Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh, va jonli tananing ajralmas ekanligi goyasini ilgari surdi. "Ruh dargazab bo'layotir deb aytish biron- bir kimsaning ruhi mato tuqiyapti yoki uy kuryapti deyishi bilan barbardir", - deb yozgan edi Arastu. Jon qismlarga bo'lina olmaydi, lekin u faoliyatning oziklamish, his

etish, harakatega keltirish; aql-idrok kabi turlariga zid qobiliyatlarda namoyon bo'qladi. Birinchi qobiliyat o'simliklar uchun, ikkinchisi va uchinchisi hayvonlar uchun, to'rtinchisi odam uchun hosdir. Usimliklar, hayvonlar ruhi va aql-idrokli zot ruxi to'g'risidagi ta'limotlari bilan Arastu oliy qobiliyatlardan sodda qobiliyatlardan va ularning negizida paydo bo'lishini bildiradigan rivojlanish prinsipini joriy etdi; odamda xayot va psixika rivojlanishining ibtido darajasi mavjuddir. Sezgi dastlabki bilish qobiliyati hisoblanadi. U "mum temir va olindan yasalmagan ho'lsada, muxning izim qabul qilganidek", predmetlarning materiyasiz holida xis etilgan shaklini qabul qilardi. Sezgi tasavvurlar shaklida iz qoldiradi.

Arastu ilgari sezgi a'zolariga ta'sir o'tkazgan narsalar obrazlarining tasavvur tarzida mavjudligini kashf etdi. U shuningdek bu tasvirlar o'hshashligi, turdoshligi va keskin farqlanishi kabi uchta yo'nalishda birlashtiruvini ham ko'rsatdi, bu bilan psixik hodisalar assotaniyasi (bog'lanishi)ning asosiy turlarini ochib berdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlarni faqat o'zining hususiy faol- ligi orqali ro'ehga chiqarishiga asoslangan holda xarakterning real faoliyatida shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi. Kishining adolatparvar va ko'ngilchan bo'lishi uning adolatti va me'yoridaagi harakatlarni tez-tez taqrorlayverishi natijasida ro'y beradi.

Geraqlit, Demokrit, Aflotun, Aristotel, Gerofil, Erazistrat va Galen qarashlari

Geraqlit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrda psixologik goyalarning rivojlanishida tayanch nuqta, asos bo'ldi. Asta-sekin ruh hakidagi tushuncha haqning barcha ko'rinishlariga (usimliklarni, ya'ni sof biologik jarayonlarni ham qo'shib) nisbatan qo'llanilavermasdan, faqat hozir biz psixika deb atayotgan darajaga nisbatan qo'llanila boshlandi. Psixika kategoriyasining zaminida ong hakidagi tushuncha maydonga keldi. Kishi faqat idrok va tafakko'rga ega bo'lib qolmasdan, balki: ularningo'nga mansubligini e'tirof etishga, ihtiyoriy harakatlar qilibgina qolmasdan, balki bu xarakatlarni uning qilayotganini bilishga ham qodirdir.

Bir vaqtlar yagona hisoblangan ruh hakidagi tushuncha organizmning tuzilishi va funkqiylarini tajriba tariqasida: tadqiq etish borasidagi tarahietning, shuningdek soqial chhtiejlarining ta'siri ostida bir qancha mayda tushunchalarga bo'linib ketdi. Eramuzdan oldingi III asrda aleksandriya- lik vrachlar Gerofil va Erazistrat nervlarni kashf etishdi va ularning pay va chandirlardan farqini anqlab berishdi. Bu vrachlar psixik funkqiylar (sezgilar va harakatlar) miyaning ko'zg'atilishiga bog'lik ekanligini muntazam ravishda o'reanib borisbdi. Umuman gavda emas, balki tananing ayrim a'zolarigina (nervlar, miya) psixika bilan chambarchas bog'likligi aniqlandi. Xayotning har qanday qurimshiga asos bo'ladigan ruh hilan sezgilar va harakat (nervlardan ajral- maydigan)larning asosi sifatidagi ruh ikkita har hil guruhlar bo'lib chiqdi.

Eramuzdan oldingi II asrda romolik vrach Galen fiziologiya va tibbiyotning yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik negizi hakidagi tasavvurlarni boyitdi va ong tushunchasiga yaqinlashib keldi. U diqqat, xotira, muloxaza ishtirok etadigan harakatlarning

kishi, masalan, uyqusida bajaradigan harakatlardan chegaralanishini ko'rsatib berdi. Unisi ham, buni ham ruh bilan idora qilinadi, lekin birinchi holda qo'shimcha momentlar ishtirok etadi. Ong to'g'risida paydo bo'lgan tushuncha idealistik falsafa tomonidan foydalanildi. Idealistik falsafa qo'llar revolyutsiyasi va grajdanlar urushi Rim imperiyasini larzaga keltirib to'rgan sharoitda din va mistika bilan til biriktirilgan gullab-yashnagan idealistik falsafa tomonidan foydalanilgan edi. Oldiniga Plotin (eramizning III asri), so'ngra esa Avgustin (eramizning Ich.- U asrlari) ong haqidagi tushunchaga faqat idealistik tus berishgan edi. Barcha bilimlar ruhda mujassamlashgan, u esa o'ziga qaytish qobiliyatiga ega bo'lib, o'z xususiy faoliyatini va uning ko'z ilg'amaydigan mahsulini haddan ziyod aniqlik bilan egallaydi deb, hisoblanadi. Ruhning o'z o'zini hu hildagi bilishi odamning ichki tajribasi hisoblanadi va bu tajriba odamning tashqi sezgi a'zolari orkali hosil qilinadigan tajribasidan tubdan farq qiladi. Keyinchalik bu nuqta nazar introspeksionizm nomi bilan atala boshladi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya tarixi fanining vazifalarini tushuntirib bering.
2. Psixologiya tarixi fanining rivojlanish tarixini davrlashtirib bering.
3. Psixologiya tarixi fanining tamoyillari qaysilar
4. Psixik faoliyatni ilmiy tushunish yo'lidagi dastlabki yirik muvaffaqiyatlar bayon eting.
5. Aflotunning fikricha jon qanday qismlardan iborat?
6. Arastuning "Jon to'g'risida"gi asari psixologiyaning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
7. Garaklit, Demokrit, Aflotun, Aristotel, Gerozil, Erazistrat va Galen qarashlarining ahamiyati qanday?

VII bob. PSIXOLOGIYANING DASTLABKI VA O'RTA ASRLARDA RIVOJLANISHI

Asosiy savollar:

1. Psixologiyaning dastlabki va o'рта asrlarda rivojlanishi
2. Sharq mutafakkirlarining ruhiy jarayonlar haqidagi fikrlari
3. Rene Dekart, Jon Lokk, Xristian Volf ta'limoti

Tayanch tushunchalar: metafizik, ratsionalistik, determinizm, indeterminizm, indeterminizma, nominalistlar, teologiya, idealistik, metafizik oqim.

Psixologiyaning dastlabki va o'рта asrlarda rivojlanishi

Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'рта asrlarda Sbarqda ham, G'arbda ham hukmron bo'lib keldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVII asrda) metafizik yoki ratsionalistik psixologiya deb nom oladi.

Bu psixologiyaning metafizik deb atalishiga sabab, uning tekshirish predmeti bo'lgan - ruh, psixik jarayonlar - fizik hissiy dunyo chegarasidan tashqarida mavjud mohiyat, g'ayri jismiy bir narsa deb tushuntiriladi; shuning uchun ham ratsionalistik deb ataladiki, uning tekshirish metodi tajribadan ajratilgan faqat quruq mulohazadan iborat edi.

O'rta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati haqidagi, uning kuchi, qobiliyatlari va kelib chiqishi haqidagi, uning tana oqigandan keyingi taqdiri haqidagi, ruhning tanaga bo'lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi.

Ruhning mohiyati haqidagi masala, odatda, Platon va Aristotellarda qanday hal qilingan bo'lsa, xuddi shunday hal qilinardi. Ruh o'z tabiatiga ko'ra barcha moddiy va jismoniy narsalarga qarama-qarshi qo'yilar edi.

Ruh o'z tabiatiga ko'ra alohida qobiliyatlarga egadir, deb fikr yuritilardi. Shuningdek, o'rta asr mutafakkirlari iroda masalasiga alohida e'tibor berdilar. Masalan, Avgustin Ipponskiy (353-430) birinchi bo'lib, kishining boshqa ruhiy qobiliyatlari orasida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan. Irodaning ustunligi haqida, ayniqsa, Dunc Skott (1265-1308) ning ta'limoti juda yaqqoldir. Uning aytishicha, iroda aqldan ham yuqori turadi butun o'rta asr tarixi mobaynida, undan keyingi vaqtlarda ham, faylasuf va psixologiyada iroda erkinligi haqidagi tortishuv juda katta o'rin egalladi. Bu masala bo'yicha V asrdayoq ikkita oqim- determinizm va indeterminizm paydo bo'lgan.

Deterministlar (lot. *Determinare* - belgilamoq) inson irodasi ham, dunyodagi hamma narsalar smgari, sababiyat qonuniga bo'ysunadi, bino-barin, insonning barcha irodaviy harakatlari ham erkin emas, balki zaruriyat bilan, o'z sabablari bilan belgilanadi, deb ta'lim berdilar.

Indeterministlar, aksincha, inson irodasi va uning xatti-harakatlari har qanday sababiyatdan xoli erkin hamda zaruriyatga bog'liq emas, deb ta'lim berdilar. Indeterminizm sof idealistik ta'limot edi. Determinizm esa, materialistik tendensiyalar ifodalangan edi.

Umumiy va mavhum tushunchalar haqidagi masala ham iroda erkinligi haqidagi masaladan kam tortishuvlarga sababchi bo'lmadi. Bunda ikki oqim-realistlar bilan nominalistlar o'rtasida tortishuv ketadi.

Realistlar — umumiy tushunchalar («universalialarni o'sha vaqtda shunday deb atashardi) real, obektiv holda mavjuddir va inson aqlida yakka narsalarga bog'liq bo'lmagan holda aks etadi, deb da'vo qildilar. Shunday qilib, realistlar faqat Platonning narigi dunyo ideya (g'oya)lar dunyosi haqidagi, har bir kishi aqlidagi bu g'oyalarning tug'ma ekanligi haqidagi ta'limotini takrorladilar, xolos.

Anzelm Kenterberiyaskiy (1033-1109) va Shampolik Vilgelm (mill 70) lar realizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari edi.

Nominalistlar (lot. *nominale* - nom, ot) umumiy tushunchalarni faqat yakka predmetlarning nomlaridir, deb hisobladilar. Realistlarga qarama-qarshi o'laroq, nominalistlar faqat individual sifatlarga ega bo'lgan alo-hida-alohida narsalargina real mavjuddir, deb da'vo qildilar. Umumiy tushunchalar esa faqat biz butun bir klassga kiradigan

predmetlarning hammasiga tatbiq qilmadigan so'zlardir. Nominalistlarning ta'limotida ha'zi bir o'ra asr mutafakkirlarning materialistik tendensiyalari ham ifodalangan. Marks nominalizm o'ra asrdagi materializmning ilk ifodasidir («Muqaddas o'la»da) deb yozgan. Nominalizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari I. Rostselin (1050- 1125), Duns Skott (1265-1308), Vilyam Okkam (1200-1349) lar edilar.

Ayrim psixik jarayonlarni tushuntirishda ham ha'zi bir psixologlarda materialistik element va tendensiyalar namoyon bo'ldi. Masalan, Roziy (28-avgust 865), Ibn Sino (980-1037), Forohiy va boshqalar o'zlarining ruhiy jarayonlar haqidagi fikrlarini bayon qildilar. O'ra osiyolik tabib va faylasuf Ibn Sino (980-1037) va arab mutafakkiri Ibn Rashid (1125-1198)lar Aristotelga ergashib, «sezuvchi ruhning harakatlanuvchi vajozi- hador kuchlarini» o'rganish uchun harakat qildilar. Ular sezgilarni ularni keltirib chiqargan qo'zg'ovchilardan farq qilish zarurligi haqidagi masalani qo'yadilar, ong faoliyati bilan fiziologik jarayonlar o'rtasida yaqin aloqa va bog'lanishlar o'rnatishga intiladilar.

Qadimgi rusda kitob madaniyatining boshlanishi bilan (X—XI asrlarda) psixologiya sohasida G'arb va Sharq mutafakkirlarida qanday tarkib topgan bo'lsa, xuddi o'sha holda fikr va bilimlar tarqala boshlaydi.

Bu bilimlarning eng muhim manbai Vizantiya mutafakkirlari Ioann Damaskinning (673—777) grek tilidan slavyan tiliga tarjima qilingan «Dialektika» va «haqiqiy iymon haqida» degan asarlari edi.

I. Damaskin ta'limotiga ko'ra, ruh alohida ilohiy substansiyadir. U so'z, aql-idrok hamda erkin irodaga ega bo'lgan g'ayri jismiy, oddiy, tirik va abadiy mohiyatdir. Ayni vaqtda ruh inson tanasi bilan birkib bitta mavjudotni tashkil qiladi. Uni insonning o'sish va ko'payish kabi funksiyalaridan ajratish mumkin emas. Ruh tana organlaridan o'z qurollari sifatida foydalanadi va xulq hamda xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Ayni vaqtda Damaskin ruh tanaga bog'liq. Masalan, u biologik o'sishga va boshqa tashqi sabablarga qarab o'zgaradi, deb ta'kidlaydi.

Biroq Damaskin ruh va tananing birligini yashirin, qanday birlashganligi sirli bir hodisa va insonning aqli buni bilishda ojizlik qiladi, deb hisoblaydi. Bu fikrlarda Aristotelning ta'siri va obro'si ko'rmb turibdi.

Ratsionalistik psixologiya (bilish nazariyasidagi bilimlarning manbai va ularning to'g'rligining mezonu aqldir, deb da'vo qiluvchi, tafakkurni hissiy idrokdan ajratib qo'yuvchi idealistik, metafizik oqim) psixologiya fan taraqqiyot idagi bosqich larning biridir. Hozirgi vaqtda bu psixologiyani bilish tarixiy jihatdan qiziqarli, xolos. Bu psixologiya qandaydir ilmiy yoki amaliy ahamiyatga ega emas. Shu psixologiya negizida ishlab chiqilgan terminologiyaningina undan qolgan meros deb hisoblash mumkin.

O'ra asrlarda psixologiya falsafaning bir qismi edi. Falsafaning esa mustaqil ahamiyati yo'q edi, u teologiyaning — dinning xizmatkori deb hisoblanardi. Psixologik ta'limotlar ham shulardan kelib chiqqan edi, chunki faqat mulohaza qilish yo'li bilan dinning ba'zi qonun-qoidalarini — ruhning abadiyligi, odamning kelib chiqishi, narigi dunyodagi hayot va hokazolarni asoslash mumkin edi.

Binobarin, kapitalizmning taraqqiyoti va shu munosabat bilan ilmiy metodlarning kelib chiqishi va mukammallashuvi tufayli sxolastik falsafa (o'rtacha feodal jamiyatidagi diniy-idealistik falsafaning umumiy nomi, S. cherkov aqidalariga asoslangan bulib, mavhum mulohazalar, mantiqiy nayranglar bilan ish kurib, «bogoslaviyaning xizmatkori» edi; hayot va amaliyotdan ajralib qolgan soxta bilimlar; safsatabozlik, uning bilan birga ratsionalistik psixologiya ham o'z o'rnini va ahamiyatini yo'qotgan.

Sharq mutafakkirlarining ruhiy jarayonlar haqidagi fikrlari

Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariy (28-avgust 865) o'rtacha va yaqin Sharq xalqlarining ilg'or ijtimoiy va falsafiy olimlaridandir. U umrini tabiiyot ilmi, shuningdek, falsafani o'rganishga bag'ishladi. U aql masalasiga (tafakkur) alohida e'tibor berdi va aql bilan inson hayvonot dunyosidan ustun turishini, aql orqali o'z xohish va istaklarga erishish mumkinligini uqtiradi. «Aql orqali biz o'zimizni ulug'lovchi, ziynatlovchi va bayotimizni xayrli qiluvchi hanima narsani bila olamiz», - deb ko'rsatadi. Aql yordamida erinning shakli, quyosh va oyning kattaligi, yulduzlar harakati, ularning uzoqligini va oqishini bilib olamiz, deydi.

Roziy falsafa ilmini nihoyatda ulug'laydi. Kimki falsafani o'rganish bilan mashg'ul bo'lsa, u haqiqat yo'lidan borishga loyiqdir. Haqiqatdan ham kishilarning ruhi bu dunyoning chirkini va qorong'uliklaridan musaffo bo'lish va farog'atga erishishi faqat falsafani o'rganish bilan bo'ladi. Agar inson falsafani o'rgansa, biz tasavvur qila olishimiz mumkin bo'lgan darajada oz qismini bo'lsa ham egallay olsa, u o'zining jonini chirkinklik qorong'ulikdan tozalaydi va qutqaradi, deb ko'rsatadi. U ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berdi. Bu tadqiqotlar kishi ruhiga ta'sir etishi, uni aql-idrokini shakllantirishga alohida urg'u berdi.

O'rtacha Osiyoning emas, balki umuman Yaqin va O'rtacha Sharqning mash-hur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi va uning rivojiga hissa qo'shgan olimlardan biri Abu Nasr Forobiydir. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olim bo'lib nom qozondi. U «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kegak», «Falsafa maktablari», «Logikaga kirish» kabi ko'plab risolalar yaratdi. Faylasuf — falsafaning eng muhim masalalari bo'yicha qator asarlarning muallifi sifatida shuhrat qozondi. U Sharqda qadim yunon falsafasi, ayniqsa, qadimgi dunyoning qomusiy olimi, psixologiya fanining otasi Aristotelning asarlarini o'rganish, ularga sharhlar yozish, g'oyalarni targ'ib etish va yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Aristotel «birinchi muallim» deb nom olgan bo'lsa, butun Sharqda Forobiy «ikkinchi muallim» unvoniga sazovor bo'ldi. U insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. Forobiyning fikricha, mavjudotning eng buyuk va etuk mahsuli — bu insondir, u o'zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o'rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunadi. U mavjudotning yashash shakllari, olamni bilishning yo'l va vositalari, unda ilm-fanning o'rnini va ahamiyati masalasiga alohida

e'tibor qaratadi. Uningcha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishida mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va aqliy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari bilan muloqotda vujudga keladi. Uning aqli, fikri (tafakkuri), ruhiy yuksakligining eng etuk mahsuli bo'ladi va inson o'z bilimlarini, aqlini rivojlantirib, so'ngra mavjudotning ibtidosi, boshlanishi haqidagi ilmga e'tib boradi, deb ko'rsatadi.

Forobiyning ruhiy jarayonlar haqidagi ta'limoti psixologiya ilmining rivojlanishi va ravnaqiga katta hissa qo'shdi. Uningcha, minerallar to'rt element — olov, tuproq, havo, suv — ya'ni sodda substansiyalarning o'zaro aralashuvi murakkab substansiyalarni vujudga keltirdi. Undan avvalo minerallar, ya'ni noorganik jismlar keyin esa o'simlik olami tashkil topdi. O'simliklar olami o'sish, rivojlanish qobiliyatiga egadir. O'simliklardan so'ng hayvonlar vujudga keldi, ular harakat qilish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, ko'payish, sezish qobiliyatiga ega edilar. Olam jismlari rivojlanishining oliy bosqichi — insonning vujudga kelishidir, deb ko'rsatadi.

Forobiy o'simlik, hayvon va insonga xos xususiyat va qobiliyatlarni quvvat deb atadi va uni o'sish quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat deb uchga ajratadi. Uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizm-dagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixik va fikrlash jarayonlariga ajratish demakdir. Bundan shunday xulosa chiqarmoq joizdir, ya'ni biologik jarayon barcha tirik organizmga, fiziologik-psixologik jarayon — hayvon-larga, aqliy intellektual jarayon, ong faqat insonlarga xosdir.

Forobiy dunyoni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish, uni ilmi, ma'rifatli qilishga xizmat qiladigan psixik jarayonlarga alohida e'tibor berdi. U bilishning ikki bosqichi — hissiy bilish va uning darajalarini va aqliy bilishni har tomonlama asoslab berdi. U «Majmuar Rasoiil al-Hukamon» (225) asarida «Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo'lga kiritadi... seziluvchi obrazlar his qilish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi», — deb yozadi, ya'ni u aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini ta'kidlaydi. U hissiy bilishning darajalarini, kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Sezgilarni hissiyot, tafakkur kabi psixik holatlar bilan bog'lashga urinadi. U sezgilarni o'ziga xos klassifikatsiyalaydi. Oziqlantiruvchi quvvat: so'ngra ichki va tashqi quvvatlar vujudga keladi. Tashqi ruhiy quvvatlar, ya'ni tashqi buyumlar sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilganda vujudga keladigan quvvatdir, deb ko'rsatadi.

Sezgilarning kelib chiqishi va murakkabligi jihatidan besh turli tashqi quvvatni Forobiy quyidagicha talqin qiladi: teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, nutq sezgisi (eshitish sezgisi nazarda tutiladi), ko'rish sezgisi.

Bularning hammasini Forobiy sezish quvvati deb ataydi.

Ichki quvvatlarga:

- 1) xotira-tasavvur quvvati,
- 2) xayol quvvati,
- 3) tuyg'u, emotsiya quvvati,
- 4) nutq quvvati,
- 5) quvvat nutqi tarkibida mantiqiy fikrlash quvvati.

Bu Forobiy fikricha, mantiqiy operatsiyalarni bajarib, murakkab narsalarni bilib olish uchun xizmat qiladi. U insonda kishining g'azabi va nafratlanishi, ya'ni his-tuyg'usini boshqaruvchi quvvatlar mavjud ekanligini aylib o'tadi.

Xayol qilish, so'zlash, fikr yuritish, aql quvvatini Forobiy faqat insonga xos deb to'g'ri tushunadi. Forobiy odam organizmining markazi yurakdir, chunki yurak butun tana va uning a'zolarini qon bilan ta'minlaydi, qon yurak orqali, butun organizmga tarqaladi. Ikkinchi markaz miya. Miya ham qon bilan tirik bo'lgani singari, yurakka bo'ysunadi, ya'ni yurakdan qon oladi. Lekin, shu bilan birga, u butun organizm va uning a'zolariga rahbarlik qiladi, o'z buyrug'iga bo'ysundiradi, deb ta'kidlaydi.

Forobiyning bu fikrlaridan, birinchidan, insondagi ruhiy jarayonlar bilan fiziologik-anatomik jarayonlar psixika bilan organizm o'zaro bog'liq holda mavjud, degan xulosa, ikkinchidan yurak insonning biologik hayotini, miya esa uning ruhiy-ma'naviy hayotini boshqarib turadi, degan xulosa kelib chiqadi.

Forobiyning bu ta'limoti ruhiy jarayonlarning paydo bo'lishini nerv-fiziologik jarayonga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. U tashqi olam, muhit, odam organizmi o'zaro sababiy bog'liqligini yoritib berishga harakat qiladi va u o'zining psixologik ta'limotida O'ra Osiyo, Eron, Hindiston va qadimgi Gretsiyaning tabiiy-ilmiiy bilimlar sohasida erishgan yutuqlariga suyanadi.

Forobiy ruhiy jarayonlarni psixolog sifatida emas, balki faylasuf sifatida talqin qiladi, chunki u davrda psixologiya hozirgidek mustaqil fan hisoblanmay, balki umumiy falsafiy bilimlar tuzilishiga kirgan edi. Uning bilish jarayonining ikki bosqichi hissiy va aqliy bilish ta'limoti, ayniqsa, muhimdir. U hissiy bilishni sezgilar orqali aniq va moddiy narsalarning bevosita ta'siri natijasida hosil bo'ladi, degan bo'lsa, aql orqali bilish aniq moddiy jismlar orqali emas, ularning ta'sirisiz va ulardan tashqari faqat ruhiy obrazlar asosida vujudga keladi, deb uqtiradi. Forobiy «Aql ma'nolari haqidagi risola»da aql-intellekt tushunchasini bir tomondan, psixik jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan u tashqi ta'sirning, ta'lim-tarbiyaning natijasi deb anglaydi. Uning fikricha, «Aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat — ruhiy kuch bilan bog'liqdir. Inson tushunishi, fahmlashi, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash quvvatiga ega va bu xususiyatlar bolaning o'sib, kamolga erib borishi bilan rivojlanib boradi» (M. Xayrullaev, «Forobiy ruhiy jarayonlar va ta'lim-tarbiya to'g'risida», «O'qituvchi» nashriyoti, — T., 1967-y.).

Forobiy «Fozil odamlar shahri», «Hikmat asoslari», «Aql ma'nolari» kabi asarlarida inson psixikasi haqida falsafiy mushohadalar yuritadi. Forobiyning ruhiy jarayonlar va dunyoni bilish haqidagi fikrlari hozir ham psixologiya fanida katta ahamiyatga egadir.

Forobiydan keyin jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri buxorolik Abu Ali ibn Sino. U tibbiyot, falsafa, psixologiya, matematika kabi fanlarning rivojlanishiga e'tibor berdi. U mavjudodni, ya'ni barcha mavjud narsalarning kelib chiqishi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama o'rganadi. Ibn Sining fikricha, olam yaxlit murakkab bog'liqdir. Bu bog'liqni har tomonlama tekshirish uchun u zaruriyat, imkoniyat, voqelik va sababiyat tamoyillarini asos qilib oldi. Uningcha,

materiyaning eng sodda bo'laklariga bo'linmaydigan shakli to'rtta, ya'ni havo, o't, suv, tuproqdan iborat. Ularning o'zaro turli xil birligini natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi, deb yozadi. Bu moddiy narsalarning moddiy asosi bo'lgan havo, o't, suv, tuproq o'zgarmaydi ham, yo'qolmaydi ham. Materiya — harakat, vaqt, fazo bilan uzviy bog'liqdir, deb ta'kidlaydi.

Ibn Sino Aristotelning jon haqidagi ta'limotini tabiatshunoslikdagi va tibbiyotdagi o'sha davrning yutuqlariga asoslanib yangi asosda qayta qurdi. Ibn Sinoning ishlarida «jon» tushunchasi organizmni sezish, eshitish, ko'rish qobiliyati deb tahlil qilingan. U jon haqida ajoyib ta'limot yaratdi. Bu haqdagi fikrlar uning «Tib qonunlari» kitobida o'z aksini topgan. Bu o'zining yo'nalishi bo'yicha materialistik ta'limotdir. Ulug' olim bu kitobida asab tizimining tashqi hog'liq va tananing harakati, tana sezgisini ta'minlab turuvchi bog'liq funksiyasini juda yaxshi tushungan holda psixologik hodisalarni fiziologik jarayonlar bilan bog'liqligi to'g'risidagi fikrlarni birinчилardan bo'lib oldinga surdi. Asab tizimi, bosh miya bu psixikaning yuz berishi asosi deb ko'rsatdi. Tana va muhit, a'zo va uning funksiyasi har doim o'zaro bog'liqlikda bir butunlikdadir, jon miyaning funksiyasi deb takidladi.

Ibn Sino bu fikrlarni rivojlantirib ruhiy kasalliklar miya ishining o'zgarishi bilan bog'liqdir deb ko'rsatadi. Olim psixik jarayonlarning markazlari miyada degan fikrni ilgari suradi. U sezgi markazi miyaning old qismida, xotira markazi miyaning orqa qismida, xayolning markazi miyaning o'rtasidagi jo'yagining oldingi qismida o'ylash, fikrlash bilan bog'liq markaz o'rtta jo'yakda, ixtiyoriy harakatlanishi qobiliyati miyaning orqa jo'yagiga joylashgan, — deb yozadi (Abu Ali ibn Sino. «Konon Vrachehnoy Nauki», kn. 1. T. An. UzSSR, 1954. str. 134-137).

Ibn Sinoning ruhiy jarayonlar va dunyoni bilish haqidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. U dunyoni bilish nazariyasini materialistik asosda tushuntiradi. U bilish sezgilar yordamida hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlash orqali bilishdan tashkil topadi, deb yozadi. Sezish bu shunday quvvatki, u tashqi narsalarning o'zi bo'lmay, balki hisning hislarimizdan vujudga keladi. Sezgida narsa va hodisalarning ayrim tashqi belgilari, aniq tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatlarini, ichki tomonlarini mavhumlashtirish yordamida bila oladi, deb ko'rsatadi. Ibn Sino ham bilishning ikki bosqichi, ya'ni sezgilar va tafakkur jarayoniga alohida e'tibor beradi.

Abu Ali ibn Sino Sharq tabobatida keng qo'llaniladigan «mijoz» tushunchasiga alohida e'tibor berdi. Uningcha, «mijoz» insonning xususiyati uning sifati, tana va ruhga tashqi muhit faktorlarining ta'sirini idrok qilishdir.

U: «Unsurlarning nihoyat darajada mayda bo'laklaridagi qarama-qarshi kayfiyatlarning bir-biriga ta'siri ma'lum bir chegaraga etganda paydo bo'lgan kayfiyatni mijoz deyiladi*», — deb ko'rsatadi (Tib qonunlari. A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993-y., 15-bet).

«Mijoz» organizmning ruhiy va jismoniy barqarorligini ko'rsatgan jismoniy va psixik idrok hamda turli ta'sirlarga javob bo'lib, bu so'z qadimgi grek tabibi Gippokrat tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, u organizmda bo'ladigan 4 suyuqlik qon, safro, balg'am, qora o't baqida ta'limotni ishlab chiqdi.

Ibn Sino tibbiyot muammolarini hal qilishda Gippokrat ta'limotiga suyanadi. —Tib qonunlari" asarida bir necha bor tibbiyot fanini otasi Gippokrat fikrlaridan foydalanadi. Ibn Sino organizm tashqi ta'sirlarni idrok qilish va uni organizmni javob reaksiyasini berishda mijozni turlicha, ya'ni: issiq, sovuq, quruq, nam, kuchli va kuchsiz paydo bo'lishini aniqladi. Ular odamda mijoz shaklida tabiiy ravishda bo'lishini va bular orqali odam ovqatlarni, havo haroratini, yoqimli va yoqimsiz narsalarni bir-biridan farq qiladi, deb ta'kidlaydi. «Issiqlik» va «sovuqlik» tushunchasi farq qiladi va issiq mijozli, sovuq mijozli kishilar farqlanadi, deb ko'rsatadi. Yuksak kaloriyalı mahsulotlar, ya'ni: yog'li ovqat, qo'y go'shti, tuxum, qant, yong'och, qora choy qon aylanishini, kuchni, haroratni oshiradigan; sut, mastava, ko'k choy, baliq, o'simlik va boshqalar sovuqlikni oshiradi, deb ularning organizmga, mijozga ta'sirini ko'rsatib beradi. —Issiq odam" tabiatan issiq, bu issiq ovqatlarni. —sovuq odam" tabiatan sovuq bo'lib, u sovuq ovqatlarni iste'mol qiladi, deydi.

—Issiqlik" va "sovuqlik" tushunchasini Ibn Sino inson tanasiga xos deydi. Ular ikki bir-biriga qarama-qarshi funksiyalarni (faollik va sezish, jabr qilish), tabiatdagi o'zgarishlar, shunga o'xshash qarama-qarshi hodisalarni (yil fasllarining o'zgarishi, issiq, sovuq, muzlash va erish, uyqu va uyg'ochlik, yoshlik va qarilik, hayot va o'lim) aniqladi.

Ikki bir-biriga qarama-qarshi tushuncha: quruq va namlik yana hamda a'zolarining funksional holatini, sog'lig'i va kasalligini aks ettiradi, deydi.

—Quruq" — odam organizmdagi suyaklar bo'lsa, —namlik" — bu qon, yog' deb ta'kidlaydi. Ibn Sino hatto —turli xalqlarning, turli chehralar"ning, —har bir a'zo"ning mijozini aniqlashga harakat qildi.

Qadimgi grek ta'limotiga binoan mijozning fizik (fiziologik) asosi haqidagi 4 modda, ya'ni olov, havo (—engil" elementlar), suv, er (—og'ir" elementlar) va uning xususiyatlarini tahlil qilib, olov — issiq va engil, havo — issiq va nam, suv — sovuq va nam, er — quruq va sovuqligini va bular asosida mijozni issiq, o'rta va sovuq ho'lishini aniqladi.

Ibn Sino —mijoz" haqidagi ta'limotni ishlab chiqish jarayonida tibbiyotda buyuk grek olimi Gippokrat tomonidan ko'p ishlatiladigan temperament so'ziga e'tibor qaratdi va u o'z faoliyatida temperamentning shakllanishida o'rab olgan muhit va organizmning individual xususiyatlarini hisobga olish kerakligiga e'tibor berdi. Gippokrat kasalm, ya'ni kasal joyni emas, kasallanuvchi kishining organizmi, individual xususiyatlarini va unga ta'sir etuvchi atrof-muhitni o'rganishga qaratish lozimligi haqidagi fikriga asoslanib ish ko'rdi. U tashqi muhit ta'siri natijasida shakllanadigan moddiy va ruhiy hodisalarni aniqlash muhimligini ta'kidlaydi va u kishilarni 4 asosiy tipga ajratdi. Bunda Gippokrat organizmdagi qon, safro, halg'am va qora o'tning rolini alohida qayd qildi va ularga asoslanib odamlarni sangvinik, xolerik, flegmatik, melankolik temperament tipiga ajratadi, ya'ni: organizmida qon ko'p bo'lganlar sangvinik, xoleriklarda safro, flegmatiklarda halg'am, melankoliklarda qora o't ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan —mijoz" bu temperament yoki fe'l, xulq emas, deb ta'kidlaydi.

Gippokrat temperament — inson psixikasining kompleks dinamik xarakteristikasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlarini integratsiyasidir, deydi. U o'zida emotsionallik

va faollik kabi 2 asosiy komponent-larni birlashtiradi. Emotsionallik va insonning hissiyatini kuchi, barqarorligi va kayfiyatini (xursandlik, g'azab, qo'rquv, tushkunlik), faollik esa tashqi muhitga, odamlarga munosabatlaridagi tempi, ritmi, tezligi bilan belgilanadi, deb to'g'ri ta'rif bergan bo'lsa, Ibn Sino mijoz odam organizmining xususiyatini ifodalashi, u tashqi muhit faktorlarini sifati, jismoniy va ruhiy idrok qilinishidir degan fikrni ilgari surdi. Mijoz organizm mohiyatini o'zida chuqurroq va to'laroq aks ettirishidagi jismoniy va ruhiy tabiatning o'zaro munosabatlari shartidir. U turli-tuman ta'limlarni farqlash malakasi va sifati bilan xarakterlanadi, degan g'oyani ilgari suradi.

Ibn Sino mijozga dalolat beradigan belgilarni ko'rsatib berishga harakat qildi. U bu belgilar: ushlab, ko'rib sezish, go'shti va yog'dan olinadi-gan (qizil go'sht ko'p bo'lsa, mijozning issiqligi va ho'lligidan dalolat

Rene Dekart (1596- 1650)

Fransuz faylasufi, matematigi va tabiatshunosi R. Dekart ham Bekon va Gobbslar ilgari, tabiat fanlaridagi tajriba metodiga katta ahamiyat beradi. Lekin, ayni vaqtda u ratsionalistik metodning himoyachisi ham bo'lib chiqdi. Dekartning aytishicha, bu metod, hatto tajriba (empirik metodi)dan ham mukammalroqdir. Dekart misol tariqasida deduktiv metodga asoslangan, binobarin, eng aniq fan bo'lgan matematikani ko'rsatadi. Dekartning fikricha, to'liq ilmiy falsafa sistemasi, shu jumladan psixologiya ham, faqat ratsionalistik metod asosidagina ko'rilishi mumkin.

Dekart o'zining psixologiya sohasidagi ta'limotini, asosini o'zining «Ruh ehtirosleri haqida» degan asarida bayon qilgan

Dekart tana bilan ruhni bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi deb hisob-laydi. Tananing mohiyati, barcha moddiy narsalarniki singari, o'rin ishg'ol qilish, fazoviylikdir, ruhning mohiyati esa tafakkurdir (Dekart sezgi, tasav-vur va irodani ham shunga kiritadi). Dekartning fikricha, ruh faqat inson-larga xosdir, hayvonlar esa aksincha, ruhga ega emas. Hayvonlar — murakkabroq mashinadir, xolos. Inson tanasi ham xuddi shunday murakkab mashinadir. Ruhning faoliyati sezgilar, xotira, tafakkur, iroda — o'z qonu- niyatlariga, ya'm ruhiy qonunlarga binoan ro'y beradi, tananing faoliyati (harakat) esa mexanika qonunlariga binoan ro'y beradi. Shunday qilib, psixik va fiziologik (moddiy) jarayonlar parallel holda ro'y beradi. Shuning uchun ham Dekart XX asrgacha bo'lgan psixologiyada keng tarqalgan nazari-yaning, ya'ni psixofizik parallelizm ta'limotining asoschisi hisoblanadi.

Dekart ta'limotiga ko'ra, ruh va tananing bir-biri bilan aloqasi ruhning tanada bo'lishidan kelib chiqadi, xolos. Dekart ruhning makoni miyaning asosida joylashgan shishasimon bez deb taxmin qildi. Dekart za-monasida shishasimon bez faqat odamlardagina topilgan edi. Biroq tez vaqt ichida u bir qancha hayvonlarda ham topildi, albatta, bu Dekartning ruh va tananing munosabati haqidagi ta'limotini rad etilishiga sabab bo'ldi.

Dekart inson organizmini o'rnanishga katta e'tibor berdi. Uning ta'limotiga ko'ra, organizmning faoliyati ayrim-ayrim iplar singari organizmga tarqalgan va bir markazda — miyada birlashadigan nervlar yordami bilan amalga oshiriladi. Shu nervlar sistemasi orqali

organizm sezadi, idrok qiladi va atrofdagi olam hodisalarini biladi. Nerv iplari orqali miya-
dan u yoki bu javob — mushak harakatlariga beriladi. Masalan, Dekart birinchi bo'lib, nerv-
fiziologik jarayonlarning mexanizmini aniqladi, fiziologiyaga —refleks" tushunchasini
kiritdi. Xususan, keyinchalik —shartli reflekslar" deb nom olgan nervlar o'rtasidagi yangi
bog'lanishlar mexanikasini ham u tasvirlagan.

Shuning uchun ham rus fiziologi LP. Pavlov o'z institutida fransuz faylasufi Dekartning
haykalini o'rnatgan.

Dekart tajribaga asoslangan tekshirish yo'li bilan hosil qilinadigan bilimlarga katta
ahamiyat bergan. Lekin shuning bilan birga, matematika va falsafaga doir eng umumiy
tushunchalar tajribadan hosil qilinmaydi, balki ular bizda tug'ma holda mavjuddir. Bu erda
Dekart Platon va o'rta asr realistlari tomonidan targ'ib qilingan "tug'ma ideallar" haqidagi
ta'limotni quvvatlantirdi.

Shunday qilib, Dekart psixika (rub) haqidagi ta'limotida o'takelgan idealist, tabiat
haqidagi, hayvon va inson haqidagi ta'limotda esa mexanistik materialist edi.

Xullas, Dekart mutafakkir sifatida bir oyog'i bilan O'rta asrlarda, ikkinchi oyog'i esa
Yangi davrda turgan deyish mumkin.

Jon Lokk (1632-1704)

Ingliz olimi va pedagogi Jon Lokk Bekon kashf qilgan ilmiy metod-ning bevosita
davomchisi edi. Lokk psixologiya ham boshqa tabiat fanlari singari, og'zaki mulohazalarga
emas, balki tajribaga asoslanmog'i kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek, u ruhning va uning
kuchlarining asl mohiyatini bilish mumkinligini inkor qildi. «Men. — deydi Lokk. —
ruhning mohiyati nimadan iborat yoki hayotiy ruhimizning qanday harakatlari sezgi-larga
yoki tasavurlarga olib keladi degan tekshirishlar bilan o'zimni qiy-nah o'tirmayman, chunki
bu quruq mavhum fikr yurgizishdir». Lokkning aytishicha, faqat ruhiy hodisalarni o'rganish
kerak. Bu hodisalarni o'rganishning birdan-bir metodi tajriba va kuzatishdir.

J. Lokkning asarlari tufayli psixologiyada empirik tajribaga suyangan psixologiya deb
ataladigan yangi oqim paydo bo'ldi.

Lokkning fikricha, asosiy hamda birlamchi psixik hodisa sezgidir. Ruhiy hodisalarning
barcha qolgan turlari, qanchalik murakkab bo'lmasin, faqat sezgilarning bir-biriga
munosabati va qo'shilishidir. Ruhda (Platon va Dekart aytganidek) tug'ma ideallar yo'q. Ruh
o'zining barcha ideallarini tashqi tajriba sezgilaridan (birlamchi sifatlar) va qayta ishlangan
ichki tajribadan, reflekslar, xotira, farq qilish, taqqoslash, murakkab tasavvur va boshqalardan
(ikkilamchi sifatlar) hosil qiladi. Yangi tug'ilgan bolaning ruhi go'yo hech narsa yozilmagan
toza qog'oz yoki toza taxtdir, lekin tarbiyachi va hayot tajribasi bunga sezgilar orqali
xohlagan narsani yozishi mumkin.

Sezgilar haqidagi ta'limotida J. Lokk birlamchi va ikkilamchi sifatlar-ga ta'rif berdi.
Narsalarning sezgi organizmlariga bevosita ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan sezgi
obrazlari birlamchi sifatlar yoki obrazlar deb ataladi; bu obektiv sifatlar. Lokk birlamchi yoki
obektiv sifatlar-ga harakatni, o'tkazmovchanlikni, zichlikni, zarrachalarning ulanishini, figu-
rani, hajmini va boshqalarni sezishni kiritadi. Lokk ta'limotiga ko'ra, ikkilamchi yoki

subektiv sifatlari «narsalarning o'zida emas», balki birlamchi sifatlarga bog'liq bo'lib, subektiv ravishda yaratiladi.

M.V. Lomonosov birlamchi va ikkilamchi sifatlari haqidagi ta'limotni tanqid qilib chiqdi. Uning ta'limotiga ko'ra, ikkilamchi subektiv sifatlari yo'q; bizning hamma sezgilarimiz obektivdir.

Ingliz faylasufi J. Berkli (1689—1753) va uning izdoshlari Lokkning ikkilamchi sifatlari haqidagi ta'limotini haddan oshirib yuhordilar. Ularning ta'limotiga binoan, bizning hamma sezgilarimiz subektiv bo'lib, ongimiz tomonidan yaratilgandir.

J. Lokk hodisalarning tasodifiy bir vaqtda sodir bo'lish natijasida tasavvurlari o'rtasida hosil bo'ladigan bog'lanishlarni belgilash uchun birinchi bo'lib, psixologiyaga «assotsiatsiya» terminini kiritdi.

Xristian Volf (1679-1754)

Tajriba psixologiyasining paydo bo'lishi bilan avvalgi ratsionalistik psixologiya darhol kuchini yo'qotmadi. Ratsionalistik psixologiya O'rta asr g'oyalari hamda ratsionalistik metod haqidagi Dekart ta'limotining ta'sirida, ruh haqidagi ta'limot sifatida, empirik psixologiya bilan birgalikda ya-shashni davom ettirdi. Shuning uchun ham nemis faylasufi X. Volf ikki psixologiya fanining — «ratsionalistik» va «empirik» psixologiyaning birgalikda yashashi qonuniyligi haqidagi fikrni ilgari surdi. U o'zining «Ratsionalistik psixologiya» va «Empirik psixologiya» degan ikkita katta asarida bu ikki oqimni asoslash beradi. Ratsionalistik psixologiyaning predmeti ruh va uning mohiyatidan iborat. Uning metodi esa aqliy-ratsionalistik metoddir. Ratsionalistik psixologiya falsafa fanlari sistemasiga kirishi kerak. Empirik psixologiyaning predmeti ruh hodisalarini, ya'ni ichki tajriba faktlarini kuzatish va tajribaga suyanib o'rganishdan iborat. Volf ta'limotiga ko'ra, empirik psixologiya tabiat fanlari sistemasiga taalluqlidir.

Umuman, shuni aytish kerakki, XVIII asrda Evropaning barcha mam-lakatlarida, ayniqsa, Angliyada empirik psixologiya yagona hukmron psixologiya sistemasini bo'lib qoldi.

Metafizik ratsionalistik psixologiyaning masalalari ba'zi bir faylasuflar (Leybnits, Kant va hoshqalar) tomonidan hahs qilmadigan bo'lib qoldi va o'shalar orqaligina idealistik psixologiya namoyandalari o'z ta'sirini o'tkazdi.

Fandagi, shu jumladan, psixologiyadagi yangi yo'nalish, ya'ni tajribaga asoslanish materialistik psixologiyaning taraqqiyotiga yo'l ochdi.

Yuqorida aytilganidek, ingliz materialisti Gohhs psixik hayotni materialistik tushunishni asoslashga urindi. Lokk psixologik ta'limotining negi-zida ham materialistik tendensiyalar yotadi. Dekart ruhiy hayotga nisbatan mexanistik-materialistik qarashlarni asoslashga intildi.

Qadimgi grek va rim faylasuflari Aristoteldan keyin Demokrit (materialistik psixologiya), Platon va Aristotel (idealistik psixologiya) lar yaratgan psixologik ta'limotlar sistemasiga deyarli hech qanday yangilik kiritmadilar. Demokritdan keyin materializmning

ko'zga ko'ringan vakillari grek faylasufi Epikur (342-271) va rim shoiri- faylasufi Lukretsiy, Karr (99-55) edilar.

Epikurning fikricha, ruh g'ayri jismoniy bir narsa emas, «Jimsiz ho'shliqdan boshqa hech narsani fikrlash mumkin emas. Ruhni g'ayri jisimiy narsa degan kishilar alahsirayaptilar». Epikur moddiy bo'lmagan substansiyaning mavjudligini mutlaqo inkor qilib, «ruh, hujim organizm-ga tarqalgan juda nozik jismdir» deb hisobladi.

Lukretsiy o'zining «Narsalarning tabiati haqida» degan asarida atomistik materializm falsafasini, xususan ruh haqidagi materialistik ta'limotni poetik sbakida bayon qiladi. U moddiy bo'lmagan ruhning mavjudligini inkor qildi. «Jon, ruh yoki aql moddiy bo'lib, faqat inson tanasiga xos bo'lgan kuchlarni-gina tashkil qiladi». Ruh ham, jon ham jisimiy tabiatga ega.

Lukretsiy psixik hodisalarning tanaga bog'liqligini tajribaga asoslanib ishot qiladi. U: «Aql ham tana bilan birga o'sadi va so'ladi, aql ham tana singari kasallikka duchor bo'ladi, mastlik natijasida xiralashadi», - degan va shunga o'xshash dalillab keltiradi. Lukretsiy bu materialistik dalillarga asoslanib, ruhning abadiyligi to'g'risidagi ta'limotning yolg'onligi haqida xulosa chiqaradi.

Lukretsiy Karr psixik hayotning ha'zi bir hodisalarini analiz qilish bilan ham shug'ullandi. Masalan, u sezgi organlarga ta'sir etib turgan har qanday qo'zg'ovchi ham sezgi hosil qilavermaydi, balki ma'lum bir kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchigina sezgi hosil qiladi, deb aniqlagan. U birinchi bo'lib sezgi chegaralari haqida ta'limot yaratdi, uyqu va tush ko'rishning sabablarini tushuntirdi.

Psixologiyadagi idealistik oqim Platon izdoshlari tomonidan targ'ib qilindi. Uning ruhning kelib chiqishi haqidagi ta'limoti nihoyatiga etkazilib, Ammon Sakksning (b.z.a. I asr), ayniqsa, Plotonning (b.e. 205-270) ta'limotidagi diniy mistik qarashlar bilan qo'shib keldi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiyaning dastlabki va o'rta asrlarda rivojlanishida qaysi olimlar hissa qo'shgan?
2. Psixologiyaning rivojlanishida qanday oqimlar paydo bo'ldi?
3. Determinizm va indeterminizm oqimlarini ifodalab bering.
4. Realistlar bilan nominalistlar o'rtasida qanday tortishuvlar yuzaga keldi?
5. Sharq mutafakkirlarining ruhiy jarayonlar haqidagi fikrlarini bayon eting.
6. Rene Dekart, Jon Lokk, Xristian Volf ta'limotlari haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

VIII bob. XVIII-XIX ASRLARDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Asosiy savollar:

1. XVIII asr fransuz materialistlarining ta'limoti
2. XVIII asrlarda psixologiya Kiev-Mogilyan akademiyasida va Moskvadagi Slavyan-

Grekl-Latin akademiyasida o'qitish predmetiga aylanishi

3. XVIII asr rus psixologiyasida materialistik qarashlar tashkil topishi

Tayanch tushunchalar: Nerv mashinasi, nevrologik amaliyot, determinatsion ruh, fiziologik tizim, irada impulsi, assot-siatsiya, skeptizm, klassik idealizm, psixodinamika.

XVIII asr fransuz materialistlarining ta'limoti

XVIII asr psixologlar ko'z o'ngida psixikaga bo'lgan qarashlarning tubdan o'zgarishi davri sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik fikr taraqqiyotidagi yangi davrni «fanlar malikasi» bo'lib hisoblangan mexanika ta'sirida paydo bo'lgan konsepsiyalar ochib berdi. XVII asrga oid psixologik fikrlarning o'ziga xos tomonlari talqinda ochiq namoyon bo'ladi:

a) tushuntirish uchun hech qanday ruhga muhtoj bo'lmagan tana — mexanik tizim haqidagi ta'limot;

b) ichki kuzatish orqali o'z psixik holati haqida hamma narsani bilish mumkin bo'lgan individning ongi haqidagi ta'limot;

d) inson faoliyatini unga foydali narsalar tomon yo'naltiruvchi yoki zararli narsalardan qaytaruvchi e'tiroslar (affektlar) haqidagi ta'limot;

e) fiziologik va psixologik tomonlar o'rtasidagi munosabati haqidagi ta'limot.

Bu ta'limotlarning asosida fanning ulug' zahmatkashlari Rene Dekart (1598—1660), Benedit Spinoza (1632—1677), To-mas Gobbs (1588-1679), Djon Lokk (1632-1704), Gomfrits Leybnits (1646—1716) kabilar turar edi.

Fransuz matematigi, tabiatshunos va faylasufi Dekartning ismi bilan psixologiya tarixidagi g'oyat muhim bosqich bog'langan. Aynan u o'zming ongi haqidagi ta'limoti bilan Aristotelning ruh haqidagi ta'limotidan psixika to'g'risidagi tushunchalarning ajralib chiqishi uchun asos yaratdi. U avto-mat kabi mexanik ishlovchi organizm modelini tanlaydi va u bilan o'sha kunlarga ruh bilan boshqariluvchi bo'lib hisoblangan tirik tanani uning ta'siridan «xalos etdi». Shu davrda Garvey tomonidan qon aylanishining kashf qilinishi «organizm mexanik mashina» degan fikrni rivojlantirdi. Unda yurak qon o'tkazuvchi nasos bo'lib hisoblanadi va bu jarayonda ruhning hech qanday funksiyasi yo'q deb ta'lim berildi. Dekartgacha harcha faoliyat jarayonlari yerdagi hayot tashqarisidan energiya oluvchi maxsus agent ruh bilan boshqariladi, deb hisoblab kelindi. Ammo Dekartdan boshlab, tana mexanika qonunlariga asosan tuzilgan avtotizimdir, undagi organlarning ishlashi ham, tananing faoliyati ham, boshqa tanalar bilan aloqasi ham ruhga muhtoj emas, deb ta'kidlandi. Lekin bu bilan ruh «ishsiz» bo'lib qoldimi? Yo'q, Dekart ruhni hech narsaga bog'liq bo'lmagan oliy substansiyagacha ko'tardi. «Ruh ongning uzluksiz boimagan hodisalari—fikrlaridan iborat» deb aytdi olim. Ruhning birdan bir asosiy belgisi uning fikrlashidir. Fikrlashdan to'xtash ruhning yo'q bo'lishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Dekartning tana va

ruh substansiyalarini o'zaro taqqoslashi shunga olib keladiki, u tana o'z tabiatiga bo'linuvchi, ruh esa bo'linmas, shuning uchun u turli xil narsa degan xulosaga keldi. Dekart dualizmining ma'nosi shuki, tana va ruh mustaqil substansiyalardir. Ularning har qaysisi mavjud bo'lishi uchun o'zidan boshqa hech narsaga muhtoj emas. «Ruh butunlay mening tanamdan ayri bo'lib, u tanamsiz ham mavjud bo'la oladi». «Bizdagi issiqlik va harakat fikrga bogliq bo'lmagani uchun ular faqat tanamizga tegishlidir» deb yozadi Dekart.

Buni Dekart ruhsiz tanalar ham, masalan, olov issiqlikka ega bo'lishi va harakatlanishi bilan isbotlashga harakat qiladi. Dekartning fikricha, hayotni ruh bilan bog'laganlar xato qiladilar. Negaki «o'lim hech qachon ruh tufayli sodir bo'lmaydi, balki tananing muhim qismidagi buzilishi tufayli ro'y beradi».

Dekartga ko'ra asoslarning asosi shubhalanishdir. Uning fikricha hamma tabiiy va g'ayritabiiy narsalardan shubhalanish kerak. Chunki shubhalanganda odam fikrlaydi. Bunda Dekartning mashhur aforizmi — men fikrlayapman, bundan chiqdi, mavjudman, o'zining asosiy fikrlarini Dekart «Aqlni boshqarish qoidalarini», «Ruhlar e'tiroslari», «Odam haqida» nomli asarida bayon etdi.

Dekartning birinchi opponenti bo'lib gollandiyalik faylasuf Spinoza chiqdi. Gegelning fikricha, D. Spinoza Dekart falsafasidagi dualizmi olib tashladi. Unga ko'ra yagona va abadiy ajralmas xususiyatlarga ega bo'lgan substansiya — bu tabiat. Shuning uchun odamni substansiyalar uchrashadigan «joy» sifatida Spinoza inkor etadi. Odam bir butun moddiy va ruhiy mavjudot, deb biladi. Hech kim Spinozachalik Dekartning dualizmi organizmga mashina singari munosabatda bo'lganini anglamagan. O'zining eng mashhur psixologik asari «Etika»- da faylasuf dastlab substansiyalar masalasida to'xtaladi. Shu yerdanoq uning qarashlari Dekartning qarashlaridan uzoqlashadi. Dekartdan farqli ravishda Spinoza monistik ta'limotni ilgari surdi. Substansiya deganda Spinoza bizdan tashqari- da joylashgan tabiatni tushunadi. Bu substansiya o'z navbatida bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, inson ularning faqat ikkita- tasi — tana va fikrni bilgan. Shuning uchun ruh va tana bitta individualni, ya'ni fikrlaydigan tanani tashkil etgan. Alohida ruhiy substansiyaning borligini Spinoza inkor etadi, lekin ma- teriya va tafakkur birligi muammosini oxirida ochib berolmadi. Substansiyalar ta'limoti asosida Spinoza insonning hissiy holatlari — affektlar masalasini yoritib berdi. O'zining affektlar haqidagi ta'limotida affektlarning paydo bo'lishi va ularning tabiati: odamlarning affektlarga qulligi va affektlarning kuchi; inson ozodligi va inson aqlining kuchi masalalari yuzasidan to'xtaldi. Affektlarni Spinoza tabiiy hodisa deb biladi.

Affektlar orasidan Spinoza 3 tasini alohida ajratib ko'rsatadi: - xohlash; -qoniqish; -qoniqmaslik.

Qolgan barcha emotsiyalar shu lardan paydo bo'ladi, deb hisoblaydi Spinoza. Spinoza affekt-lar butunlay inson irodasiga bog'liq va ularni to'liq boshqarish mumkin, degan fikrga qo'shilmaydi. Bu borada u affektlarni inson ustidan o'tkazadigan hukmronligi haqida fikr yuritadi. Barcha affektlar Spinozaning fikricha, insonni shunday holat- ga olib keladiki, bunda u o'z-o'zini boshqara olmaydi. Tasodif- larga qaram bo'lib, aniqlik ko'z oldida,

noaniqlik tomon boradi, ozodlik esa affektlarga ergashishda emas, balki ularni aqlga boy-
 ysundirishdir. Spinoza psixologiyasi ongning psixologik obyekt sifatida shakllanishi
 yo'lidagi Dekandan keyingi mu- him qadam bo'ldi. Empirik psixologiyaning «otasi»
 Gobbsning, vatandoshi J.Lokk bo'lgan. Uning «Inson aqli haqidagi tajriba» asari
 psixologiyaning keyingi taraqqiyotiga kuchli ta'sir etdi. Lokk- ning maqsadi inson bilishining
 paydo bo'lishi va rivojlanishi - ni tajribaviy o'rnanishdan iborat edi. Bunda u «tup'ma
 g'oyalar» g'oyasini inkor etib, bilimlarning manbasi individning hayotiy tajribasi deb biladi.
 Tajribaning o'zida esa Lokkning fikricha 2 manba bor: sezgi va refleksiya. Sezgi obyektidagi,
 tabiatdagi bar- cha moddiy narsalar bo'lib, ularning mahsuloti fikrlardir. Ya'ni «Biz sariq, oq
 yashil, issiq, sovuq, yumshoq, qattiq, shirin, ach- chiq va boshqalar haqidagi fikrlarni shu
 manba orqali olamiz» deb hisoblaydi Lokk. Refleksiyaning obyektini aqlimiz faoliyati bilan
 egallangan va biz tashqaridan o'lolmaydigan fikrdir. Ong- ning obyektini shu fikrdir, chunki
 ong Lokkning bergan ta'rifiga ko'ra aqlimizda ro'y berayotgan narsalarni idrok etishdir.
 Lokk tajriba manbalarini o'zaro farqlasada, ularni bir-biridan ajratmaydi. Uning fikricha,
 sezgi bilimning boshi, refleksiya sezgi asosida paydo bo'ladi. Buni u shunday ta'riflaydi:
 «Aql- da birorta narsa ham yo'qki, u sezgida ham mavjud bo'lmasa». Lokkning fikriga
 ko'ra, fikrlar ikki xil — oddiy va murak- kab bo'ladi. Oddiy fikr faqat bitta tushunchani
 o'zida saqlaydi. Boshqa fikrlar parchalanmaydi. Murakkab fikrlar oddiy fikr-larni qo'shish,
 taqqoslash, umumlashtirish va abstraktlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Oddiy fikrlar
 yig'indisi ongni tash- kil etadi. Murakkab fikrlarning hosil bo'lish manbalaridan bi- ri sifatida
 Lokk assotsiatsiyani keltiradi. U fanga birinchi bo'lib «fikr assotsiatsiyasi» degan atamani
 kiritgan. XVIII asr fransuz materialistlari Kondilyak (1715- 1780), Kabanis (1757-1808),
 Lameiri (1709-1751), Gelvetsii (1715-1771), Galhax (1723—1789) psixika haqida izchil
 materialistik ta'limot yaratdilar.

XVIII asr fransuz materialistlari birdan-bir asos - materiya deb ta'lim berdilar. Ular
 materiya tushunchasini qadimgi grek materialistlaridan olgan edilar, ya'ni materiya
 atomlardan tashkil topgan bosh negizdir deb fikrladilar. Tabiatdagi har xil narsalar faqat bitta
 materiyaning ko'rinishidir, deb qaradilar. Inson, tabiatning bir qismi sifatida, o'zining ham
 jismoniy, ham psixik mohiyatiga ko'ra moddiydir, deb tushunildi. Bu materialistlar ruhning
 mustaqil holda mavjud bo'lishini inkor qildilar va psixik jarayon- larning mohiyatini
 fiziologik jarayonlarga tenglashtirib qo'ydilar. Fransuz materialistlarining qoidasi psixika
 miyaning fiziologik jarayoni, u moddiy jarayondir, degan fikrdan iborat. Bu qoida
 spiritualizm va umuman idea-lizimga, uning moddiy bo'lmagan psixika va ichki tajriba
 haqidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan edi. Lameiri (vrach) aniq materiallarga,
 ayniqsa, patologiya sohasidan olingan ma'lumotlarga asoslanib o'zining «Inson — mashina»
 degan mashhur kitobini yozdi. Asarda u shunday deb yozadi: «Ruhning barcha qobiliyatlari
 miyaning va butun gavdaning tuzilishiga bog'liq bo'lganligi uchun ravshanki, ular shu
 tuzilishning o'zidan iboratdir».

Psixikani fiziologik jarayonlar bilan bunday tenglashtirish Kabanis tomonidan uning
 «Insonning jismoniy va axloqiy tabiati o'rtasida munosa-bat» nomli asosiy asarida keskin

qo'yiladi. Buni Kabanis quyidagicha ifodalaydi: «Fikrni keltirib chiqaradigan jarayonlar haqida aniq tushuncha hosil qilish uchun oshqozon va ichaklar ovqat hazm qilganday, jigar o't ajratib chiqarganday, quloq oldi, jag' osti va til osti bezlari so'lak ajratgan-day bosh miyani ham faqat fikr ishlab chiqarishga tayinlangan alohida organ deb qaramoq kerak. Biz bosh miya ma'lum ma'noda taassurotlarni qaytadan ishlaydi, u organik holda fikr ajratib chiqaradi, deb hisoblaymiz».

Biz hunday fikrlarni XVIII asrning boshqa materialistlarida ham uchratamiz. Bunda, XVIII asr materialistlari psixik hayotning barcha hodisa va jarayonlari, barcha tabiat jarayonlari va hodisalari singari, mexanika qonunlari bilan tushuntiriladi. Engels XVIII asr fransuzlarining kamchi-liklari haqidagi mulohazalarida shunday deydi: «O'simlik va hayvon organizmi juda kam tekshirilgan edi, uning ishlari sof mexanistik sabablar bilan tushuntirilgan edi. Dekartning nazarda odam hayvon bo'lgani singari, XVIII asr materialistlarining nazarida odam mashina bo'lgan. Psixik hayotni mexanistik tushunishning sababi shundaki, XVIII asrda hoshqa fanlar orasida eng taraqqiy qilgan mexanika edi. Fransuz materialistlari odamda ro'y bergan hamma hodisalarni shu mexanika qonunlari asosida tushuntirishga urindilar. Fizika, kimyo, biologiya fanlari o'sha vaqtlarda endigina bosh ko'tara boshladi. F. Engels fransuz materialistlarining mexanistik qarashlari asossiz deb ko'rsatadi».

XVIII asrlarda psixologiya Kiev-Mogilyan akademiyasida va Moskvadagi Slavyan-Grek-Latin akademiyasida o'qitish predmetiga aylanishi

XVII va XVIII asrlarda psixologiya (falsafaning qismi sifatida) Kiev-Mogilyan akademiyasida (1632—1815) va Moskvadagi Slavyan-Grek-Latin akademiyasida (1687—1814) o'qitish predmetiga aylandi.

Bu akademiyalarning professorlari psixologiyaga oid (asosan talabalar uchun qo'llanma tanqasida ko'pgina asar yozganlar), ularda ruh haqidagi metafizik mulohazalar emas, balki tajriba qilib ko'rish mumkin bo'lgan ba'zi psixik hodisalar haqidagi kuzatishlardan olingan ma'lumotlar asosiy o'rinni egallagan edi. Masalan, kievlik olimlar inson aqliy faoliyatida tashqi tajribaga alohida e'tibor berdilar. Ular tafakkur faoliyati faqat sezgilar asosidagina ro'y berishi mumkin, deb hisobladilar. Lokkdan 45 yil oldin (1690-y.) Innekentiy Gizel asarida quyidagicha qoida yozilgan ekan: «Agar sezgilardagi narsalar bo'lmaganda edi, intellektda (inson aqlida) hech narsa bo'lmas edi».

Endi shu narsa ma'lumki, Kiev olimlari I. Myullerdan 200 yil ilpni sezgi organlarining maxsusligi haqidagi masalani qo'ydilar va um hal qilishga intildilar. Innekentiy Gizelning talqin qilishicha, sezgi organlarining maxsusligi bu organlarga tashqi olamdagi (obekt) predmet va hodisalarning ta'sir etishi tufayli paydo bo'lgan. Kiev faylasuflarining asarlarida monokulyar va binokulyar ko'rish haqidagi, xotira tasavvurlari va xayol tasavvurlarining farqlari haqidagi, emotsiyalarning fiziologik asoslari haqidagi, iroda va

uning emotsiya hamda tafakkurning birlashishidan rivojlanishi haqidagi masalalar ham talqin qilingan.

Kiev akademiyasining olimlari Dekart ta'siriga berilmadilar, hayvonlarda ham ruhiy hayotning borligini ta'kidladilar. Ular inson psixikasining hayvon psixikasidan muhim farqiga to'xtalib, insonga nutq va aqli iroda xosdir, deb ta'kidladilar.

Moskva—Slavyan—Grek—Latin akademiyasida o'quv ishlari (xususan psi-xologiya bo'yicha ham) Kiev—Mogilyan akademiyasi namunasida o'tkazildi.

Psixologiyaning dastlabki kurslari Ioannikiy Lixud tomondan asosan Aristotel, Ioan Damaskin va Foma Akvinat ruhida yozilgan edi. Keyinchalik (taxminan 1700- yillarda) Feofilakt Lopatinskiy va boshqalarning asarlarida Dekart, Volf, Leybnits va dastlabki empirik naqim psixologlarining ta'siri ko'zga tashlanadi. F. Lopatinskiy o'zining ruhi haqidagi mulohazalanda ovqatlanish haqida, qon aylanish haqida, temperament haqida va turli yoshdagilarning xususiyatlari haqidagi ta'limotni bayon qiladi. Tashqi va ichki hislarni tekshirishga alohida e'tibor beriladi.

Psixologiya kurslarida asosiy o'rinni ruh, aql va iroda haqidagi boblar ishga'ol qilgan edi.

XVIII asr rus psixologiyasida materialistik qarashlar tashkil topishi

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlariga kelib, Moskva hamda Kiev akademiyasining olimlarida O'rta asr ratsionalistik psixologiyasidan faqat inson psixik hayotiga oid barcha hodisalarning g'ayri jismaniy substansiyasi hisoblangan ruh haqidagi ta'limot qoldi, xolos. Bu idealistik psixologiya edi. Biroq, XVIII asr rus psixologiyasida materialistik qarashlar tashkil topa boshlaydi. O'sha zamon materialistik psixologiyasining eng ko'zga ko'ringan vakillari M. V. Lomonosov hamda A. P. Radishchevlardir.

M. V. Lomonosov (1711—1765) o'zining asarlarida psixologiya masalalariga, xususan, sezgilar sohasiga katta e'tibor berdi va bir qancha hodisalarni materialistik jihatdan tushuntirdi. Masalan, sezgilarning manbai sezgi organlarimizga tashqi predmetlarning fizik ta'siridir, deb ko'rsatdi. U sezgilar inson tomonidan atrofdagi olamni bilishning shartidir, chunki ular inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan moddiy predmetlarning miyaga bevosita ta'sir qilishining natijasidir, deb hisobladi.

Lomonosov o'z zamonasida keng tarqalgan sezgilar sohasidagi, birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limotga qarshi chiqdi.

Lining ta'limotiga ko'ra, ikkilamchi subektiv sifatlar yo'q. Bizning barcha sezgilarimiz obektivdir.

A. P. Radishchev (1749-1802) asosan inson tabiatini tushunishdagi dualizmga, ruhiy hayotni moddiy hayotdan ham miyadan ajratib qo'yishga, nutqni tafakkurdan ajratib qo'yishga qarshi chiqdi.

U psixikani miyadan ajratish mumkin emas va uning manbai hissiy idrok qilinadigan olamdır, deb ta'kidladi. «Ruh tan bilan birgalikda o'smaydimi, uning bilan birga ulg'ayib

mustahkamlanmaydimi, uning bilan birga so'lib o'tmaslashmaydimi? Sen harcha o'z tushunchalarini hisdan olmaysanmi?» — deb yozgan edi u. Miya — psixikaning moddiy asosi, husiz inson aqli mavjud bo'la olmaydi.

Radischev inson ongining taraqqiyotida nutqning katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan, nutq — fikriami bir joyga to'plash vositasidir; modomiki, narsaga nom berilmas ekan, narsa haqidagi fikr so'zlar bilan ifodalanmas ekan, u bizning aqlimizga yotdir va busiz bizning aqlimiz ishga solinmaydi.

XIX asming boshidan boshlab maorifning o'sish bilan psixologiya bilimlar sistemasida empirik psixologiya hukmron mavqeiini egallay boshladi, buning ichida esa materialistik olimlar tez o'sa boshladi.

Nazorat savollari:

1. XVIII asr fransuz materialistlarining ta'limotlarini izohlang.
2. XVIII asrlarda psixologiya Kiev-Mogilyan akademiyasida va Moskvadagi Slavyan-Grek-Latin akademiyasida o'qitish predmetiga aylanishi
3. XVIII asr rus psixologiyasida materialistik qarashlar tashkil topishi

IX bob. XIX -XX ASRLARDA XORIJDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Asosiy savollar:

1. XIX va XX asrdagi psixologiya — bu asosan empirik psixologiyadir
2. Empirik psixologiyadagi idealizm
3. Refleksologiya
4. Veber va Fexner, V. Vunt ta'limoti
5. Vyushburg maktabi psixologiyasi

Tayanch tushunchalar: fiziologiya, vitalizm, parallelizm, «emotsiya va erk», bosh miya reflekslari, refleksologiya, psi-xofiziologiya, reflekslar, sensor, mexanistik, determinizm, anatomik tuzilish, strukturalizm.

XIX va XX asrdagi psixologiya — bu asosan empirik psixologiyadir

Psixologiyada XVIII asrda paydo bo'lgan bu yo'nalish XIX asrda va XX asming boshlarida o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Uning yutuqlariga erishuviga sabab eksperiment metodining rathiq qilinishi edi. Uning predmet doirasi juda kengaydi. Yuqorida aytilganday, psixologiya fanining maxsus o'z vazifalari va metodlariga ega bo'lgan bir qancha shoxobchalari maydonga keldi.

Empirik psixologiya bir hutun narsa emas edi. Bu psixologiyaning ichida bir qancha yo'nalish va oqimlar mavjud edi. Psixologiya tarixida bulardan ancha mashhur va muhimlari

assotsianizm, intellektualizm, volyuntarizm, geshalti psixologiya va freydizmlar edi. Assotsiativ psixologiya haqida yuqorida gapirildi.

Intellektual psixologiya — bu psixikaning asosiy elementi va psixologik faoliyatning asosiy funksiyasi aqli intellektdir, deb hisoblaydigan yo'nalish. Intellektualistlarning fikricha, turli-tuman psixik jarayonlar, shu jumladan emotsional va iroda jarayonlari ham sezgi, tasavvur va tushunchalarning qo'shilishidir, deb tushuntiriladi. Assotsiativ psixologiyaning vakillari intellektualistlarga kiradi, chunki ular ham birlamchi va asosiy element tasavvurlardir, deb hisoblaganlar. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmning eng ko'zga ko'ringan vakili Gerbart hisoblanadi.

Volyuntaristik psixologiya intellektualizmdan farq qilib, psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, faollanishini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik jarayonlar, xususan, tafakkur ham insonning irodaviy faolligi deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologiyaning vakillari G. Lipps (1889—1941) G. Myunsterberg (1863—1916) edilar. Vilgelm Vundt ham, garchand irodaning asosi hislardir, deb hisoblagan bo'lsa ham volyuntarist edi.

Freydizm - bu o'z nomini Avstriya nevropatologi va psixologi Zigmund Freyd (1856—1939) nomidan olgan bo'lib, psixologiya va nevropatologiyadagi alohida yo'nalishdir.

Freyd ta'limotiga ko'ra, shaxs psixologik hayotining asosi jinsiy lazzat olishga qaratilgan tug'ma, ongsiz mayl (instinkt)dir. Lekin tarixan tarkib topgan odat, axloqiy tamoyillar tufayli, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli bu mayl to'g'ridan to'g'ri to'siladi. Shuning uchun ham ba'zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab tug'ilgan vaziyat o'rtasida ichki ruhiy konflikti (to'qnashuv) paydo bo'ladi. Bu to'qnashuvlar ba'zan tarqaror asab kasalligiga (nevrozga) olib keladi.

Kishilik jamiyatida ko'pchilik kishilarning hayoti va taraqqiyoti jarayonida bu tabiiy ongsiz mayl energiyasi mehnat faoliyatiga aqliy va ijodiy faoliyatga qaratiladi va sarf etiladi. Hayotning yuksak sohasiga energiyaning shu tariqa ko'tarilishini sublimatsiya deb ataladi. Freydning ayrim shogirdlari uning ta'limotiga ba'zi bir o'zgarishlar kiritganlar. Masalan, Adolf Adler (1870—1937) fikricha, psixik hayotning asosini, seksual (jinsiy) mayl emas, balki ustunlikka, hokimiyatga, boshqa kishilar ustidan hukmronlik qilishga bo'lgan tabiiy mayl tashkil qiladi.

Geshalti psixologiya, yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yo'nalishning asosiy vakillari X. Erenfels (1859-1932), V. Keller (1887), K. Kofka (1886-1941) lardir. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementar hodisalardan — sezgilardan tarkib topadi, deb hisoblagan assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Geshalti psixologiyaning vakillari bu ta'limotga qarama-qarshi o'laroq, har bir psixik hodisa yaxlit obrazdir, yaxlit struktura — Geshaltdir degan nazariyani ilgari surdilar. Har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig'indisiga nisbatan mazmundorroq hamda boyroqdir. Ayrim element va qismlarning yig'indisi butunning mazmunini belgilamaydi, balki, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism va elementlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo, idrok faktlari asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok - bu sezgilarning yig'indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta'kidlanadi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta'limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Bu alohida-alohida yo'nalish va oqimlar, bir qancha umumiy xususiyatga ega bo'lgan holda (ayniqsa, eng muhim momentlarda) — Empirik psixologiya" degan umumiy nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushumish bu barcha oqimlarning birlashuviga sababchi bo'ldi.

«Empiriklarni psixologiyani ruh haqidagi fan deb emas, — ruhiy hodisalar", yoki —ong hodisalari", yoki bo'lmasa faqatgina ong haqidagi fandır deb qaradilar.

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o'rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan xoli bo'lish yo'lidagi katta qadam deb hisoblash mumkin.

Yuqorida aytilganday, empirik psixologiyaning asosiy metodi kuzatish, tajribadir. Lekin tabiat fanlaridan psixologiya sohasiga ko'chirilgan bu metod ichki tajriba sifatida, o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya) sifatida boshqacha tus oladi.

Empirik psixologiya obektiv kuzatish metodidan ham, eksperiment metodidan ham foydalangan: psixik hodisalar har xil maxsus asboblardan yordami bilan maxsus laboratoriyalarda o'rganildi; materiallarni tekshirish va yakunlashda matematik statistika (korrelyatsiya) metodlaridan foydalanildi.

Empirik psixologiyaning psixologiya fan tarixidagi ikkinchi katta xizmati tajribadan foydalanishdan, psixologik eksperimentlar o'tkazishning metod va texnikasini ishlab chiqishdan iborat.

Psixologlar tomondan eksperimentning tatbiq qilinishi tufayli inson psixologiyasi sohasida boy materiallar to'plagan. Bu materiallarning ko'pchilik qismi hozirgacha ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan (masalan, Vundt va Ebbingauzning eksperimental ishlari). Empirik psixologiya aniqlagan ma'lumotlar va ishlab chiqqan eksperimental metod va usullar amaliyotda ham, masalan, tibbiyot va pedagogika sohalarida foydali bo'lib chiqdi.

Empirik psixologiyadagi idealizm

O'z-o'zini kuzatish metodi empirik psixologiyaning asosiy metodi edi. Obektiv kuzatish va eksperiment metodlari esa ikkinchi darajali o'rin egallardi: ular faqat psixologiyadagi asosiy metod — o'z-o'zini kuzatish natijalarini aniqlashga yordam beruvchi metodlar deb hisoblanardi. Shuning uchun ham —ong hodisasi", —ichki tajriba" (insonning subektiv kechirik)larini o'z obekt deb bilgan empirik psixologiya ko'pincha o'z-o'zini kuzatish metodidan foydalangan, shu sababli yana —subektiv psixologiya" deb nom olgan. Shu jihatdan empirik psixologiyaning uning subektivizmi bilan bog'langan eng muhim kamchiliklaridan biri idealizm va dualizm edi.

Empirik psixologiyaning vakillari bu oqim paydo bo'lgandan boshlaboq, ruhning o'zini

ilmiy o'rganish predmeti sifatida olishni rad qildilar va ruhning asl mohiyati haqida fikr yuritishdan, bu masalani hal qilishdan bosh tortdilar. Lekin, —ruhiy hodisalarni“, —ong hodisalarini“ o'rganishni asosiy vazifa qilib olgan psixologlar o'z ishlari jarayonida taqozo qilingan: bu ruhiy hodisalarning o'zi nima, ularning fizik hodisalardan farqi nimada va ular inson organizmidagi fiziologik jarayonlar bilan qanday munosahatda bo'ladilar, degan savollar bilan to'qnash keldilar va bu savollarga javob berishga majbur bo'lib qoldilar.

Empiriklar subektiv metod (o'z-o'zini kuzatish)dan olingan natijalarga asoslanib, psixik hodisalarni tasvirlab va analiz qilib, bu hodisalarni fizik hamda fiziologik hodisalar bilan taqqoslaydilar. Bu taqqos-lashlar natijasida ular odatda, taxminan quyidagicha xulosalar chiqaradilar.

Psixik hodisalar o'z xususiyatlariga ko'ra fizik hamda fiziologik hodisalardan farq qiladi, masalan, psixik hodisalar fazoviy jismlar emas (ya'ni, ularning uchhurchak, kvadrat kabi geometrik shakllari bo'lmaydi); ular og'irlik, rang singari boshqa fizik xususiyatlarga ham ega emas, shunga asoslanib, empirik psixologiyaning vakillari psixik hodisalar fizik va fiziologik jarayonlardan tubdan farq qiladi, deb hisobladilar. Psixik hodisalar moddiy emas, balki ruhiydir. Modomiki, psixik hodisalar o'z tabiatiga ko'ra moddiy emas ekan, u holda ularning negizida qandaydir moddiy bo'lmagan alohida substansiya bo'lsa kerak, dedilar, ya'ni alohida moddiy bo'lmagan substansiyadan iborat bo'lgan ruhning mavjudligiga ishonadilar. Masalan, Jems empirik psixologiya vakillari haqida gapirar ekan (uning o'zi ham shularga mansub edi), ular ongni o'rgatayotganlarida, ruhning o'zini emas, balki sochilgan substansiya ruhdan tarqalgan aks-sadoni go'yo uning zo-hirini uzoqdan ovlayaptilar deb e'tirof etadi. Vundt materiya tabiatsunos-likning yordamchi tushunchasi bo'lgan materiya singari, ruh ham psixologiyaning yordamchi tushunchasidir, deb hisobladi, Vundt faqat ruhning substansionalligini dolzarblik bilan almashtiradi, xolos.

Shunday qilib, empirik psixologiya dastlab ruhni o'rganish obekti sifatida olishni rad qilgan bo'lsa ham, lekin keyinchalik uning eng yirik vakillari oqibat-natijada o'z nazariy mulohazalariga asosan ruhni tan olishgacha bordilar. Empirik psixologiyaning vakillari ongni uning moddiy asosidan, inson faoliyatidan ajratib qo'ydilar.

Bu psixologiya vakillarining psixik hodisalarni qanday bo'lmasin materialistik talqin qilishdan chetlashishga intilganliklari, materializmga har qanday yaqinlik shubhasidan tashqarida bo'lishga intilganliklari (masalan, Jems) empirik psixologiyaning tamomila idealistik maqsadlarni ko'zlaganidan dalolat beradi. Ularning har biri, hattoki psixologiyaning vazifasi materializm bilan kurashdan iborat, deb hilganlar.

Rossiyada ham empirik psixologiya idealizm bilan sug'orilgan. Rus psixologiyasidagi bu yo'nalishning vakillari N.Ya. Grot, A.N. Vvedenskiy, Lopatin, Losskiy, Frank va hoshqalar edilar.

Ayniqsa, o'sha vaqtda katta eksperimental ishlarni amalga oshirgan eng yirik psixologiya institutining tashkilotchisi prof G.I. Chelpanov nomi shuhrat qozongan edi.

Empirik psixologiyadan asosan idealistik falsafam asoslash va materializm bilan kurash uchun foydalanilardi. Oliy, o'rta va pedagogik o'quv yurtlarida psixologiya o'qitish ishlari

ham idealistik ruhda olib borilardi. To'g'ri, empirik va eksperimental psixologiyaning bir qancha namoyondalari (masalan, N.N. Lange, A.F. Lazurskiy) psixologiyani hech qanday falsafiy nazariyalar bilan bog'lamasdan, psixologik tajriba dalillaridan hech qanday falsafiy xulosalar chiqarmasdan oyoqqa turg'izishga urindi-lar; boshqalari esa (masalan, A.P. Nechaev) empirik psixologiya dalil-larini bevosita pedagogik amaliyot bilan bog'lashga intildilar. Aslida esa ularning hammasi idealizmini targ'ib qildilar.

Empirik psixologiya psixik hodisalarni tasvirlash va analiz qilish asosida materializmning yaroqsizligini isbotlashga, shunday qilib idealistik falsafani fanga o'xshatib asoslashga urindilar.

XIX asming oxirida bir qancha Amerika psixolog va fiziologlari, jumladan, E. Torndayk (1874-1949), J. Uotson (1878-1958), K. Leshli (1890-1958), A. Veys (1879— 1931) va boshqalar empirik psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Ular, avvalo, bu psixologiya foydalanib kelayotgan o'z-o'zini kuzatish metodi (subektiv metod) haqiqiy ilmiy bilimlar hera olmaydi, chunki uning xulosalari subektiv xarakterga egadir. Haqiqiy ilmiy bilimlar obektiv va aniq bo'lmog'i kerak. Psixologiya falsafaga emas, balki hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanmog'i va boshqa tabiat fanlari, masalan, fizika, ximiya, biologiya sinfari, tashqi tajriba dalillari asosida ko'rilmog'i kerak. Shuning uchun ham psixologiya o'z-o'zini kuzatish metodini uloqtirib tashlashi va faqat obektiv (tashqi) metoddan foydalanishi kerak, ya'ni psixik hayotni har kim o'z-o'zida emas, balki boshqa kishilarda hayvonlarda tashqi kuzatish va eksperiment yo'li bilan o'rganmog'i kerak. Psixologiya faqat obektiv metod qamrab oladigan narsalarnigina, ya'ni tashqi sezgi organlari yordamida idrok qilinadigan narsalarnigina o'rganmog'i kerak.

Psixik hayotni obektiv metod bilan o'rganishda, aftidan, ongning subektiv hodisalari, inson shaxsining ichki psixik kechirmalari (ya'ni, empirik psixologiya o'rganishi lozim deb hisoblagan hodisalar) qamrab olinmay qolsa kerak. Obektiv metod bilan faqat organizmning harakatlarini, ya'ni mimika, imo-ishoralar, nutq va boshqalarnigina o'rganish mumkin. Amerika psixologiyasidagi bu oqimning vakillari ham psixolog organizmning faqat tashqi ifodali harakatlarini, inson va hayvon xulqini- gina o'rganmog'i kerak, deb da'vo qildilar.

Uotson shuning uchun ham o'zining psixologiya sohasidagi asosiy asarini — Psixologiya xulq haqidagi fan" deb nomladi. —Bixevior" degan so'z inglizcha xulq, demakdir. Amerika psixologiyasidagi bu yo'nalish shuning uchun ham —bixeviorizm" (— Xulq psixologiyasi") deb ataladi.

Organizmning turli-tuman harakatlarini va umuman hayvonlar hamda inson xulqini keltirib chiqaradigan sabablar nimadan iborat degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Biz odatda, organizmning harakatlari — mimika, imo-ishoralar, nutq ichki ruhiy kechirishlarning, faqatgina tashqi zohiri deb bilamiz. An'anaviy — ratsionalistik va empirik —psixologiya ham bizning harakatlarimizning ko'pchiligi ichki psixik kechiriklarning faqat tashqi ifodasidir, deb ta'kidlagan.

Lekin bixevioristlar inson xulqining bunday tushuntirishini ilmiy emas deb rad qildilar. Ularning da'vosiga ko'ra, fizik va qonuniyatlariga bo'ysunmaydigan fiziologik jarayonlar

inson xulqiga ta'sir qiladigan va uni boshqaradigan hech qanday alohida psixik faoliyat yoki ong faoliyatining bo'lishi mumkin emas.

Psixika va ong haqida Uotson: —Agar bixeviorizm fanda qandaydir ko'zga ko'rinarli o'rin olinishini xohlasa (loaqaq aniq, obektiv metod sifatida bo'lsa ham), u —ong" tushunchasini mutlaqo rad qilmog'i kerak. Ong va uning tarkibiy elementlari — bularning barisi quruq gapdan iborat" deb aytgan.

Shuning bilan birga bixevioristlar psixologiyaning oddiy terminologiyasini ham uloqtirib tashlaydilar. O'sha Uotsonning o'zi yana shunday deydi: —sezgi, idrok, diqqat, iroda, xayol kabi tushunchalardan, biror kimsa to'liq tushungan holda foydalana olishini men mutlaqo bilmayman va unga ishonmayman ham".

Hayvon va insonning har bir harakati tashqi qo'zg'ovchilarning ta'siri tufayli ro'y beradi. Inson va hayvonning xatti-harakatlari tashqi ta'sirotlarga berilgan reaksiyalardir, xolos. Bu reaksiyalar tug'ma va turmush jarayomida hosil qilingan bo'lishi mumkin. Tug'ma reaksiyalarga reflektor harakatlar (instinkilar) kiradi. Xosil qilingan reaksiyalarga esa har xil malakalar kiradi. Masalan, barcha irodaviy harakatlar nutq va boshqa murakkab xulq shakllari shunday harakatlardir.

Bixeviorizmning asoschisi Torndayk kuzatish metodi va maxsus eksperimentlar o'tkazish bilan hayvonlarda (asosan, kalamuslarda) malaka hosil qilish jarayonini o'rgangan. Torndayk hayvonlar psixikasini o'rganishdagi xuddi shu obektiv metodlarni inson psixik hayotini o'rganishga ham ko'chirish (tatbiq qilish) mumkin deb hisobladi. Inson xulqi reaksiyalar yig'indisi sifatida bitta emas, balki butun bir qo'zg'ovchilar sistemasi bilan vujudga keltiriladi. Organizmning javob harakatlari yig'indisini (xulqini) ro'yobga chiqaruvchi barcha qo'zg'ovchilarning murakkab yig'indisi bixevioristlar situatsiya (tashqi sharoit) deb ataydilar.

Bixeviorizm nuqtayi nazaridan, inson xulqi ong faoliyati bilan emas, balki tashqi qo'zg'ovchilarning yig'indisini bo'lgan situatsiya bilan belgilanadi. Insonning psixik hayoti butunlay organizm reaksiyalarining yig'indisiga tenglashtirib qo'yiladi. Psixik hodisalar, psixik jarayonlar tushunchalari o'miga ham an'anaviy psixologik tushunchalar hisoblan-gan sezgi, idrok, iroda, xayol, tafakkur kabi tushunchalar o'miga ham har xil nom olgan reaksiyalar ishlatiladi.

Bixeviorizmning nuqtayi nazaricha, psixologiyaning vazifasi, avvalo, organizm har xil qo'zg'ovchilarni qabul qilib olishga xizmat qiluvchi va shu qo'zg'ovchiga javob beruvchi apparat va mexanizmlarni o'rganishdan iboratdir. Shuning bilan birga, psixologiya muayyan reaksiya tashqi muhitning inson organizmiga ta'sir qilib turgan qanday predmet va hodisalari bilan ro'yobga chiqarilishini ham o'rganmog'i kerak. Binobarin, psixologiya inson reaksiyalarini faqat tasvirlabgina qolmasdan, balki qo'zg'ovchi bilan organizmning javob harakati o'rtasidagi qonuniy bog'lanish va munosabatlarni ham qidirib topishi va aniqlashi, xulqning situatsiyaga hog'liqligini belgilab berishi lozim. Bixevioristlarning fikricha, tashqi qo'zg'ovchi bilan inson xulqi o'rtasida qonuniy, faqat mexanik bog'lanish bor: qo'zg'ovchi (situatsiya) qanchalik kuchli va murakkab bo'lsa, reaksiya (xulq) shunchalik kuchli va

murakkab bo'ladi va aksincha, qo'zg'ovchi (situatsiya) qanchalik kuchsiz va oddiy bo'lsa, reaksiya (xulq) shunchalik kuchsiz va oddiy bo'ladi. Demak, bixeviorizmning asosiy qoidalaridan biri shuki, inson xulqi hamma vaqt muhit bilan qat'iy muvozanatda bo'ladi.

Bixevioristlarning ta'limotiga ko'ra, inson shaxsi faqat organizm yoki amqroq qilib aytganda, eng murakkab mashina bo'lib, u o'zining barcha (elementar yoki murakkab) harakatlari bilan muhitning shart-sharoitlari va o'z organizmining strukturasi bilan qonuniy ravishda belgilangan (determinlangan)dir.

Insonning hutun faoliyati, uning butun xulqi harakatlardan iborat bo'lgan fizik, mexanik jarayon deb qaraladi. Insonning psixik hayoti nerv sistemasida, mushak va ichki sekretsia bezlarida ro'y beradigan harakat va o'zgarishlarga tenglashtirib qo'yiladi.

Shuning uchun ham, agar empirik (subektiv) psixologiya ruhning o'zini o'rganishdan voz kechganligi sababli uni ba'zan —ruhsiz psixologiya" deb atagan bo'lsalar, obektiv psixologiyani esa —Psixikasiz psixologiya" deb atadilar.

Bixevioristlarning fikricha, psixologiya ham nazariy fan sifatida fizika singari, aniq fan bo'lmog'i kerak. Texnika sohasida fizika qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, ijtimoiy tuzum sohasida psixologiya ham shunchalik ahamiyatga ega bo'lmog'i kerak. Uotsonning fikricha, psixologiyaning oldiga shaxs va muhitni shunday tashkil qilish vazifasi qo'yilmog'i kerak-ki, bu hilan jamiyatda oqilona va haxtli hayot kechirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsin.

Bixeviorizm nuqtayi nazaricha, xususan psixologiyaning oxirgi vazifalari insonning yoki hutun bir jamiyat (sinf) ning zaruriy xulqini tashkil qilishdan iboratdir. Psixologiya u yoki bu odam, hutun bir jamiyat har qanday sharoitlarda ham qanday xatti-harakat qilishini oldindan mumkin qadar aniq va ilmiy jihatdan asoslab aytib bermog'i kerak.

Bixeviorizm nuqtayi nazaricha, ta'lim va tarbiya tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar ongiga tarbiyachi yoki o'qituvchi tomonidan ta'sir qilishdan emas, balki tegishli situatsiya (sharoit) tashkil qilishdan iboratdir.

Bu situatsiya (qo'zg'ovchilar va stimullar yig'indisi) organizmga bevosita ta'sir qilib, inson xulqini kerakli yo'nalishda shakllantirmog'i kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonining o'zi esa, kerakli malakalar (ichki va tashqi harakatlar) hosil qilishga tenglashtirib qo'yiladi, boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya jarayom pressirovkadan iborat qilib qo'yiladi.

Refleksologiya

Amerika bixeviorizmi hilan deyarli bir vaqtda Rossiyada ham psixologiyada alohida obektiv yo'nalish paydo bo'lib, uning tashkilotchisi professor V.M. Bexterev (1857-1927) edi.

Bexterev ham, bixevioristlar singari, o'z-o'zini kuzatish metodini va empirik psixologiyani subektiv hamda ilmiy emas, deh qattiq tanqid qildi. U ilmiy psixologiya tashqi kuzatish va eksperimentga asoslanmog'i kerak, deh hisobladi. Sirdan turib psixika — ■ ongni kuzatish mumkin bo'lmaganligi uchun, psixologiya oddiy (tug'ma) va murakkab (hosil qilingan) reflekslarga asoslangan tashqi reaksiyalarni o'rganmog'i kerak. Bu nomlar

Pavlovcha shartsiz va shartli reflekslarga to'g'ri keladi.

V.M. Bextenov o'z ta'limotini obektiv psixologiya deb, keyinchalik esa refleksologiya deb atadi. Bextenov inson shaxsining harcha murakkab harakatlarini mashinaga o'xshagan mexanik faoliyat, reflekslar zanjiri va qo'shilishi deb hisoblaydi. Masalan, Bexterovning fikricha, inson ongining ijod singari murakkab harakatlari ham ma'lum bir maqsadni ko'zlagan, bir-birlari bilan ulangan reflekslar yig'indisidir, maqsad esa o'zining o'tmishdagi tajribasidan yoki boshqalarning tajribasidan olinadi. Bixevio- rizmndagi singari, refleksologiyada ham, hissiyot, diqqat, xotira, tafakkur, iroda kabi harcha an'anaviy psixologik tushunchalar shartsiz (sodda) reflekslar va shartli (murakkab) reflekslar haqidagi, markazlashish, reproduktiv, orientirovka reflekslari haqidagi, nutq reflekslari haqidagi ta'limotlar bilan almashtiriladi. Psixologik terminlar biologiya, fizika va mexanika sohasidagi terminlar bilan almashtirilgan edi, masalan, irradiatsiya, konsentratsiya, differentsiatsiya, tormozlanish, tormozlanishning yozilishi va boshqalar.

Bexterovning psixik faoliyati haqidagi ta'limoti, aslida, Amerika bi-xevionistlarining ta'limotini takrorlagan edi. Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, kimyo va boshqa tabiat fanlarining gurrilab o'sishi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bo'lgan eksperimental metodning keng qo'llanishiga fanning bunday o'sishiga yordam berdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq, psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emas-mikan, degan masala maydonga chiqdi.

Bu masala bo'yicha faylasuf Kant o'z fikrini aytdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarni o'lchash mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish mumkin emas.

Psixik hodisalarni o'lchashning mumkinligi, binocharin, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixolog I. Gerbart (1776-1841) ijobiy fikr aytgan. U — psixologiyada matematikani tatbiq qilish mumkin va zarurligi haqida" shunday degan: — Mening tekshirish-larim amalda faqat psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir".

Gerbartning fikricha, asosiy psixik element tasavvurdir, qolgan harcha jarayonlar - hissiyot, iroda, tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlaridan iboratdir. Ruhiy holatlar doimo o'zgarish jarayonida bo'ladilar. Tasavvurlarning bu doimiy o'zgarish va almashish jarayonida ma'lum darajada doimiylik qonuniyati bor. Bu doimiylik miqdori to'liq o'lchash mumkin. Shuning uchun ham, Gerbartning fikricha, psixologiyaga matematikani tatbiq qilish mumkin.

Gerbart garchan psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydaliligini isbotlagan bo'lsa ham, lekin uning o'zi bu metoddan foydalanmadi.

Veber va Fexner

Psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish bo'yicha dastlabki ishlarni fiziolog Veber (1796-1878) va fizik Fexner (1803-1887)lar amalga oshir-dilar. Veber va Fexnerning

maqsadi tashqi ta'sirotlar (fizik omillar) va ularning muvofiqi - sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonu-niyatlarni topishdan iborat edi. Fexner eksperimental metodlar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni qo'zg'atuvchi taassurotlar ta'siridagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi qo'zg'atgich logarifmasiga proporsionaldir degan psixofizik qonuni kashf etadi. Veber va Fexnerlar o'tkazgan tajribalar «Psixofizika» degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi.

Veber va Fexner ishlarining ahamiyati, asosan, shundan iboratki, ular birinchi bo'lib psixologiyani, tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotladilar. Shu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan, o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelayotgan psixologiya endi aniq fanlardagi obektiv metoddan foydalana boshlaydi.

Vilhelm Vundt

Eksperimental psixologiya taraqqiyotida, ayniqsa, nemis fiziologi va psixologi Vilhelm Vundt (1832-1920)ning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriy fan edi. Vundt eksperiment va o'lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo'lib qolgan bir qancha metodlarni, ya'ni qo'zg'atish metodi, ifodalash metodi va reaksiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi.

Vundt 1879-yili birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini kashf qildi.

Oradan ko'p vaqt o'tmasdan (1881) u Berlin universiteti huzurida Eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi. Vundt shug'ullangan masalalardan biri o'sha vaqtda astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtda ikkita har xil o'tkazgichga to'plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun Vundt (laboratoriya tashkil qilin-ganga qadar) 1861-yilda alohida mayatnik ish o'ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlana-di va har bir ma'lum vaqtdan keyin shing'iraydi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Ilmiy (izohli) psixologiyani oyoqqa turg'izish uchun Vundt qo'shimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa, fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mitologiya va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatini ilgari surdi.

Leyptsig laboratoriyasi va institutidan namuna olib, Germaniyaning boshqa universitetli shaharlarida ham, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham, jumladan Fransiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil qilindi. XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil qilindi: Moskvada Tokarskiy, Qozonda - Bexterev, Odessada N.N. Langerlar tomonidan shunday laboratoriya ochildi. 1911-yil Moskva universiteti huzurida maxsus ko'rilgan binoda professor Cholpanov rahbarligida Eksperimental psixologiya instituti tashkil qilinadi.

Professor A.F. Lazurskiy (1874-1917) tomonidan eksperimental metodning alohida turi - tabiiy eksperimental metodning alohida turli tabiiy eksperiment metodi ishlab chiqilgan.

Ekspenimentning bu turidan hizada bolalar psixologiyasini o'rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta'lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va umumli foydalanilmoqda.

Ekspenimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda umumli ta'sir ko'rsaldi.

Bu metodning yordamida oddiy kuzatish yoki o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lmagan ko'p ma'lumotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlangan, psixik jarayonlardagi, ayniqsa, sezgilar, idrok, diqqat, xotira sohasidagi ha'zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Ekspenimental analiz yo'li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek, tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlari ochilgan.

Ekspenimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, ekspesimental metodning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohaslarida - o'quv tarbiya ishlarida, tibbiyotda, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashda, sud ishlarida, san'atda juda ko'p foyda keltirdi.

Vyushurg maktabi psixologiyasi

XX asming boshlarida Germaniyada Vyurshurg maktab psixologiyasi deb atalgan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning vakillari Q. Kyulpe (1862-1915), K. Byuller (1879-1922), A. Messer (1837-1937), Ax Nartsis (1871-1946) va boshqalardir.

Ular assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar va tekshiriluvchi-larning o'z-o'zini kuzatishlariga asoslangan maxsus ekspesimentlarotkazish yo'li bilan, yuksak psixik jarayonlarni, asosan, tafakkurni sodda psixik elementlarga sezgilar va tasavurlarga bo'lib qo'yish bu murakkab psixik jarayonlarni shu elementlardan tarkib topadilar, deb ta'lim berish mumkin emasligini isbotlashga intildilar. Bu ekspesimentlarning tashahhuskorlari va uyushtiruvchilari bo'lgan Kyulpe, Messer, Byuller hamda boshqalar psixologik ekspesimentlarini o'zlari ustida sinab ko'rganlar.

Ular o'z ekspesimentlarining yakunlarini analiz qilib, tafakkur yuritish aniq o'lchash mumkin bo'lgan vaqtni talab qiladi, deb ta'kidlashga intildilar. Biroq, tafakkur jarayonining mazmunini esa «ilintirib olish» ham mumkin emas ekan, bu jarayonning tarkibidagi sezgilarni, tasavvurlarni, so'zlarni va boshqa yaqqol elementlarni «il-intirib olish» mumkin emas ekan. Tafakkur ham, sezgi singari, birlamchi hodisa ekan: u o'z tabiatiga ega bo'lib, tajribaga bog'liq emas, degan xulosaga keldilar.

Vyurshurg maktabining vakillari tafakkur funksiyasining birlamchiligi va o'ziga xosligi haqidagi ta'limotni bilan, tafakkur ruhning alohida qobiliya-tidir, degan tafakkur hukmidagi sxolastik ta'limotni, ruhni alohida moddiy bo'lmagan mohiyatdir, deb ta'riflovchi metafizik ta'limotni faqat boshqa iboralar bilan ifodalagan holda qaytadan takrorladilar, xolos.

Vyursburg maktabining xulosalari psixologiyadagi o'la ketgan idealizm-ning vakillari, xususan, professor Chelpanov tomonidan yuqori baholan-di. Chelpanov bu xulosalardan insonda moddiy bo'lmagan alohida substansiya sifatidagi ruhning borligini isbotlovchi eng kuchli dalillardan biri sifatida foydalandi.

Vyursburg maktabi psixologlarining asarlari va ularning tafakkurning mohiyati haqidagi xulosalari chet el psixologiyasida, ayniqsa, sovet psixologiyasida qattiq tanqid qilindi. Vyursburg maktabi psixologlarining asarlari psixologiyada idealizmi mustahkamlashga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishlardan biridir.

Vyursburg maktabi psixologlari qarashlarining ilmiy jihatdan asossizligi, bixevioristlar va refleksologlarning qarashlari singari, sovet psixologlarining tanqidiy asarlarida to'la-to'kis isbotlangan.

Nazariyotchilar hayvon psixikasi va inson ongining genetik birligi hamda sifat jihatidan farqi haqidagi, inson ongining mehnatda paydo bo'lganligi va tarixiy taraqqiyoti haqidagi ta'limotni asoslab berib, psixika va ongni tushunishdagi idealistik va mexanistik qarashlarni mukammal tanqid qilindi. Dialektik materializm namoyandalari inson ongining taraqqiyotida ijtimoiy-tarixiy hayot shakllarining ahamiyatini ko'rsatdilar va tarixda inson ongining faolligini isbotlab berdilar.

Metafizik — psixolog ruh nima degan narsa haqida mulohaza yuritgan. Bunda usulning o'ziyoq behuda edi. Xususan, psixik jarayonlarni tushuntirmasdan turib, ruh haqida mulohaza yuritish mumkin emas; bu erda progress xuddi shundan iborat bo'lmog'i kerakki, ruh nima, degan masalalar haqidagi umumiy nazariya va falsafiy uydirmalarni uloqtirib tashlash va ma'lum psixik jarayonlarni xarakterlaydigan faktlarni o'rganishni ilmiy zaminida ko'ra bilishga erishishdir.

Nazorat savollari:

1. Strukturalizmi tushuntiring.
2. Vyusburg maktabi haqida nimalarni bilasiz?
3. Fransuz psixologiya maktabi vakillarini ayting
4. Sezgi organlari haqidagi bilimlar.
5. Psixofiziologiya nima?
6. Bosh miya haqidagi bilimlar.

X bob. XX ASRDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Asosiy savollar:

1. Psixologiyada metodologik inqiroz.
2. B. Skinnerning operant bixeviorizmi
3. Sotsial o'rganishlar nazariyasi
4. Geshtalt psixologiyaga umumiy tavsif
5. Z. Freydning g'arb madaniyatiga chuqur ta'siri

6. K. Yungning analitik psixologiyasi

7. Reaktologik psixologiya

Tayanch tushunchalar: ong, Spinoza psixologiyasi, Dekart ta'limoti, bixeviorizm, neobixeviorizm, freydizm, neofreydizm, shaxs tiplari, ekstraversiya, introversiya, xulq-atvor, psixonaliz, reaktivlik, impulsivlik.

Psixologiyada metodologik inqiroz

Bixeviorizmga umumiy tavsifnoma. Neobixeviorizmning yuzaga kelishi va rivojlanishi psixologiya tarixida vujudga kelgan bixeviorizm maktabi shaxsni o'rganishda ham o'z o'rniga ega. Ushbu maktab vakillarining g'oyasi xulq-atvorni o'rganish asosiy masala sifatida o'rin olgan bo'lsa-da, uning ayrim vakillari muammoni tahlil etishda o'zlarining pozitsiyalariga egadirlar.

O'tgan asrda amerika psixologiya maktabining haqiqiy qiyofasi sifatida maydonga chiqdi. Uning asoschisi Djon Uotson (1878—1958) bu yo'nalishning haqiqiy yo'l boshchisi sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bixevior tushunchasi (behavior) inglizchadan tarjima qilganda «xulq-atvor» degan ma'noni anglatadi. Bixeviorizm tushunchasi tarjima qilganda xulq-atvor psixologiyasi ma'nosini anglatadi.

Xulq-atvorni tahlil qilish to'liq obyektiv xarakterga ega bo'lib, tashqi kuzatiladigan reaksiyalar bilan cheklanadi. Insonning fikri, ongini ko'rib bo'lmaydi, ularni o'lchash mumkin emas, bundan ko'rinadiki, barchasini obyektiv qayd etish imkoniyati bo'lmaydi. Insonning ichki olamida kechayotganlarni o'rganishning imkoni yo'q. Demak, shaxs «qora quti» sifatida ishtirok etadi. Inson harakatining tashqi ifodalanishining obyektivligini stimullar va vaziyatlar shartlaydi. Shunday ekan psixologiyaning vazifasi stimullar bo'yicha namoyon bo'ladigan ma'lum reaksiyalar belgilaydi.

Bixevioristlar nuqtayi nazaricha shaxs mazkur insonga xos xulqiy reaksiyalarning majmuidan iborat. Stimul-reaksiya (S—R) formulasi bixeviorizmida yetakchi hisoblanadi. Tordayk effekti qonuni S va R o'rtasidagi aloqalarni aniqlashtiradi, agar mustahkamlanish bo'lganda, u ijobiy bo'ladi, qachonki rag'batlantirish, kutilgan natija olinganda, moddiy rag'batlantirish yoki salbiy bo'ladi, qachonki, og'riq, jazolash, omadsizlik, tanqidiy ogohlantirish yuz berganda. Insonning xulq-atvori ko'pincha ijobiy qo'llab-quvvatlashni kutgandan, ba'zan salbiy kuchlar qochishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bixeviorizm yo'nalishiga ko'ra shaxs individga nisbatan ongli tartibga solingan instinktlar, sotsiallashgan emotsiyalar, yangi ko'nikmalarning shakllanishiga ko'maklashuvchi plastiklik, muhitga moslashuviga ko'maklashuvchi va ularni saqlashga xizmat qiluvchi qobiliyatlarni o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Bu shaxsning uyushgan va nisbatan barqaror ko'nikmalar tizimidan iborat ekanligini anglatadi. Oxirgi barqaror xulq-atvor asosini ularning yangi hayotiy vaziyatlarga moslashuvi, o'zgarishi, yangi ko'nikmalarning shakllanishiga olib keluvchilar tashkil etadi.

Bixevioristlar odamni u yoki bu harakatlar, reaksiyalar, xulq-atvorni dasturlashgan, aniqlovchi, o'rganuvchi mavjudotdir. O'zgarishlar va mustahkamlash o'zgaranda uni talab etiladigan xulq-atvorga dasturlash mumkin.

Bixeviorizm mazmuniga psixolog Tolmen S-R reaksiyaga shubha bilan qarash orqali, unga o'zgarish kiritishga erishdi. U ushbu sxemaga o'zgarish kiritdi va uni S-I-R tarzda ifodalashga olib keldi. Bu yerda I individning irsiyatiga, fiziologik holatlarini, oldingi tajribasiga bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar.

B. Skinnerning operant bixeviorizmi

Berris Frederik Skin-ner 1904-yil Pensilvaniya shtatida tug'ilgan. Uning oilaviy muhiti samimiy va erkin, intizom qattiq bo'lgan, hamda munosib xizmat ko'rsalganda rag'batlantirilgan. Skinner butun yoshligi davrida to'liqlik samakatlarni, konsellarni, aravalarni konstruksiya qilish bilan ko'p shug'ullangan. Bu yoshlikdagi ixtirolar kelajakda uni harakatlarini kuzatish modifikatsiyasiga qiziqishidan darak berardi. Uning shuningdek, maktabda o'qishga qiziqishi katta bo'lgan, hamda unga bilim bergan o'qituvchilarini iliqlik bilan xotirlaydi.

Skinnerning nazariyasiga yondashuvlar: Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi cheklangan o'tilgan. Mazkur yo'nalishdagi nazariyotchilar avvalo insonlarning harqaror bir-birlaridan farqini o'rganish va shaxslarning xulq-atvoridagi turli xil murakkabliklarni gipotetik tushuntirishga harakat qilish bilan birga individning xulq-atvorini unga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish yo'li bilan aniqlash mumkinligini e'tirof etadilar.

Skinnerning ta'kidlashicha, psixologiya, ayniqsa o'qitish yetarli darajada rivojlanmagan, shu sababli ulkan masshtabli nazariya mavjud bo'lmagan. Shuningdek, u nazariy yo'nalishda tekshiruvlar o'tkazish lozim emasligini, chunki ular kuzatuv faktorlariga tushuncha berib, hodisalarni turli terminlar va o'lchamlarda ta'kidlab, ularni turli me'yorlarda o'lchab bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi.

Skinner o'zini nazariyotchi deb hisoblagan va shaxsni o'rganish nazariyasini yaratib bergan. Skinner o'z intervyusida: «Men o'zga dunyo, aql va asab tizini nazariyasini yaratib, xulq-atvorni tushuntirishga harakat qilaman. Bunday nazariyani muhim va foydali deb hisoblayman», - degan fikrni bildirgan.

Skinner o'z nazariyasi bilan faqatgina shaxsni emas, balki butun xulq-atvorni tushuntirishga harakat qildi. Skinner psixologiya aniq dalillar asosida va tadqiqotlar laboratoriya sharoitida amalga oshirilishi kerakligini ta'kidladi va asoslab berdi.

Sotsial o'rganishlar nazariyasi

Keyingi davrda klassik bixeviorizm rivojlanib, yangi sotsial-kognitiv yo'nalish shakllandi. Uning vakillari Albert Bandura va Djulian Rotterir. Ularning yondashuviga ko'ra

Insonning xulq-atvoriga atrof-muhit ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida inson ham sotsial atrof-muhitning shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. O'rganishlarning yuz berishi faqat to'g'ridan to'g'ri va tashqi qo'llab-quvvatlashda emas, xulq-atvor kuzatishlar va namunalari asosida shakllanadi.

Dj. Rotter sotsial xulq-atvorni quyidagi tushunchalar orqali ifodalaydi:

1. Insonning xulq-atvoriga uning kutilmasi, subyektiv ehtimollari, ya'ni insonning fikricha ma'lum vaziyatlarda u yoki bu xulq-atvorni yuz bergandan keyin ma'lum mustahkamlash bo'ladi, degan fikriga ko'ra ta'sir ko'rsatadi.

2. Insonning xulq-atvoriga inson uchun ahamiyatli bo'lgan mustahkamlash (chet ta'sirlar), qadriyatlar ta'sir ko'rsatadi.

3. Insonning xulq-atvoriga uning shaxs tipi, uning lokus nazorati ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, Dj. Rotterning ta'kidlashicha, xulqiy potensial «texnik mavjud» bo'lgan beshta asosiy reaksiyalar blokini o'ziga qamrab oladi:

1. Muvaffaqiyatga erishganlikka yo'naltirilgan, natijada sotsial e'tirof etishni asoslashga xizmat qiladigan xulqiy reaksiyalar.

2. Ijtimoiy me'yorlar, boshqa insonlarning talablariga moslashish bilan bogliq adaptatsiyani ta'minlovchi xulqiy reaksiyalar.

3. Ayni damdagi vaziyatning ta'sirida foydalaniladigan himoyalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

4. «Zorliq maydonidan chiqish», qochish, dam olishga yo'nalgan qochish texnikasini ifodalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

5. Agressiv xulq-atvor reaksiyalari — boshqalarning tanqidi, kinoyasi, pichingi, qiziqish va manfaatlariga zid barakatiga nisbatan jismoniy agressiyaning namoyon bo'lishi.

Dj. Rotter singari A. Bandura ham shaxs muammasiga o'ziga xos yondashuvlarini taqdim eta oldi. A. Bandura bixeviorizmning S—R sxemasiga o'zining to'rtta oraliq reaksiyasini kirtdi:

1. Taqlid uchun harakat namunasiga bolaning e'tibori. Anqlik, farqlanuvchanlik, emotsional jozibadorlik, funksional ahamiyatga egalik namunaga qo'yiladigan talablardir.

2. Namuna, xulq-atvor modeli ta'siri haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi xotira.

3. Bolaning taqlid namunasini idrok qilishi uchun sensor imkoniyatlar va harakat ko'nikmalariga ega bo'lishi.

4. Bolaning taqlid modelini bajarishi uchun xohish-istaklarini belgilovchi motivatsiya.

Bola ilk davrlaridagi Lining shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga hog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshira boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi.

Bandura taqdim etgan sotsial kognitiv nazariyaga ko'ra tashqi va sotsial muhit insonning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, u inson faoliyatining mahsuli sanaladi. Demak, inson o'zining xulq-atvori tufayli atrof olamni o'zgartiradi, o'zining muhitiga va shaxsiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining xulq-atvori oqibatlarini ko'ra oladi, oldindan kutilishi mumkin

bo'lgan xavf-xatarning oldini olishga harakat qiladi va bo'lg'usi natijalar timsolini hosil qiladi.

Yuqoridagi mulobazalardan ko'rinadiki, klassik bixeviorizm, ularning zamonaviy izdoshlari — sotsial kognitiv nazariya vakillari shaxs muammosiga nisbatan yondashuvlari bilan boshqa shaxs nazariyalaridan o'zlarining g'oyalaridagi metodologik masalalar va tadqiqot metodlari bilan farq qiladilar.

Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif

Geshtaltpsixologiya, yoki hoshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yo'nalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859-1932), V.Keller (1887), K.Kofka (1886—1941)lardir. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementlar, hodisalardan sezgilardan tarkib topadi, deb hisoblangan assosiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Geshtaltpsixologiyaning vakillari bu ta'limotga qaramaqarshi o'laroq, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig'indisiga nisbatan mazmundorroqdir. Ayrim element va qismlarning yig'indisi butunning mazmunini belgilamaydi, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism elementlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok atari asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok — bu sezgilarning yig'indisi emas, balki yaxlit ohrazdir, deb ta'kidlanadi. Psixik mahsulotlar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi hu ta'limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Geshtaltpsixologiyaning markaziy nazariyasi har qanday psixologik jarayonlarning bosh mohiyati ularning sezgilarga o'xshash alohida elementlari emas, balki konfiguratsiya shakli yoki geshtalchilarning yaxlit yaratishidan iborat.

Geshtaltpsixologiyada tafakkur muammosining tadqiqoti keng qamrovli tarzda olib boriladi. Jumladan, V.Keller antropoidlarning intellektual harakatlarini eksperimental o'rganish natijasida yuqori darajada taraqqiy qilgan maymunlarning aqliy harakatida inson harakatiga xos o'xshashlik borligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

V.Kellerning fikricha, topshiriqni yechish mexanizmi quyidagilardan iborat: organizmning optik maydonidagi vaziyatlarning muhim elementlari bir butunlikni, ya'ni vaziyat elementlariga, geshtalt ichiga kirib, geshtaltda qaysi joyni egallashga bog'liq ravishda yangi ahamiyat kasb etadi. Vaziyatning muhim elementlaridan namoyon bo'luvchi geshtalchilar muammosi vaziyatda organizmda ba'zi bir zo'rliqlar ta'sirida vujudga keladi, topshiriqni yechish muammoli vaziyatning qismlari yangi geshtaltda yangi munosabatda idrok qilina boshlaganida tugallanadi. Masalani yechish aniq qadamlarni yuzaga keltiruvchi geshtalt sifatida maydonga chiqadi.

Geshtalchilarning ayrimlari «yo'nalish» atamasini qo'llab, uni o'tmish tajribasi bilan bog'lashga intiladilar. Shuningdek, ular «tafakkurning evrestik metodlari» to'g'risidagi tushunchadan ham foydalanadilar. Bunda materialni, qo'yilgan maqsadni, konflikfli holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadilar.

Geshtalchilar tafakkur psixologiyasining qator muammolarini ko'tarib chiqadilar, chunki ijodiy tafakkurning o'ziga xosligi, tafakkur jarayonida yangilikning vujudga kelishi, bilimlar bilan tafakkur nisbati, topshiriqni bajarish jarayonida asta-sekin va birdaniga yechish yo'lini qo'llash kabilar. Tafakkurni psixologik o'rganishda funksional rivojlanish p'oyasini amaliyotga tatbiq qilish ham ma'lum darajada geshtalpsixologiya tamoyidalarining xizmati hisoblanadi.

Z.Freyd g'arb madaniyatiga chuqur ta'siri

Z.Freyd g'arb madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Freydning klinik psixologiya va psixiatriyadagi ilmiy qarashlari alohida o'ringa ega. Freydning kuzatishlari qator nevrologik buzilishlarning psixologik sabablari mavjudligi to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Bu orqali Freyd ongsizlikni kashf qildi. Uning fikricha, ko'zi ojizlik yoki karlik, beixtiyor ko'rmaslik va eshitmaslik xohishi insonda keskin zavotirlikni uyg'otar ekan. Freyd gipnoz ongsizlikka yo'l deydi va patsientlarni davolashda undan foydalandi. Natijada bemorlar gipnoz tufayli o'zlarining an'g'lab boshqas qobiliyatlarini ochadilar.

So'ngra u patsientlar o'zlarini ruhiy yengillashishlariga imkon beruvchi erkin assotsiatsiya usulini olib kirdi. Ushbu usulga ko'ra mijoz o'zining dardlarini hayon etadi. Bu esa patsientlarga ruhiy yengillik olib keldi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi bezovtalanishlarning sahabi patsientlarning o'tmishi bilan o'zlaridagi tuyg'ulariga borib bog'lanishini ta'kidlaydi. Asalliklarning ongsizlik sabablariga tayangan shaxs nazaryasini psixoanaliz davolash metodi bilan bog'adi.

Freyd topografik modeldan foydalanib, psixik hayotning uch darajasini ajratdi: ong, ongoldi, ongsizlik.

Ong darajasi aniq damdagi insonning ma'lumotlarini sezgi, va kechinmalaridan tashkil topadi. Ong miyada saqlanuvchi ma'lum kam foizli axborotlarni qamrab oladi. So'ngra ma'lumotlar ongoldi yoki ongsizlik sohada yuklanadi.

Ongsizlik sohasi. Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyati qatlami ongsizlikdir. Bu onga qanchalik hosim o'tkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qo'g'olishlarni saqlovchi, ammo ushbu anglashilmagan materiallar ko'pincha insonning kundalik faoliyatini belgilaydi.

Ongoldi soha, ba'zan xotiraga kirish mumkin bo'lgan, o'zida barcha tajribani kiritadi, ayni damda anglanilmagan, ammo tasodifiy yoki minimal kuch sarflash natijasida onga tez qaytishi mumkinligi.

U — psixikaning ongsizlik qismi bo'lib, biologik instinktli mayllardan iborat, agressiya va seksual. U jinsiy mayl — libido bilan to'yingan. Insonda yashirin energetik tizim bo'lib, bu quvvat har bir kishida miqdori — doimiy o'lchamga ega. Ongsiz va irratsional bo'ladi. U qoniqib, ya'ni so'ngida baxt, eng asosi inson hayotidagi asosiy maqsad tamoyiliga bo'ysunadi.

MEAN — ikkinchi tamoyil — gomeostaz — ichki muvozanatni saqlash tendensiyasi.

Men (Ego) — o'ng — doimiy ravishda U bilan nizoda bo'ladi, seksual mayllar ta'sirida bo'ladi. U jamiyat ta'siri ostida shakllanadi. Menga uchta kuch ta'sir ko'rsatadi: U, Kayvoniy Men va insonga o'z talablarini qo'yuvchi jamiyat. MEN ular o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga harakat qiladi, qoniqishi emas, balki reallik tamoyili-ga bo'ysunadi.

OLIIY MEN (yuqori men) axloqiy standartlarni tashuvchi, shaxsning bu qismi tanqid, senzura, vijdon rolini bajaradi. Agar Men U ga mos harakatni amalga oshirsa yoki unga mos qaror qabul qilsa, Kayvoniy Men unga qarshi chiqadi. Natija- da aybdorlik, uyat, vijdon ta'nalari ko'rinishidagi jazoni bosh- dan kechiradi.

Barcha himoya mexanizmlarining maqsadi «Men»ga yor- dam berishdan iborat. Shu sababli hani u uchta asosiy be- zovtalanishga yo'naltirilgan, ya'ni «Men»ni zararlashi mumkin bo'lgan nevroitik, axloqiy va real jarayonlarni o'z ichiga oladi. Biroq «Men» ichdan chiqadigan norozilikdan himoyalaniq qolmasdan, ilk davrlarda «Men» xavfli instinktiv stimullar bi- lan tanishadi, shuningdek, u norozilikni kechiradi.

Z. Freyd o'z nazariyasida shaxsning himoya mexanizmlarini ajratishga ham erishdi. Ko'pincha nizoli zonalar psixika strukturasi- ni U, sal- biy emotsiya va kechinmalarda kuzatiluvchi (ta'sirlanish, be- zovtalanish va umidsizlik) frustratsiyaga olib keldi. Frustratsiya MENni har xil «chiqarish klapan»lari yordamida zo'riqishlarni olib tashlashga undaydi. Bular psixologik himoya mexanizm- lari deyiladi:

- regressiya: tashvish sabab narsa mavjudligiga etishni inkor o'z ichiga oladi;
- rad etish, ya'ni noma'qul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmaslik;
- reaksiya: u yoki bu hodisaga ta'sir ko'rsatish;
- proeksiya — o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi obyektlarga ko'chirish orqali • paydo bo'lgan holatning sababla- rini tashqaridan qidirishga moyillik;
- identifikatsiya — o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'rniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarini rad etish yoki tan- qidsiz o'zlashtirish;
- regressiya — ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo'lib o'tgan qaysidir voqealarga qaytish, ularning yaxshi va ma'qulla- rini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o'zida psi- xologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;
- yolg'izlanish — jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zida- gi o'zgarishlarni boshqalarga hildirmaslikka intilish, bunda shaxsning faoliyati passiv tus oladi;
- ratsionalizatsiya — mulohaza va fikr yuritish orqali o'zi- da himoya instinktlarini paydo etish;
- sublimatsiya — o'zgartirish yoki tabiatan energiya qiziq tomonidan Id impulslarini o'z ichiga oladi va uni ijtimoiy maqbul xulqda ifodalashga yo'naltiriladi.

Z. Freyding izlanishlari keyinchalik bir qator yangi yo'na- lishlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

K. Yungning analitik psixologiyasi

Freydning izdoshlari sifatida faoliyat olib borgan olimlardan biri K. Yung hisoblanadi. Yungning shaxs muammosiga doir yondashuvi «Analitik psixologiya» deb nomlanib, u o'ziga xos yondashuvni ifoda etadi.

Shaxs tipologiyasiga doir yondashuvi:

Ekstraversiya — «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kinshuvchan, tamsblari doirasi keng. Ba'zi hollarda jiddiylik yetishmaydi. Odamlarning tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

Introversiya — «tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalariga qat'iy amal qiladigan, muloqot doiralari cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan.

Ekstraversiya va intraversiya jarayoni quyidagi shaxslilik tiplarida yaqqol namoyon etiladi:

Fikrlovchi tip — biror narsaning qadr-qimmatini aniq faktlar va mantiqiy mulohazaga tayam baholaydi.

Hissiyotli tip — yaxshi-yomon, go'zal-xunuk tamoyiliga asoslanib emotsional baholaydi.

Intuitiv tip - hayotiy voqealarning mazmumini ongsizlikda, tuyg'usi va taxminlariga ko'ra baholaydi.

Sezgi asoslanuvchi tip — sezgi a'zolariga tushuvchi, tashqi olam haqidagi axborotlarga tayanadi.

— Psixikaning tuzilishi.

•Ong

•Shaxsiy ongsizlik — o'zida qachonlardir anglangan, hozir siqib chiqarilgan va unutilgan nizo va taassurotlar, yetarlicha ifodalanganmagan hissiy taassurotlarni qamrab oladi. Shaxsiy ong o'zida emotsional zaryadlangan, bir fikr, tuyg'u va taassurotlarning ustuvor bo'lib qolishidan iborat komplekslarni tashkil etadi.

•Kollektiv ongsizlik — insoniyat va ajdodlarning xotira izlarining yashirin saqlanishi. Unda bizning o'tmish emotsiyalarimiz hamda insoniyatga xos fikrlar va tuyg'ular aks etgan.

Arxetiplar — birlamchi model yoki kollektiv ongsizlikning tarkibiy dementi hisoblanadi. Ular o'zida insonlar idrok etganlarini, kechinmalari va voqealar ta'siriga javob berishini ma'lum obrazlarda ilgari surishlari tug'malik shaklini namoyon etadi.

•Eng asosiy arxetiplardan biri Men arxetipi, ota, ona, Xudo, donishmand va boshqa arxetiplardir. Arxetiplar o'zida simbol (tamz)lar ko'rinishida namoyon bo'ladir. Masalan, Mariya, Mona Liza va boshqalar. Hoch, oltinonli yulduz, budda g'ildiragi.

Shaxs strukturasi. Shaxs strukturasi quyidagi tuzilmalardan iborat: ego, person, anima (animus), soya va o'zlik.

•Ego - ongning markazi bo'lib, o'z-o'zini anglashning asosi hisoblanadi

*Person- bu jamaa kishisi bo'lib, inson o'zini hoshqalar bilan o'zaro munosabatda namoyan qiladi.

*Salbiy va ijobiy personlar mavjud. Birinchi navhada u individuallikni ifodalab, kommunikatsiyaga muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan- person individuallikni bo'g'ib qo'yish mumkin. Shu bois person o'gning yuqori qatlami, ego ancha chuqurlashuv, botiq qismi.

*Soya o'zida shaxsning siqib chiqarilgan tomonini ifoda etadi. Soya egoning aks ettirilishida mavjud. Soya shaxsning sotsial standartlar mavjudligi bilan murosqa qila olmasligini ifodalovchi xohishlarini qamrab oigan. Soya - hayot quvvat, ijod manbayini saqlovchi sanaladi. Shu sababli ego soya quvvatini zarur oqimga yo'naltiradi.

Anima va animus. Anima — erkakdagi ayolning ichki timsoli, ya'ni ongsiz namoyan boduvchi ayollik tomoni. Animus — ayollardagi erkakning ichki timsoli, uning ongsiz namoyan boduvchi ayollik timsoli. Yung anima va animus inson xulq-atvorida uyg'unlashgan tarzda namoyan bodishi kerak, bu uning har tomonlama muvofiqlashuvini ta'minlaydi.

O'zlik. O'zlik — shaxsning yaxlitlik arxetipi. O'zlik ongli-lik va ongsizlikni birlashtirib, hoshqa barcha elementlar uyg'unshuvini tashkil etuvchi aylana markazi hisoblanadi. Ruhning barcha jabhalarni integratsiyasiga erishganda, inson uyg'unlikni sezadi. Shu sababli, o'zlikning rivojlanishi inson hayotining hosh maqsadidir.

A. Adlarning individual psixologiyasi

Alfred Adler (1870-1937) individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi. Uning asosiy asarlari: «Nerv xarakteri haqida» (1912), «Individual psixologiyaning nazariyasi va amaliyoti» (1920), «Insonshunoslik» (1927), «Hayotning mazmuni» (1933).

Inson tabiati. Inson — yagona va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi organizm (individuum (lot.) — bo'linmas). Inson hayotiy faolligining namoyan bo'lishini izolatsiyada ko'rib bo'lmaydi, lekin faqat shaxsga munosabatda to'liq ko'rib chiqish mumkin.

Inson hayoti — shaxs uchun ahamiyatli maqsadlar yo'nalishidagi o'sish va rivojlanishga uzluksiz harakat, hayot maqsadlari insonning taqdirini belgilaydi.

Inson xulq-atvori — irsiyat va muhit ta'siri natijasigina emas, balki insonning o'z hayotining arxitektori sanalgan ijod kuchi-dan ham iborat.

Individni jamiyatdan tashqari ko'rib bo'lmaydi, uning xulq-atvori esa sotsial kontekstdan tashqarida. Har bir insonda umumiylik va sotsial qiziqishning tabiiy tuyg'usi mavjud, ya'ni hamkorlikning sotsial munosabatlariga tug'ma ravishda intilish mavjud.

Inson xulq-atvori o'zi va atrof olam haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi «appersepsiya sxemasi».

Erishilmagan maqsad yoki vazifalar inson xulq-atvorini yo'naltirib, harakatlantirib turadi.

Insonga yagona, yaxlit, unsurlari bir-biri bilan o'zaro muvofiq keluvchi mavjudot sifatida qaraydi.

Individuum miya va tana, onglilik bilan ongsizlik, tafakkur, tuyg'u, harakat, shaxsda namoyon bo'luvchilar yagonadir.

Shaxsning strukturasi hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlar- ga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Individuum jamiyatdan, boshqa insonlardan xoli holda bo'lmaydi, insonning xulq-atvori sotsial determinantlar bilan aniqlangan sotsial mazmunda sodir bo'ladi, oqibatda insonda boshqa insonlar bilan hamkorlikda sotsial o'zaro munosabatlarda ishtirok etishga intilishni ifodalovchi sotsial qiziqishlar shakllanadi.

Nomukammallik atamasini A.Adler fanga olib kirib, ushbu tuyg'uni harcha bolalar jismoniy o'lchamlari, kam kuchlilik va imkoniyatlarining pastligi oqibatida namoyon etilishi bilan bog'liq xususiyatlarini ilmiy va empirik jihatdan asoslab berdi.

XX asrning dastlabki yillarida psixologiya sohasida to'plangan merosni qayta ko'rib chiqish hamda uni haqiqiy ilmiy psixologiya asosida qayta qurish haqidagi masala muhim muammolardan biri edi. Psixologlar oldida shu vaqtga qadar psixologiyada hukm surib kelgan idealistik, empirik psixologiyani har tomonlama qayta ko'rib chiqish vazifasi turar edi.

Empirik psixologiyani tanqid qilish yana shuning uchun ham taqozo qilinar ediki, uning va umuman idealistik falsafaning tarafdorlari o'z pozitsiyalaridan birdaniga voz kechmadilar. Masalan, professor Chelpanov o'zining maqolalarida empirik psixologiya materializmga zid emas deb ko'rsatishga urindi. O'sha vaqtlarda psixologiyadagi mexanistik oqim bo'lgan bixevionizm va refleksologiyaga ham qarshi kurash zarur bo'lib qoldi. Revolutsiyaning dastlabki yillarida bu oqimlar ancha keng tarqalgan edi. Refleksologiya hatto oliy o'quv yurtlariga o'quv fani sifatida kiritilgan edi. Biroq, u faqat 3-4 yil mobaynida o'qitildi, xolos.

Psixologiyadagi mexanistik oqimlar bilan kurash yana shuning uchun ham dolzarb ediki, uning vakillari o'z nazariyalarini sotsialistik jamiyat qurish ishida katta amaliy ahamiyatga ega bo'la oladigan ta'limot, deb da'vo qildilar. Bixevionistlar hamda refleksologlar inson psixikasini faqat mexanistik ta'limotga muvofiq tushumish asosida yangi pedagogika sistemasini yaratish lozim, deb hisobladilar.

Bu psixologlarning ta'limotiga ko'ra, mehnat reaksiyalar yoki reflekslar sistemasidir. Pedagogika muhitga moslashish reaksiyalar yoki reflekslarini tarbiyalashdan iboratdir. Bunday qonun-qoidalarda biz insonning bilish va amaliy faoliyatida ong va uning turli shakllarining to'liq inkor qilinganligini ko'ramiz.

Professor K.N. Komilov boshchiligidagi bir guruh psixologlar idealistik va mexanistik psixologiyani tanqid qilib, psixologiyani dialektik materializm asosida ko'rishga intildilar.

1923-yil psixonevrologiya fanlari bo'yicha birinchi Butun Rossiya s'ezdi bo'lib o'tdi. Shu s'ezdda idealistik psixologiyaga qarshi keskin kurash avj oldirildi. Ayniqsa, bu kurash keyingi 1924-yilgi s'ezdda yana kuchaytirildi.

1924-yili prof. Kornilov o'zining «Hozirgi zamon psixologiyasi va mark-sizm» nomli kitobida birinchi bo'lib o'z qarashlarini aniq ifoda qildi. U bu kitobida empirik psixologiyani tanqid qildi, avvalo, bu psixologiyaning asosiy kamchiliklariga — inson psixik faoliyatida tasnqi xulqiy momentni e'tibordan chetda qoldirilishiga, psixologiyadagi dualizm va idealizmga qarshi chiqdi. Kornilov Bexterevning refleksologiya maktabini va I.P. Pavlovning ba'zi bir o'taketgan izdoshlarini (chunki ular psixologiyani refleksologiya bilan almashitiruvchi bo'ldilar) tanqid qilar edi, ularning inson xulqida ongning roliga etarli baho bermaganliklarini, shuningdek, psixika — onga nisbatan qarashlaridagi mexanizmani fosh qilib tashladi.

Mustaqil fan sifatida psixologiya uchun bixeviorizm va refleksologiyaga qarshi kurashda Moskva, Leningrad oliy o'quv yurtlari va boshqa tadqiqot muassasalarining psixologlari faol ishtirok etdilar. Mexanistik qarashlarning yaroqsizligini ko'rsatuvchi asarlar nashr qilindi.

Psixologiyadagi mexanistik o'qimlarga qarshi kurashda psixologiyaning predmeti — ong haqidagi masala katta o'rin egalladi.

Bixeviorizm tarafdorlari, Bexterev va uning izdoshlari, refleksologlar ong masalasini o'rganishni e'tibordan chetda tutgan psixologiyani vujudga keltirish mumkin, deb hisobladilar.

Bu qarashlarga qarama-qarshi o'laroq, professor Kornilov rahbarligidagi psixologlar psixologiya predmeti faqat xulqning tashqi alomatlarinigina emas, balki shuning bilan birga insonning sub'ektiv kechiriklarini ham o'rganishdan iborat bo'lmog'i kerak, deb hisobladilar.

Ongning psixologlar tomonidan o'rganilishi mumkin va zarur ekanligiga, ayniqsa, L.S. Vigotskiy qat'iy roya qildi.

Psixologiya sohasida ikki frontga, ya'ni empirik psixologiyaning sub'ektivizm va idealizmga qarshi, bixevioristlar va refleksologlarning mexanizmga qarshi olib borgan kurashi faqatgina psixologiyaga emas, balki falsafaga ham taalluqli edi. Bu kurashning yakunlari quyidagilarda ifodalandi.

Empirik psixologiya o'zining oldingi mavqei yo'qoldi, u o'qitish predmet sifatida uzil-kesil siqib chiqarilgan edi. Refleksologiya vakillari o'z nuqtayi nazarlarini yanada qattiq turib himoya qildilar. Lekin ular ham tanqid ta'sirida o'zlarining xatolarini tan olishga majbur bo'ldilar. Bu jihatdan, ayniqsa, falsafiy munozaralar (1927—1929) katta natijalar berdi, munozaralar falsafa frontida mexanistlarning bataniom tor-mor bo'lishi bilan tugadi.

Bexterev shogirdlaridan bir guruhi «Refleksologiyani yoki psixologiyani» va «Refleksologiya va uning yondosh fanlariga munosabati» degan ikkita broshyura chiqardilar. Bu broshyuralarda ular o'zlarining oldingi fikrlarining yanglish ekanligini e'tirof etdilar. Ular o'z xatolarini, refleksologiya hali inson xulqini to'la-to'kis holiga, ya'ni uni qiliqlari va xatti-harakatlarida olib mukammal tekshirish darajasiga ko'tarilganicha yo'q, degan bahona bilan izohladilar. Ular psixikaning realligini esa uni o'rganishning zarurligini e'tirof etdilar. 1930—1931-yillarda refleksologiya aslida tugatilgan edi.

Reaktologik psixologiya

Kornilovchi psixologlar guruhining ishlari faqat empirik va sub'ektiv psixologiyani tanqid qilish bilanгина cheklanib qolmadi. Tanqid jarayonida yangi psixologiya sistemasini tuzish bo'yicha ham ishlar olib borildi. Bu psixologlarning aytishicha, yangi psixologiya sistemasini marksistik fan bo'lishi kerak edi.

Lekin bu faqat niyat edi, xolos. Aslida esa Kornilov psixologiya predmetini tushunishning o'zida bixevioristlar va refleksologlar bergan ta'rifga asoslangan edi.

Kornilov ta'limoti nuqtayi nazaricha, psixologiyaning predmeti inson xulqini to'lato'kis holicha, ya'ni uning qiliqlari va xatti-harakatlarini o'rganishdir. Muayyan muhitdagi organizmning reaksiyalari xulqning alohida elementlari deb hisoblandi.

Xulqning elementlari bo'lgan reaksiyalar haqidagi ta'limot Kornilov maktabi psixologiyasida markaziy o'rinni egallardi. «Biz psixologiyada nimani o'rganmaylik,— deb yozgan edi. Kornilov,— tub aslida reaksiyani o'rganamiz, chunki reaksiya xulqimizning barcha eng murakkab, yuksak va nozik shakllaridan iboratdir. Yangi psixologiya bitta metodni, bu ham bo'lsa, reaktologik metodni biladi». Lekin xulq va reaksiya tushunchasi Kornilovda bixevioristlar va refleksologlarga qaraganda, boshqacha tushuntiriladi, jumladan xulq va reaksiya tushunchalarining mazmumiga nerv-fiziologik va mushak harakatlaridan tashqari, yana psixik moment, ong momenti ham kiritilgan edi. Lekin Kornilov psixika va ongni reaksiyada ishtirok etadigan va uning organizmning tashqi muhitga nisbatan javob harakati bilan birgalikda ro'y beradigan passiv bir narsa debgina tushundi. Psixik moment esa faqat inson kechirmalaridagi reaksiyalarining subektiv ifodasi deb tushunildi, xolos.

Kornilov reaksiya tushunchasiga psixik, ongli momentlarni kiritar ekan, buning bilan qo'yoki subektiv empirik psixologiyaning bir tomonlamaligini bartaraf qilmoqchi bo'ladi. Kornilovning fikricha, psixologiyani shunday tushunilsa, «inson xulqidagi ob'ektiv va sub'ektiv hodisalarning organik sintezi» kelib chiqadi.

1926-yili professor Kornilov o'z psixik nazariyasining namunasi sifatida «Psixologiya darsligini» chiqardi. Keyingi yillarda bu darslik (1931-yil-gacha) mayda o'zgartirishlar bilan bir necha marta nashr qilindi.

Aslida bu «psixologiya darsligi»da psixologiyaga doir hech narsa yo'q edi. Psixika haqidagi masala faqatgina bosh qismida, u ham bo'lsa reaksiyaning tarkibiy momenti sifatida eslatilib o'tilar edi. Psixologiya xulq haqidagi fan sifatida talqin qilinardi. Xulq organizm reaksiyalarining yig'indisi deb tushunilardi. Butun psixologiya sistemasini tugatma va hosil qilingan, oddiy va murakkab reaksiyalarni bayon qilishdan iborat qilib qo'yilgan edi, aslida esa bu darslikda bixevioristik va refleksologlar ta'limoti qisqacha bayon qilingan edi, xolos (shuning uchun ham bu darslik keyinchalik «reaktologiya darsligi» deb atalgan edi).

Shu narsani ta'kidlash kerakki, o'sha vaqtlarda, bixevioristlar va refleksologlarning siquvi ostida psixologiyani xulq haqidagi fandır, deb ta'riflash keng tarqalgan edi.

Agar 1923 va 1924-yillardagi s'ezdlar psixonevrologiya fanlari sohasidagi s'ezdlar deb atalgan bo'lsa, 1930-yildagi psixologiya s'ezdi esa, inson xulqini o'rganish masalalariga

bag'ishlangan s'ezd edi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiyada metodologik inqiroz deganda nimani tushunasiz?
2. B. Skinner operant bixeviorizmining mazmuni nimadan iborat?
3. Sotsial o'rganishlar nazariyasi
4. Z. Freydmng qarashlari g'arb madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. A. Adlemling individual psixologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
6. K. Yungning analitik psixologiyasi haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
7. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif
8. Reaktologik psixologiyaning mazmuni nimalardan iborat?

XI bob. YANGI YO'NALISHLARNING YUZAGA KELISHI. 30-YILLARDA PSIXOLOGIYADA ERISHILGAN YUTUQLAR

Asosiy savollar:

1. 1930-yildagi psixologiya s'ezdi va uning ahamiyati.
2. 30-yil ideologik frontda olib borilgan kurashlar va psixologiyaga oid asarlarning yaratilishi
3. O'zbekistonda psixologiya fanining dastlabki kurtaklari
4. O'zbek psixologlari haqida ma'lumot

Tayanch tushunchalar: gumanistik psixologiya, gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi, G. Ollportning shaxs nazariyasi, A. Maslou shaxs nazariyasi, Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasi.

1930-yildagi psixologiya s'ezdi va uning ahamiyati

Inson xulqini o'rganish bo'yicha chaqirilgan Butunittifoq s'ezdi psixologiya taraqqiyoti birinchi bosqichining yakuni bo'ldi. Biroq, s'ezdning yakunlan o'sha davr psixologiyasini ko'rish sobasida hamma narsa u'z o'rnida emasligini ko'rsatdi. Xususan, insonning butun psixik faoliyatini reaksiyalarga tenglashtirib qo'yishga bo'lgan urinishlar ochiqdan ochiq ko'rinib turardi, bu esa psixologiyani amalda reaktologiyaga aylantirib qo'yardi, bu reaktologiyani marksistik psixologiyaning aniq gavdalanishi deb aytishga, demak, marksistik psixologiyani empirik (subektiv) va obektiv psixologiyani, ya'ni bixeviorizm bilan refleksologiyaning «sintezi» deb tushuntirishga urinishlaridan oydin dalolat berar edi. S'ezddan keyin, ko'p o'tmasdan, (1929 - 1931-yilgacha) bularning hammasi psixologiya fani sohasidagi metodologiya munozaraning kuchayishiga olib keldi.

Psixologiya sohasidagi munozaralar falsafiy (umumetodologik) frontdagi kurashning aniq ifodasi bo'ldi. Falsafadagi munozara mexanizmi anti-marksistik oqim deb qoraladi. Bu metodologik munozara fanning boshqa sohalariga, ya'ni siyosiy iqtisod, adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik kabi-larga ham tarqaldi.

Diskussiya, bizning psixologiyamizda bir qancha juda qo'pol metodologik og'machilik va buzg'unchiliklarning mavjudligini ochib berdi. Masalan, psixologiya sohasida mexanistik qarashlar yo'li bilan sinfiy — dushman bo'lgan ta'sirni kuchaytirishga urinish borligi aniqlandi. Idealistik nazariyalar bilan chirmashib ketgan bu og'machilik va mexanistik qarashlar o'sha vaqtda chinakam dialektik-marksistik qarashlar deb targ'ib qilinardi.

Shuningdek, munozara, refleksologiya va reaktologik psixologiya asosida o'sha davr pedagogika sistemasini ko'rish mumkin emasligini, yangi jamiyat qurayotgan kishilarni qaysi usullar bilan, qanday yo'nalishda tarbiyalash va qayta tarbiyalash mumkin, degan masalani hal qilish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Refleksologiya va reaktologiya asosida faqat hayvonlarni dressirovka qilish (o'rgatish) usullari haqidagina gapirish mumkin.

Munozara jarayonida bizda burjua idealistik psixologiyasining turli oqimlari, chunonchi: V. Shtern personalizmi, struktura psixologiya, freydizm boshqa-hoshqa oqim tarqalganligi aniqlandi.

Bu oqimlarning hammasi bizda tanqidiy asosda ko'rib chiqilmasdan qabul qilinib, sotsialistik qurilish vazifalarga to'liq javob beradigan ilmiy nazariyalar deb taqdim qilinardi. Masalan, struktura — Gestalt — psixologiya asosida ta'limning «kompleks sistemasi», savod o'rgatishda butun so'zlar metodi kabi mutlaqo yaroqsiz va zararli metodlar ishlab chiqildi. Psixotexnikani, ya'ni mehnatni o'sha zamon talabi asosida uyushtirish amaliyotini Shtern psixologiyasiga binoan rivojlantirmoqchi bo'ldilar. Ular pedagogika va psixiatriyani freydizm psixologiyasiga tayangan holda asoslashga intildilar.

1930-yil ideologik frontda olib borilgan kurashlar va psixologiyaga oid asarlarning yaratilishi

1930-yil ideologik frontda yanada avjiga chiqqan sinfiy kurashning kuchaygan davri bo'lganligi, o'sha vaqtda bu sohada yangidan yangi yo'llar qidirila boshladi.

O'sha vaqtda yangi psixologiya uchun kurashga boshchilik qilgan professor Kornilov, garchand xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, uning tarixiy xizmatlari shundan iborat ediki, bixevionistlar va refleksologlarning avjiga chiqqan siqig'ini ostida kurash olib bordi va psixologiya fanining mustaqilligini himoya qilib qola oldi.

Munozaralarning eng muhim yakuni haqiqatan ham ilmiy psixologiyani yaratish vazifasi edi. Munozaralar shu narsani ko'rsatdiki, buning uchun o'sha davr metodologik merosini, psixologiya sohasiga hevosita daxldor bo'lgan ta'limotini puxta o'rganish va egallab olmoqlari kerak edi, ikkinchidan, psixologlar psixologiya sohasidagi harcha tarixiy meros va yutuqlarni o'rganish bilan shug'ullanishlari va bu yutuqlarni tanqidiy o'zlashtirib olishlari kerak edi va uchinchidan, o'tmishda erishilgan yutuqlarga asoslanib turib, ilmiy psixologiya muammolarini ishlab chiqishni ilgari surmoqlari kerak edi.

Munozara natijasida o'sha davr psixologiyasida haqiqatan ham qayta kurash ishlari boshlandi. Psixologiyaning metodologik va asosiy muammolari ha'yicha asarlar yozildi, bir

qancha burjua psixologiyasi nazariyalari tanqidiy ravishda yoritildi. Bir qancha eksperimental ishlar qilindi, ularda psixik jarayonlar sifat jihatidan o'ziga xos hodisalar deb tushunildi, ular organizmning reflekslari va reaksiyalariga tenglashtirib qo'yilmadi.

Ikki ta o'quv qo'llanmasi munozaralardan keyin psixologiyaning qayta ko'rilganligini ko'rsatuvchi yaqqol dalil edi. Bulardan birini professor Kornilov («Psixologiya» 1-nashri 1934 va 2-nashri 1935-yillarda) ikkinchisini esa professor S. L. Rubinshteyn («Основы общей психологии», 1935-yil) tuzgan edi.

Bu asarlarda psixologiya masalalari munozaralargacha ho'lgandan hoshqacharoq talqin qilindi. Xususan, professor Kornilov, bu kitobida psixologiya predmetini tushunishni keskin o'zgartirdi, ayrim psixik jarayonlar esa endi organizm reaksiyalarining kombinatsiyasi deb talqin qilinmaydi. Bu psixologiyada emotsiyalar, iroda va xarakter psixologiyasiga ham o'rin beriladi.

30-yillarda psixologlar psixikani eksperimental o'rganish yuzasidan ko'p maxsus laboratoriya va xonalar tashkil qildilar. Bunday laboratoriya-lar faqat markaziy shaharlar (Moskva, Leningrad)dagina emas, balki o'lis viloyatlar hamda milliy respublikalar, shaharlarida ham tashkil qilindi.

Shu davrda O'zbekistonda ham eksperimental laboratoriya va xonalar tashkil qilina boshladi. Toshkentda O'rtasiya Davlat universiteti huzurida, O'rtasiya Kommunistik universiteti, temir yo'l transporti boshqarmasida va Magnat instituti buzurida laboratoriyalar tashkil qilingan. Samarqand shahridagi o'zbek pedinstitutida ham boy jihozlangan laboratoriya tashkil qilingan edi.

Bu davrda professor Lazurskiy kashf etgan juda foydali tabiiy eksperimentni qo'llab, bolalar psixologiyasi va eksperimental psixologiya sohasida ko'plab eksperimental tadqiqotlar o'tkazdilar.

Ayrim psixik jarayonlar va ularning funksiyalarini, o'rganish sohasida ham bir qancha ishlar qilindi. Masalan, V.A. Artemovning idrok sohasidagi, E.A. Ribnikov va A.N. Leontevlarning xotira sohasidagi, I.S. Vigotskiyning tafakkur sohasidagi tadqiqotlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Mehnat psixologiyasi sohasida ham juda ko'p ishlar qilindi. Ular faqat xona va laboratoriyalardagina emas, balki bevosita ishlab chiqarishning o'zida, zavod, fabrikalarda, shu jumladan, O'zbekiston paxta dalalarida ham o'tkazildi.

Bu davrda hayvonlar psixikasini o'rganish sohasidagi ishlar ham kuchli sur'atda avj oldirildi. Bu jihatdan Ladngina Kot Vaytonis va boshqalarning ishlari, ayniqsa, qimmatlidir.

Shu yillari psixologiyaning deyarli hamma sohalarini: psixika, psixika va ong taraqqiyoti haqidagi, sezgi, idrok, xotira kabilar haqidagi ta'limotlarni qamrab oluvchi bir qancha katta asarlar nashr qilindi. Bulardan eng muhimlari quyidagilardir: «Psixologiya», prof. K.N. Kornilov, B.M. Teplov va L.M. Shvartslar tahriridagi jamoa asar; prof. S.L. Rubinshteyn «Osnova' obhey psixologii»; «Psixologiya», Kostyuk tahriri-da (ukrain tilida), «Obhaya psixologiya» D. N. Uznadze (guzin tilida).

Shu narsani ta'kidlamoq kerakki, bu asarlarning ko'pchilik qismi o'sha davr

psixologlarning tadqiqotlari materiallari asosida yozilgan. Urushgacha davrda o'sha davr psixologiyasi manzarasi mana shundan iborat edi.

O'zbekistonda psixologiya fanining dastlabki kurtaklari

O'rta Osiyo xalqlari uzoq o'tmishga, ko'p asrlik tarixga, boy madaniy merosga ega bo'lgan. O'rta Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston Sharqning eng qadimiy madaniy o'choqlaridan biri bo'lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo'shdi.

"Xorazmlik olim Al-Xorazmiyning nomi bizning davrimizgacha «algoritm» degan matematika termini orqali etib kelgan. Evropada «Alfaganus» nomi bilan mashhur bo'lgan atoqli olim Ahmad al-Farg'omiyning «Astronomiya asoslari» degan ensiklopedik asari XV asrda G'arbiy Evropada juda mashhur bo'lgan edi.

O'rta asrlarda «faylasuflar mirzosi» deb nom qozongan Buxorolik mu-tafakkir, atoqli olim Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari XVII asrda G'arbiy Evropa tabiblarning asosiy qo'llanmasi bo'lib keldi va kelmoqda. Shuningdek, Ibn Sino ijodida materiyaning doim vujudga kelishi mumkin bo'lgan narsalardan avval mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlari psixologiya fanida muhim ahamiyat kash etadi.

Beruniy va Forobiy sinfari fan arboblari faoliyatining ahamiyati beqiyos-dir. Beruniy matematika, astronomiya, fizika, botanika, geografiya, umumiy geologiya, etnografiya, tarix va xronologiya sohalarida ish olib bordi. Abu Rayhon Beruniy ijodida «Tana va ruh»ga oid hodisalar talqin qilindi. Abu Rayhon Beruniy 973-yilda Xorazmning Koi, hozirgi Beruniy shahrida tavallud topgan. Beruniyning ijtimoiy falsafiy qarashlaridagi a'zolarning bir-biriga ziddligi, ularda bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman xatti-harakatlar va fe'l-atvor mavjudligi asoslangan. «Odam, — deydi Beruniy, — tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega va uning holati o'z fe'l-atvoriga ko'ra xilma-xil bo'ladi». Beruniyning fikricha, odamlarning qiyofasi bir-biriga o'xshamas-da, ular ayni chog'da bir-biridan farq qiladi. Bu farq ularning mijozi, fe'l-atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Uning zamondoshi Abu Nasr Forobiy (Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn O'zliq Sirdaryo sohilidagi Feroh shahridan) hayot vaqtidayoq «ikkinchi muallim» nomini olgan edi. U tabiiyot sohasida O'rta asming eng atoqli tadqiqotchilaridan biri edi. U keng ma'nodagi inson ruhiy jarayonlari va ta'lim-tarbiya haqida o'z zamonasi uchun ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Forobiyning ruhiy jarayonlar haqidagi ta'limoti, bevosita fiziologik jarayonlar bilan psixik jarayonlar orasidagi bog'liqlik haqidagi, dunyoni bilish haqidagi ta'limoti psixologiya fanining taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi.

Keyinchalik Ahmad Yassaviyning mehr-saxovatli ho'lish haqidagi qarashlari, Imom Abu Ahdulloh Mubammad ibn Ismoil al-Buxoriy ijodidagi shaxslararo munosahatlar, Bahovuddin Naqshbandiy ijodida aql va dunyo-qarashning shakllanishi, A. Navoiy fanliyatida ilmiy ta'lim-tarbiyaning asoslanishi kabilar boy meros sifatida psixologiyani har tomonlama o'rganishning asosini tashkil etdi.

Respublikamiz boy madaniy merosga ega edi. Bu esa respublikamiz madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotida mislsiz taraqqiyotga erishish uchun imkoniyat yaratib berdi.

O'zbek psixologlari haqida ma'lumot

XX asrga kelib, O'zbekistonda ham boshqa fanlar qatori psixologiya fanining rivojlanishiga imkon tug'ildi. Qozon universitetini tamomlagan va 1933-yildan boshlab professor unvoniga ega bo'lgan, hamda 1941—1968-yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika instituti-ning Psixologiya kafedrasiga mudirlik qilgan bilimdon, aql-zakovat egasi P.I. Ivanov O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. 80 ga yaqin ilmiy qo'llanma va maqolalar yozdi. Ayniqsa, umumiy psixologiya yosh va pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi yo'nalishda barakali ijod qildi. Uning «Pamyat», T., 1941; «Psixologiya» (qisqacha izohli lug'at) Gosizdat, 1946; «Psixologiya» (pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma). M, Uchpedgiz, 1954, 1956, 1959; «psixologi-ya» (pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma) Uchpedgiz, 1957, 1960 (2 nashr); «Psixologicheskie osnovy obucheniya». T, Uchpedgiz, 1960; shu kitobning o'zbek tilidagisi «Ta'limning psixologik asoslari» T, 1961; «Umumiy psixologiya» (o'zbek tilida). T, 1957-yil; «Obshaya psixologiya» T, 1967 (2 nashr); «Razvitiya texnicheskogo mo'shlemiya uchahixsya na uroke truda» (Yaroslavl, 1969-yil) kabi qator darslik va qo'llanmalari chop etildi. U o'zining ko'p yillik pedagogik faoliyatini psixologiyadan o'quv qo'llanmalari yaratishga bag'ishladi va ko'plab ilmiy kadrlar etishtirib chiqardi. Uning kamtarin mehnati «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi» unvoni bilan taqdirlandi.

1945-50-yillarga qadar O'zbekistonda psixologiya fani bo'yicha birorta ham o'zbek tilida darslik, qo'llanmalar yo'q edi. P.I. Ivanovning «Psixologiya» kitobi o'zbek tiliga tarjima qilingunga qadar uning shogirdlari dom-lani ma'ruzalariga munozam qatnashib, uni o'zbek tiliga tarjima qilib, keng talabalar ommasiga etkazishga harakat qildilar.

P.I. Ivanovning shogirdlaridan biri bo'lgan Sh. Bayburova domlaning rus tilidagi ma'ruzalarini o'zbek tiliga tarjima qilib, talabalarga o'zbek tilida psixologiyadan ma'ruzalar o'qidi va psixologiya sohasidagi bilimlarni mu-jassamlashtirib, o'zbek tilida «Psixologiya» darsligini 1949-yil chop ettirdi. Bu darslik sirtqi va kunduzgi bo'lim talabalari uchun o'zbek tilida yagona o'quv qo'llanma edi. Keyinchalik P.I. Ivanovning «Psixologiya» kitobi o'zbek tilida chop etildi.

Bolalar psixologiyasi sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi. 1964-yili A.A. Asqarxo'jaev, P.I. Leventuev, M. Vohidov, E. Chudnovskiyning «Bolalar psixologiyasining ocherklari» nomli qo'llanmasi chop etildi. Bunda bolaning dunyoga kelgan kunidan boshlab to 17—18 yoshgacha bo'lgan davrdagi anatomo-fiziologik xususiyatlari, psixologik xususiyatlari, bolalar shaxsining shakllanishi masalalari keng yoritib berildi.

P.I. Leventuev yosh avlodni mehnatga tayyorlash, adabiy ijodiyot psixologiyasini tadqiq qilish ustida ish olib bordi. M. Vohidov esa bolalar psixologiyasini talqin qilib, darsjik

yaratishga kirishdi.

1965-yili birinchilardan bo'lib, I.M. Krasnobaev «Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy e'tiqodlarning rivojlanishi», 1971-yili Davletshin Muhammad G'abdulgalimovich Leningradda «O'quvchilarning texnika qobiliyati psixologiyasi» bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildilar.

Ayniqsa, M.G. Davletshinning O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishda xizmatlari buyukdir. Uning asosiy ilmiy yo'nalishlari o'quvchilarda texnik qiziqishlar, qobiliyatlarning shakllanishiga, mehnat ta'limi va kasbga yo'nalish muammolariga, pedagogika oliy o'quv yurtlarida va universitetlarida o'qituvchi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga qaratilgan edi. Shuningdek, u Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini o'rganish, ilmiy ishlarda boy merosdan foydalanishga, «Yangi turdagi o'quv yurtlari — akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari» va Oliy pedagogik o'quv yurtlarida o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etishning ilmiy asoslariga e'tibor qaratdi va bu sohada ko'plab izlanishlar qilindi, darsliklar, qo'llanmalar, ilmiy, ommabop maqolalar chop etildi. M.G. Davletshin psixologiya fanlar doktori (1971), professor (1972), O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Nizomiy nomli TDPU Psixologiya kafedrasini mudiri, 270 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi, 50 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyasining ilmiy rahbari, ko'plab doktorlik dissertatsiyasiga ilmiy maslahatchi bo'ldi. Uning ilmiy ishlari ichida: «5-7-sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarini shakllantirish» (1956), «Qiziqish va ta'lim» (1962), «Maktab o'quvchilarining texnika qobiliyati psixologiyasi» (1971), «Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya» (O'quv qo'llanma (1974), «Qobiliyatlar va uning diagnostikasi» (1979), «Kasb tanlash» (1986), «Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi» (2000), «Umumiy psixologiya» (2000), «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» (2004) kabi o'quv-metodik qo'llanma va ilmiy maqolalari psixologiya fanining ravnagida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iste'dodli olim O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi M.G. Davletshin O'zbekistonda psixologiya fanining o'qitilishini ta-komillashtirish, uzluksiz ta'lim jarayonida pedinstitut va universitetlar uchun o'qituvchilar tayyorlashning psixologik masalalari, umumiy va pedagogik psixologiya Oliy pedagogika o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari maktablarga psixologik xizmat ko'rsatishning ilmiy metodologik asoslariga bag'ishlangan ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlari fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

Nazorat savollari:

- Psixologiya sohasidagi munozaralar nimalarga sabab bo'ldi? 2. Ideologik front nima?
1. 1930-yildagi psixologiya s'ezdi va uning ahamiyatiga qanday ta'sir etdi?
 2. 30-yil ideologik frontda olib borilgan kurashlar va psixologiyaga oid asarlarning yaratilishi haqida nimalarni bilasiz?
 3. O'zbekistonda psixologiya fanining dastlabki kurtaklarini yoriting.
 4. O'zbek psixologlari haqida ma'lumot bering.

III BO'LIM. UMUMIY PSIXOLOGIY FANIGA KIRISH.

XI bob. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI, METODLARI

Asosiy savollar:

1. Umumiy psixologiya fani haqida
2. Umumiy psixologiya fanining predmeti
3. Umumiy psixologiya fanining vujudga kelishi
4. Umumiy psixologiya fanining metodlari
5. Umumiy psixologiya fanining nazariy va amaliy vazifalari.

Tayanch tushunchalar: psixologiya, psixika, individ, shaxs, ong, shaxsni organish yoki qiyoslash metodologiyasi, metod, psixologiya tamoyillari, determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va onging faoliyatda rivojlanish tamoyili.

Umumiy psixologiya fani haqida

Umumiy psixologiya voqelikning alohida bir sohasi bo'lgan psixik (yoki ruhiy) hayot sohasini o'rganadi. Har kimga ma'lum hodisalar sezgilarimiz, idrok, tasavvurlarimiz, fikr, his, intilishlarimiz va shunga o'xshashlar psixik hodisalar jumlasiga kiradi. Shaxsning psixik yoki individual xususiyatlari: odamning temperamenti (mijoz), xarakteri (se'l-atvori), qobiliyat, ehtiyoj, mayl va havaslari ham psixika sohasiga kiradi. Psixik (ruhiy) hodisalar barchasi psixika degan bir so'z bilan ataladi.

Psixika o'zga alohida bir olam emas: u organik hayotning yuksak shakllaridan bo'lib, faqat hayvonlar bilan odamlarga xosdir. Hayvonlar bilan odam, o'simliklardan farq qilib, yolg'iz organik hayotga ega bo'lishgina qolmay, balki, shu bilan birga, psixik hayotga ham egadir. Lekin, ma'lumki, hayvonlarning psixik hayoti odamning psixik hayotiga qaraganda soddaroqdir. Odam psixikasi hayvonlar psixikasidan sifat jihatidan farq qiladi. Odamda psixik hayotning yuksak shakli - ong bor. Odam ongli zot hisoblanadi.

Psixik hayot hodisalari juda xilma-xil, ammo bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Psixologiya ana shu bog'lanish va munosahatlarning qonuniyatlarini ochib beradi. Hozirgi kungacha psixik hodisalar rivojlanib kelgan va rivojlanmoqda. Shu sababli, psixologiya psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishi kerak.

Har bir shaxs psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda, avvalo ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, ishlab chiqarishda, mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda, tibbiyotda, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini bilishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, psixologiya psixik hayot sohalari yoki, qisqacha qilib aytganda, psixikadan bahs yuritadi. Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo'ladi. Psixik hayot hodisalari: psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik

holatlarga ajratiladi.

Psixik jarayon — psixik hodisaning ketma-ket o'zgarishidir.

Psixik mahsullar — psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhakamalar, tushunchalar kiradi. Psixik holatlarga esa yoqimli va yoqimsiz tuyg'ular, tinchlik-farog'at, hayajonlanish va ma'yuslanish, uyg'oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanish qolish holatlari kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emosional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo'lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo'ladigan ana shu turlar psixik funksiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha qilib ayteanda aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq - bilish jarayonlari deb hisoblanadi. Odatda hayotimizda psixik funksiyalar terminini o'rniga psixik jarayonlar terminini ishlatamiz.

Ammo psixik funksiyalar terminidan foydalangan ma'qulroq. **Funksiya** tushunchasining mazmuni kengroq. Bu tushuncha psixik jarayonni ham, psixik holatni ham, faollikni ham, ish-harakatini ham o'z ichiga oladi. Funksiya qanday bo'lmasin yaxlit bir narsaning qismi emas, balki namoyon bo'lishi, amal qilishi demakdir. Shuning uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hislar, iroda psixika qismlari emas, balki bir butun oning funksiyalari, bir butun shaxsning funksiyalaridir.

Sezgilar - muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko'ruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta'sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, og'ir, engilni sezamiz.

Idrok - tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, musiqa va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil xossalarning miyamizdagi obrazlaridir.

Xotira-narsa va hodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo'lgan obrazlari nom-nishonsiz yo'qolib ketmaydi ular miyamizda o'mashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga ishirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko'nglimizdan kechgan fikr, islarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o'mashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. **Idrok** etilgan va ko'ngildan kechgan narsalarning miyamizga o'mashib (esimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo'lgan ana shu psixik faoliyat **xotira** deb ataladi.

Xayol - narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo'ladigan obrazlardan tashqari, o'zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizdan katta joy oladi. M: intidoriy odamlarning hayot sharoitlari haqidagi tasavvurlarimiz, Marsdagi hayot haqidagi tasavvurlarimiz va shunga o'xshashlar ana shundaydir. Bu tasavvurlar xotiramizda bor tasavvurlar asosida xayolda (fantaziyada) hosil bo'ladi.

Tafakkur- Idrok va tasavvurlarimizda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanib, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tafakkur voqelikning umumiy lashtirilgan bevosita va eng to'liq

hamda eng aniq intihosidir. Tafakkur jarayonlaridagi fikrlar muhokama va tushunchalar tushuniladi va vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqelikni idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda aniqroq, to'laroq va chuqurroq bilib oladi.

Nutq- Tafakkur nutqqa chambarchas hog'liq. Fikrlarimiz nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutq vositasida aloqa qiladilar, fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham o'z nutqida ifodasini topadi. Nutq kishilarning bir-birlari bilan aloqa qilish usulidir.

Diqqat- Yuqorida ko'rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat ongimizning o'zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to'plash demakdir. Diqqat o'ziga xos alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarning faol horishi va sifatli bo'lishi uchun zarurdir.

Umumiy psixologiya fanining predmeti

«Psixologiya» (yunoncha "psychelogos") so'zini o'zbek tiliga tarjima qilsak, u «jon», «ruh» haqidagi «fan, ta'limot» degan ma'no anglatadi. Hozirgi davrda esa «jon» tushunchasi o'miga «psixika» qo'llaniladi. «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir xil ma'noni bildiradi. Lekin «psixika» tushunchasi huzungi kunda «jon»dan kengroq ko'lamga ega bo'lib, ko'zga ko'rinuvchi va ko'zga ko'rinmovchi tomonlarini o'zida aks ettiradi. Psixikada psixikaning tarkibiy qismlari: faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon hisoblanadi. Bilish jarayonlari: psixik holatlar, ichki kechimalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar esa miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi. Psixika to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun dastavval psixik hodisalar mohiyati bilan tanishamiz. Psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllardan iboratdir. Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg'ulari, uning mmalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotijamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxs ichki dunyasining tarkibiy qismlaridir.

Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o'zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo'layotganligini anglab turamiz. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular hevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi. Psixikaning turli shakllarda ko'rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglashilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (yunoncha psyche «jon», soma «dana» ma'nosini anglatadi) hodisalar, inson aql-zakovati va qo'lining mo'jizakorligi moddiy va ma'naviy madaniyat mahsulini yaratadi. Har qanday faktlarda (voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo'ladi, o'zining xususiyatlarini ajratadi, faqat ularni bilish orqaligina psixikani o'rganish mumkin.

Psixologiyaning predmeti quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) psixologik bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira va hokazo),
- 2) psixikaning shakllari (faoliyat, xulq, muomala).

- 3) psixikaning holatlari (kayfiyat, xayolparishonlik kabilar),
 - 4) psixikaning hodisalari,
 - 5) psixikaning xislatlari, fazilatlar, sitatlari, xossalari,
 - 6) psixikaning qonuniyatlari,
 - 7) psixikaning mexanizmlari,
 - 8) psixik sharoit, muhit, vaziyat,
 - 9) o'zaro sababiy bog'lanishlar,
- tadqiqot metodlari, vositalari, materiallari va printsiplari.

Umumiy psixologiya fanining vujudga kelishi

Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida qadimgi odamlar tabiiy hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ibtidoiy jamoa a'zolarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ulardan shaxslararo munosabatlarda oqilona foydalanish, o'zining xatti-harakati, shaxsiy faoliyati va muomalaga kirishishida ularni hisobga olishga intilib yashab kelganlar. Ko'p ming yillik ijtimoiy hayot tajribalariga asoslangan ravishda odamlar shaxsning individual (lotincha individuum alohida, yakkahol odam) xususiyatlarini jon bilan bog'lashga va uning ta'siri bilan izohlashga harakat qilishgan. Qadimgi odamlarning tasavvurlariga qaraganda, inson tanasida jon joylashgan bo'lib, u shaxsga oid xususiyatlar, xislatlarni vujudga keltirish imkoniyatiga ega emish. Qadimgi ajdodlarimizning «jon» to'g'risidagi tasavvurlari natijasida animizm (lotincha anima «jon» degan) ta'limot insoniyat tomonidan kasbf qilinadi. Ibtidoiy xalqlarning tasavvurlarida ruh insonning tanasi bilan uzviy bog'liq holda hukm suradi, ro'yoki yashaydi. Shuning uchun ijtimoiy hodisalar, hatto ong, shuningdek, real voqeeliklar (o'lim, uyqu, bexush bo'lish, betoblik) kabilarni sodda tarzda moddiylik (mavjudlik) nuqtai nazaridan talqin qilishga uringanlar. Sodda tafakkur shakllari bilan qurollangan qadimgi odamlar atrof-muhit to'g'risidagi rang-barang holatlar, hodisalar mohiyatini ilmiy jihatdan dalillash imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sababli idrok qilingan narsani uning haqiqiy mohiyati tarzida aks ettirishgan.

Qadimgi insonlar tabiatning qudrati (kuch-quvvati) oldidagi zaifligi tufayli yakka shaxs ham, jamoa ham ruhga itoatkor tarzida tasavvur etilishi natijasida din, ibodat tushunchalari paydo bo'ladi.

Aflotun psixologiyada dualizm (lotincha dualis ikki mustaqil ma'no bildiradi) ta'limotida ruhiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil narsa deb izohlaydi.

Aflotunning shogirdi Arastu (eramizdan oldingi 384-322 yillar) o'zining ta'limotida psixologiyani tabiiy-ilmiy asosga qurib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'lab tushuntirishga erishgan. Arastuning «Jon» to'g'risidagi kitobi ma'lum bir davr uchun taraqqiyparvar manba vazifasini bajardi. Unda odamlarning va hayvonlarning kundalik hayotiy lahzalarini kuzatish orqali yaqqol voqeelikni tasvirlash, tahlil qilish jarayonlari mujassamlashtirildi. Arastuning ta'kidlashicha, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda ro'yobga chiqadi. Uning

fikricha, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati, u tasavvur shaklida iz qoldirishi mumkin.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun taraqqiyot davri bo'ldi. Xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligi frantsuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan kashf etildi. Refleks (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi ekanligi isbotlandi.

Ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb atadi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega bo'lgan yaqqol narsa deb tushuntirdi. Uning fikricha ong materiyadan sira qolishmaydigan voqelik ekanligini ta'kidladi.

Rus olimi I.M. Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasi ro'yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, hosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Umumiy psixologiya fanining metodlari

Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalar hisoblanadi. Bu hodisalar metodlar va usullar bilan tekshiriladi.

Har bir psixolog va pedagog kishilar psixikasini o'rganish va tekshirish uchun eng oddiy metod va usullarni bilishi kerak.

Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni bilishi kuzatishdan, tajribadan hoshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham o'z mavzuni o'rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan hoshlaydi. So'ngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqaradi.

Kuzatish metodi

Kuzatishning asosiy xususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o'zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida: mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining hu-tun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish mumkin. Kuzatish metodining obe'ktiv (tashqi), sub'ektiv (o'z-o'zini) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- 2) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;
- 3) sinaluvchining yoshi, jinsi, kashi aniqlanadi;
- 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;
- 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat va sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;

7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;

8) kuzatilganlarni qayd qilib berish vositalari (kundalik, subbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon, videoapparat, fotoapparat va boshqalar) taxt qilinadi.

Tashqi kuzatish. Psixik hayot hodisalarini o'rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tatbiq etiladi. Psixik jarayonlar bilan bevosita bog'langan ba'zi bir fiziologik hodisalar: yuzning o'zgarishi, nafas olish, qon aylanish va shu kabilarning o'zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo'ladi. Kuzatish ma'lumotlarini so'zlar bilan tasvir etish bilan kifoyalanib qolmay, balki ko'rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo'llar bilan ham qayd qilish mumkin.

Masalan, bolalar nutqini o'sib borishini kuzatish yo'li bilan tekshira olamiz. Bunda bolaning so'z boyligi qanday qilib sekin-asta osha borishi-ni, nutqning fonetik tononimi, grammatik tuzilishini shu bola qanday bilib olayotganini qayd qilsa bo'ladi.

O'z-o'zini kuzatish. O'z-o'zini kuzatish metodi tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish bilan amalga oshiriladi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni, odamning sub'ektiv kechinmalari qanday ro'y bersa, ularni shu holda tasvir etish va aniqlab olishga intiladi. Psixologiya vujudga kela boshlagan 5 asrdan tortib to bizning eramizgacha va XIX asrning deyarli oxirigacha o'z-o'zini kuzatish metodi ruhiy hayot hodisalarini bilishning birdan-bir metodi bo'lib qoldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'z-o'zini kuzatish metodiga tanqidiy ko'z bilan qaraladigan bo'lib qoldi. Bu metodning bir qancha kamchiliklari borligi ma'lum bo'ldi. O'z-o'zini kuzatishda tadqiqotchi ham, tekshiriladigan ham tekshiruvchi obektaga bo'linib qolishi bu metodning eng muhim kamchiligi ekanligi ko'rsatildi. Holbuki, normal kishilar shaxsining amalda bunday «bo'linib ketishi» mumkin emas. O'z-o'zini kuzatishda psixik hodisalarni (masalan, shodlik yoki qayg'u hissini, tafakkur jarayonini) nam boshdan kechirish, ham shu hodisalarni o'rganish juda qiyin ekanligi, ba'zan esa butunlay mumkin bo'lmasligi ko'rsatib o'tildi. O'z-o'zini kuzatish metodining cheklanganligini ham uning kamchiligi hisoblanadi. O'z-o'zini kuzatish metodining yana bir katta kamchiligi shuki, bu yo'l bilan olingan ma'lumotlar psixik hayot hodisalarini turli yo'sinda bir tomonlama, subektiv talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. M: odamning xarakterini tekshirayotgan psixologning o'zi egoist bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish natijalaridan, egoizm har qanday xarakterning muhim belgisidir, deb xulosa chiqarishi mumkin. Dunyoda saxiy, oliyjanob xarakterli kishilar borligini bunday psixolog faqat o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan bila olmaydi.

Psixologiyada kuzatish metodi odam hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitidagina emas, balki shu bilan birga klinika sharoitida psixikaning kasallik oqibatida o'zgarganligini tekshirishda ham qo'llaniladi. Ayni vaqtda kasallikni tekshirish uchunгина emas, shu bilan birga odamning normal ahvolidagi psixik hodisalarni yaxshiroq tusnumb olish uchun ham klinik kuzatish ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Eksperiment metodi

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, bu metod yordami bilan psixik hay faktlari ularning tabiiy sur'atda ro'y berishida, borishida va o'zgarishida olib o'rganiladi, ya'ni haqiqatda, kishilarning kundalik turmushida qanday ro'y bersa, o'shanday holatlar tekshiriladi. Ammo bu metoddan foydalanganda ba'zi bir o'ng'aysizlik va qiyinchiliklarni uchratishga to'g'ri keladi, masalan, bu erda tadqiqotchi psixologning tekshirishi uchun qaysi psixik hodisalarning yuzaga chiqishi kerak bo'lsa, o'sha hodisalar yuzaga chiqqan kishilarni qidirishga yoki biron kishida, ha'zan psixologning o'zida shunday hodisalarning yuzaga chiqishini kutib turishga to'g'ri keladi. Eksperiment metodidan foydalanganda bu o'ng'aysizlik va qiyinchiliklar barham topadi yoki kamayadi. Eksperiment metodi ikki turiga bo'linadi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment.

Laboratoriya eksperimenti. Laboratoriya eksperimentida tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa o'sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar kompleksidan ajratib olinadi. Tekshiriladigan psixik hodisalar eksperiment davomida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir sur'atda bog'lanishi, kuch, tezlik, hajm va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'riladi. Eksperimental tadqiqotlar o'tkazishda maxsus metodik materiallar narsa, rasm va so'zlar, shuningdek, maxsus asboblari (masalan, xronoskop) qo'llaniladi. Tekshiriladigan hodisalar shu material va asboblari yordami bilan vujudga keltiriladi. Eksperimental tadqiqotlar asosan maxsus laboratoriya va institutlarda o'tkaziladi. Ayrim psixik hodisalarni mukammal va aniq o'rganish maqsadida psixologiyaga doir ilmiy tekshirish muassasalarida maxsus binolar, masalan, tovushni va yorug'likni o'tkazmaydigan kabinetlar, yorug'lik ta'sirini o'zgartirishga moslangan kabinetlar va shunga o'xshash xonalar quriladi.

Eksperimental metodni birinchi marta fiziolog Veyer (1795—1878) va fizik Fexner (1801—1887) mukammal ishlab chiqqan. Sezgilarni tekshirishda qo'llanilgan eksperimental tadqiqot usullarini Vilgelm Vundt (1832—1920) ishlab chiqqan. 1879- yilda V. Vundt Leypsiq universiteti huzurida eksperimental psixologiya bo'yicha birinchi laboratoriyani ochgan. XIX asming oxirida Rossiyada eksperimental psixologiya bo'yicha bir qancha laboratoriyalar vujudga keltirildi. Toshkentda birinchi laboratoriya P.I.Ivanov rahbarligida TDPU da tashkil etildi.

Ammo psixologiyadagi laboratoriya eksperimentining kamchiliklari bor. Shu kamchiliklardan eng muhimi shuki, bu metodda sun'iylik bor. Eksperiment o'tkaziladigan sharoitning o'zi tekshirilayotgan kishilarning psixik holatiga, demak, tekshirilayotgan hodisalar va tekshirish natijalariga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Tabiiy eksperiment. Tabiiy eksperiment metodi oddiy obektiv suratda kuzatish metodi bilan laboratoriya eksperimenti metodi o'rtasida turadi. Bu metodni professor A.F.Lazurskiy kuzatish va tajriba metodlarining kamchiliklaridan saqlanish va ikkala metodning foydali

tomonlarini qo'shish maqsadida yaratgan.

Tabiiy eksperiment metodining mohiyati shundaki, bu erda tekshiruvchi kishining o'zi tekshiriladigan kishida (yoki kishilarda) biron psixik jarayon (masalan, xotira, tafakkur, diqqat) ro'y berishi uchun yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarini (temperament, havas) ro'y berishi uchun maxsus sharoit tug'diradi. Masalan, tekshirish lozim bo'lgan biron psixik jarayon odatdagi dars vaqtida yoki o'yin paytida maxsus reja bilan tekshiriluvchining o'ziga sezdirmasdan tajriba qilib smaladi. Albatta, bu sharoit va unda tekshiriladigan psixik faoliyat dastlab analiz qilinadi. M: bolalardagi muayyan bir psixik jarayonlarni, muayyan bir xarakter xususiyatlarini, muayyan bir qobiliyatlarni ularning biron-bir o'yindagi faoliyati sharoitida tekshiriladigan bo'lsa, bolalarning tekshirish nazarda tutilgan psixik jarayoni, xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari qaysi o'yinda, ayniqsa, yaqqol ko'rinishi oldindan bilib olinadi. Tekshiriluvchi kishilar shundan keyin tekshiruvchi kishi tomonidan maxsus ravishda, lekin tekshiriluvchi kishilar uchun tabiiy bo'lgan sharoitga, darsga yoki bu o'rinda o'yinga jalb qilinadi. Tekshiruvchi kishi bolalarning faoliyatini kuzatib turadi va tekshiriluvchi bolalar uchun tabiiy sharoitda kelib chiqadigan psixik jarayonlarni va bolalarning individual xususiyatlarini qayd qiladi.

Suhbat metodi

Suhbat metodi psixik hodisalarning asosan ichki, subektiv tomonini tekshirish uchun qo'llaniladi. Tadqiqotchi psixik hayot hodisalarning birontasini, masalan, odamda shodlik hissi subektiv ravishda qanday kechishini, hiron masalani ecbganda tafakkur jarayoni qanday borishini va shunga o'xshash hodisalarni tekshirishni oldindan vazifa qilib qo'yadi, tadqiqotchi suhbat vaqtida tekshiriluvchi kishiga beradigan savollarni oldindan belgilab oladi.

Suhbat metodi o'z-o'zini kuzatish metodi bilan tashqi kuzatish metodining qo'shilishidan iborat. Bu erda o'z-o'zini kuzatish shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotchi tekshiriluvchi kishiga savollar berib, uning o'z ichki ongini chuqurroq bilib olishga majbur etadi. Tekshiriluvchi kishi tadqiqotchining topshiriqlariga muvofiq va tadqiqotchining yordami bilan (savollar ustalik bilan berilganda) o'zining ichki holatlarini ochib tashlaydi va nutqida ifodalaydi, so'zlar bilan javob qaytaradi.

Suhbat samimiy, bemalol bo'lishi, tekshiriluvchi kishilarning psixik holatiga zo'r kelmasligi kerak. Suhbat odam psixik hayotining hevosita kuzatish va eksperimentda aniqlah bo'lmaydigan jarayon va hollari haqida ma'lumot olishga yordam beradigan birdan-bir metoddur, deyish mumkin. Masalan, kosmosga parvoz qilish vaqtida odamning psixik faoliyat xususiyatlari haqida bilim olmoq uchun tadqiqotchi kosmonavtlarning o'zi bilan suhbat qilishi kerak.

Faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodi

Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida hu metod umumiy psixologiyada keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan

o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy kashtachilik, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy ma'ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar, loyiha, kontseptsiya, san'atkor, artist va baxshi ijodiyoti kabilar kiradi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar, dehqonlar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin.

Test metodi

Test - inglizcha so'z bo'lib, smash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumhaq, syujetli rasm yoki shakl test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng qo'llaniladi.

1905 yildan, ya'ni frantsuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi.

Psixologiyada testlar quyidagi turkumlarga, turlarga ajratilgan holda qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga: pedagogik testlar, intellekt testlari, ijodiyot (kreativlik) testlari, mezonga mo'ljallangan (kriterial orientirlangan) testlar, shaxsga oid yoki shaxslilik testlari, proektiv testlar (lotincha Prochestio-aldinlab, ilgari lab namoyon etish ma'nosini bildiradi).

Anketa metodi

Umumiy psixologiya fanida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va bodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch xil tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi va shkalali anketa deb ataladi. Anketadan turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, hamkasblariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida keng ko'lamda foydalaniladi.

Sotsiometriya metodi

Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emosional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarni aniqlash uchun undan qaysi faoliyatda, kim bilan qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Biografiya metodi. Odam psixikasini tekshirish uchun ayrim kishi-larning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa, ularning o'zlari bergan ma'lumotlar (avtobiografiya, kundalik daftarlar, memuarlar, xatlar), shuningdek, boshqa kishilar yozib olgan biografiya ma'lumotlari.

Umumiy psixologiya fanining nazariy va amaliy vazifalari

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi, psixologiyani o'rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Odamni kamolga etkazishda psixologiya alohida o'rin tutadi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e'tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni o'rganadi, va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga yordam beradi.

Psixologiyani bilish, psixikani chinakamcha ilmiy asosda tushumsh kishilar ongidagi har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi.

Odam psixologiyani o'rganar ekan, o'zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo'lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Psixologiyaning bilish, ma'lumot olishning ahamiyati yuqoridagilardan iboratdir. Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud- huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san'at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagog o'quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan, shu materialni bolalar qanday o'zlashtirayotganini, qanday idrok etayotganini, eslab qo'layotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat-e'tibor, hissiyot qanday namoyon bo'layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro'y berayotganini bilish lozim.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta'limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda. Ishning har bir turi, har bir kasb

odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish bilan birga maxsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. Shu sababli, ixtisosga qarab murakkab va mas'uliyatli mehnat operatsiyalarini bajarishga to'g'ri keladigan kishilar maxsus psixologik tekshirishdan o'tkaziladi. Menda dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasini juda yaxshi, fahmi o'tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chira oladigan, aniq uyg'un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko'ildi.

Psixologiya tibbiyot bilan qadimdan bog'lanib keladi. Kasalliklar orasida psixik kasalliklar bo'ladi. Bunday kasalliklarni ham asosan psixologik vositalar bilan davolashga to'g'ri keladi. Shifokor psixik kasalliklarni yaxshiroq ajrata bilmog uchun odamning normal psixologiyasini ham bilishi kerak. Bundan tashqari hoshqa kasalliklarda, ayniqsa, nerv kasalliklarida shifokor bemorning ruhiy holatini bila olishi lozim.

Psixologiya sud ishida ham muhim rol o'ynaydi. Sud xodimi ayblanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so'roqda aytgan gaplarini psi-xologik jihatidan tahlil qila bilishi kerak. Kishilar biron ayb, jinoyat qilganlarida nima niyat bilan shunday qilganliklarini sud xodimi fahmlay bilishi kerak.

Psixologiya san'atda ham ahamiyatga ega. Har bir san'atkor (artist, musiqachi, rassom va shunga o'xshashlar) kishilarga tomoshabinlarga, tinglovchilarga o'z ijodi bilan ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmog kerak.

Nazorat savollari:

1. Ruh va ong haqidagi antik davr va o'rta asrlardagi qarashlarni tushuntirib bering.
2. XVII asr biologik va psixologik bilimlarni tavsiflab bering.
3. Refleks haqidagi tushuncha va lining mohiyati nimadan iborat?
4. Assotsiativ psixologiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi qanday namoyon bo'ladi?
6. Psixologiyaning sohalarini sanab bering.

XII bah. HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TARMOQLARI VA ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Asosiy savollar:

1. Psixologiya faniningning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnini
2. Psixologiyaning aniq sohaga oid bo'lgan tarmoqlari
3. Psixologiyaning rivojlanishga oid bo'lgan tarmoqlari
4. Psixologiyaning ijtimoiy sohalarga oid bo'lgan tarmoqlari

Tayanch tushunchalar: psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi, psixologiya tarmoqlari, psixologiya sohalari, ijtimoiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, psixoterapiya, pedagogik psixologiya

Psixologiya fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnini

Psixologiya ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Fanlar orasidagi bog'liqliklar psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini bejargah beradi. Bizga ma'lumki, mavjud fanlar gumbarlar, tabiiy va falsafiy turlarga bo'linadi. Bir qator bir-biri bilan yondosh bo'lgan fanlar mazkur tasniflashga kiritiladi, lekin psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o'rganadi. Psixologiya barcha turdagi fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi. Psixologiya falsafa, tarix, san'atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy bog'liq. Shunga muvofiq psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya falsafa fani bilan chambaretnas bog'langan. Bu bog'liqlik ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlantirish an'analarini belgilashdagi o'rnini va ahamiyatidan kelib chiqadi.

Sotsiologiya fani ham yangicha munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga erishar ekan, psixologiya ushbu fan tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlardan foydalanadi hamda ularning qo'llanilishiga, ommalashishiga baboli qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda rivojlanib, ajralib chiqqan bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatta ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, huquqiy-demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr, insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'rganish, hashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fan metodologiyasi va metodlarini birlashtirish bilan hohuq tathiqiy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularni yosh avlod tarbiyasining zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuziga xosdir. O'z-o'zidan ravshanki, bunday aloqa hamisha ham mavjud bo'lib kelgan va buni ilg'or psixologlar hamda pedagoglar tushuntirib berishga harakat qilishgan. Rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy pedagogika uchun o'z ahamiyatiga ko'ra psixologiya barcha fanlar ichida birinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlagan edi. «Kishini har jihatdan tarbiyalamoq uchun, — deb qayd etgan edi K.D.Ushinskiy, — uni har jihatdan o'rganmoq darkor».

Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning amalga oshirilishi ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uni chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bolmaydi. Shuning

uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish an'analaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini hola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy qobiliyatlarga nechog'liq ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shu asosda ishni tashkil etish, psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Tabiiy fanlar -- biologiya, fiziologiya, kimyo, fizika va boshqalar psixik jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechish qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun materiallar beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot usullaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etganligi sababli unga tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan harcha yutuqlar psixologiya fanining predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika fani tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturlardan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX asrda va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmatini oshishi bashorat qilingan XXI asrda global axboriy jarayonlar va yangi ilg'or texnologiyalarni modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida, hamda ana shunday ijtimoiy faoliyatli jarayonda shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellardan o'rinni foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rnini va rolini oshiradi hamda maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi, inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, hozirgi kunga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan, murakkab texnikani boshqaruvchi inson muammosini yechishda, ikkinchi tomondan psixik holatning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham ho'lsa, texnika taraqqiyotiga bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan muloqot qilayotgan shaxs faoliyatini yanada takomillashtirish va uning imkoniyatlariga mosligi masalasi ham ana shu hamkorlikda qilinishi lozim bo'lgan masalalardir.

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi XX asrning yangiliklaridan bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga hosqichma-hosqich o'tish sharoitida

iqtisodiy ong ham iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fanga xizmat qiladi.

Psixologiyaning tabiatshunoslik bilan aloqasining tobora mustahkamlanishiga quyidagi omil asosiy sabab bo'lgan. Bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Eksperiment metodining G.Fexner tomonidan fanga joriy etilganligi ana shu jumladan bolib. bu I.M.Sechenovning «Bosh miya reflekslari» kitobi bosmadan chiqqanidan keyin ayniqsa keng tus olgan edi. Bu kitobda psixik hodisalar ham xuddi odam organizmining boshqa barcha funksiyalari kabi tabiiy hodisalar ekanligi, ular sababsiz yuz bermasdan, balki nerv tizimining reflektor aks etishi faoliyati natijasi ekanligi ko'rsatib berilgan edi. I.M.Sechenovning reflektor nazariyasi psixologik bilimlarning tabiiy-ilmiy negizini tashkil etadi. Bu nazariya keyinchalik

I. P.Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta'limotida uning shogirdlari L.A.Orbeli, P.K.Anoxin, K.M.Bikov, N.I.Krasnogorskiylarning asarlarida, shuningdek, A.A.Ux-toniskiy, N.A.Bernshteyn, I.S.Beritashvili va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantiriladi. Hozirgi paytda psixologiya fanining tabiiy-ilmiy jihatdan bu xilda asoslanganligi olimlar tomonidan miya faoliyatining neyrofizologik mexanizmlari o'rganilayotganligi hisobiga tobora kuchaytirilmoqda.

Tibbiyot psixologiyasi asoslarini tadqiq etgan klinik psixologlar (V.M.Bexterov, S.P.Botkin, S.S.Korsakov, A.R.Luniya, V.N.Myasishchev va boshqalar) tadqiqotlarining kishi xulq-atvorida psixikaning qanday rol o'ynashini aniqlashdagi o'ni kattadir. Psixologiya va tibbiyotning tutashgan joyida bo'lgan tibbiyot psixologiyasi psixologiya fanining yutuqlarini kasalliklarning oldini olish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda qo'llab kelayotir. Kasallikning zo'rayishi bir tomondan psixik omillarga (tushkunlikka berilish, vasvasaga tushish, hadiksirash va shu kabilarga) bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, dardning o'zi ham, jumladan terapevtik muolajaning samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin bo'lgan alohida psixik holatlarni keltirib chiqaradiki, bu hol vrach va psixologning kuch-g'ayratlari birlashtirilishini zarurat qilib qo'yadi. Shu bilan barobar miya qobig'ining ba'zi bir joylari, masalan, chakka qismi lat yeganda psixikaning buzilishini klinik-psixologik tadqiq qilish natijasida idrok va xotiraning qonuniyatlarini tushunish imkonini beradigan yangi ma'lumotlar olindi. Psixolog — klinik bemorning og'zaki yoki yozma nutqi psixologik jihatdan buzilishi xususiyatlarini aniqlab, dardning manbayi kishi bosh miyasi katta yarim sharlarining muayyan bo'lmasida ekanligini qayd qiladi va bu bilan neyroxirurgiyaga yordam beradi.

Hozirgi zamon psixologiyaning sohalari. Psixologiyaning aniq sohaga oid bo'lgan tarmoqlari

Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsada, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosi edi. Amerikada bixeviorizm, Venada

Z.Freydning psixoanalizmi kabi psixologiya maktablarining vujudga kelishi psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shdi. Shu maktablarning hanimasi o'zining nuqtai nazariga asoslanib, psixologiya fanining tarkibiy qismlarini o'rganishga harakat qildi.

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlarni, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik printsiplarni, ilmiy tadqiqot metodlarini, psixikaning filogenetik va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar.

2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilari.

3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg'ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress, affekt singarilar.

Eksperimental psixologiya - bu soha eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qiladi. Psixologiyaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funksiyalarni o'rganish orqali, ya'ni ilk bor sezgi va idroknii o'rganish bilan boshlangan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan. Tadqiqotlarning ko'pchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar tomonidan olib borilgan.

Mehnat psixologiyasi - bu soha insonning mehnatga munosabatini, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladi. Mehnat psixologiyasining ob'ekti ishlab chiqarishda va mehnatda shaxsning faoliyati hisoblanadi. Mehnat psixologiyasi G.Myunsterbergning «Psixologiya va ishlab chiqarish unumdorligi» (1913) va «Psixotexnika asoslari» (1914) kitoblari chiqqan davrdan boshlab alohida soha sifatida vujudga kelgan. Mehnat psixologiyasining asosiy vazifasi ishlab chiqarish munosabatlarini ijobiylashtirish, mehnatkashlarga zarur shart-sharoit yaratib berish, kasbiy kasalliklarning, ishlab chiqarishda jismoniy falokatlarning, psixologik zo'rliqlarning oldini olishdir.

Aviatsiya psixologiyasi - aviasanoat va aviakomandantlarning mehnat faoliyatida kechuvchi psixologik qonuniyatlarni o'rganadi. Aviatsiya psixologiyasining predmeti murakkab aviatsiya tizimini boshqarishdagi inson psixikasining rolini tekshirishdan iborat. Aviatsiya psixologiyasi ob'ekti shaxs faoliyati, jamoa tuzilishini tashkil qilishning shart-sharoitlari hisoblanadi. Aviatsiya psixologiyasi sub'ekti uchuvchilar, muhandis, texnik xizmat ko'rsatish tarkibini tashkil etuvchi stjuardessalar va boshqalar.

Muhandislik psixologiyasi - bu soha inson va mashina o'rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta'sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarni tadqiqot metodlari yordami bilan o'rganadi.

Munandislik psixologiyasi fan-texnika revolyutsiyasi ta'sirida vujudga kelgan.

Kosmik psixologiya -bu soha vaznsizlik va bo'shliqda aniq mo'ljal ola bilmaslik sharoitida, organizmda juda ko'p ortiqcha taassurotlar yuklangan paytda ro'y beradigan nerv-psixologik zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Ekstremal psixologiya - insonning o'zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya sohasi. Ekstremal sharoitda insonga bir qancha faktorlar ta'sir qiladi: makon o'zgarishi, xavf omili, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o'zgarishi, yolg'izlik, guruhiy izolyatsiya va hayotiy xavf.

Pedagogik psixologiya -bu soha tarbiya va ta'lim muammolarini tadqiq qiladi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlanm tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi.

Tibbiyot psixologiyasi - kasallarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jihalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri o'rganiladi. Tibbiyot psixologiyasi o'z ichiga qo'yidagilarni oladi:

1. neyropsixologiya- psixik hodisalar bilan miyaga fiziologik tuzilishlar o'rtasidagi rishatni o'rganadigan soha.
2. psixofarmakologiya -doriyor moddalarning kishi psixik faoliyatiga ta'sirini tekshiradigan soha.
3. psixoprofilaktika - bemorlarni davolash uchun psixik jihatdan salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha.

Yuridik psixologiya huquq doirasidagi munosabatlar odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Yuridik psixologiya jinoyatchilar shaxsini tadqiq qilish, guvohlik ko'rsatuvchilar ko'rsatmalarini tekshirish, sud psixologiyasi ekspertizasining nazariy va amaliy tomonlari ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Harbiy psixologiya - harbiy faoliyatining inson psixikasiga ta'siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish harbiy psixologiyasning asosiy muammolaridan biridir.

Sport psixologiyasi sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Sport psixologiyasining asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir.

Savdo psixologiyasi Savdo psixologiyasi savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi va shu kabi masolalarni tadqiq qiladi. Ayniqsa, sotuvchi-xaridor munosabati,

kishilarga ta'sir o'tkazish, ularda iliq his-tuyg'u, ishonch uyg'otish mexanizmlari, mantiqan ularni muomala jarayonida ishonitirish, qiziqitirish, ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilish, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqat madaniyati va uning treninglaridan umumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini anglagan holda munosabatda bo'lish qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Ijodiyot psixologiyasi - badiiy qadriyatlarni o'zlashurishda, ularning yangi ko'rinishlarini ijod qilishda va shu qadriyatlar inson tomondan idrok qilishda kechadigan psixologik holatlarni hamda bu holatlarning shaxs hayoti, faoliyatiga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Psixologiyaning rivojlanishga oid bo'lgan tarmoqlari

Yosh psixologiyasi - shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davri, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan. Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o'smirlilik va o'spirinlik psixologiyasi, etuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri bolani psixik rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Maxsus psixologiya - normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiqot qilish sohasi. Uning bir necha bo'limlari hukm suradi: patopsixologiya - rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o'rganuvchi soha; oligofrenopsixologiya - psixik rivojlanishning miyadagi tug'ma asoratlar bilan bog'liq patologiyasi to'g'risida tadqiqot ishlarini olib boruvchi soha; surdopsixologiya - quloq eshitishning butunlay kar bo'lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug'ullanuvchi, bolani voyaga etkazishning omilkor yo'l-yo'riqlarini topuvchi, korektsion-tuzatish ishlarini olib boruvchi soha; tiflepsixologiya - chala ko'ruvchi va mutlaqo ko'zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi soha.

Qiyosiy psixologiya - psixologiyaning murakkab bo'limlaridan biri bo'lib, psixikaning filogenetik holatlari va ularning shakllarini tadqiq qiladigan sohasi. qiyosiy psixologiyada hayvonlar psixologiyasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ularning xulq-atvoridagi o'xshashliklar va tafovutlar sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta'sir o'tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi. Zoopsixologiya qiyosiy psixologiyaning bo'limidan iborat bo'lib, u turli guruhlariga, turlarga mansub hayvonlar, jonivorlar psixikasini, ularning xatti-harakatlarini o'rganadi. Etologiya - biologik va psixologik jabhalar qorishmasidan iborat bo'lib, hayvonlarning xatti-harakatidagi tug'ma alomatlar, mexanizmlar insonniki bilan umumiy negizga ega ekanligini o'rganuvchi soha.

Psixologiyaning ijtimoiy sohalarga oid bo'lgan tarmoq.

Differentsial psixologiya - shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Differentsial psixologiyaga F.Galton asos solgan. Differentsial psixologiya terminini nemis psixologi V. Stern o'zining «Individual farqlar psixologiyasi» (1900 yil) asarida ishlatgan. Differentsial psixologiyaning asosiy metodlaridan biri - testdir. Avval individual testlar, keyinchalik

esa guruhiy testlar qo'llanila boshlangan, ular asosan aqliy rivojlanishdagi farqlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, muayyan vaqt o'tqandan so'ng proektiv testlar ishlab chiqilgan. Mazkur testlar qiziqishdagi, intilishdagi, hissiyotdagi tafovutlarni tekshirishga qaratilgan.

Ijtimoiy (sotsial) psixologiya hu soha odamlarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini va shu guruhlarning tavsifni, shaxsning guruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi. Sotsial psixologiya bir necha sohalarni o'z ichiga qamrab oladi: din psixologiyasi, oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, katta guruh psixologiyasi, madalar psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.

Din psixologiyasi - psixologik va ijtimoiy psixologik omillarning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Din psixologiyasi XIX asming oxiri XX asming boshlarida vujudga kelgan bo'lib, insonni ibodat qilishdagi, diniy an'analarni, rasm-rusumlarni bajarishdagi hissiyot holatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Siyosiy psixologiya - jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir o'tkazish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.

Oila psixologiyasi - oilaning psixologiyasini o'rganuvchi psixologiya sohasi sanaladi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlariga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi.

Boshqaruv psixologiyasi - jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Kompyuterlashtirish psixologiyasi - kompyuterning ishlab chiqarishdagi roli, psixik aks ettirishga ta'siri, shaxs tuzilishining o'zgarishini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha kompyuter va inson o'rtasidagi dialogik munosabatni ham tadqiqot qiladi, natijada «texnika-inson-texnika» o'zaro ta'siri mexanizmini tekshiradi va zarur jabhalar o'zaro

ta'sirini aniqlaydi.

Parapsixologiya - hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo'lgan psixik hodisalarni o'rganadi. Ekstrasensorka - o'ta sezuvchanlik, telepatiya - fikrni masofaga uzatish, kelajakni bashorat qilish va hokazo. Parapsixologiyaga nisbatan qiziqish qadimdan mavjud bo'lib, unga nisbatan ixlos to hozirgi kungacha kamaygani yo'q, gona uni psixotronika deb ham atashadi.

Xiromantiya-qo'l kafliga qarab sol ochish, inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy soha. Spiritalizm-o'lgan odamlar arvoqlari, ruhlari bilan aloqa o'rnatish mumkin, ular hamisha barhayot va biz bilan muloqotga muhtoj g'oyani ilgari suruvchi parapsixologiya sohasi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnini qanday?
2. Psixologiyaning aniq sohaga oid bo'lgan tarmoqlarini yozing.
3. Psixologiyaning rivojlanishga oid bo'lgan tarmoqlarini yozing.
4. Psixologiyaning ijtimoiy sohalarga oid bo'lgan tarmoqlarini yozing.

XIV bob.PSIXIKA VA UNING EVOLYUTSIYASI

Asosiy savollar:

1. Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligi
2. Odamning taraqqiy qilishida mehnatning roli
3. Seskanuvchanlik psixikaning sodda shakli ekanligi va uning paydo bo'lishi
4. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari
5. Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakatlari
6. Ko'nikma va malakalar
7. Ko'nikma va malakalarning turlari

Tayanch tushunchalar: ong, psixika, ongsizlik, hayvon psixikasi, intellektual xatti-harakatlar, instinkt, refleks, ong xossalari, seskanuvchanlik, tropizm, sezuvchanlik, fototropizm, aks ettirish shakllari.

Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligi

Psixik jarayonlar moddiy jarayonlarga bog'liq holda yuz beradi, lekin , psixik jarayonlar moddiy jarayonlardan tashkil topgan degani emas, Fikr, ong — voqelikning sifat jihatidan boshqacha, o'ziga xos bir hodisasi. Psixika, ong faqat yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xossasidir.

Hayvonlar bilan odamlar organizmiga xos bo'lgan nerv sistemasi ana shunday yuksak darajada tashkil topgan materiya. Psixikaning bevosita moddiy substrati (asosi) - odamning bosh miyasidir. Odamning psixikasi, ongi — bosh miya funksiyasidir.

Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida paydo bo'ladi. Materiya taraqqiy qilib borgan sari turli — mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va boshqa qonuniyat va xossalari paydo bo'ladi va taraqqiy qiladi, organik olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichidagina materiyaning psixika, sezgi, ong, tafakkur deb ataladigan alohida xossalari vujudga keiadi.

Olam taraqqiyoti tarixida psixika, ong bo'lmagan davr o'tgan. Psixika olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichlaridagina paydo bo'ldi.

Psixika materiyaning alohida xossasi bo'lib, bu xossa obektiv voqelikni alohida aks ettirish qobiliyatidan iboratdir. Aks ettirish degan so'zning ma'nosi har xil tushuniladi. Tevarak-atrofdagi voqelikni aks ettiradigan ko'pgina narsalar ma'lum, masalan, suv aks ettiradi, ko'zgu aks ettiradi va hokazo. Bu misollarda biz fizik hodisa sifatidagi aks etish (in'ikos)ni ko'ramiz. Psixik hodisalar haqida so'zlashganimizda esa sifat jihatdan boshqacha, o'ziga xos ravishda aks etishini nazarda tutmog'imiz kerak. Bu aks ettirish sezgilarda, xotirada, tafakkurda va boshqa shu kabilarda o'z ifodasini topadi. Odam ongi, psixikasi yuksak darajada tashkil topgan materiyaning, ya'ni miyaning xossasidir. Shu bilan birga, odam ongi ijtimoiy hayot sharoitiga bog'langan holda taraqqiy qiladi. Ong insonning eng avvalgi ota-hobosi qurul yasab mehnat qila boshlagan va shu tufayli ijtimoiy hayot kechira boshlagan paytdan e'tiboran paydo bo'lgan.

Odamning taraqqiy qilishida mehnatning roli

Inson ongining taraqqiy qilishida so'zsiz mehnat jarayoni muhim rol o'ynadi. Avlod-ajdodlarimiz mehnat qilish natijasida o'z ehtiyojlari uchun kerak bo'lgan buyumlarni tabiatdagi bor bo'lgan yog'och, tosh kabilardan yasash natijasida ularning onglari takomillasha horgan.

Ayni mehnat qurollari tayyorlanishi, qo'ldan turli-tuman ishlarda foydalanishi tufayli odamzod qo'lining panjalari rivojlandi.

Ideologiya deb biron jamiyat, sinfnig siyosiy, falsafiy, ma'naviy, estetik (san'at), diniy qarashlar sistemasiga aytiladi. Ideologiya, boshqacha aytganda, ijtimoiy ong deb ataladi. Psixologiyada tekshiriladigan individual ongni, ya'ni har bir ayrim kishi ongini ijtimoiy ongdan farq qilish kerak.

Odam ongining ayrim tomonlari va funksiyalari tarixan taraqqiy qilib kelgan. Kishilarda faqat ularning o'ziga xos bo'lgan, ehtiyojlar vujudga keldi va taraqqiy etdi. Ehtiyoj odamning kun kechirishi, yashashi va kamolga etishi uchun zarur narsalarning hammasi demakdir.

Seskanuvchanlik psixikaning sodd shakli ekanligi va uning paydo bo'lishi

Yuqorida ko'rsatilganidek, psixika organik hayotning taraqqiyoti jarayonida paydo bo'lgan. Organik materiyaning anorganik materiyanidan farq qiladigan xususiyatlaridan biri shuki, organik materiya seskanuvchandir, ya'ni tashqaridan bo'lgan ta'sirlarga seskanib javob

beradi. Muhitning ta'siri bilan qo'zg'aladi. Masalan, bittagina hujayradan iborat bo'lgan amyoba tashqi ta'sirga javob berar ekan, shu ta'sirga qarah harakatlanadi yoki undan qochadi.

Organik materiyaning bundan buyongi taraqqiyot bosqichlarida yangi xossa — sezuvchanlik, sezish xossasi paydo bo'ladi, ya'ni organizmga ta'sir etadigan narsalarning xossalarni aks ettiruvchi sezish qobiliyati paydo bo'lgan. Bu sezish xossasi nerv sistemasining kurtaklariga ega bo'lgan hayvonlar vujudga kelgan vaqtda, balki undan ham ilgariroq eng hoshlang'ich shaklda paydo bo'lgan A.N.Leontev gipotezasiga ko'ra, sezuvchanlik «...genetik jihatdan olib qaraganda muhitning organizmni boshqa ta'sirlar bilan bog'lovchi, ya'ni organizmning muhitda orientirovka qilishga yordam beruvchi signallik vazifasini o'tovchi ta'sirlarga seskanuvchanlikdan boshqa narsa emas» A.N.Leontev seskanuvchanlikdan sezuvchanlikka o'tish hoshqacha hayot tarixi bilan bog'liq deb ko'rsatadi va yuksak tashkil topgan hayvonlarda sezuvchanlik taraqqiy etadi, sezgi a'zolari tarkib topadi, deb ko'rsatadi.

Sezish qobiliyatining paydo bo'lishi psixika taraqqiyotidagi dastlabki davrdir. Keyinchalik hayvonlar nerv sistemasining taraqqiysiga va jumladan sezgi organlarining taraqqiysiga qarab, tashqaridan bo'ladigan ta'siri aks ettirish, sezish qobiliyati o'sib, tobora murakkablasha bordi. Taraqqiyotning ancha yuqori bosqichlarida hayvonlarda sezgi organlari paydo bo'ladi, nerv sistemasining analiz qilish qobiliyati ham o'sadi. Biologik taraqqiyotning yuqori bosqichlarida hayvonlarning ba'zi turlarida sezgi organlari hayron qolarlik darajada takomillashadi. Masalan, burgutning ko'rish organi, itning hid bilish organlari va hokazo.

Nerv sistemasi sezgi organlarining taraqqiyoti, shu bilan birga hayvonlar psixikasining taraqqiyotiga, hayvonlarning hayot kechirish tarziga, shu hayvonlarning qaerda, qanday yashashiga, qanday oziqlanishiga, qanday ovqat topishiga, kimga qarshi kurashishiga va shu kabilarga bog'liqdir. Masalan, parrandalar umrining ko'p qismini havoda, uchib yurib o'tkazadi. Bunday hayot kechirish bepoyon bo'shliqlarda adashmaslik zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham parrandalarning, ayniqsa, yimqich va ko'chib yuradigan parrandalarning ko'ruv organi va ko'rib idrok qilish xususiyatlari ham taraqqiy qilgandir. Maymunlar asosan daraxtlarda hayot kechiradi. Shunga ko'ra, maymunlarning ko'z bilan chamalash, harakatlarni uyg'unlashtirish va chaqqon ushlab olish xususiyati, darrow vaziyatga qarab ish ko'rish qobiliyati paydo bo'lgan. Hayvonlar psixikasining taraqqiysida tevarak-atrofdagi tabiat xususiyatlari, o'sha turga kiradigan hayvonlarning birgalashib yashashi katta ahamiyatga egadir. Uy hayvonlari psixikasining shakllanishida odamzod muhiti katta rol o'ynaydi. Bir sharoitdan ikkinchi bir sharoitga ko'chib o'tgan hayvonlarning psixikasi ham bir qadar o'zgarishi mumkin.

Psixikaning taraqqiyot bosqichlari

Psixikaning taraqqiyoti deganda hayvonlar psixikasining taraqqiyotini, odam ongining tarixiy taraqqiyotini, odam psixikasining yoshga qarab taraqqiy qilishini ko'rib chiqamiz.

Hayvonlar o'z turiga kiradigan hayvonlar to'idasidan chetda o'sganda ularning xatti-harakatida ba'zi bir xususiyatlar paydo bo'ladi. Uy hayvonlari doimo odamga yaqin yuramdan, ularning xatti-harakatlari shu turga kiradigan yovvoyi hayvonlar xatti-harakatiga qaraganda juda ham boshqacha bo'lib tuyuladi.

Hayvonlarda bo'ladigan xatti-harakatlarning ikki xil shaklini, ya'ni tug'ma (yoki nasldan-naslga o'tadigan) xatti-harakatlar bilan hayvonlarning o'z tirikchiligi tajribasi natijasida paydo qiladigan (yoki hosil qiladigan) xatti-harakatlarni bir-biridan farq qilmoq kerak. Ammo tug'ma xatti-harakatlar shakllari bilan hayvonlarning o'z tirikchiligi tajribasida hosil qilingan (individual) xatti-harakatlar shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yaramaydi. Tug'ma xatti-harakatlar shakllarining o'zgarishi va individual xususiyatlarga aylanishi mumkin, individual xatti-harakat shakllari esa tug'ma xatti-harakatlar shakllari zaminida hosil bo'ladi. Har bir odamning ongi tug'ilish paytidan boshlab, butun umr bo'yi o'sib boradi. Har bir kishi, ongining yoshga qarab taraqqiy etishi shu kishi organizmining o'sishiga, ijtimoiy muhit ta'siriga, ta'lim va tarbiyaga, shuningdek, odamning o'z faoliyatiga bog'liq. Organizmining ayrim a'zolari o'sadi va takomillashadi. Nerv sistemasi taraqqiy etib va chiniqib boradi. Masalan, bola bir yoshga to'lguncha hosh miyasining og'irligi ikki marta oshadi, to'rt-besh yoshlarga borganda hosh miya og'irligi uch marta oshadi. Miyaning o'sishi 20 yoshgacha, ba'zan undan keyin ham davom etadi.

Inson jamiyati bolalar ongiga asosan tarbiya va ta'lim yo'li bilan uyushgan ta'sir ko'rsatadi. Bola tevarak-atrofdagi kishilar bilan xilma-xil o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, go'dakligidanoq bilim, mahorat va malaka ortira boshlaydi. U avval oila sharoitida yoki maktabgacha tarbiya muassasasida, so'ngra maktabda o'qiydi, ta'lim oladi. Tevarak-atrofdagi muhit (tabiat va jamiyat), mehnat va til odam shaxsini kamilga etkazadigan sharoit bo'lish bilan birga, bola o'sgan sayin maktabda o'rganadi, shuningdek, tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi.

Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakatlari

Hayvonlarning instinktlari. Instinktlar hayvonlarning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug'ma harakatlaridir. Masalan, ko'p qushlar juda ustalik bilan in yasash ekan, material (cho'p-xas, loy) tanlash va inni pishiq qilib qurish yo'lida xilma-xil harakatlarni bajaradi. Hayvonlarning biologik ehtiyojlariga qarab, ularning instinktiv harakatlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: ovqatlanish instinkti, saqlanish instinkti, nasl qoldirish instinkti va poda (to'da) bo'lib yashash instinkti.

Ovqatlanish instinkti. Bu instinkt hayvonning o'zi uchun zarur ovqat qidirib topish, ovqat g'amlash va shu kabi harakatlarida zohir bo'ladi.

Saqlanish instinkti. Bu instinkt hayvonlarning dushmandan saqlanish tug'ma usullarida va dushmanga hujum qilish qobiliyatidan tashkil topadi.

Nasl qoldirish instinkti. Bu instinkt jumladan, ota-onalik instinkti sifatida yaqqolroq ko'rinadi. Hayvonlar o'z bolalarini parvarish qilish tug'ma mahoratiga ega bo'lib, u naslining

kelajagi haqida katta g'arixorlik qiladi.

Poda (to'da) bo'lib yashash instinkti. Bu instinkt hayvonlarning turli usullar bilan o'zaro aloqa qilishida va xilma-xil shaklda birgalashib yashashida paydo bo'ladi. Hayvonlarning ba'zi turlari, asosan, o'txo'r va sut emizuvchi hayvonlar doimo to'da bo'lib yashaydi, hayvonlarning boshqa turlari, asosan, yirtqich hayvonlar esa o'ziga o'xshash hayvonlar bilan vaqt-bevaqt birgalashib yashaydi. Hasharotlar galasi, qushlar galasi, sut emizuvchilar to'dasi hayvonlarning poda (to'da) bo'lib yashash shakllaridir.

Instinktlarning nerv-fiziologik asosi shartsiz reflekslardir. I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, instinktlar shartsiz reflekslarning o'ziyu, lekin ancha murakkab turidir. Instinktlar — bir qancha shartsiz reflekslardan iborat bo'lgan reflekslar zanjiridir. Instinktlarning qanday paydo bo'lganligini birinchi marta Ch. Darvin tushuntirib berdi.

Hayvonlarning ko'nikmalari. Ko'nikma — hayvonlarning individual hayoti davomida paydo qiladigan barakatlaridir. Masalan, o'rgangan it qo'l uzatilsa, oldingi oyog'ini beradi; it eshikni oyog'i yoki tumshug'i bilan ochadi, «o'yinga tushadi», keyingi oyoqlari bilan tikka yuradi, ot aravaga kiradi va hokazo. Bunday barakatlar ko'nikmalar deb ataladi. Hayvon instinktiv barakatlar yordami bilan qanday ehtiyojlarini qondirsa, hosil qilingan ko'nikma yo'li bilan ham o'sha ehtiyojlarini qondiradi. Itning «o'yinga tushishi» yoki «oldingi oyoqlarini berishi» uning ovqat olishiga yordam beradigan harakatlardir. Hayvonlarning ko'nikmalari shartsiz reflekslar, instinktlar asosida, ilgari hosil bo'lgan shartli reflekslar asosida vujudga keladi.

Ko'nikmalar hayvonning biron ehtiyojini qondirishga yordam beradigan yangi (instinktiv harakatlardan o'zgacha) harakatlarni qayta-qayta takrorlash yo'li bilan vujudga keladi. Ko'nikmaning nerv-fiziologik mexanizmi shartli refleksdir.

Ko'nikma va malakalar

Psixologiya fanida harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshirilishi kuzatiladi. Harakatni bajarishda ong borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ishni amalga oshirish avtomatlasha boshlaydi, ayrim mayda-chuyda qismlarga nisbatan e'tibor (nazorat) kamayadi. Shuning uchun inson faoliyatida maqsadga yo'naltirilgan sa'i-harakatlarni ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi. Inson faoliyati odamlarga xos bo'lgan har xil ehtiyojlar asosida yuzaga keladi. Faoliyatning o'zi ehtiyojlarni qondira oladigan yo'l hamda vositalarni izlash va shuning bilan birga, ehtiyojni qondiradigan harakatlardan iborat bo'ladi. Faoliyatning asosiy turlari - mehnat, o'yin va o'qishdan iboratdir. Faoliyatning istalgan turi odamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan amalga oshiriladi. Ko'nikma - shunday aqliy hamda jismoniy harakatlar, usullar va yo'l-yo'riqlardan iboratki, bular yordami bilan maqsadga erisiladi yoki ayni bir faoliyat amalga oshiriladi. Masalan, ayrim harflarni yozish usullari, ko'paytirish va bo'lish usullari, boltani ushlab va mix qoqish yoki temini toblashda bolg'a urish usullari shular jumlasidandir.

Ko'nikmalarni bilim bilan aralashtirish yaramaydi. Albatta, har qanday ko'nikma bilim bo'lishini taqozo etadi. Lekin bilimning ko'nikma bilan bog'liq bo'lishi shart emas. Masalan,

tarix, geografiya va adabiyotshunoslikka doir bilimlar shular jumlasidandir.

Bilimlar, asosan, voqelik to'g'ri aks ettiriladigan hukm va mulohazalarda ifodalanadi.

Ko'nikmalar esa, ko'proq aqliy yoki jismoniy harakatlarda ifodalanadilar. Ko'nikmalar oldindan belgilangan maqsadga mos bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikma ayrim harakatlarning to'la va aniq bo'lishini talab etadi. Bolg'achani so'pidan to'g'ri ushlay bilmaslik va bolg'a urishda qo'lning noto'g'ri harakat qilishi mix qoqa bilmaslikni ko'rsatadi. Bunda o'quvchi bolg'acha bilan qanday qilib mix qoqilishini bilishi va hatto gapirib berishi mumkin.

Bilimlarga odatlanmagan hech qanday ko'nikma bo'lishi mumkin emas. To'g'ri yozish uchun grammatika qoidalarini bilish shart. Shu bilan birga, ko'nikma hosil qilish uchun o'quvchi tegishli natijalarga erishtiruvchi to'g'ri usullarni ham bilishi lozim. Shuning uchun o'qituvchi yozishga o'rgatar ekan, ruchkani qanday qilib to'g'ri ushlashni, daftarning qanday holatda turishini, yozishda ruchkani qanchalik bosish kerakligini va shu kabilarni ko'rsatadi.

Ko'nikmalar murakkablik darajalari jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Ko'nikma oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, harf-larning elementlaridan chiziqcha yoki aylana yozish oddiy ko'nikma bo'lsa, butun bir so'zlarni yozish murakkab ko'nikmadir.

Ninaga ip taqish va tugmacha chatish — oddiy uquvdir, lekin xuddi shu nina bilan ko'ylak yoki kostyum tikish - murakkab uquvdir. Odamning hayotida ko'nikmalarning ko'pi malakalar tarzida namoyon bo'ladi. Har qanday malaka ko'nikmadir, lekin har qanday ko'nikmani malaka deb bo'lmaydi. Faqat avtomatlashgan ko'nikmagina malaka deb ataladi. Malakalar, odatda, ongli faoliyatdan, ya'ni mehnat faoliyatlaridan ajralgan holda namoyon bo'lmaydi.

Malakalar avtomatlashish darajasi jihatidan o'zaro farqlanadilar. Masalan, kalligrafik (chiroyli) yozuvda avtomatlashish juda katta ahamiyatga ega, o'qish uslubida esa avtomatlashish bilan birga har doim onglilik ham talab etiladi. Malakalar avtomatlashgan harakatlar sifatida o'qish jarayonida ham, inson faoliyatining barcha turlarida ham katta ahamiyatga egadirlar.

Ko'nikma va malakalarning turlari

Ko'nikma va malakalar uch turga bo'linadi: ta'lim, umumli mehnat va sport sohasiga doir ko'nikma hamda malakalar.

Ta'lim sohasiga doir ko'nikma va malakalar: Maktabdagi o'qishning hamma bosqichlarida har bir predmetni o'zlashtirish bilan birga, bir qator o'quv malakalarini egallash ham talab etiladi. O'qish jarayonida o'quvchilar dastavval yozish, o'qish va hisoblash ko'nikmasi hamda malakasi hosil qilishlari kerak bo'ladi. Bu ko'nikma va malakalar dastlabki, ya'ni boshlang'ich ko'nikma va malakalar hisoblanadi. Keyinchalik, ana shular asosida orfografiya va matematika sohasida murakkab ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Ta'limiy ko'nikma va malakalar hosil qilishda o'quvchilarning aqliy faoliyatlari.

ayniqsa, katta o'rin tutadi. Bunday ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayonida o'quvchilar juda ko'p narsalarni kuzatishlari, o'ylab ko'rishlari, eslarida olib qolishlari va tasavvur etishlari lozim bo'ladi.

Juda ko'p ta'limiy ko'nikmalarda, ayniqsa, orfografiya va matematika sohasidagi ko'nikmalarda qilinadigan ish, asosan, aqliy mehnatga ega bo'ladi. Lekin bir qator ta'limiy ko'nikma va malakalarda (masalan, yozish, chizmachilik, rasm kabilarda) muskul harakatlari ham asosiy rol o'ynaydi. Ta'limiy ko'nikma va malakalarning tarkib topishi zo'r diqqat va iroda talab etadi. Umumli mehnatga doir ko'nikma va malakalar: Umumli mehnatga oid (texnikaviy) ko'nikmalar va malakalar, asosan, harakat a'zolari bilan bog'liq ko'nikma va malakalardir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar maktab o'quv ustaxonalarida yog'och va metallni ishlash jarayonini o'rganish va fizika, kimyo, tabiiyot hamda boshqa fanlardan amaliy vazifalarni bajarishlari jarayonida birmuncha murakkabroq mehnat ko'nikma va malakalari hosil qiladilar. Yuqori sinf o'quvchilari ishlab chiqarish ta'limi jarayonida va korxonalarda o'tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyoti davomida texnikaga oid ko'nikma va malakalar oltiradilar.

Ishlab chiqarish mehnatiga doir ko'nikma va malakalar ko'proq muskul harakatlarida, asosan, qo'l harakatlarida, ba'zan esa qo'l va oyoqning birgalikda qiladigan harakatlarida ifodalanadi.

Duradgorlik ustaxonalarida oltirilgan qo'l harakatlari doir ko'nikmalarning misoli tariqasida arralash, qirqish va randalash kabilarni ko'rsatish mumkin. Metallga qo'l bilan ishlov berishda urish harakatlari (zubilo bilan chopish yoki kesish va temir qirqadigan arrani bosish) katta rol o'ynaydi. Bolg'a yoki boshqa asbob bilan ishlayotgan odamning qo'li tobora ortib boruvchi tezlik bilan harakat qiladi. Bunda urish harakati ishlanayotgan narsadan qat'iy nazar tezlashib boradi. Shuning uchun urish harakatida mo'ljalga tushirish birinchi o'rinda turgan maqsaddir.

Sport ko'nikma va malakalari: O'quvchilarning jismoniy tarbiya ko'nikmalari va malakalarini egallashlari davomida tezlik hamda baquvvatlik, moslashgan harakatlar va chaqqonlik kabi sifatlarga ega bo'lgan har turli muskul harakatlarini hosil qiladilar. Saflanish usullari hamda gimnastik tarzda qayta saflanish, tirmashib chiqish va oshib tushish, sakrash, yurish va yugurish, uring'itish, to'siqlarni engib o'tish va shuning kabi harakatlar ana shular jumlasidandir.

Maktabdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy jihatdan har tomonlama taraqqiy qilishlariga, ularning badan tarbiyasiga, ayrim sport turlarining texnikasini egallashlariga va shuning bilan birga maktabdagi turli sinflarda jismoniy tarbiyadan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning mazmuni va metodlari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga hamda ularning jismoniy imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

Ko'nikma va malakalar hosil bo'lishning nerv-fiziologik asosi shartli reflekslardir. Har bir malaka va har bir odat, o'z fiziologiyasi asosiga ko'ra, shartli refleks bog'lanishlari sistemasidan iborat.

Malaka va ko'nikmalar hayvonlarda ham hosil bo'ladi. Hayvonlarda malaka va ko'nikmalar ularning ehtiyojlariga, yashash sharoitiga bog'liq holda, taqlid yo'li bilan va shuning bilan birga, odamlar tomonidan o'rgatish yo'li bilan hosil bo'ladi. Hayvonlarda malaka va ko'nikmalar birinchi signal sistemasi doirasidagi bog'lanishlar asosida vujudga keladi. Odamda malaka va ko'nikmalarning hosil bo'lishida birinchi signal sistemasi bilan o'zaro munosabatta bo'lgan ikkinchi signal sistemasi ko'proq ahamiyatga egadir.

Nazorat savollari:

1. Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligini yoriting.
2. Odamning taraqqiy qilishida mehnatning roli qanday?
3. Seskanuvchanlik psixikaning sodda shakli ekanligi va uning paydo bo'lishi haqidagi bilimlaringizni bayon eting
4. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari ayting vz yoriting.
5. Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakatlari nimalardan iborat?
6. Ko'nikma va malakalar haqidagi bilimlaringizni bayon eting
7. Ko'nikma va malakalarning qanday turlarini bilasiz?

XV bob. FAOLIYAT

Asosiy savollar:

1. Faoliyat va psixik jarayonlar
2. Faoliyatning tuzulishi
3. Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi
4. Faoliyat turlari

Tayanch tushunchalar: ehtiyoj, motiv, ustanovka, qiziqish, faoliyat, o'yin, o'qish, mehnat, ehtiyoj turlari, tabiiy ehtiyoj, madaniy ehtiyoj, moddiy ehtiyoj, faoliyatning psixologik nazariyalari.

Faoliyat va psixik jarayonlar

Psixologiya fanida hayvonlarning xatti-harakati (ularning qaysi taraqqiyot bosqichidan qat'i nazar), xulq-atvorining yuzaga kelishi ko'p jihatdan ularni qurshab turgan makro, mikro va mize muhitga bog'liq. Ularning namoyon bo'lishi biologik (tabiiy) shartlangan omillar, vositalar tomonidan belgilanadi va boshqarilib turiladi. Insonni hayvonot olamining xususiyatlari bilan qiyoslashga harakat qilsak, u holda mutlaqo boshqacha voqelikning shohidi bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, shaxs o'zining faolligi bilan hayvonot olamidan farqli o'laroq ajralib turadi, mazkur harakatlantiruvchi kuch (faollik) ilk bolalik yoshidan e'tiboran ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan insoniyatning tajribasiga va jamiyatning qonun-qoidalarini egallashga yo'naltirilgan bo'ladi. Uzoq davrlar davom etgan maxsus jarayonning ta'sirida sodda tarzda xatti-harakatda faollik ustuvorlik qilganligi tufayli o'zining yuqori bosqichiga o'sib o'tib, yangicha mazmun, mohiyat, shakl va sifat

kashf etgan. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, faqat insongagina taalluqliligi orqali u psixologiya fanida faoliyat deb nomlana boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlarini bilan xatti-harakatdan tafvutlanadi. Uning farqli alomatlarini tavsifi yuzasidan maqsadga muvofiq mulohazalar yuritish ayni muddaodir.

Birinchiidan, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yuzaga keltirgan tabiiy, biologik va ma'naviy ehtiyoj bilan shartlanmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizga qurilishi mumkin. Mahado ehtiyoj motiv (lotincha motiv turki, harakatga keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) sifatida faoliyatga ichki turki berib, uni jadallashtirishga, faollashtirishga erisha, u vaziyatda faoliyatning mazmuni, shakllari ijtimoiy: shart-sharoit, talablar, zaruriyat, tajriba kabilar bilan belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, insonni mehnat qilishga undagan motiv moddiy ovqatga nisbatan ehtiyoj vujudga kelishi tufayli tug'ilish hodisasi muayyan darajada uchrah turadi. Aksariyat hollarda ishchi dastgohni ochlikning oldini olish uchun emas, balki jamiyat tomonidan mas'ul ijtimoiy vazifa sifatida belgilanganligi sababli boshqarishga qaror qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ishchining mehnat faoliyati mazmuni moddiy ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan belgilanadi, bu o'z navbatida maqsadning ijtimoiy negizida yetuvchi tayyorlash mas'ulligi bilan uyg'unlashib ketadi. Modomiki shunday ekan, odam nima uchun hunday yo'sinda xatti-harakat amalga oshirgani, uning nimaning ko'zlab ish qilayotgani mos kelmaydi, chunki uni faollikka undovchi turki, xohish-istak bilan faoliyatni yo'naltiruvchi aniq maqsad o'zaro mutanosib emas. Binobarin, faoliyat faollik manbai hisoblanmish ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan tarzda faollikning yo'naltiruvchisi tariqasidagi anglanilgan maqsad bilan idora qilinadi.

Ikkinchiidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy ob'ektiv xossalarni aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l- yo'riqlarini aniqlab berishi joiz.

Uchinchiidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi yo'q faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalashi lozim. Shuning uchun faoliyat bilish jarayonlarisiz, itodaviy zo'r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos.

Odatda faoliyatga ta'rif berilganda, birinchi galda anglashilgan maqsad bilan boshqarilishi, so'ngra psixik (ichki) va jismoniy (tashqi) faollikdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Lekin ushhu belgilar faoliyat ta'rifini mukammal tarzda ochib berishga qurbi etadi, degan gap emas, alhanna.

Inson faolligida anglanilgan maqsad mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish uchun har xil xususiyatli bir qancha omillarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Faoliyatning motivlari, ro'yobga chiqarish vositalari, axborot tanlash va uni qayta ishlash anglanilgan yoki anglanilmagan, ba'zan anglanilganlik noto'kis, hatto u noto'g'ri bo'lishi mumkin. Jumladan: a) maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatiga nisbatan ehtiyojini goho anglaydi, xolos; b) boshlang'ich sinf o'quvchisi o'quv motivlarini hamisha bam anglash qurbiga ega bo'lmaydi;

v) o'smir ham xulq motivlarini noto'kis va noto'g'ri anglashi mumkin; g) hatto voyaga etgan odam ha'zan xulq motivini noto'g'ri xaspo'shlashga intiladi. Bundan tashqari, hatto faoliyatni amalga oshirishni rejalashtirish, uni ro'yobga chiqarish uchun qaror qabul qilish, mahsulani taxminlash, xulosa chiqarish ham anglanilganlik kafolatiga ega emasdir. Chunki faoliyatni ro'yobga chiqaruvchi harakatning aksariyati ong tomondan boshqarilmaydi, jumladan, velosiped uchish, kuy chalish, kitoh o'qish, telefon qilish odatiy hodisadir.

Shuni uqitib o'tish lozimki, faoliyatning jabhalarini ongda aks etish darajasi va mukammalligi uning anglanilganligi ko'rsatkichi, mezon hisoblanadi. Lekin faoliyatning anglanganligi darajasi keng ko'lamlı ho'lishiga qaramasdan, maqsadni ko'zlash (anglash) uning ustuvor belgisi vazifasini o'ynayveradi. Faoliyatda maqsadni anglash ishtirok etmasa, unda u ixtiyorsiz(impulsiv) xatti-harakatga aylanib qoladi va bunday holat ko'pincha hissiyot bilan boshqariladi. Jahl, g'azab (affekt), kuchli ehtiros holatlari yuz bergan odam ixtiyorsiz harakat qiladi. Biroq xatti-harakat ixtiyorsizligi uning anglanilmaganligini bildirmaydi, aksincha hunda inson motivining shaxsiy jabhasi anglanilgan bo'ladi, uning ijtimoiy mazmuni esa qamrab olinmaydi.

Faoliyatning tuzulishi

Voqelikka nisbatan munosabatning muhim shakli sifatidagi faoliyat inson bilan uni shah turgan olam (borliq) orasida hevosita aloqa o'rnatadi. Tabiatga, narsalarga o'zga odamlarga ta'sir ko'rsatish ham faoliyatning qudrati bilan ro'yobga chiqadi. Inson faoliyatda narsalarga nisbatan sub'ekt sifatida, shaxslararo munosabatda esa shaxs tarqasida gavdalanadi hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga musharraf bo'ladi. Buning natijasida ikkiyoqlama bog'lanish uzluksiz harakatga kirishishi, to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishi tufayli inson narsalarning, odamlarning, tabiat va jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'playdi. Har xil xususiyatli o'zaro munosabatlar negizida faoliyat sub'ekti uchun narsalar sub'ektlar sifatida, odamlar esa shaxs timsolida aks eta boshlaydi.

Inson faoliyatga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilishi tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali barf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglatuvchi matn paydo bo'ladi.

Psixologiyada faoliyatning alobida bir xususiy vazifasini bajarishga mo'ljallangan, nisbatan tugallangan qismi (unsuri), tarkibi harakat deb nomlanadi. Masalan, kompyuter texnikasidan foydalanish harakatlari amalga oshiriladigan ishlardan tarkib topadi. Harakatlar natijasida odam borliqdagi narsalar xususiyati, holati, fazoviy joylashuvini o'zgartiradi. Mazkur jarayon nafaqat harakat yordami bilan, balki muayyan sa'i- harakatlar tufayli yuzaga keladi. Duradgor eshik yasamoqchi bo'lsa, avval munosib material tanlaydi, ularni o'lchaydi, unsurlarini sanaydi, randalaydi, qismlarni bir-biriga joylashtiradi, yopishtiradi, unga pardozi

heradi, oshiq-moshiq qoqadi, kesaki o'ratadi, ochib yopilishini tekshiradi va hokazo. Keltirilgan misoldan ko'rib turibdiki, duradgoming gavdasi, oyoq-qo'llari, hoshining tutishi sa'i-harakatlari bilan birga «tanlash», «ishlov berish», «o'ratish» amal qismlari majmuasi faoliyatni tarkib toptiradi. Sa'i-harakatning harakaldan farqli tomonlari uning aniqligi, maqsadga yo'nalganligi, epchilligi, uyg'unligi singari belgilarida o'z ifodasini topadi.

Inson faoliyatida narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sa'i-harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati; b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish); v) joy almashish (yurish, yugirish); g) aloqa vositalari sa'i-harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari tarkibiga: a) ifodali sa'i-harakatlar (imo-ishora, pantomimika); b) ma'noli ishoralar; v) nutqiy sa'i-harakatlar kiradi. Sa'i-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa'i-harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning maqsadiga, ta'sir o'tkaziladigan narsalarning xususiyatlariga va harakatning amalga oshishi shart-sharoitlariga bog'liq. Jumladan, a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzda sa'i-harakatni taqozo etadi; b) avtomobilni haydash velosipedda uchishga qaraganda ayricha sa'i-harakat talab qiladi; v) ellik kg shtangani ko'tarishda bir pudlik tonnaga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi; g) kartonga katta shaklni yopishtirishga qaraganda kichik shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.

Yuqorida keltirilgan misollar turlicha ob'ektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Ob'ektlarning turlicha ekanligi sa'i-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni, tizimni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K. Anoxin, N.A. Bernshteyn, E.A. Asratyanlarning tadqiqotlarida dalillab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'i-harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'i-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan hoshqarilishi mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'i-harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi.

Sa'i-harakatlarning amalga oshirilishi beto'xtov ravishda nazorat qilinadi, uning mahsulati harakatning pirovard maqsadi bilan qiyoslanadi va unga ayrim tuzatishlar kiritiladi, xuddi shu tarzda boshqaruv betinim takrorlanaveradi, harakatni nazorat qilish jarayoni esa sezgi a'zolari yordami bilan vujudga keladi. Sa'i-harakatni sensor (sezgi a'zolari yordamida) nazorat qilishning isboti uning oynadagi o'z aksiga qarab chizishda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, oynada qalamning odam qo'li harakat yo'nalishi ho'yicha emas, balki qarama-qarshi tomonga harakatlanayotganday tuyuladi. Inson ko'rish orqali mashqlanishi tufayli ma'lumotlardan foydalanish bilan harakatni muvofiqlashtirishni uddalaydi.

Sa'i-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa printsipiga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'i-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar etkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar.

Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko'rinishini) rus tadqiqotchi P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan. Afferentatsiya (lotincha afferens keltiruvchi degan ma'no anglatadi) hamda tashqi qo'zg'atuvchilardan, hamda ichki organlardan, axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa-axborotlarining tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini aks ettiradi. Sa'i-harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Narsaga yo'naltirilgan harakatning ishg'a tushishi muayyan bir tizimga taalluqli sa'i-harakatlarning natijaga (maxsulaga) erishishni ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki u (harakat), birinchidan, sa'i-harakatlarning mahsulatiga mos ravishda, ikkinchidan, harakatlar ob'ektning xususiyatlariga munosiblikda, uchinchidan, sa'i-harakatlarni hissiy nazorat qilishni amalga oshirgan yo'sinda ularga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi. Ushbu jarayonni osonroq tushunish uchun uning negizi: a)tashqi muhitning holati, b)muhitda harakatlarning vujudga kelishi, v)natijalar (mahsulalar) to'g'risida miyaga axborot beruvchi hissiy mo'ljallarni egallash mujassamlashtiradi. Masalan, haydovchi avtohusni to'xtatish tepkisini bosish kuchini, uning harakati tezligi, shoh ko'chaning holati, avtobusning vazni, harakat qatnovi, piyodalar gavjumligi bilan so'zsiz moslashtiradi.

Xalbuki shunday ekan, faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi oxir oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilab turiladi. Maqsad niyada faoliyatning bo'lg'usi mahsulatining timsoli, o'zgaruvchan andozasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o'z navbatida andoza sa'i-harakatni yo'naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo'lib, ular «bo'lg'usi harakat modellari», «sa'i-harakat dasturi», «maqsadning dasturi», «miyada harakatning o'zi oldindan hosil qiladigan andozalari» singari tushunchalarda o'z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari: «harakat akseptori» va «ilgarilab aks ettirish» (P.K.Anoxin), «harakatlantiruvchi vazifa» va «bo'lg'usi ehtiyoj andozasi» (N.A.Bernshteyn), «zaruriy mohiyat» va «kelajak andozasi» (Mittelstedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to'g'risidagi mulohazalari, bu borada tasavvurlarning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo'lib hisoblanadi.

Faoliyat jahon psixologiyasi fanining asosiy (fundamental) tushunchalaridan biri hisoblanib, ko'pincha psixologik kategoriya sifatida olib qaraladi. Shuning bilan birga ushbu tushuncha haddan ziyod keng ma'noli va ko'p ahamiyatli tarzda foydalanilganligi tufayli uning mohiyati yoyiq bo'lib boradi, natijada qiymati asl mazmunini yo'qotadi. Xuddi shu boisdan psixologiyada faoliyat uchun umumiy qabul qilingan definitsiya mavjud emas, foydalanib kelinayotgan tuzilma, ta'rif esa ko'p hollarda tanqidga uchraydi. Holbuki shunday

ekan, semantik tahlil o'tkazish orqali faoliyatga nisbatan turlicha qarashlarni umumlashtirish o'zaro taqqoslash zaruriyati aniqlangan bo'lar edi, bu esa o'z navbatida uning (faoliyatni ilmiy-psixologik ob'ektiga aylantirishi unga aloqador tushunchalar tarkib mukammallashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Entsiklopediya, izohli lug'at va lingvistik so'zliklardagi ma'lumotlar, ilmiy matn tahlilining ko'rsatishicha, faoliyat tushunchasi falsafa, fiziologiya, sotsiologiya, psixologiya fanlari predmetidan kelib chiqib, o'zaro qorishish oqibatida mehnat, ish, aktivlik, xulq singa to'rt xil tavsifga ega bo'lgan.

I. M. Sechenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan, shu sababdan uning asarlarida "tafakkurning faol shakli", "tafakkur faoliyati", "miya faoliyati", "muskul faoliyati" so'z birikmalari keng ko'lamda joy egallagan. I.P. Pavlov tomonidan "oliy nerv faoliyati", N.A. Bernshleyn esa "fiziologiya faolligi" atamasini fan olamiga olib kirgan. Lekin N.A. Bernshleyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma'nosiga ko'ra farqlagan bo'lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma'nosida qo'llagan.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma'nosi sifatida talqin qilingan bo'lsa, ish, mehnat faoliyati "mehnat faolligi" mazmunida qo'llanadi. Ijtimoiy psixologiyada "faoliyat-faollik-ish-mehnat", "faoliyat-xulq", "mehnat-xulq-faoliyat" ko'rinishlari juftligi uchrab turadi. S.I. Rubinshteyn ong va faoliyat birligi printsipini ilgari surib va atroflicha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zaruriyatini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki "ijtimoiy kategoriya", psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini" tadqiq etadi. Psixiklikning namoyon bo'lishi yoki hukm surishining ob'ektiv shakli xulqda, faoliyatda ifodalanadi (aks ettirish harakati ma'nosida).

A.N. Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "predmetli faoliyat" so'z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomondan "odamning hissiy amaliy faoliyati" so'z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "faoliyat", "xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan, "teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish", "faoliyatning halqali tuzilishi", "faoliyatni boshqarish", "qo'lning tuyush faoliyati", "pertseptiv faoliyat", "retseptor va effektor apparatlarning hamkorlik faoliyati" kabilar.

B.G. Ananov faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi ma'nosida tushunadi. Uning fikricha, bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko'rinishidir. Tadqiqotchi "inson faoliyati", "tashkiliy ish", "tashkilotchilik faoliyati", "xulq jarayonining algoritmlari" atamalaridan har xil ma'noda foydalanadi.

Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi.

Tashqi olamda turli hodisalar ma'lum darajada o'zaro doimiy bog'liqlikka, ma'lum sharoitlarda namoyon bo'ladigan biror mustahkam xususiyatga va tuzilishga egadir.

Ob'ektlar bilan hodisalar o'rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlarni

ob'ektlarning muhim xususiyatlari deb yuritiladi. Bu ularning kelajakda qay darajada o'zgarishi va shu maqsadga muvofiq ish tutish, ya'ni ob'ekt va hodisalarning "xatti-harakatlari"ni oldindan ko'ra olish imkoniyatini beradi. Tashqi, ya'ni buyumlar bilan qilinadigan hunday holda g'iyoh ichki, ya'ni idam faoliyatni oldindan payqab olinadi. Ob'ekt (narsa) ustida qilinadigan konkret ishlar bu ob'ektlarning muhim xususiyatlari ustida qilinadigan operatsiyalar bilan, ya'ni ideal (psixik) ishlar bilan almashinadi. Boshqacha qilib aytganda, narsalar bilan jismoniy tarzda qilinadigan ishlar shu narsalarning mazmuni bilan almashinadi.

Tashqi real ishdan ichki ideal ishga mana shunday o'tish jarayonini interiorizatsiya deb yuritiladi (ichki ishga aylanadi). Inson psixikasi interiorizatsiyasi tufayli ayni chog'da ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsalarning obrazlari bilan ishlay bilish qobiliyatiga ega. Interiorizatsiya muammosi rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiq qilingan. Interiorizatsiya orqali inson psixikasi muayyan vaqt oralig'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi) dan foydalanish qurbiga ega bo'ladi. Shu narsa ma'lumki bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib, so'z o'zgarishi vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlari haqida axborotdan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir. Inson aqliy taraqqiyotida interiorizatsiyaning ahamiyati kattadir.

Ma'lumki, odamning ichki dunyosi paydo bo'lgandan so'ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichida o'ylab so'ngra amalga oshiradi. Oldin ichida o'ylab, so'ngra bevosita tashqi munosahatga o'tishi faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb yuritiladi.

Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) tuzilmalari bir-biri bilan uyg'unlashganligi ko'zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan sa'i - harakatlar ichki psixik jihatiga bog'liq bo'lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek tashqi jabha o'z navhalida a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ularni uzluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi yaqqol faoliyatini ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizatsiyalashuvga aylanishi deb baholash maqsadga muvofiq.

Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, hadiy-ijod, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki, faoliyat tashqi dunyoni ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatda inson o'z xatti-harakatlarini maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o'ylaydi, irodaviy zo'r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va maqlubiyatini o'ylaydi.

Faoliyat bir tomondan, shaxsning rivojlanishi va sifatlarining namoyon bo'lish sharoiti, ikkinchidan, shu faoliyat sub'ekti bo'lgan shaxsning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir.

Barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qismni: maqsad-motiv- harakatni ajratish mumkindir.

Maqsad - inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motiv - kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish-harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibi. Faoliyatga qaratilgan maqsad ozmi-ko'pmi uzoq yoki yaqin bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu maqsadga erishish odam tomonidan ana shu maqsad sari harakat qilish davomida uning oldida tug'iladigan qator juz'iy maqsadlarni izchillik bilan ho' qilishdan iborat bo'ladi. Quyidagi harakatning muhim tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

Faoliyatning asosiy turlari

Odamlarning faoliyati ongli faollik sifatida inson ongining tarkib topishi taraqqiyoti bilan bog'liq holda tarkib topadi va rivojlanadi. Inson faoliyatida taraqqiyotning asosi hamda ong mazmunining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatda insonning shaxsi ifodalanadi, shu bilan birga faoliyat odam shaxsini tarkib toptiradi. Odamlarda har xil turdagi faoliyatlarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti juda ham murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon. Bolaning faoliyati uning kamoloti davomida faqat asta-sekin ta'lim va tarbiyaning ta'siri ostida ongli maqsadga mos faoliyat shaklini egallab boradi. Inson faoliyati asosan uch turga bo'linadi: o'yin, mehnat, ta'lim faoliyati. Bu faoliyat turlari bola shaxsining tarkib topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'yin. Bola bir yoshga to'lgandan boshlab unda faoliyatning sodda shakllarini egallash uchun shart-sharoitlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday shart-sharoitlardan birinchisi o'yindir. O'yin faoliyatini hayvon bolalarida ham uchratish mumkin. Hayvonlarning yosh bolalarida kuzatiladigan o'yin faoliyatiga har xil narsalar bilan shug'ullanish, yolg'ondakam urishishlar, yugurishni va shu kabilarni kiritish mumkin. Bolalarda ham o'yin ularning faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shaklidir. Sof holdagi o'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab ehtiyoj bo'lsa, uning manbai tahlid va tajribadir. Bolalar narsalar bilan rolli qoidali, harakattli, didaktik mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar.

O'yin narsa va hodisalarning mazmunini bolaning o'z tajribasida bilib olishga, mazkur mazmunlarni ishlata bilishga masbuq qildiradi. Bolaning shaxsiy sifatleri boshqalar bilan munosabatlarda tarkib topib boradi. O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga barakat qiladi va shu yo'sinda atrof-mubit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu bodisani rol orqali ijro qiladi. So'z bilan harakatning birkuvi natijasida o'yin faoliyati tusini oladi va muayyan ma'noda axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga harakat qiladi.

O'yin dastavval bola uchun vaqt o'tkazish, uni mashg'ul qilish funksiyasini bajaradi, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalari ifodalash darajasiga o'sib o'tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug'ilgandan to maktab ta'limigacha uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Ta'lim faoliyati o'yin faoliyatining pirovardida yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi ma'lum axborotlarni, bilimlarni, harakatlar va amallarni o'zlashtirishdan iboratdir. Odamning o'z maqsadiga ko'ra batamom o'rganish va o'zlashtirishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyati ta'lim faoliyati deyiladi. Psixologik jihatdan olganda, ta'lim faoliyati o'z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: ma'lum bir nazariya va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ob'ektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir axborotlarni o'zlashtirish. Bu jarayonning mahsuloti bilimlardir. Mana shu faoliyatni, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishda yuzaga keladigan usul va operatsiyalarni egallash, bu jarayonlarning mahsuloti malaka va uquvlardan iboratdir. Ta'lim faoliyatining tarkibi juda ham murakkab bo'lib, bilimlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.

Ta'lim faoliyati ma'lum ravishda tashkil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotiga faol ta'sir etib, ularning ta'lim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o'rganish tomon yo'naltirishdir. Shunday qilib, ta'lim faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib, boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma'lumki, ta'lim faoliyati bilan tarbiya ishlari uzviy bog'liqdir. Bizning maktablarimizda har qanday ta'lim jarayoni hamma vaqt tarbiyaviy xarakterga ega, bolalarga u yoki bu fan bo'yicha ta'lim berar ekanmiz, shuning bilan birga ularni biz tarbiyalashimiz kerak. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni asosan tushuntirish, ishtirok etish, ko'rsatish, rag'batlantirish, talab qilish, vazifa berish va jazolash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha tarbiyaviy ishlarni asosiy maqsadi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnat faoliyati - ma'lum ijtimoiy foydali, moddiy yoki madaniy, ma'naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Kishilarning mehnati ma'lum maqsadga qaratilgan har doim ijtimoiy tabiatga ega bo'ladi. Mehnat faoliyatining maqsadi kishilarning iste'mol qilinadigan narsalarni, ya'ni non, mashinalar, turli ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash, ya'ni kiyim-kechak oziq-ovqat va hoshqa shu kabi narsalarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Mehnat faoliyati o'z mohiyati jihatdan ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti tufayli birorta kishi ham o'ziga kerak bo'ladigan narsalarni faqat ishlab chiqarishga qatnashmay, balki deyarli hech qachon hatto birgina narsani hoshdan oxirigacha ishlab chiqarishda ham qatnashmaydi. Shuning uchun odam hayoti uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni jamiyattan oladi, o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Nazorat savollari:

1. Faoliyat deganda nimanı tushunasiz?
2. Faoliyat va psixik jarayonlarning ifodalanishini yoriting.
3. Faoliyatning tuzulishi yoriting.
4. Faoliyatning interiorizatsiyasi deganda nimanı tushunasiz?
5. Faoliyatning eksteriorizatsiyasi deganda nimanı tushunasiz?
6. Faoliyat turlarini bayon eting.
7. O'yin faoliyati haqida tushuncha bering.
8. O'qish faoliyati haqida tushuncha bering.
9. Mehnat faoliyati haqida tushuncha bering.

XVI bob. SHAXS

Asosiy savollar:

1. Individ, shaxs, individuallik.
2. Shaxs. Shaxsning tuzilishi.
3. Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishi.
4. Kishining o'z-o'ziga baho berishi.
5. Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalar

Tayanch tushunchalar: shaxs, biogenetik nazariya, sotsioge-netik nazariya, shaxs shakllanishi va rivojlanishi, G. Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi, shaxs nazariyasining asosiy konsepsiya va qonuniyatlari, ekstravert va introvertlar o'rtasidagi farqlar

Individ, shaxs, individuallik

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisiningina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi.

1. Odam, sut emizuvchilar sinfiga dahldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurallanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mulanosib tarzda uni

o'zgartirish imkoniyatiga ham ega.

2. **Shaxs.** Mehnat-tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala) ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. **Individuallik.** Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Shaxs. Shaxsning tuzilishi. Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishi

Shaxs deb aniq bir kishini aytamiz. Har bir kishi jamiyat a'zosi bo'lib, tarixan tarkib topgan muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida yashaydi va ishlaydi. Shaxsni ta'riflaydigan muhim psixologik belgilarga to'xtab olaylik. Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlardan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkabolligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, bukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqealarning mangulikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Shaxsning individual xususiyatlari uning belgisi hisoblanadi. Har bir odamning o'ziga yarasha shaxsiy xususiyatlari bor. Bir-biriga o'xshaydigan, ammo tamomila bir xil bo'lmagan kishilar bor. Odamning individual xususiyatlari aqlida, hislarida, irodasida namoyon bo'ladi. Har bir odam o'ziga yarasha idrok etadi, eslab qoladi, o'ziga yarasha fikr yuritadi va so'zlaydi. Har kim turli hislatni o'ziga yarasha ko'ngildan kechiradi va turli sharoitda o'ziga yarasha ish qiladi. Har bir odamning o'ziga xos temperamenti va xarakteri, o'ziga yarasha individual layoqat-qobiliyatlari va qiziqish-havaslarini bor.

Shaxsning tarkibiy qismi odam organizmi — gavdasidir. Odamni shaxs deb aytganimizda umuman odamni — uning ongi va organizmini nazarda tutamiz. Sobiq sovet psixologiyasida eng ko'p tarqalgan shaxsning tuzilishiga oid materiallar bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

S. L. Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. **Yo'nalganlik** - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. **Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar** - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

K.K. Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo'nalganlik osttuzilishi - shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, harqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi - Ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

III. Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - Ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

IV. Biologik shartlangan osttuzilish.

Miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A.G. Kovalev ta'limotiga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

Ustuvor yo'nalganlik shaxsning harcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi tizim. O'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma'naviy sifatlar ajratiladi.

4. Mashqlar tizimi. Hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korrektisyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

Kishining o'z-o'ziga baho berishi

O'ziga-o'zi baho berish - shaxsning o'zi tomondan o'ziga, o'z imkoniyatlariga boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o'rniga baho berilishidir. O'ziga-o'zi baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to'g'rilanib, tartibga solib turiladi. Kishi o'zi haqida ba'zi narsalarni allaqachon bilgani holda boshqa kishiga razm solib boradi, o'zini u bilan solishtirib ko'radi, u ham uning shaxsiy fazilatlariga, xatti-harakatlariga, faolligiga nisbatan befarq qola olmaydi, deb taxmin qiladi; ana shularning hammasi shaxsning o'ziga o'zi baho berishiga kiradi va uning psixologik kayfiyatini belgilaydi.

Psixologiyada kishining o'ziga o'zi beradigan bahoni, uning miqdoriy va sifatiiy ta'rifini aniqlashning bir qator eksperimental metodlari mavjuddir. Shaxsga beriladigan baholar sistemasiga uchta ko'rsatkich - o'ziga o'zi baho berish, kutilgan baho, guruhning shaxs tomonidan baholanishi - shaxsning tuzilishiga kiradi va kishi buni xohlaydimi- yo'qmi, bundan qat'i nazar, u o'zining guruhdagi kayfiyatini, o'zi erishgan natijalarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ekanligini, o'ziga va tevarak-atrofdagilarga nisbatan nuqtai nazarlarni belgilaydigan sub'ektiv vositalarni hisobga olishga ob'ektiv ravishda majburdir.

O'ziga-o'zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o'ziga o'zi beradigan bahoning individ o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo'ladigan kutilgan darajasi ("Men" simollarining darajasi) dir. Kishi navbatdagi harakatning qiyinchilik darajasini bema'lol tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan paytda o'ziga-o'zi beradigan bahom oshirib yuborishga intilish ikkita tendentsiya o'rtasida mojaro kelib chiqishiga sabab bo'ladi: bir tomondan eng ko'p yutuqqa erishish uchun intilishni kuchaytirib yuborishga harakat qilinsa, ikkinchidan muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun intilishlarni kamaytirishga harakat qilinadi.

Shaxsning psixologik muhofazasi. Shaxsning o'zini anglashi o'ziga o'zi baho berishi mexanizmini qo'llagan holda xususiy intilishlar va real yutuqlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni aniq qayd etadi. Amerikalik psixolog U. Djems o'zining psixologik nazariyasida XX asrning boshlaridayoq shaxs "Men"i simomasining eng muhim tarkibiy qismi-o'zini hurmat qilishi haqiqatdan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogariq qilgan, mo'ljallangan narsalarga munosahati bilan belgilanishi haqida umuman to'g'ri fikr bildirgan edi.

Kishi o'z faoliyatida qiyinchiliklar oldida bo'sh kelmasligi, aksincha o'zining irodaviy fazilatlarini va matonatiligini namoyon qilgan hamda shu orqali muvaffaqiyat bilan real intilishlar o'rtasidagi o'zaro maqbul nisbatini saqlab qolgan holda ularni engishi kerak. Bu psixologik qulaylikning buzilishi. Psixologik muhofaza tushunchasiga yaqin "muhofaza mexanizmlari" to'g'risidagi tushunchani psixoanaliz maktabining etakchisi Freyd ishlagan edi. U bu tushunchani shaxsni biologik mavjudot deb hisoblaydigan mexanistik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilgan edi. Z. Freyd kishining ongsiz instinktlari (asosan, shahvoniy hirs) ongli "Men"ning "muhofaza mexanizmlari", shaxsning "ichki tsenzurasi" bilan to'qnashib qoladi va buning natijasida turli xildagi o'zgarishlarga uchraydi, deb taxmin qilgan.

Shaxsning o'zini anglashi, «men» deb his qilishi hamisha muayyan mazmuni bilan yuzaga chiqadi. O'zining borligini anglashi, odamning o'zini kim deb bilishi — o'quvchi, ishchi, o'qituvchi, muhandis va shunga o'xshash deb anglashi, o'zining o'tmishini va kelajagini anglashi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatini anglashi, o'z huquq va burchlarini anglashi, o'zining fazilat va kamchiliklarini va shunga o'xshashlarni anglashi o'zini anglashga kiradi. Shaxs o'zini anglaganligidan o'zini-o'zi kuzata oladi va o'zini-o'zi bilib oladi, ko'nglidan o'tgan kechinmalarni tushuna oladi, o'zining xatti-harakatlariga o'zi tanqidiy ko'z bilan qaray oladi.

Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalari

Shaxsning belgisi va o'zini anglashining mazmuni — uning biron maqsadni ko'zlashi, shunga intilishidan iborat.

Shaxsning muhim xossasi shuki, u biron maqsadni ko'zlaydi, shu maqsadga intiladi. Shaxs hamisha biron narsaga, biron maqsadga, biron obektga ko'z tikadi, unga intiladi.

XXI asrda hani odam individ, shaxs, sub'ekti, komil inson sifatida psixologik ilmiy tushunchalar negizida talqin qilinishda davom etiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida

va ko'lamida sifat o'zgarishlari yuz berishi mumkin, chunki tashqi va ichki omillar, ta'sir etuvchilar, ta'sirlanuvchilar ustuvorligi yo'qola boradi.

XXI asrda individ, inson, shaxs, sub'ekt va komil insonni o'rganish turli yo'nalishlarda, vaziyatlarda, yosh xususiyatlari, alohida yondashish negizida, o'ziga xos talhlilga, metodologik asosga suyanib olib boriladi. Mustaqillik, istiqloq sharofati bilan shaxsga oid qarashlar, mulohazalar mohiyati, uning mazmuni va shaklida o'zgarishlar yuz beradikim, buning natijasida erkin fikrlash, ochiq shakldagi ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyati tug'iladi.

Respublikamizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar xalqimiz, millatimiz ruhiyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi, ona yurt madhi, ajdodlar merosidan g'ururlanish, ma'naviyat durdonalaridan faxrlanish hislari vujudga keladi. Vatan va vatanparvarlik tushunchalari o'zining haqiqiy, ehmakam ma'nosini kasb etadi. Kishilardagi o'la sabr-toqatlilik, itoatkorlik, tashabbuskorlikning etishmasligi o'rmini erkinlik, ijodiyot, mehnat, batamom istiqloqlga erishish zaruriyati, oilaning butligi, to'kisligi va ularning istiqboli kabi sifatlar, fazilatlar, yuksak tuyg'ular, xislatlar egallay boshlaydi. Shaxsning yo'naltirilganligida anglangan motivlar asosiy rol o'ynaydi. Kishi ehtiyoj ob'ektini maqsad deb anglagan holda o'zining shaxsiy maqsadlarini o'zi kirgan jamoaning maqsadlari bilan bog'laydi va o'z maqsadlarini tegishli ravishda o'zgartiradi, mazmunga tuzatishlar kiritadi. Kishi faoliyatining natijasini xayolan oldindan belgilab beradigan maqsadning o'zigina emas, balki ushbu maqsad ahamiyatiga molik ob'ektda ro'yobga chiqishining realligi ham anglanilgan bo'lsa, bu hol shaxsning istiqboli deb qaraladi. Istiqboli anglaydigan kishiga xos ta'bi xiralik, kechinmalarga qarama-qarshi o'laroq rubsizlik holati frustratsiya deb ataladi. Bu kishi maqsadga erishish yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'lmaydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan to'sqinliklarga, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi. Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi.

Qiziqish - biron bir sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqe'likni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir. qiziqishning faoliyat jarayonidagi roli benihoyat kattadir. qiziqishlar shaxsni o'zida bilim olish, va anglab etish borasida hosil bo'lgan ishtiyoqni qondirish yo'llarini va usullarini faol tarzda izlashga majbur etadi. Shaxsning yo'naltirilganligini ifodalaydigan qiziqishning qondirilishi odamda uning so'nishiga olib kelmaydi, aksincha, uni qayta ko'rgan, boyitgan va chuqurlashtirgan holda bilish faoliyatining yanada yuksak darajasiga mos keladigan yangi qiziqishlarni keltirib chiqaradi. qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning ko'ngildagidek rivojlanishi qiziqishlar miqyosining tor emas, keng bo'lishini taqozo etadi.

Qiziqishlar barqarorligi darajasiga ko'ra ham har xil bo'lishi mumkin. Shaxsning asosiy ehtiyojlarini eng ko'proq namoyon qiladigan va shu boisdan ham uning psixologik tuzilishiga xos hislatlarga aylanib qoladigan qizi qishlari barqaror hisoblanadi. qiziqishlarning ba'zan barqaror bo'lmasligi katta yoshidagi o'quvchilarning yosh xususiyati hisoblanadi.

Xulq-atvorning muhim motivlaridan biri e'tiqoddir. E'tiqod-shaxsni o'z qarashlariga, printsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan motivlar sistemasidir. E'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni - bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzda tushunilishi demakdir. Bu bilimlar nuqtai nazarlar (falsafiy, estetik, ahloqiy, va h.k.) ning tartibga solingan va ichki uyushgan sistemasini tashkil etgan taqdirda kishining dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Motivlar, avvalo, anglanilgani bilan xarakterlanadi. Boshqacha qilib aytganda, motiv (sabab) lar paydo bo'ladigan kishi uni faoliyatga nimalar da'vat etayotganini, uning ehtiyojlari qanday ma'no kasb etishini biladi. Lekin barcha motivlar ham bu kategoriyaga kiravermaydi. Inson ishlari va xatti-harakatlari sababiyatining anchagina ahamiyatga molik jabhasi anglanilmagan motivlardan tarkib topadi.

Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish

Hozirgi zamon psixologiyasining tanikli vakili A.V.Petrovskiy inson taraqqiyotiga shaxsni tarkib topirishning sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, o'ziga xos original klassifikatsiyasini yaratadi. Ushbu nazariya negizida yuksalish, etuklikka intilish g'oyasi yotganligi sababli bolalik, o'smirlilik, o'spirinlik davrlari yotadi, xolos. A.V.Petrovskiygacha psixologlar taraqqiyotning bir tekis jihatini olib o'rgangan bo'lsalar, bundan o'laroq u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga rioya qilib) va asotsial (aksijtimoiy) bosqichlari mavjud bo'lishi mumkinligini dalillab berishga harakat qiladi. Shuning uchun taraqqiyot uchta makrofazadan iborat ekanligini sharhlab, uning birinchi turi bolalik davriga to'g'ri kelib, ijtimoiy muhitga moslashish, ko'nikish (adaptatsiya), ikkinchisi - o'smirlarga xos individuallashish (individualizatsiya), uchinchisi - o'spirinlik, ya'ni etuklikka intilish davrida individual holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari bilan tavsiflanadi. A.V.Petrovskiy shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

1. Ilk bolalik (maktabgacha yoshidan oldingi davr) - tug'ilgandan to 3 yoshgacha.
2. Bog'cha yoshi davri - 3 yoshdan to 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi davri - 7 yoshdan to 11 yoshgacha.
4. O'rta sinf o'quvchisi (o'smirlilik) davri - 11 yoshdan to 15 yoshgacha.
5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan to 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning klassifikatsiyasi qanchalik takomil darajada bo'lmasin, taraqqiyotning oraliq bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini e'tirof etishga moyildir. Chunki ijtimoiy qoidalarga binoan o'sishmi yoki aksijtimoiymi unga qaramasdan, har ikki yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan xoli emas, lekin bu g'oyani chuqurroq sharhlab berish joiz.

D.I.Feldshteyn klassifikatsiyasi ham shaxsga ijtimoiy yondashuvga asoslangan bo'lsa ham, lekin u A.V.Petrovskiynikidan keskin farq qiladi. D.I.Feldshteynning fikricha, insonni

shaxs sifatida shakllanish jarayonida ikkita katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tadi, ulardan biri - "Men jamiyat ichida" degan pozitsiyadan iborat bo'lib, u o'ziga quyidagi yosh bosqichlarini qamrab oladi:

- 1) ilk bolalik - 1 yoshdan 3 yoshgacha,
- 2) kichik maktab yoshidagi o'quvchisi davri - 6 yoshdan to 9 yoshgacha,
- 3) yuqori sinf o'quvchisi davri - 15 yoshdan to 17 yoshgacha.

Shaxs taraqqiyotidagi ikkinchi pozitsiya — "Men va jamiyat" deb nomlanib, u quyidagi yosh bosqichlariga taalluqlidir:

- 1) go'daklik - tug'ilgandan to 1 yoshgacha,
- 2) maktabgacha yoshdagi bolalar - 3 yoshdan 6 yoshgacha,
- 3) o'smirlar - 10 yoshdan to 15 yoshgacha.

D.I.Feldshteyn boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, o'smirlilik davrini uch bosqichga ajratadi. Uning mulohazasiga ko'ra, birinchi bosqich (10-11 yosh) o'ziga munosabatni kasb qilishdan iborat bo'lib, o'zini shaxs sifatida his qilish va qat'iy qarorga kelish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich 12-13 yoshdagi o'smirlarni o'z ichiga olib, bir tomondan, o'zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan, o'ziga salbiy munosabatda bo'lish xususiyatiga ega. Uchinchi bosqich 14-15 yoshli katta yoshdagi katta o'smirlardan iborat bo'lib, tezkorlikda o'z-o'zini baholashga moyil munosabati bilan tavsiflanadi.

D.I.Feldshteynning shaxs rivojlanishi nazariyasi ontogenezda yuz beradigan barcha psixologik holat va fazilatni izohlab berish imkoniyatiga ega emas. Lekin u ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga va takomillashtirish jarayoni (faoliyati) ga ijobiy ta'sir o'tkazish xususiyati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, hamdo'stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo'lib xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni echishda keng ko'lamda qo'llaniladi. Ammo ontogenezda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariya yaratish mavrudi etib keldi.

Nazorat savollari:

1. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarini yoriting.
2. Shaxs, deb kimlarga aytiladi?
3. Shaxsning tuzilishi Platonov, Rubnshteyn, Kovalevlarning nazariyalarini bayon eting.
3. Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishini yoriting.
4. Kishining o'z-o'ziga baho berishi deganda nimanı tushunasiz?
5. Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalar ha

qida qanday ma'lumotlarga egasiz?

IV BO'LM KOGNITIV PSIXOLOGIYA

XVII bob. DIQQAT

Asosiy savollar:

1. Diqqat va uning turlari
2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari
3. Dominanta printsipi
4. Diqqatning asosiy xususiyatlari.
5. Diqqatning taraqqiy etishi

Tayanch tushunchalar: diqqatning fokusi, orientirovka, tekshirish refleksi, dominant printsipi, subdominanta, ichki diqqat, tashqi diqqat, optimal qo'zg'alish nuqtasi, hukmron dominant.

Diqqat va uning turlari

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga faol qaratilishiga aytiladi. Biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi.

Diqqat paytida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishidan iborat bo'ladi; bunda go'yoki ong doirasi anchagamma tug'izlanadi. Ana shunday torayish va tormozlanish tufayli ong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tormozlangan va binobarin, eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (ya'ni markazi) deb ataladi. Ana shu fokusga tushgan barcha narsalar (idrok qilinayotgan predmetlar, tasavurlar, fikrlar) juda to'la, yorqin hamda juda aniq aks ettiriladi.

Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat faolligi jihatidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan ikki turga, ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turiga ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni ixtiyorsiz diqqat deyiladi.

Ixtiyorsiz diqqatni tug'diruvchi sabablar, avvalo, shaxsga ta'sir qiluvchi qo'zg'ovchilarning go'zalligi, yorqinligi, kuchi, kattaligi, harakatchanligi, uzoq davom etishi, to'satdan sodir bo'lishi, kontrastligi hisoblanadi. M: Qattiq tovush, momaqaldiroq, otilgan o'qning ovozi beixtiyor ravishda diqqatimizni o'ziga tortadi. Kutilmagan holda to'satdan sinfga uchib kirgan kapalak ixtiyorsiz ravishda talabalarning diqqatini o'ziga tortadi. Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat bizning faoliyatimiz, turmush tajribamiz bilan bog'liq bo'lgan va ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimizga javob beruvchi hamda bizda ma'lum bir hissiyot uyg'otuvchi narsalarning ta'siri bilan ham vujudga keladi.

Ixtiyorsiz diqqatning dastlabki fiziologik asosi orientirovka yoki tekshirish reflekslaridan iborat. Bu reflekslarni akademik I.P. Pavlov boshqacha nom bilan «hu nima

ekan» refleksi deb ataydi.

Diqqatning qaratilishi lozimi bo'lgan narsani oldindan belgilab olib, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqat **ixtiyoriy diqqat** deyiladi. Bu diqqatning boshlanishi odamning ishtirokini talab qiladi. Shuning uchun uni **irodaviy diqqat** deyiladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi asosan qiyinchiliklarni engish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r bosh darajasi bilan xarakterlanadi.

Talabaning tushuntirayotgan yangi darsni eshitib o'tirishi shu ixtiyoriy diqqat bilan ishlashning misoli bo'la oladi. Bunda talaba «eshitib o'tiraman» deb, o'z oldiga maqsad qo'yadi va o'z diqqatini faqatgina o'qituvchining so'ziga qaratish uchun kuch sarf qiladi. Shuning bilan birga, talaba beixtiyor ravishda paydo bo'lib, o'qituvchining so'zini eshitishga xalaqit beruvchi idrok, fikr, hissiyot, xayol kabi boshqa psixik jarayonlarni yo'qotish uchun ongli ravishda harakat qiladi. Ixtiyoriy diqqat, masalan, tinaga ip taqish kabi juda oddiy ishda, ayniqsa, ochiq ko'rinadi. Juda ko'p har xil ishlar horki, ular asosan, ixtiyoriy diqqatni talab qiladi, masalan: g'isht teruvchining ishi, ekskavatorida ishlash.

Ixtiyorsiz diqqat ham, ixtiyoriy diqqat ham o'zining yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki bo'lishi mumkin.

Kishilarning ongidan tashqarida bo'lgan diqqatga *tashqi diqqat* deb ataladi. Tashqi diqqat dastavol bizning idroklarimiz jarayonida namoyon bo'ladi. O'qituvchining ishida sodir bo'ladigan diqqat tashqi diqqatga misol bo'la oladi. O'qituvchining kitob o'qishdagi, suratlarni ko'rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqati ham tashqi diqqatga misol bo'la oladi. Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a'zolarimiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni ko'rish, eshitish va shuning bilan birga, tuyish, hid bilish va ta'm bilish turlariga ajratish mumkin.

Diqqatning fiziologik mexanizmlari.

Diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi» tashkil qiladi. Bunday joyni yaqqol qilib ko'rsatish uchun I.P. Pavlov shunday tasvirlaydi: «Agar bosh suyagiga qaraganda uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar katta miya yarim sharlarida optimal qo'zg'alish uchun eng yaxshi sharoit tug'ilgan nuqtasi yillilab ko'rinadigan bo'lsa edi, ongi sog'lom bo'lib, bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda, uning miyasining katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shakl bo'lib, surati va hajmi har lahzada bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turuvchi yorug' narsamng u yoqdan-bu yoqqa yugunib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa erlari birmuncha xira tortib turganini ko'rar edi» (Polnoe sohranie sochinemy, III tom, I-kitob, 248-bet).

Optimal qo'zg'alish nuqtasi manfiy induksiya qonuniga ko'ra, bosh miya po'stining hoshqa joylarida tormozlanishni vujudga keltiradi.

«Miya yarim sharlarining optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan qismida, - deydi I. P. Pavlov, - yangi shartli reflekslar engillik bilan hosil bo'ladi va differensirovkalar muvaffaqiyatli ravishda paydo bo'ladi. Shunday qilib, optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan joy ayni chog'da

bosh miya yarim sharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo'ladi. Miya yarim sharlarining sust qo'zg'algan boshqa qismlari bunday xususiyatga qobil emas. Ularning ayni chog'dagi funksiyasi, juda natijadorliganda, tegishli qo'zg'ovchilar asosida ilgari hosil qilingan reflekslarni bir tartibda qayta tiklashdan iboratdir. Hunday qismlarning faoliyati biz ongsiz, avtomatlashgan faoliyat deb ataydigan subektiv faoliyaldan iboratdir.

Dominanta printsipi

Diqqatning fiziologik asosi bo'lmish optimal qo'zg'alish o'chog'i haqidagi I.P. Pavlov ta'limoti bilan akademik A.A. Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlari bir-biriga to'g'ri keldi. Bu tekshirishlar natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi. Agar nerv sistemasiga bir qancha qo'zg'ovchilar bir vaqtda ta'sir etsa, bosh miya po'stida shu onning o'zida bir necha qo'zg'alish o'choqlari paydo bo'ladi. Shu bilan birga, har bir qo'zg'alish o'chog'i bosh miya po'stining hamma eriga tarqalishga, irradiatsiyalanishga moyildir. Shuning uchun ayrim qo'zg'alish o'choqlari o'rtasida to'qnashish va «kurash» sodir bo'ladi. Bu kurash natijasida qo'zg'alish o'choqlaridan biri hukmron (dominanta) bo'lib oladi. Mana shu hukmron bo'lib olgan qo'zg'alish o'chog'ini akademik Uxtomskiy «dominanta» deb ataydi. Uxtomskiyning bergan ta'rifiga ko'ra, dominanta - bu ayni chog'da markazda sodir bo'ladigan reaksiyalar xarakterini bir qadar belgilab beruvchi hukmron qo'zg'alish o'chog'idir.

Dominantalar mavjud bo'lgan paytda boshqa qo'zg'alish o'choqlari («subdominantlari nisbatan kuchsiz qo'zg'alish o'choqlari) ko'pincha yo'qolib ketmaydilar. Ular dominantaga qo'shilib, uni kuchaytiradilar yoki dominanta bilan kurasha boshlaydilar. Bu kurash jarayonida subdominanta dominanta bo'lib olishi mumkin, ilgargi dominanta esa subdominanta bo'lib qolishi mumkin. Hukmron qo'zg'alish o'chog'i bo'lgan dominanta diqqatimizning ma'lum narsaga yo'naltirilishi va to'planishining fiziologik asosidir.

Diqqatning asosiy xususiyatlari

Diqqatning ko'chuvchanligi. Diqqatning ko'chishi deganda, biz uning bir narsadan boshqa bir narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o'tishini tushunamiz. Masalan, odam o'z diqqatini kitob o'qishdan surat ko'rishga, surat ko'rishdan esa o'z fikrlarini hayon etishga ko'chirishi mumkin. O'quvchilar o'z diqqatlarini bir fanni o'qishdan boshqa fanga ko'chiradilar, matematikadan tarixga, tarixdan rus tiliga va shuning kabilar. Diqqatning ko'chishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy tarzda sodir bo'lishi mumkin.

Diqqatni ko'chirishning nerv-fiziologik asosi, asosan, ikkinchi signallar sistemasining signallari orqali bosh miyaning po'stida paydo bo'lgan optimal qo'zg'alish o'chog'ining o'rin almashtirishidir.

Diqqatning ko'chirilishi ko'p hollarda qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ha'zan diqqatni hundan oldingi obektdan ajratish qiyin bo'lsa, boshqa hollarda oldingi ishining kelidan qilinadigan yangi ishga kirishib ketish qiyin bo'ladi. Eng yaxshi diqqat,

albatta, bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'cha oladigan diqqatdir. Diqqatning mana shunday xususiyati tufayli, kishi atrofidagi muhitga tez moslasha oladi hamda o'zgaruvchan sharoitdagi turli elementlarning ahamiyatlarini tezlik bilan belgilay oladi.

Diqqatning bo'linishi. Ma'lum faoliyat jarayonida diqqat birgina narsaga emas, balki ikki va uch narsaga ham qaratilishi mumkin. Diqqatimiz ayni vaqtda ayrim faoliyat turlariga bo'lina oladi. Faqat birgina narsaga qaratilgan diqqatni konsentratsiyalashgan (yig'ilgan) yoki to'plangan diqqat deyiladi. Masalan, tinaga ip taqishdagi, qo'lda biror narsa tikishdagi, matematik masala echishdagi, ma'ruza eshitishdagi diqqatimiz shunday diqqatdir. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish jarayonining o'zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatning turli usullari bilan bog'liq bo'lsa, bunday diqqatni bo'lingan yoki taqsim qilingan diqqat deyiladi. Masalan, O'qituvchi darsni tushuntirish paytida o'z diqqatini o'quvchilar xulqiga, ko'rgazma qurollarni ko'rsatishga, sinf doskasiga va shu kabilarga taqsimlashi lozim.

Yuliy Sezar haqida shunday qissa saqlanib qolgan. U po'yoki bir vaqtning o'zida bir narsani yozib, hoshqa narsa haqida o'ylash, uchinchi narsani eshitish va to'rtinchi narsa haqida gapirish kabi murakkab ishlarni bajara olgan emish. Psixologiya nuqtayi nazaridan, bunday hodisaning bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Har holda Yuliy Sezar diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chirish qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lsa kerak. Shu sababli, Yuliy Sezar o'z diqqatini bir vaqtning o'zida to'rt xil faoliyatga qarata oladi, deb o'ylaganlar. Doklad yoki ma'ruzani ham eshitib, ham yozib borishimiz mumkin. Bunda ma'ruzani deyarli avtomatik ravishda yozib boriladi; lekin vaqt-vaqti bilan ongimiz nazorat qilib turadi. Diqqatning bunday bo'linishida unchalik zo'r berishni talab qilmaydigan, ya'ni odat bo'lib qolgan ish, miya po'stining ma'lum darajada tormozlangan qismlari orqali «boshqarilishi» mumkin.

Diqqatning ko'lami. Diqqatning ko'lami — diqqatga eng qisqa vaqt ichida (go'yoki birdaniga) sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko'lami jihatidan tor yoki keng bo'lishi mumkin.

Tajriba qilib tekshirishda diqqatning ko'lami, odatda, tekshirilayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir qancha o'zaro bog'lanmagan harflarni, so'zlarni, narsalarni va turli shakllarni ko'rsatish yo'li bilan aniqlanadi.

Tekshirilayotgan kishi bu narsalardan ayni vaqtda qanchalik ko'pini birdaniga idrok eta olsa (diqqat doirasiga sig'dira olsa), uning diqqat doirasi shunchalik keng bo'ladi.

Diqqatning ko'laminii aniqlash uchun taxistoskop degan maxsus asbob qo'llaniladi. Bu asbob yordamida kishiga idrok ettiriladigan narsalar juda tez ko'rsatiladi. Bunda idrok qilinadigan narsalar taxistoskopning ekranidagi teshikdan ko'rsatiladi va bu teshik juda qisqa vaqt ichida bekiilib qoladi. Taxistoskop vositasi bilan o'tkazilgan tajribalar ko'rsatishicha, katta yoshli odam ayni vaqtning o'zida diqqat doirasiga uchtadan to' oltitagacha bir-biriga bog'liq bo'lmagan narsalarni, masalan, undosh harflarni, shakllarni sig'dira oladi. Diqqat ko'laminii fiziologik asosi miya po'stida optimal qo'zg'algan joyning kengayishi yoki torayishidan iborat.

Diqqatning kuchi va barqarorligi. Diqqatning kuchi va barqarorligi uning muhim xossalardan hisoblanadi. Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat obektiga shunchalik ko'p to'planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo'lgan narsalarga shunchalik kam chalg'iydi. O'quvchining diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chekli qo'zg'ovchilardan, chunki, qalamning tushib ketishiga, qo'shni partadagi o'rtoqlarining pichirlashganiga, koridorda bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa bu ayni vaqtda o'quvchining diqqati kuchsizligidan dalolat beradi. Agar o'quvchi bunday chekli qo'zg'ovchilar (ba'zan hatto kuchli qo'zg'ovchilar) ta'sirini ham go'yo «sezmay», balki muayyan bir ishga berilib qunt bilan ishlasa, bu ayni vaqtda o'quvchi diqqatining kuchliligidir.

Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq diqqat, panishon diqqat yoki to'g'ridan to'g'ri panishonlik deyiladi.

Diqqatning barqarorligi. Diqqat ma'lum darajada barqaror va beqaror bo'lishi mumkin. Uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qaratilib tura oladigan diqqat barqaror diqqat deyiladi. Agar diqqat biron-bir faoliyat jarayonida boshqa narsalarga, keraksiz narsalarga chalg'iyversa yoki tez sustlashib va so'nih qolsa, bunday diqqat beqaror diqqat deyiladi.

Diqqatning taraqqiy etishi

Bolalar diqqati juda erta hayotlarining birinchi oylaridayoq ko'rina boshlaydi. Dastavval ixtiyorsiz diqqat namoyon bo'ladi. Bola o'z diqqatini biron jihati bilan rang- barangligi, ohangdorligi, harakatchanligi bilan ajralib turuvchi ma'lum bir narsalarga qaratadi. Bolalarning yoshlari ulg'aygan sari, o'yin faoliyatlari davomida, tarbiya ta'siri bilan ixtiyorsiz diqqatlari taraqqiy qila boradi. Ixtiyorsiz diqqatning taraqqiyoti o'sib borayotgan hissiyot, ehtiyoj va qiziqishlar bilan bog'liqdir. Ixtiyorsiz diqqatning taraqqiyoti shundan iboratki, bunda ixtiyorsiz diqqatni tug'diruvchi narsalar doirasi ortib boradi. Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat anchagina kuchli va barqaror bo'la boradi.

Bola diqqatining to'planishi va bir qadar barqarorligini saqlab turishi uchun yoshlik paytidan boshlab beixtiyor o'ziga jalb qiladigan qo'zg'atuvchilarning taassuroti engishga to'g'ri keladi. Katta kishilar bolani tozalikka, tartibli, yakka, intizimli bo'lishga va jamiyat ichida yashash qoidalariga o'rgatadilar. Bularning hammasi ixtiyoriy diqqatni taraqqiy qildiradi. Keyinchalik, 3-5 yoshlardan boshlab, ixtiyoriy diqqat bolaning o'z tashabbusi bilan ham o'sa boshlaydi.

Bolalardagi ixtiyoriy diqqat, maktab yoshidan boshlab, xususan tez o'sa boshlaydi. O'qish ishida darsni eshitish, kitob o'qish, masalalarni echishda, asosan, ixtiyoriy diqqat talab qilinadi. Shuning bilan birga, o'qish jarayonining o'zi ixtiyoriy diqqatning hamda uning turishi va barqarorligining o'sishiga yordam beradi.

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga faol qaratilishiga aytiladi; biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa,

o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi. Diqqat turlarini talahalarga tushuntirib berish. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini o'rganish. Diqqatning asosiy xususiyatlarini aniqlab berish. Diqqatning taraqqiy etishini gapirib berish.

Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat faolligi jihatidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan ikki turga, ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turg'a ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni *ixtiyorsiz* diqqat deyiladi.

Diqqat bizning faoliyatimiz, turmush tajribamiz bilan bog'liq bo'lgan va ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimizga javob bera oluvchi hamda bizda ma'lum bir hissiyot uyg'ota oluvchi narsalarning ta'siri bilan ham vujudga keladi.

Nazorat savollari:

1. Diqqat qanday jarayon?
2. Diqqat qanday turlarini bilasiz?
3. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini nimalar tashkil etadi?
4. Diqqatning dominanta printsipti nima?
5. Diqqatning asosiy xususiyatlarini yoriting.
6. Diqqatning taraqqiy etishi nimalarga bog'liq?

XVIII bob. SEZGI

Asosiy savollar:

1. Sezgilari va sezgi turlari haqida tushuncha
2. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari
3. Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyati
4. Sezgilardagi qonuniyatlar

Tayanch tushunchalar: sezuvchi nervning chekka (periferi) uchlari, eksteroresseptorlar, proprioresseptorlar, interoresseptorlar. Evstaxiy nayi, adaptatsiya, sinesteziya, sensibilizatsiya, kinestetik sezgilar, statik.

Sezgilar va sezgi turlari haqida tushuncha.

Tevarak-atrofimizda bo'lgan va bizga ta'sir etib turadigan narsa va hodisalarning xilma-xil xossalari bor. Bu xossalari ko'ruv, eshituv, tuyg'u organlari va shunga o'xshash sezgi organlari yordami bilan ongimizda bevosita aks etadi. Sezgi organlarimizga ta'sir etadigan narsalardagi ayrim xossalarning miyamizda shu tariqa bevosita aks etishi sezgi deb ataladi. Biz qizil, yashil ranglarni, shirin, achchiq ta'mlarni, og'ir-engilni, issiq- sovuqni va shu kabilarni sezamiz. Sezgi organiga ta'sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa

(yoki hodisa) qo'zg'ovchi deb ataladi, uning ta'siri esa qo'zg'alish deb yuritiladi.

Sezish jarayoni quyidagicha ro'y beradi: 1) narsa yoki hodisalar sezgi organlariga (retseptorga) ta'sir etib, tegishli sezuvchi nervning chekka (perifer) uchlarini qo'zg'aydi; 2) shu erda kelib chiqqan qo'zg'alish o'sha nervning o'tkazuvchi yo'li orqali bosh miya po'stining tegishli markaziy hujayralar sistemasiga o'tadi; 3) bu erda nerv qo'zg'alishi psixik hodisaga, ya'ni sezgiga aylanadi.

Sezish jarayonining ana shu 3 bosqichi I.P. Pavlov tomonidan analizator deb atalgan sezuvchi nerv apparatining tuzilishiga muvofiq ravishda o'ladi. Har bir analizator sezuvchi nervning chekka tarmoqlaridan, o'tkazuvchi yo'lidan va bosh miya po'stining markaziy hujayralaridan iborat. Analizatorning yuqorida ko'rsatilgan qismlaridan birortasi zararlangan, sezgi hosil bo'lolmaydi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, analizatorlar tevarak-atrofdagi olam ta'sirlarini analiz qilib beradi. Analizatorlar insonning ko'p asrlardan beri davom etib kelgan tarixida hayot uchun nihoyatda muhim bo'lib kelgan qo'zg'ovchilarni boshqa qo'zg'ovchilardan ajratadi, ularni bir-biridan ayirib beradi.

Sezgilar xilma-xil bo'ladi. Turli-tuman sezgini qaysi sezgi organlari yordami bilan hosil qilsak, ularni o'sha organlarga qarab, quyidagi turlarga, ya'ni ko'rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta'm (maza) bilish sezgilari, teri sezgilari, muskul- harakat sezgilari va organik sezgilarga ajratiladi. Sezgi organlari qacda ekanligiga va qacdan qo'zg'alishiga qarab, ularni uch guruhga ajratish mumkin: eksteroretseptorlar, proprioretseptorlar va interoretseptorlar.

Eksteroretseptorlar organizmning sirtida bo'ladi — ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm (maza) bilish, teri sezgisi, muskul harakat sezgisi va organik sezgi organlari shu jumladandir.

Bu a'zolar tashqi sezgi a'zolari deb ataladi. Organizmimizdan tashqaridagi narsa va hodisalarning xossalari ana shu a'zolar yordami bilan aks ettiriladi. Shu a'zolar orqali kelib hiqadigan sezgilar (ko'rish, eshitish sezgilari va hokazo) eksteroretseptiv sezgilar deb ataladi.

Proprioretseptorlar muskul, pay va boylamlarda bo'ladi. Organizmimizning ayrim a'zolarining turli barakatlarini va vaziyatini ana shu a'zolar yordami bilan sezamiz. Bu a'zolar proprioretseptiv sezgilar deb ataladi. Muskul barakat sezgilari (kinestetik sezgilar) va muvozanat sezgilari (statik sezgilar) shular jumlasidandir.

Interoretseptorlar gavamiz ichidagi organlar teri, me'da, ichak, jigar, o'pkada bo'ladi. Ovqat hazm qilish, nafas olish, qon aylanish organlari va shunga o'xshash ichki organlardagi jarayonlar (qo'zg'alishlar) vujudga keltiradigan sezgilar shu retseptorlar yordami bilan belgilanadi. Bu sezgilar interoretseptiv sezgilar deb ataladi. Organik sezgilar degan sezgilar interoretseptiv sezgilar hisoblanadi.

Ko'rish sezgilari. Rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilariga kiradi. Biz sezadigan ranglar xromatik va axromatik ranglarga bo'lmadi.

Yorug'lik nurlari ucbburchak shisha prizma orqali o'tib, singanda hosil bo'ladigan ranglar xromatik ranglar deb ataladi. Xromatik ranglar kamalak ranglari bo'lib, bunga qizil,

zang'aldoq, sarng, yashil, havo rang, ko'k va binafsha ranglar kiradi. Bu ranglarning nurlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, juda ko'pdir. Oq rang bilan qora rang, shuningdek, xilma-xil hamma kul-ranglar axromatik ranglar deb ataladi.

Ko'rish sezgilarning organi — ko'zdir. Bu organ ko'z soqqasi bilan undan chiqadigan ko'ruv nervidan iborat. Ko'z soqqasida uchta parda, ya'ni: tashqi, tomirli va to'r parda bor. Tashqi pardaning tiniqmas (oq) qismi sk-lera (qotgan yoki qattiq parda) deb ataladi. Tashqi pardaning oldingi birmun-cha qavariq qismi tiniq (inuguz) parda deb ataladi.

Tashqi pardaning orqasida tomirli parda bor. Tomirli pardaning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi rangdor pardaning rangiga qarab, kishilarning ko'k ko'z, qo'y ko'z, qora ko'z deb ataymiz va hokazo. Rangdor pardaning o'rtasida yumaloq teshik bor, qorachiq deb ataladigan ana shu teshikdan ko'zning ichiga yorug'lik nurlari o'tadi. Yorug'likning oz-ko'pligiga qarab, qorachiq kengayishi va torayishi mumkin. Ko'zning uchinchi pardasi to'r parda bo'lib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq, jism ko'z gavhari turadi, yorug'lik nurlari ko'z gavharida turib sinadi va natijada to'r pardaga narsaning aksi (surati) tushadi. Halqa shaklidagi ko'priksimon muskulning uzayishi va qisqarishi tufayli gavhar goh yassilanadi, goh qavaradi; narsa ko'zdan uzoqlashtirilganda gavhar deyarli yassi bo'lib qoladi, narsa ko'zga yaqinlashtirilganda esa gavhar deyarli

shar shakliga kiradi. Ko'z gavharida shunday xossa borligidan, yaqindagi narsalarning aksi ham, uzoqdagi narsalarning aksi ham gavhardan o'tib, xuddi to'r pardaga tushadi. To'r parda rangni va yorug'likni sezish uchun asosiy ahamiyatga ega. Ko'ruv nervining tarmoqlari to'r pardada joylashgandir. Bu tarmoqlarning chekka uchlarida maxsus nerv hujayralari — shaklan layoqcha va kolbachaga o'xshagan uchun layoqchalar va kolbachalar deb ataladigan hujayralar bo'ladi (13-rasm). Odam ko'zining to'r pardasida 130 millionga yaqin layoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor.

Ko'rish sezgisini hosil qiladigan fizik sabab — yorug'likdir, ya'ni elek-tromagnit to'lqinlaridir. Bu to'lqinlar turlicha uzunlikda bo'lib, vaqt birligi hisobi bilan (bir soniya ichida) tebranish tezligi (chastotasi) ham har xil yorug'lik to'lqinlarining uzunligini millimikron (millimetrdan bir million-dan bir bo'lagi) hisobi bilan o'lchanadi. Odam ko'zi sezadigan ranglar taxminan 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to'lqinlarning ta'siri bilan hosil bo'ladi. Yorug'lik to'lqinlarining tebranish tezligi darajasi (chastotasi) bu to'lqinlarning soniyasiga necha million marta tebranishiga qarab o'lchanadi. Eng uzun to'lqinlar (uzunligi 780 millimikron bo'lib, soniyasiga 450 billion marta tebranadigan to'lqinlar) qizil rang sezgisini hosil qiladi. Eng katta to'lqinlar (uzunligi 380 millimikron bo'lib, soniyasiga 750 billion marta tebranadigan to'lqinlar) binafsha rang sezgisini hosil qiladi.

Ranglarning aralashib ketishi, ko'z to'r pardasining biton joyiga turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari bir yo'la ta'sir etganda sodir bo'ladi. Shuning natijasida biz faqat bir rangni sezamiz, lekin bu rang aralashib ketgan ranglarning hech biriga o'xshamaydigan, alohida rang bo'ladi. Ikki ta'xromatik rangning aralashib ketishidan nim rang hosil bo'ladi. Masalan,

qizil rang bilan sariq rangning aralashishidan zarg'aldoq rang hosil bo'ladi, qizil rang bilan ko'k rangning aralashishidan binafsha rang hosil bo'ladi va hokazo. Spektrdagi hamma ranglarning aralashishidan neytral oq rang hosil bo'ladi. Spektrdagi ba'zi ranglarning ikkitasini qo'shib, xuddi boyagidek oq rang yoki och kulrang hosil qilish ham mumkin. Masalan, spektrdagi har bir rang o'ziga mos boshqa rang bilan qo'shilib, axromatik oq rang yoki kulrang hosil qiladi. Bunday ranglar qo'shimcha ranglar deb ataladi. Qizil rang bilan och havonang rang, ko'k rang bilan sariq rang bir-biriga qo'shilib, qo'shimcha ranglar hosil qiladi. Ranglarning aralashib ketishidagi ana shu qonuniyatlarning hammasini rangdor doiralalar deb ataluvchi doiralarni maxsus asbobga kiygizib tekshirib ko'rish mumkin. Bu asbob «ranglarni aralashtiradigan chark» deb ataladi. Chark tez aylanganda o'sha doiralardagi har xil ranglar aralashib, muayyan ranglar hosil qiladi. Ranglarning aralashib ketishi periferik jarayon emas, balki markaziy jarayon ekanligi hozirgi vaqtda aniqlandi.

—Rang ajratolmaslik— xromatik ranglarni seza olmaslik va farq qila olmaslikdan iborat. Ba'zi bir kishilar ranglarni sira ayira olmaydigan bo'ladi. Bunday kishilar hamma ranglarni axromatik kulrangdek ko'radilar (xuddi fotografiyadagi singari). Statistika ma'lumotlariga qaraganda, ranglarni ajrata olmaslik hodisasi erkaklar orasida taxminan 4 foiz va ayollar orasida 0,5 foiz uchraydi. Qizil va yashil rangni ayira olmaslik hodisasi ko'proq uchraydi. Binafsha rangni ajrata olmaslik hodisasi esa kamroq uchraydi. Ranglarni ajrata olmaslik sababi shuki, ko'zning to'rt pardasidagi kolbachalar ishlamaydi yoki qisman ishlaydi.

Eshitish sezgilar. Eshitish sezgilari tovushlarni sezishdan iboratdir. Tovushlar musiqiy tovushlarga (ashula tovushi, cholg'u asboblarning tovushi) va shovqinli tovushlarga (taraqturuq, tars-turs, sharaq-shuruq, taqir-tuqur va boshqa shu kabi tovushlarga) bo'linadi. Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, u uch qismdan: tashqi quloq, o'rtqa quloq va ichki quloqdan iboratdir.

Tashqi quloq — quloq suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. Tashqi quloq havonang to'liqlarini yig'uvchi kamay desa bo'ladi. Tashqi quloq bilan o'rtqa quloq o'rtasida bir parda bor, u nog'ora parda yoki o'rtqa quloq pardasi deb ataladi. O'rtqa quloq — nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha sandon va uzangidan iborat. Nog'ora parda, shuningdek, unga yopishuvchi suyakchalar (bolg'acha, sandon va uzangi) havonang tebranishlarini ichki quloqqa o'tkazadi. O'rtqa quloq maxsus kanal (Evstaxiy nayi) yordami bilan og'iz bo'shlig'iga va burun bo'shlig'iga tutashgan.

Ichki quloq yoki quloq labiranti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan iborat. Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim joyga kanaldan, o'rtqa qismi kameradan (u ichki quloq dahlizi deb ataladi) va pastki qismi chig'anoqdan iborat. Eshitish sezgilarining fizik sababi havonang to'liqlarining harakati bo'lib, bu havonang to'liqlari tovush chiqaruvchi jismlar tebranganda hosil bo'ladi.

Hid bilish va ta'm bilish (maza) sezgilar. Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi. Hidlar nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'ladi. Hidlarni klassifikatsiya qilish uchun

umumiy bir mezon yo'q. Hidlar odatda hidli narsalarning nomi bilan ataladi, masalan, rayhon hidi, non hidi, olma hidi va hokazo. Hidlar odatda, xush va noxush deb ikkiga bo'linadi, lekin bu taqsimot hidlarning mohiyatini ko'rsatib bermaydi, balki o'sha hidiarga qanday qarashimizni ko'rsatadi.

Hid bilish sezgilarining organi burun kavagining yuqori tomoni bo'lib, bu erda hid bilish hujayralari va sezuvchi nervning tarmoqlari bor, sezuvchi nervning tarmoqlari «hid bilish sohasining shilliq pardasiga botib turadi. Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, bu qo'zg'alish bosh miyaga o'tadi, natijada biz turli hidlarni sezamiz. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida deb faraz qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga faqat gaz holatidagina ta'sir etadi va kimyoviy reaksiya yo'li bilan ularni qo'zg'aydi. Ma'lumki, hidli moddalarning hammasi bug'lanadi va eriydi. Gaz holatidagi moddalar nafasga olinadigan havo bilan burun kavagiga kiradi. Ta'm bilish sezgilariga shirin-achchiq, noroton-shirin his qilish kiradi. Shu asosiy ta'm bilish sezgilaridan tashqari, umumiy klassifikatsiyasi bo'lmagan juda ko'p va xilma-xil ta'm bilish sezgilari ham bor. Hid bilish sezgilari kabi ta'm bilish sezgilari ham, muayyan ta'mli narsa yoki moddalarning nomi bilan ataladi. Masalan, sutning mazasi, yog'ning mazasi, go'sotning mazasi, nonning mazasi va b. Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidir. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari bor.

Ularning ichida tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish «kumaklari» yoki «sugonlari» bor. Har bir ta'm bilish sezgisining o'ziga xos tuzilgan «sugoni» bo'ladi. Spetsifik sifatlari bilan farq qiladigan bu ta'm bilish sugonlari til yuzasida bir tekisda taqsimlangan emas. Tilning asosiy yoki orqa qismi achchiq mazani, ayniqsa, yaxshi sezadi, til uchi, asosan, shirin mazani, ayniqsa, yaxshiroq sezadi, tilning ehtlari esa noroton mazani yaxshiroq sezadi. Tilning o'rtasi ta'm sezmaydi. Ta'm bilish organlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari bor, bular maza (ta'm) bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga o'tkazadi.

Teri sezgilari va muskul-harakat sezgilari. Teri sezgilariga tuyush va harorat sezgilari kiradi, bu sezgilarning teri sezgilari deb atalishiga sabab shuki, bu sezgilarning chekka nerv apparatlari (retseptorlar) terida va organizmimizning tashqi shilliq pardalarida bo'ladi. Tuyush sezgilari — tegish, tarqalishni tuyush sezgilari yoki tuyush tanachalari. Taktil sezgilar, shuningdek, silliq yoki g'adir-budurni tuyush sezgilaridir. Biror narsaning tegishini sezish tashqi ta'sir (qo'zg'alish) kuchayganda siqiq sezishga aylanadi. Qo'zg'alish yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanishi mumkin. Ammo terida seziladigan har qanday oriq teriga ta'sir etadigan tashqi qo'zg'alishga bog'liq bo'lavermaydi, albatta.

Tuyush sezgilari organi — teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyush tanachalari degan maxsus tanachalardir. O'sha tanachalarning ichida, qisman esa tashqarisida (bevosita epiteliyda) tuyush nervining chekka tarmoqlari bor. Ular terida va gavdamizning shilliq pardalarida bir tekisda taqsimlangan emas. Bu tanachalar barmoqlarning uchida, til uchida, labda zich joylashgandir. Shuning uchun ham gavdamizning ana shu qismlari tekkan narsani,

silliq va g'adir-budurni boshqa qolganlaridan eng ko'p sezgindir. Tuyush tanachalari orqa terisida juda siyrakdir. Tuyush tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari nechog'li zich taqsimlanganligi esteziometr nomli maxsus asbob yordamida aniqlanadi.

Tuyush markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy pushtasida deb faraz qilinadi. Tuyush sezgilarining tashqi, fizik sababi biron-bir hu-yumlarning teriga bevosita tegishidir. Bunda biz narsaga tegish bilan birga um paypaslasak, uning bilan biron ish qilsak, tuyush sezgisi ancha oshadi. Bunday hollarda tuyush organlari muskul-harakat organlari bilan birgalikda ishlaydi. Harakat bilan bog'liq sezgilar taktil sezgilar ila birga qo'shilganda, narsalarning asosan, silliq yoki g'adir-budur ekanligi bilmadi. Tuyush sezgisida va paypaslashda qo'l, jumladan, qo'l barmoqlari, ayniqsa, katta rol o'ynaydi. Odaming fanliyatida, tevarak-atrofdagi olamni bilishida qo'l tuyush va paypaslashning maxsus organi bo'lib xizmat qiladi.

Harorat sezgilariga issiq va sovuqni sezish kiradi. Terida va sbilliq pardalarda maxsus tanachalar bor, ularning ichida issiqni yoki sovuqni sezadigan maxsus nervlarning chekka tarmoqlari bo'ladi.

Harorat sezgilarining tashqi sababi biron haroratga ega ho'lgan qat-tiq, suyuq va gazsimon jismlarning organizmimizga tegib turishidir. Issiqni yoki sovuqni ayirish terimizga tegib turgan narsa (qo'zg'ovchi) harorati bilan badan harorati o'rtasidagi nisbat bilan belgilanadi. Muskul-harakat sezgilari motor sezgilar yoki kinestetik sezgilar deb ham ataladi. Bu xil sezgilarga tazyiq (og'irlik)ni hislash sezgilari, qarshilikni (qattqlik, yumshoqlikni) bilish sezgilari va ayrim organlarning ha-rakatini hislash sezgilari kiradi. Bu sezgilarining organlari — gavdamizdagi hamma muskullar, paylar va bo'g'im yuzalaridir. Hamma muskullarda, paylarda va bo'g'imlarda maxsus sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari bor, muskul-harakat sezgilari va statik sezgilar ana shu nerv tarmoqlari yordami bilan hosil bo'ladi. Muskul-harakat sezgilarining tashqi, fizik sababi muskullarimizga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi yoki qarshiligi, shuningdek, gavdamizning harakatlardir.

Statik sezgilar gavdamizning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi. Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat retseptor vazifasini o'taydi.

Organik sezgilar. Ochiqqanda, suvsaganda, ortiq to'yib ketganda, charchaganda, ko'ngil ayniganda, ichki organlarimiz og'inganda ichki sezgilar tug'iladi, bularni organik sezgilar deyiladi; kishining o'zini tetik, salomat, kasal his qilish-lari ham organik sezgilar jumlasidandir. Organik sezgilarining ko'pi differentsiatsiyalanmagan va betayin bo'ladi. Bu sezgilarining retseptorlari ichki organlarda: qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, ichki organlarda bo'lib turadigan jarayonlar organik sezgilar retseptorlarining qo'zg'ovchilaridir. Ammo ichki organlar salomat bo'lib, sog'lom ishlab turgan vaqtda biz ichki (organik) sezishlarni yo payqamaymiz yoki bu sezgilar o'zimizni umuman «yaxshi» his qilish tetiklik, sog'lomlik va boshqa shu kabi tuyg'ular tarzida ifo-dalanadi.

Sezgilarning fiziologik asoslari

Sezgilari biror-bir sezgi organining qo'zg'alishi natijasida hosil bo'ladi. Ammo qo'zg'ovchi retseptorga ta'sir etib boshlashi bilan oq, darrov sezgi tug'ilavermas ekan: qo'zg'ovchi ta'sir etib boshlagandan bir necha vaqt keyingina sezgi nosil bo'ladi. Turli sezgilarda bu vaqt 0.02 soniyadan 0.1 soniyagacha boradi. Shunday qisqa vaziyatni biz, odatda, payqamaymiz. Sezgi hosil bo'lgach, ma'lum muddat davom etadi. Sezgilari davom etish muddatiga qarab, qisqa va uzoq muddatli sezgilarga bo'linadi. Masalan, yalt etib chaqnagan bir uchqun yorug'ligini sezish yoki erga tushib ketgan qalam tovushini sezish qisqa muddatli sezgilardan hisoblanadi. Kunduzgi yorug'likni sezish, zavodning yangrayotgan gudok ovoziini eshitish uzoq muddatli sezgilardandir. Sezgilarning qancha muddat davom etishi tashqaridagi narsalarning sezgi organlariga nechog'li uzoq ta'sir etishiga bog'liq. Narsa ta'sir etib turar ekan, tegishli sezgi ham bo'ladi. Sezgilarning kuchi turli darajada bo'lishi mumkin, boshqacha qilib aytganda kuchsiz va kuchli sezgilari bor. Yomb turgan bir gugurt cho'pi sochib turgan yorug'likni sezish kuchsiz sezgiga, havo ochiq kunda qu-yosn sochib turgan yorug'likni sezish esa kuchli sezgiga misol bo'la oladi. Sezgilarning kuchi avvalo qo'zg'alishning kuchiga bog'liq. Qo'zg'alish qancha kuchli bo'lsa, hosil bo'ladigan sezgi ham shuncha kuchli bo'ladi. Qo'zg'alishning salgina sezila boshlagan darajasini sezgining pastki yoki ahsolut chegarasi deyiladi. Agar shu qo'zg'alish kuchi salgina susaytirilsa ham sezgi yo'qoladi. Sezgi hosil qilmaydigan kuchsiz qo'zg'alishlar sezgi chegarasidan pastda turuvchi qo'zg'alishlar deb ataladi.

Sezgi hosil qiladigan qo'zg'alishning kuchi o'zgarishi, ya'ni ortishi yoki kamayishi mumkin. Qo'zg'alish o'zgarganda sezgi kuchi ham o'zgaradi (oshadi yoki kamayadi). Agar uyda hilla lampochka yomb turgan bo'lsa, muayyan darajada yorug'lik sezamiz. Agar yana bir shunday lampochka yoqib qo'yilsa, yorug'lik sezgisi kuchayadi. Ammo qo'zg'alish kuchining har bir o'zgarishi sezgining kuchini o'zgartira olmas ekan. Sezgilarning kuchi qo'zg'alish muayyan miqdorda oshganda yoki kamaygandagina o'zgarar ekan. Masalan, bir stakan suvda 6 g qand eritsak, muayyan darajada shirin maza sezamiz. Eritilgan shu qandga yana 1 g qand qo'shsak, shirin mazani bilish sezgisi o'zgarmaydi. Shirin mazani bilish sezgisi birmuncha ortishi uchun 6 g qandga yana 2 g qand qo'shish (ya'ni, butun qand miqdorining uchdan biricha qand qo'shish) kerak ekan.

Qo'zg'ovchilar ta'siri o'rtasidagi sezilar-sezilmas salgina farqni sezishni farq qilish chegarasi deyiladi.

Qo'zg'alish kuchi shunchalik ortib borishi mumkinki, hunda tegishli sezgi o'zining spetsifik sifatini yo'qotadi va og'riq hissiga aylanadi. Chunonchi, haddan tashqari kuchli yorug'lik ko'zda og'riqni keltirib chiqaradi «ko'z» qamashtiradi. Kuchli tovush quloqni og'ritadi. Haddan tashqari og'ir narsa muskullarni og'irtadi.

Qo'zg'alish kuchining o'zgarishi bilan sezgi sifatidagi og'riq tomon (yoqimsiz) ro'y bergan sezilar-sezilmas o'zgarishga sezgining yuqori chegarasi deyiladi.

Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyati

Bola ona qornida 7-9 oylik bo'lgan chog'laridayoq ummg harcha sezgi organlari ancha o'sib etilgan bo'ladi. Ammo hundan, bola dunyoga kelgan hamono tevarak-atrofdagi narsalarni katta yoshli kishilar bilan bah-baravar idrok qila olar ekan, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bolalarning sezgi organlari tajribaga, tarbiyaga qarab o'sadi, mustahkamlanadi, sezish qobiliyati mukammallashadi. Go'dak bolaning sezgilarini biron qo'zg'ovchiga javoban ko'rsatadigan reaksiyalarga qarab bilib olamiz, xolos. Shu reaksiyalarga qarab, bola hayotining dastlabki kunlaridanoq unda issiq va sovuqni teri sezgisi bilan sezish qobiliyati bor deb aytish mumkin. Tegishga javoban bo'ladigan reaksiyalar ham ancha yaqqol ko'rinadi. Bolada ta'm bilish sezgilari ham bo'ladi: bolada shirin eritmaga (qandga) boshqa, achchiq eritmaga (xminga) boshqa reaksiya bo'ladi.

Bola dunyoga kelgan dastlabki kunlardanoq yorug'likning o'zgarishiga qarab, ko'z qorachig'i torayadi yoki kengayadi. Ammo bola ko'z harakatlarni hali muvofiqlashtira olmaydi (ko'zini tuta olmaydi): bir ko'zi bir tomonga, ikkinchi ko'zning ikkinchi tomonga qarab turishi, bir ko'zini ochib ikkinchi ko'zini yumib yotishi mumkin. Bola bar narsaga tikilib tura olmaydi. Bola taxminan ikkinchi oy oxirida narsalarga tikilib qaraydigan bo'ladi: shu vaqtda bola tikilgan narsasi chetga surilsa, uni ko'zlar bilan birinchi marta qidira boshlaydi. Besh oylik bola yorqin ranglarni ancha ayiradigan bo'lib qoladi.

Bola tug'ilgan dastlabki kunlarda hech narsani eshitmaydi. Buning sababi shuki, yangi tug'ilgan bolaning o'rt qulog'iga maxsus modda to'lgan bo'ladi, bu modda tovushning o'tishiga to'siqlik qiladi. Bu modda birinchi hafta davomida aksari shimilib ketadi, bola tovushga javoban reaksiya ko'rsata boshlaydi. Avvallari bola faqat tovushning kuchiga javob bersa, ikki-uch oyligida tovushning qay tomondan kelayotganligini bila boshlaydi va tovush kelgan tomonga boshini bura boshlaydi. Bolaning tovushlarga sezgirligi o'ssa boshlaydi, yoqimli ashula yoki musiqa tovushini eshitganda talpinib suyunadi va aksincha, qattiq tovushlar eshitganda, bum yoqtirmaganligidan chinqiradi.

Bola hayotining dastlabki 3-4 oyida sezgi organlarining hammasi o'z vazifasini o'taydigan bo'lib qoladi; keyinchalik shu organlar o'sadi va farq qilishga doir sezgirlik kuchayishi bilan sezgilar bir-biridan ajratila boshlaydi. Masalan, bola to'rt yoshligida ko'pgina ranglarni bir-biridan ayiradi. Ikki-uch yashar bolalarda eshitish sezgisi shu qadar o'sadiki, ular ayrim kishilarning ovozlarni va ayrim narsalarning tovushlarini hamaol ayirish bilan birga, murakkab kuylarni ham ayira oladi va eng oddiy kuylarni aytib boshlaydi.

7 yoshdan 10 yoshgacha bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45 foiz ortishi, 10 yoshdan 12 yoshgacha bolalarda 65 foizgacha ortishi olimlar-ning maxsus tekshirishlarida aniqlangan. Maktab o'quvchilarini rasimga o'rgatish ranglarni ayirish sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sezgilarning o'sishi uchun jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyati bor.

Sezgilardagi qonuniyatlar

Sezgilarning yuzaga kelishi ma'lum qonuniyatlarning asosida yuz beradi. Sezgilar biror

bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi reseptorga ta'sir etishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sir eta hoshlagandan bir necha vaqtdan keyin sezgi hosil bo'ladi. Lekin sezgilarning har xil turlari faqat o'ziga xosligi bilan emas, balki ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Sezgilarning sifati, jadalligi uzoq davom etishi va ko'p joylarda yuz berishi ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi. quyida sezgilarning xususiyatlari yaqqol ifodalangan.

Sifat - mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisi past- balandligi, mayinligi, zo'rliqi bilan farq qiladi va hokazo.

Sezgining jadalligi uning miqdorini ifoda etadigan xususiyat bo'lib, ta'sir kelayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va reseptorning funksional holati bilan belgilanadi. Sezgining davomiyligi uning vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. U ham sezgi a'zosining funksional holati bilan lekin asosan qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti va ta'sirning jadalligi bilan belgilanadi. Qo'zg'atuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi, balki bir oz vaqt o'tgach hosil bo'ladi. Bu sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri har xil sezgi turi uchun turlicha, masalan, taktil sezgilari uchun 130 millisekund bo'lsa, og'riq sezgisi uchun 370 millisekundan iborat.

Bilinmas - bilinmas sezgi hosil qiluvchi qo'zg'atuvchining minimal kuchi sezgirlikning quyi chegarasi deyiladi.

Analizatorning mutlaq sezuvchanligi sezgining faqat quyi emas, balki yuqori chegarasi bilan kilyalanadi. Sezgining mutlaqo yuqori sezuvchanligi deb qo'zg'atuvchining kuch bilan ta'sir qilishiga aytiladi.

Sezgi a'zolari yordamida u yoki bu qo'zg'atuvchining faqat bor yo'qligini qayd etmasdan, balki qo'zg'atuvchilarning kuchiga va sifatiga qarab farqlay olishimiz mumkin. Sezgilar o'rtasidagi bilinar-bilinmas farqni hosil qiluvchi ikkita qo'zg'atuvchi o'rtasida mavjud bo'lgan minimal farq ajratish chegarasi yoki ayirma chegarasi deb ataladi.

Adaptatsiya. Sezgi organlarning o'ziga ta'sir etadigan qo'zg'atuvchilarga moslanishi, ko'nikishi adaptatsiya deb ataladi. Qo'zg'atuvchining ta'siri o'zgarishi bilan sezgirlik ham o'zgaradi. Qo'zg'atuvchilar sust ta'sir etganda sezgirlik oshadi, kuchli ta'sir etganda sezgirlik kamayadi. Shu sababli, mushat va manfiy adaptatsiya farq qilinadi. Adaptatsiya ko'rish sezgilanda, ayniqsa, yorug' joydan qorong'i joyga kirganda va aksincha qorong'i joydan yorug' joyga chiqqanda yaqqol ko'rinadi. Masalan, yorug' joydan balandroq binoga kirganimizda avvaliga hech narsani ko'rmaymiz. Ko'rish organimiz kuchsiz yorug'likka moslashguncha bir necha vaqt o'tadi. Bu qorong'ilik adaptatsiyasidir. Qorong'idan yorug'ga chiqqanda ham ko'rish organlari yorug'likka yana moslashuvi uchun bir necha vaqt (taxminan 4 daqiqadan 5 daqiqagacha fursat) kerak. Bu yorug'lik adaptatsiyasidir.

Adaptatsiya harorat sezgilanda ham bor. Biz cho'milish uchun suvga tushganimizda yoki dush tagida turganimizda dastlabki paytda suv sovuq-roq tuyuladi, bir necha daqiqadan keyin esa o'sha suv unchalik sovuq sezilmaydi va hatto iliqroq seziladi.

Hid bilish sezgilarida adaptatsiya tezroq boshlanadi. Masalan, biron hidi bor uyg'a

kirganimizda avaliga shu hidni sezaniz. bir necha vaqtdan so'ng hidni sezmay qolamiz.

Adaptatsiya ko'rish, harorat, hid bilish sezgilarida kuchliroq, eshitish va og'riq sezgilarida kamroq bo'ladi. Boshqa sezgi organlari ishlab turganda ayrim sezgi organlarining adaptatsiya jarayoni tezlashuvi mumkin. Masalan, harorat (sovuq), ta'm bilish, muskul retseptorlari va ichki organlardagi retseptorlar ta'sirlanganda ko'rish va eshitish sezgirligi tezroq kuchayadi. Olimlar o'tkazgan bir qancha tajribalar shuni ko'rsatadiki, sovuq suvga latta xo'llah yuz va bo'yinni artganda (issiq faslda), jismoniy tarbiya mashqlariga o'xshash tipdagi engil ishda nafas olish tezlashganda va kuchaygan- da eshitish va ko'rish sezgirligi oshadi, musbat adaptatsiya tezlashadi. Shunday vositalardan foydalanib, qorong'ilik adaptatsiyasini odatdagidek 40—50 daqiqada emas, balki 5-6 daqiqada tezlatish mumkin.

Sinesteziya. Ba'zi kishilarning sezgilarida sinesteziya degan hodisa ko'riladi. Sinesteziya ikki sezgining yaxlit bir sezgi bo'lib qo'shilishi demakdir. Sinesteziyada sezgilardan birontasi muayyan paytda bevosita ta'sir etuvchi qo'zg'ovchiga ega bo'lmaydi, balki qaytariladi. Sinesteziyaning ko'proq uchraydigan shakli «rangdor eshitish» deb ataladigan hodisadir. Bunda tovush sezgisi (shovqin, ton, musiqali akkord) ko'rish obrazini, ya'ni yorug'lik yoki rang tasavvurini uyg'otadi. Sinesteziya kishilarning taxminan 12 foizida uchraydi, «rangdor eshitish» kishilarning 4 foizida ko'riladi. Sinesteziya hodisalarini ko'rsatadigan ayrim so'zlarni adabiy tildan topish mumkin. Masalan, «istarasi issiq», «basharasi sovuq», «yumshoq ko'ngil», «tosh yurak», «shirin so'z», deb gapiradilar.

Sezgilar kontrasti qarama-qarshi sifatga ega bo'lgan bir vaqtdagi qo'zg'alish tufayli sezgirlikning o'zgarishidir. Masalan, tinch joyda tovush kuchliroq seziladi. Oqimtir fonda qora rang qoraroq, qoramtir fonda oq rang yana ham och bo'lib seziladi. Odam charchaganda sezgirlik pasayadi, harakat oshganda sovuqqa sezgirlik o'tkirlashadi. Sezgirlik kasbga ham bog'liq. Masalan, rassomlarda rang sezish, musiqachilarda tovush sezish va shu kabilar.

Sensibilizatsiya (lotin. sensibilis - sezuvchan) - ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgirligining ortib ketishi.

Nazorat savollari:

1. Sezgi deb nimaga aytiladi?
2. Sezgilarning qanday turlarini bilasiz?
3. Retseptorlarning joylashuviga ko'ra klassifikatsiya qilgan olim kim?
4. Sezgilar borasidagi psixologik nazariyalarni ayting.
5. Sezgilarning fiziologik asoslarini yoriting.
6. Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyati qanday?
7. Sezgilarning qanday qonuniyatlarini bilasiz?

XIX bo'lim. IDROK

Asosiy savollar:

1. Idrok. Idrok - ish-harakat tariqasida.
2. Idrokning konstantligi.
3. Idrok turlari. Ranglarni idrok qilish. Fazoni va harakatni idrok qilish. Vaqtni idrok qilish. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratish.
4. Illyuziya va gallyutsinatsiya.

Tayanch tushunchalar: Illyuziya, gallyutsinatsiya, idrokda fon, konstantlik, ko'zning to'rt pardasi

Idrok. Idrok - ish-harakat tariqasida

Idrok sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks etishidir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarni esa chaqaloq qandni idrok qilamiz, uning shirinligini esa sezamiz. Ammo xossa va narsa bir-biridan ajralmasdir, shu sababli narsalarni idrok qilish ham sezgilardan ajralgan holda voqe bo'lishi mumkin emas. Biz bir narsani idrok qilayotganimizda uning ayrim xossalarni ham sezamiz.

Biror narsaning o'zini idrok qilmasdan hosil bo'ladigan sezgilar yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlaridagina mavjud bo'ladi, chaqaloq narsaning o'zini idrok qila bilmasa ham undan hosil bo'ladigan sezgilarni ajratadi, masalan, yorug' va qorong'ini, shirin va noronni sezadi. Sezgilar, odatda sodda, elementar psixik jarayonlar hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga, avvalo turli buyumlar, binolar, daraxtlar, jihozlar, texnika huyumlari va hokazolar kiradi. Biz musiqa, surat, rasm va hoshqa san'at asarlarini idrok qilamiz. Odamning hayotida nutqni og'zaki va yozma nutqni idrok qilish eng katta va muhim o'rin tutadi.

Masalan, stolni idrok qilayotganimizda biz uning joyini, atrofini o'rab olgan stullarni, shu paytda radiodan eshitilayotgan musiqani ham idrok qilamiz, xona ichidagi radio-priyomnikni ham, kishilarni ham bir vaqtda ko'ramiz.

Biz narsa va hodisalarni makon va zamon sharoitida idrok qilamiz. Makon va zamon moddiy bog'liq shakli sifatida, barcha bosbqa realliklar kabi idrok qilinadi. Buning ma'nosi shuki, biz narsalarni, ularga xos bo'lgan fazodagi shakllari (kub, uchburchak, doira va hokazo shakllari)ga, fazodagi katta-kichikligi (katta, kichkina, mayda va hokazo)ga, fazodagi munosabatlari (bir-biriga va bizga nisbatan yaqin, uzoq, chap, o'ng tomonda, yuqori va past turishlari)ga qarab idrok qilamiz, ular tinch yoki harakat holatlarida idrok qilinadi. Biz idrok qilib turgan narsa va hodisalarni ma'lum vaqt (zamon) davomida paydo bo'lish va o'zgarib borishlarida idrok qilamiz.

Idrokda idrok jarayonini, ya'ni ongimizning bevosita aks ettiruvchi faoliyatini va narsalarni idrok qilish (aks ettirish)dan hosil bo'ladigan sub'ektiv obrazni bir-biridan fara

qilish lozim.

Idrokning konstantligi

Idrokning konstantligi shundan iboratki, bironta narsani idrok qilishdan hosil bo'lgan obraz, idrokning fizik sharoiti o'zgarib tursa ham, doimo shu obraz holicha qolaveradi. Idrokning konstantligi ko'rish idroklarida, narsalarning katta-kichikligini ularning shakli va ranglarini idrok qilishda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bizga ma'lumki, biror narsadan uzoqlashsak, uning ko'zimiz to'rt pardasidagi surati (aksi) kichrayadi, ammo shu narsaning obrazi hu bilan o'zgarmaydi, o'zgarganda ham bilinar-bilinmas o'zgaradi. To'g'ri burchakli stol bizdan 1 m yoki 10 m uzoqrog'da tursa ham biz unga to'g'ridan yoki yondan qarasak ham, uning kattaligi va shaklining aksi ko'z to'rt pardasida har safar o'zgarib turishiga qaramay, har bir hamisha o'z shakli va katta-kichikligini o'zgartirmagandek, boyagicha idrok qilinaveradi.

Konstantlik hodisasi shuni ko'rsatadiki, biz narsalarni ko'rib turgan paytimizda, ularning ko'z to'rt pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq holda ko'rmay, balki shu narsalar haqiqatda qanday mavjud bo'lsa, shu holda ko'ramiz.

Idrokning konstantligi odamning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelib, mustahkamlanadi.

Konstantlik hodisasi voqelikni bilishda, tevarak-atrofdagi muhitni fahmlab, kunda amaliy ish ko'rishda juda katta ahamiyatga egadir. Idrokimizda konstantlik bo'lmaganida edi, biz har bir qimirlashimizda, hoshimizni salgina burganimizda, yorug'lik o'zgarib turganida, narsalar o'z joylaridan andakkina siljiganida ham xuddi shu narsalarni har gal butunlay boshqa-boshqa, yangi notanish narsalardek idrok qilardik, biz hatto o'z narsalarimizni ham ulardan hatto yarim metr uzoqlashgan taqdirda, tamiy olmasdik.

Idrok turlari. Ranglarni idrok qilish. Fazoni va harakatni idrok qilish. Vaqtni idrok qilish. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratish

Idrok hani ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Muayyan bir obektni oldindan maqsad qilib olmasdan va maxsus tanlanmasdan, kuch sarf etmasdan idrok qilish jarayoni ixtiyorsiz idrok deb ataladi. Bunday idrok jarayonlari diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb qilayotgan obektlarning ta'siri bilan qo'zg'aladi; masalan, biz uzoqdan kelayotgan poezd ovozini beixtiyor eshitamiz, tunda qirda yonayotgan alangani uzoqdan beixtiyor ko'ramiz. O'zining yorug'ligi, rang-barangligi, harakati, xushohangligi, bilan ajralib turadigan narsa yoki hodisalar, odatda, beixtiyor idrok qilinadi, shuningdek, ayni vaqtda bironta ehtiyoj va manfaatimizga javob beradigan, shaxsiy tajriba va bilimlarimizga eng ko'p darajada muvofiq keladigan va biz uchun g'oyat katta ahamiyati bo'lgan obektlar ham beixtiyor idrok qilinadi. Ixtiyorsiz idrok tetik, haddam vaqtimizda bizda to'xtovsiz bo'lib turadigan jarayondir.

Oldin belgilangan maqsadga qarab muayyan bir obektni idrok qilishni ixtiyoriy idrok

deb ataladi. Badiiy bir rasmini ko'rish, dokladni e'tibor bilan eshitish, yozma ishlardagi imlo xatolarini chizib o'tish, ko'pchilik orasida o'zimiz qidirgan bir shaxsni topib ajratish ixtiyoriy idrokka misol bo'la oladi. Ixtiyoriy idrok ixtiyorsiz idrokdan ayrilgan holda bo'ladigan jarayon emas. Ixtiyorsiz idrok ixtiyoriy idrok uchun «fon» bo'lib xizmat qiladi.

Fazoni idrok qilish deganda narsalarning fazodagi shakllarini, ularning fazodagi katta-kichikligini va o'zaro munosabatlarni ko'zda tutiladi. Ma'lumki, fazodagi shakllariga qarab, uch burchakli, to'rt burchakli, kub, va shu kabi shakldagi narsalar ajratiladi.

Fazoni biz bir ko'zimiz bilan ham ko'rib, ya'ni monokulyar, ikki ko'zimiz bilan ham ko'rib, ya'ni binokulyar idrok qilamiz. Monokulyar idrok quyidagicha voqe bo'ladi. Biz ko'z bilan qaraganimizda, biz shu narsadan aks etgan nurlar ko'z gavharida sinib, ko'zning to'rt pardasi (setchatka)da shu narsaning aks etgan surati fotoapparatdagiga o'xshab, to'ntarilib, teskari tushadi. Ammo bunga qaramasdan, biz narsani haqiqiy holatida, haqiqiy shakli va katta-kichikligida ko'ramiz, idrok qilamiz. Narsaning ebellaridagi nuqtalaridan aks etgan nurlar ko'z gavharida bir-birini kesib o'tadi va ularning kesilish joyida ko'rish burchagi bosil bo'ladi. Bu burchakning katta-kichikligi idrok qilinayotgan narsaning katta-kichikligiga hamda uning ko'zdan qanchalik uzoq-yaqin turganiga bog'liq bo'ladi. Fazoni (monokulyar ko'rish yo'li bilan) bir ko'z bilan etarli darajada aniq va mukammal ko'rib bo'lmaydi. Ob'ektiv dunyo hodisalarini aks ettiradigan idrok, tassavur, fikr va hokazolardan iborat bo'lgan bizdagi subektiv, psixik hodisalar vaqt davomida paydo bo'ladi, o'zgarib va almashib turadi. Harakatni idrok qilish ayni zamonda ham fazoni, ham vaqtni idrok qilish demakdir. Masalan, yurayotgan mashinani ko'rib turar ekanmiz, biz ayni vaqtda uning bizga nisbatan joyini ham va biror nuqtaga nisbatan masofasi o'zgargan (yaqinlashgan yoki uzoqlashgan) vaqtini ham idrok qilamiz. Idrok qilinayotgan harakatning tezligi shu narsa harakatining ob'ektiv (haqiqiy) tezligiga hamisha teng baravar bo'lavermaydi. Ayni bir xildagi harakat tezligi, vaziyatga qarab, har xil idrok qilinishi mumkin: goho ildamroq, goho sekinlashgandek ko'rinadi. Tanamizga bevosita tegib turgan narsalarning harakatini biz teri sezgisi, muskul va ko'ruv organlari vositasi bilan idrok qilamiz.

Harakatni ko'z bilan ko'rib idrok etish ikki xil usul bilan: birinchidan, harakatta bo'lgan narsaga ko'zni uzmasdan qaraganda uning surati ko'z to'rt pardasida hosil bo'ladi, ikkinchidan, ko'zimizni harakatta bo'lgan narsa tomon yuritish, harakatini kuzatib borish bilan voqe bo'ladi. Odatda, harakat ana shu ikkala usul bilan bir yo'la idrok qilinadi.

Illyuziya va gallyutsinatsiya

Ba'zi hollarda narsalar noto'g'ri, yanglish idrok qilinishi mumkin. Narsalarni bu tariqa noto'g'ri idrok qilishni illuziya deb ataladi. Masalan, agar biz ko'rsatkich va o'rt barmog'imizni chalishtirib, no'xat yoki bironta dumaloq narsam chalishtirilgan ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, ayni bir vaqtda aylantiraversak (biz no'xatni aylantiraylik), barmoqlarimiz tagida bitta emas, balki ikki no'xat bordek his qilamiz. Ana shu holda bir narsaning ikki bo'lib sezilishini Aristotel (Arastu) illuziyasi deyiladi. Og'irligi

aynan teng, ammo kattaligi har xil bo'lgan ikki buyumni ketma-ketiga ushlab turilsa, kattasi engilroq, ikkinchisi og'irroqdek tuyuladi. Metallardan ishlangan 1 kg tarozi toshi, 1 kg paxtadan og'irroqdek his qilinadi. Bu hol geometrik illuziyalar deb nom berilgan illuziyalarda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Masalan, uzunligi baravar bo'lgan ikki chiziqning chetlariga ikki xil burchaklar chizilsa, illuziya paydo bo'ladi, ya'ni burchaklari tashqariga qaratilgan chiziqqa nisbatan burchaklari ichkari tomonga qaratilgan chiziq kattaroq bo'lib ko'rinadi.

Idrok qilib turgan shaxsning psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar bilan tug'iladigan tasodifiy illuziyalar hani bo'ladi. Masalan, cho'lda suvsagan kishi uzoqda yarqirab turgan sho'rxok erni ko'l deb o'ylashi (lekin bu illuziyani sahrodagi sarobdan farq qila bilish kerak) yoki o'rmondagi to'nka odamning ko'ziga bironta yirtqich hayvonga o'xshab ko'rinishi va hokazo shu kabi illuziyalar jumlasidandir.

Illuziyani gollutsinatsiyadan farq qilish lozim. Illuziya shu onda sezgi organlarimizga ta'sir qilib turgan bir narsani yanglish, noto'g'ri idrok qilish ho'lsa, gollutsinatsiya yo'q narsalarni, tashqi ta'sirsiz «idrok qilinishidir»: o'rni tagida yo'q narsaning ko'zga bordek ko'rinishi, yo'q ovozlarning quloqqa eshitilishi, yo'q narsalarning ishi dimoqqa urilishi va boshqa shu kabilar gollutsinatsiya mahsulidir. Gollutsinatsiya shaxsning go'yo biror narsani ko'rgandek, eshitgandek, ushlagandek, va boshqa shu kabi tasavuridir, xolos. Gollutsinatsiya ko'pincha kasallikdan darak beruvchi alomatdir, u nerv sistemasini bironta zaharli narsa (alkogol, kokain, nasha) bilan ta'sirlanganda, nerv sistemasini huzadigan kasalliklar oqibatida ro'y beradi.

Nazorat savollari:

1. Idrok deb nimaga aytiladi?
2. Idrok - ish-harakat tariqasida deganda nimanani tushunasiz?
3. Idrokning konstantligi nima?
4. Idrok qanday turlari bor?
5. Ranglarni idrok qilish deganda nimanani tushunasiz?
6. Fazoni va harakatni idrok qilish deganda nimanani tushunasiz?
7. Vaqtni idrok qilish deganda nimanani tushunasiz?
8. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratish nimalarga bo'g'liq?
9. Illuziya nima?
10. Gollutsinatsiya nima?

XX bob. XOTIRA

Asosiy savollar:

1. Xotira va xotira turlari.
2. Xotira jarayonlari.
3. Xotiraning nerv-fiziologik asosini

4. Xotiraning inson hayotidagi o' rni.

Tayanch tushunchalar: Mantiq xotirasi, obrazli xotira, fenomenal, muvaqqat nerv aloqalari, reminissensiya, introspektiv (o' z-o' zini kuzatish yoki ichki kuzatish) metod, konsolidatsiyalanish,

Xotira va xotira turlari

Ongimizda aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushurish) dan iborat bo'lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o' rni egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o' zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi.

Umumiy psixologiyada xotira 5 ta muhim mezonga muvofiq ravishda turlarga ko' rinishlarga ajratiladi:

Ruhiy faoliyatning faolligiga ko' ra xotira quyidagi turlarga bo' linadi:

- a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- v) his-tuyg' u yoki hissiyot xotirasi;
- g) so' z-mantiq xotira.

Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:

- a) ixtiyorsiz, b) ixtiyoriy, v) mexanik.

Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko' ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli;
- v) operativ (tezkor) xotira.

Ruhiy faoliyat qo' zg' atuvchisining sifatiga ko' ra:

- a) musiqiy, b) eshitish xotirasi.

Ruhiy faoliyatning inson yo' nalishiga qarab:

- a) fenomenal, b) kasbiy.

Obraz xotirasi - yaqqol mazmunni, ya' ni narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning yorqin xususiyati va bog' lanishlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat xotira turi. Obraz xotirasi analizatorlarning (tashqi va ichki muhitdan keladigan taassurotlarni qabul qilib, fiziologik jarayon hisoblangan qo' zg' alishni ruhiy jarayonga aylantiruvchi asab mexanizmlari tizimi) nomiga ko' ra ko' ruv, eshituv, teri sezgisi kabi turlarga bo' linadi.

Harakat xotirasi - turli harakatlarni, ularning bajarilish tartibi, tezligi, sur' ati, izchilligi va boshqa sifatlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat turi.

Harakatni esga tushirish shu harakatni bevosita bajarish yoki tasavvur qilish orqali sodir bo'ladi.

Mantiq xotirasi - ma'lum g'oyalar, fikrlar, hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni esda qoldirish, mustahkamlash va zarur paytlarda esga tushirishdan iborat bo'lgan xotira turi. Masalan, falsafiy mushohadalar, qonuniyatlar va shu kabilarning esda qoldirish, mustahkamlash va qayta tiklash jarayonlaridir. Mexanik (grek. onga yo'naltirilmagan) xotira - muayyan materialni uning mazmuni, mohiyati, ichki mantiqiy bog'lanishlariga tushunmagan holda, faqat muhim bo'lmagan tashqi belgilariga asoslanib esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

Musiqaxotirasi - avval idrok qilingan musiqaxobrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va keyinchalik ularni qayta esga tushirishdan iborat xotira turi.

Kasbiy xotira - bevosita o'z kasbiga doir narsa va hodisalarni, fikr, mulohaza, hissiyat, harakatlarni esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi. Masalan, o'qituvchi talaha hamda o'quvchilarning psixik xususiyatlarini, o'z fanga oid qoida va qonuniyatlarini; davlat avtomobil nazorati xodimlari ko'proq avtomashinalarning raqamlari va nuslarini; sportchi o'z sohasiga taalluqli xatti-harakatlar, musobaqalar ko'rigini, hamkasblarini esda qoldirish va esga tushirishga moyildirlar.

Fenomenal (gr. - noyob) xotira - idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanishi munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyati.

Eshitish xotirasi - tovush qo'zg'atuvchilarini sezish, idrok qilish natijasida hosil bo'lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

Esda qoldirish - idrok qilingan materiallarni, narsa va hodisalarni ongimizda qoldirishdan iborat xotira jarayoni.

Tezkor (operativ, lot. operativ-tezkor) xotira inson tomondan bevosita amalga oshiriladigan ko'z harakatlari, aqliy harakatlar uchun xizmat qiluvchi xotira jarayonidan iboratdir. Masalan, matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni bo'laklarga ajratib bajarishga kirishamiz;

Qisqa muddatli xotira - bir marta, shuningdek, qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish hamda shu kezdayoq qayta tiklashdan iborat bo'lib, qisqa muddatli esda olib qolish bilan tavsiflanadi. Axborotning saqlanishi 30 sekundgacha bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli xotira - ko'p marta takrorlash va qayta tiklashlar orqali uzoq vaqt, muddat esda olib qolishga mo'ljallangan xotira turi.

Xotira jarayonlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. Esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida muvaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga

bo'lmadi:

a) ixtiyoriy esda qoldirish;

b) ixtiyorsiz esda qoldirish.

Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

□ maqsad qo'yish. masalan, institutga kirish oldidagi maqsad;

□ o'quv materiallarini tushunib esda qoldirish;

□ esda qoldirishning rasional usullaridan foydalanish, masalan, esga tushirish yo'li

bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol o'ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog'liq narsa va hodisalar beixtiyor oson esda qoladi. Biz ha'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Ixtiyorsiz esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan ortiqcha harakat talab qilmagan holda hayotiy tajribalarni kengaytiradi va boyitadi. Biroq ixtiyorsiz esda qoldirish tez bo'lsa ham ko'pincha noaniq ho'ladi, bunday esda olib qolingani narsa va hodisalar keyinchalik yangilish esga tushiriladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining kerakli kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlanishni ma'noli esda saqlash bilan qo'llanilishi foydalidir.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quyidagi turlari mavjud:

o Ma'lumot, xabar, taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

o Egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish.

o Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish.

o Aralash holatida esda olib qolish, eshitish, ko'rish, harakat kahlilar orqali idrok qilish va esda olib qolish yoki bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Mana shu yo'llar orqali eshitish, ko'rish, eshitish harakat, kombinatorlashtirilgan (aralash) turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri ho'sb ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assosiasiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lamishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida ular xususiyatlariga binoan quyidagi:

- Sabab oqibat bog'lanish.
- Bo'lak va yaxlit munosabati.
- Qarama-qarshilik munosabati.
- Inkori etish holati.
- Adekvat yoki aniqlik turlarga ajratiladi.

Esda olib qolish inson faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. A.A.Smimov, P.I.Zinchenko tajribalari shuni ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lishi mumkin. A.A.Smimovning tajribalarida tekshirishlarga qaraganda ikki xil faoliyat taklif qilinsa, birinchi holda ular ma'noli matnni esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinaluvchilar matnni yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. Ikkinchi holda esa esda olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin matn ustida muayyan ish olib borish unda uchraydigan ma'noviy xatolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan.

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish sohasidagi yondashishdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega. A.A.Smimov o'tkazgan tajribasida shuni ko'rsatadiki, matnni maxsus tuzib chiqilgan rejaga asoslangan holda yodlash rejasini, pala-partish esda olib qolishdan ikki barobar samaraliroq ekan, psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan uni faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ularni muallimning rahbarligida egallashadi. Aks holda o'quv faoliyati ishtirokchilari materialni bevosita ixtiyorsiz esda olib qolish bosqichida qolib qolishi mumkin, bu hol aqliy o'sishga qarama-qarshidir.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, o'quv materiallarining ma'nosiga tushunib esda olib qolish yo'li oqilona yo'l bo'lib qolmasdan, balki u mexanik esda olib qolish jarayonidan o'zining samaradorligi bilan keskin darajada ajralib turadi.

Esda olib qolish jarayoni deganda sezgi, idrok, tafakkur, ichki kechinmalarni xotirada saqlanish xususiyati tushuniladi. Kundalik hayotimizda kitob, jurnal, gazeta o'qiyotganimizda materialni esda olib qolish uchun shu materialning ma'nosiga tushunib olishga harakat qilamiz. Jamiki narsa insonga yetarli darajada tushunarli bo'lmasa, u taqdirda ularni esda olib qolish jarayoni juda qiyin kechadi. O'rpanilayotgan materialning mazmuni va ma'nosiga tushunib olish uchun odam uni tahlil qilishga, umumlashtirishga harakat qiladi. A.A.Smimov ta'kidlaganidek, materialni o'zlashtirib olish xuddi shu jarayonga yaqqol misoldir. Muallimlarning shaxsiy fikriga ko'ra o'zlashtirilayotgan materiallarni esda olib qolish qiyinligi sababli ularni tushuna olmaslikdir. Tushunib olishning esda olib holishdagi ahamiyati xuddi shu bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiya fani to'plagan ma'lumotlarga qaraganda o'zlashtirilayotgan materialni mexanik tarzda egallashga nisbatan uning ma'nosini tushunib o'zlashtirish bir necha marta mahsuldordir.

Esda olib qolish jarayonida o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi muhimdir. Assosiativ psixologiya maktabining vakili, tanikli psixolog G.Ehlingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib 1885 yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani, 1888 yilda intellektni ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani "sof" ko'rinishda o'rganishga harakat qilib ma'no kash etmaydigan

bo'g'inlardan foydalandi. Uning bu tadqiqoti kishining mantiqiy xotirasi emas, balki mexanik xotirasiga nisbatan qo'llanishiga xos to'g'ri yo'nalishdir.

G.Ebbingauzning bu tadqiqoti psixologiyada introspektiv (o'z-o'zini kuzatish yoki ichki kuzatish) metodiga qarama-qarshi qo'yilgan ilmiy tajribaviy metod yutuqi sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. U xotira jarayonini tekshirishda o'z oldiga 38 ta ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan tuzilgan materialni esda olib qolishni maqsad qilib qo'ygan. Bu materialni o'zlashtirish o'rtacha 55 marta takrorlashni talab qiladi. Esda olib qolish uchun 38-40 so'zdan, 11 ta so'z o'zaro bog'liq bo'lmagan so'zlardan foydalangan. Bu materialni o'zlashtirish 6-7 marotaba takrorlashni talab etgan, umumiy hisob esa 9:1 nisbatga to'g'ri keladi.

Rus psixologlari tadqiqotlarining natijalari ma'noga ega bo'lgan materialni o'zlashtirishda esda olib qolish uchun turli xil yo'nalish, ko'rsatma berish muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrni tasdiqlaydi. A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikov va boshqalar bolalarning xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek, ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar.

I.P.Zinchenko, M.N.Shardakov, A.I.Lipkinlar tadqiqot ishlarining aksariyati shunga bag'ishlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushinishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib qolishga to'g'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan hamda esda olib qolish tezligi, aniqligi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi.

A.A.Smirnovning ta'kidlashicha, shu davrgacha hech kim hech bir ilmiy adabiyotlarda bolalarga va quyi sinf o'quvchilariga ahamiyatli bo'lgan materialni mexanik tarzda esda olib qolishlari ko'rsatilmagan.

Nemis psixologi Vilyam Shtern (1871-1938) fikricha, bolalarda ham katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam miqdordir. Bu mulohaza haqiqatdan ham to'g'ri, Meymon fikriga ko'ra, inson ulg'ayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolishi esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. Shunga o'xshash omillar boshqa psixologlar tomonidan ham to'plangan bo'lib, bu haqda boy materiallar umumiy psixologiya xrestomaliyalarida o'z aksini topgan.

A.A.Smirnov ma'no anglatmaydigan bo'g'inlarda va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagi ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishni alohida tekshirish har ikkala yosh davrida mazmunli va mazmunsiz materiallarni esda olib qolishning munosabatini tekshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'no kasb etgan materialni esda olib qolish yosh bolalarga nisbatan kattalarda ustunligi lekin, ma'nosiz materialni esda olib qolish kichik yoshdagi bolalarga qaraganda kam samara bermasligi aniqlangan. Ma'nosiz bo'g'inlar nafaqat kichik yoshdagi bolalarda, balki katta yoshdagilarda ham yaxshi o'zlashtiriladi.

A.N.Leontev tadqiqot ishlarida katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan

materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishi ta'kidlangan. Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan kuchliroq ma'no kasb etadi. Shuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materiallarni egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Esda olib qolishga hech qanday yo'nalish berilmay, materialni yaxshi olib qolinishi kishining jadal faoliyati bilan bog'liq. Ixtiyorsiz esda olib qolish faal irodaviy kuch sarflash hisobiga amalga oshadi. A. A. Smirnov ma'noli materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi. Chunki bolalar bali tushunib olmagan materialni go'yo ma'nosi yashirinib yotgandek qabul qiladilar. Matn ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, hilishga intilish mazmunini izlashga talabchanlikni uyg'otadi. Odatda ma'nosiz so'zlarni laboratoriya sharoitiga qaraganda kundalik turmushda puxtaroq eslab qolinadi.

Qator psixolog olimlarning mulohazalariga binoan: 1) materialni esda olib qolish darajasi yosh davrlari xususiyatiga ega emas, balki uning yakkahol shaxsiy xususiyatlariga bog'liqdir; 2) mexanik esda olib qolishning odat tusiga kirib qolishi ham yosh davrlarining xususiyati emasdir; 3) so'zlarni esda olib qolish, mexanik esda olib qolishning biron-bir xususiyatidir.

Esga tushirish va uning turlari.

O'tmishda idrok qilingan narsalar, his-tuyg'u, fikr va ishi-harakatlarning ongimizda jaytadan tiklanishi esga tushirish deyiladi. Esga tushirishning nerv-fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarning qo'zg'alishidir. Esga tushirishning tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud.

Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni takror idrok qilish natijasida u yoki bu hodisani esga tushirishdir. Tanish aniq va noaniq bo'lishi mumkin. Noaniq tanishda biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz, xolos. Masalan, bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qaerda ko'rganimizni eslay olmaymiz. To'liq, aniq tanishda esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol o'ynaydi. Masalan, biz bir kishini ko'rib, uni tanib olmasak, uning familiyasini yoki ismini eslaysak, darrov kim ekanligini bilamiz.

Eslash narsa va hodisalarni, uni ayni paytda idrok qilmay esga tushirishdir. Masalan, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni, bilib olgan ishlarimizni bemalol esga tushirishimiz mumkin. Eslash ham aniq va noaniq bo'ladi. Masalan, biz she'rni yuddan aytib bersak ham uni qaerda va qachon o'qiganimizni eslay olmaymiz. Esga tushirish avval tanishdan boshlanadi. Masalan, imtihonga kirganda hiletini ko'rib, uning savolini o'qib tanib olamiz. Demak, hunda predmetning nomi muhim rol o'ynaydi ekan. Bevosita esga tushirish materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat. Masalan, she'rni yod olganimizda bir necha satrni o'qigan kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya'ni bevosita esga tushiramiz. Bir karra

ko'zdan kechirilgan materialni bevosita esga tushirilgan miqdoriga qarab, xotiraning ko'lamini aniqlanadi.

Materialning ko'p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining xotira ko'lamini keng hisoblanadi. Masalan, artistlarda so'z va iboralarni esda tutib qolish xotirasining ko'lamini keng bo'ladi. Hisob-kitob ishlarini yuritadigan xodimlarda sonlarni esda tushirish xotirasining ko'lamini keng bo'ladi.

Vaqt o'tkazib esga tushirish esda olib qolinagan narsani oradan bir qancha vaqt o'tkazib esga tushirishdirki, bunda shu orada ongimizda boshqa jarayonlar o'tgandek bo'ladi. Masalan, yoshligimizdagi voqea va hodisalarni shu tariqa eslaymiz.

Idrok qilingan narsalar miyamizda o'rnashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deganda ilgari tug'ilgan taassurot, fikr, his-tuyg'u va ish-harakatlarning takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. Shuning uchun asab tizimi ilgari bo'lib o'tgan taassurotlarni takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushirish uchun qulay sharoit bo'lsagina esga tushadi. Bunday sharoit bo'lmaganda zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi.

Shunday qilib, esga tushirishda ana shu tariqa qiynalib qolib, zarur bo'lgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

Unutilgan narsalarni yana xotirada qaytadan tiklanishi **reminisensiya** hodisasi (xira esga keltirish) deyiladi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashg'ul bo'lganda miya charchashi yuz beradi. Charchash haddan tashqari oshishi natijasida nerv xujayralarida tormozlanish yuz beradi. Materialni esda qoldirilgandan keyin 12 soat ichida esga tushirilsa, materialning ko'p qismi unutiladi. Materialni o'qib o'rganib olingandan keyin uni yaxshi xotirlay olmay, ammo oradan bir necha vaqt o'tgandan keyin uni to'la xotirlay olishlikning sababi materialni o'qib, o'rganib olishda ro'y beradigan charchashdir.

Materialni eslash uchun bo'lgan kuchli xohish natijasida tormozlanish yuzaga keladi, bu esa materialni qayta esga tushirishdagi qiyinchilikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan ishga chalqib ketgan insonlarda tormozlanish tarqab ketadi. Shunda esga tushirish lozim bo'lgan narsa xotiraga kiradi. Materialni mustahkamlashga bo'lgan qiziqishning bo'lishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. Unutish vaqtiga bog'liq bo'ladi. Bu G. Ebbingauz tomonidan aniqlangan bo'lib, unutish materialni yod olingandan keyin darhol ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi.

G. Ebbingauz unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, materialni yod olgandan so'ng unutish sur'ati tez keyinchalik esa u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma'nosiz ayrim bo'g'inlarni unutish ustida olib borilgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, o'rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o'zlashtirish jarayoni maboynda xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab bog'lanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo'lgan narsa va hodisalarning o'zaro aloqalari xotirada asta-sekin yo'qolib boradi. Vaqtning o'tishi bilan birmuncha unutilib ketilayotgan vaqtli bog'lanishlarni, ya'ni

assosiasiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti- harakatlarni talab qiladi. G.Ebbingauzning izdoshlari va shogirdlari tomonidan o'tkazilgan juda ko'p tadqiqotlarning ko'rsatishicha, unutilish sur'ati materialning ma'noli yoki ma'nosizligiga, uning qanchalik anglanilganligiga bog'liqdir. Material qanchalik mazmundor anglanilgan tushunib olingan bo'lsa, u holda unutilish ham shunchalik sekin kechadi. Lekin ma'noli materialga nisbatan ham unutilish avval tez sur'atda bo'lib, keyinchalik esa u sekinlashadi. Biron-bir materialni o'zlashtirish yoki esda olib qolish insonning ehtiyojlari, qiziqishi, faoliyatning maqsadi bilan bog'liq bo'lsa, bu material sekin unutiladi.

Unutilishning tezligi esda olib qolingan materialning mustahkamligiga teskari proporsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning mustahkamligiga o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega yoki ega emasligiga bog'liqlikdan tashqari yana bir nechta omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi va uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog'liq. Shuningdek, ular shaxsning shaxsiy, individual xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir.

Xotiradagi individual farqlar

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalanadi. Bu farqlar malum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'alish va tormozlash jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir. Individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, ba'zi odamlar obrazli materiallarni, rang, tasvir, narsa tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa malum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Shunga muvofiq psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan, ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyotchi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotirlash va esda qoldirish jarayonlarida analizatorlarning qatnashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga ajraladi:

a) ko'rish; b) eshitish; v) harakat; g) aralash xotira.

Bir xil kishilar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar.

Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Esda olib qolish va unutilish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

- 1) tez esda qoldirib, sekin unutilish;
- 2) tez esda qoldirib, tez unutilish;
- 3) sekin esda qoldirib, sekin unutilish;
- 4) sekin esda qoldirib, tez unutilish.

Xotira tasavvurlari

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga xotira tasavvurlari deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishdan iborat.

Masalan, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: ertaklar, romanlar umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan, "ildiz", "o't" so'zlarini to'rt kishiga berib, qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz, chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kasbiga ko'ra tushunadi. Masalan, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uming ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, bosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur birorta turki tasirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilishi uchun birorta so'z yoki hodisa turki bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iladi.

Asab tizimida izlarning saqlanishi qo'zg'atuvchi ta'siri ostida hosil qilingan izlarning uzoq muddat saqlanish hodisasining hayvonot olamini taraqqiyoti jarayonida namoyon bo'lish xususiyati tadqiqotchilar tomonidan tekshirilgan va muayyan darajada ma'lumotlar to'plash imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Tajribada aniqlanishicha, poliplarning (meduzaga o'xshash jonivorlar) asab tizimiga bir marotaba elektr toki bilan ta'sir qilish orqali qo'zg'atishni vujudga keltirish bir necha soat davomida saqlanib qoluvchi ritmik elektr impulslarini hosil qiladi. Hayvonot olami yirik namoyandalarning markaziy asab tizimini tadqiqot qilish davomida xuddi shunga o'xshash hodisa qayd qilingan. Masalan, bir marotaba birdaniga elektr lampochkasini yoqish bilan qo'zg'atish orqali uy quyoning yuqori ikki do'ngligida uzoq muddat qayd etish mumkin bo'lgan ritmik elektr razryadlarini hosil qiladi.

Izlarning «konsolidatsiyalanish» jarayoni.

Insonning bosh miyasi jarohatlanganda, jarohatgacha bo'lgan qisqa vaqt ichida va jarohatdan keyin ma'lum vaqt oralig'ida ta'sir qilgan qo'zg'ovchilarning izi saqlanmaydi. Bosh suyagi og'ir jarohatlanib, odam xushidan ketganda, shikastlangangacha qanday hodisa ro'y berganligini va undan so'ng ro'y bergan hodisani sira eslay olmaydi. Bu hol anterograd,

retrograd va anteroretrograd amneziyasi degan nom olgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, nerv tizimiga ro'y bergan kuchli shok (ruhiy og'ir favquloddagi xastalanish) miya ma'lum muddatga unga etib kelgan qo'zg'atuvchilarning izlarini saqlashga qobiliyatsiz qilib qo'yadi.

Anterograd, retrograd va anteroretrograd amneziya miya izlarini esda olib qolishga qobiliyatsiz bo'lib qolgan vaqt oralig'ini o'lchash imkonini berdi. Masalan, 78-km da halokatga (avriyaga) uchragan mototsiklchi 64-km dan boshlab ko'rgan barcha narsalarni esdan chiqaradi. U soatiga 60 km tezlik bilan ketayotganligi sababli halokattan 10-15 minut oldin ro'y bergan taassurotlarning izlarini mustahkam saqlab qola olmagan.

Demak, izlarning xotirada mustahkamlanishi yoki psixologiyada aytilgandek, «konsolidatsiyalanish uchun 10-15 minut kifoya qilar ekan, xolos».

Shunga o'xshash omillar asosida maxsus tajribalar o'tkazilib, hunda sinaluvchilarga sun'iy kuchsiz shok beriladi va qanday muddat oralig'i xotiradan tushib qolishi kuzatiladi.

Psixolog Fedor Dmitrievich Gorbovning tajribalari bunga yaqqol misol bo'la oladi: unda sinaluvchilar belgilar (4, 1, -8, 5) o'tib turadi. Sinaluvchilar berilgan sonni ilgari natijaga qo'shib yoki undan ayirib, arifmetik operatsiyalarni bajarishlari zarur edi. Albatta, misollarni echish davomida sinaluvchi xotirasida ilgari natijalarni saqlash kerak edi. Favqulodda «birdaniga» sinaluvchiga keskin yorug'lik chaqnashi ko'rinishida «shok» beriladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, bunday hollarda tekshiriluvchilar hozirgina olingan natijani eslaridan chiqarib qo'yib, hisobni oxirgisidan emas, balki oldingisidan davom ettirdilar. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, kuchsizgina shok ungacha bo'lgan izlarni o'chirar va izlarning «konsolidatsiyalanishi» uchun zarur bo'lgan sharoitga to'sqinlik qilar ekan. Yuqoridagi kuzatishlar shunday fikrlar olib keldiki, izlarning mustahkamlanishi uchun muayyan vaqt talab qilinadi va ushbu faktni tekshirish uchun psixologiyada qator tadqiqotlar o'tkazila boshlandi.

Xotiraning nerv-fiziologik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zqatuvchilar ta'sirida o'zida qo'yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi har xil bo'ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o'rab olgan harliqni faol hiluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini to'xtovsiz kuchaytiradi. Shu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishi, xotira samarasining susayishi, ba'zi paytda odamning toliqishiga sabab bo'ladi. Dam olgandan keyin yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yash o'tishi bilan susayadi. Masalan, keksa kishilar paplaridan adashib ketadi, ilgari gapirganlari esdan chiqib, o'sha gapni takrorlayveradilar.

Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarini vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirilishi hisoblanadi.

Muvaqqat nerv aloqalari assosiasiyalarni hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. Assosiasiya bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea hodisalarning o'zaro bog'lanishidir. Biror buyumni esda olib qolish, boshqa huyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda akademik I.P. Pavlovning quyidagi so'zlari juda xarakterlidir. "Muvaqqat nerv bog'lanishlari - deb yozadi I.P. Pavlov hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli-tuman harakat, taassurot bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlar-ki, bu bog'lanishlarni psixoloqlar assosiasiyalar deb ataydilar".

Xotira, ya'm esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo'lgan obrazlar o'rtasida assosiasiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir. Shu his inson xotirasidagi assosiasiyalar 3 turga ajratiladi. Bular yondoshlik assosiasiyasi, o'xshashlik assosiasiyasi va qarama-qarshilik assosiasiyalaridan iboratdir. Yondoshlik assosiasiyasining asosida vaqt va fazoviy munosabatlar yotadi. Boshqacha qilib aytganda, yondoshlik assosiasiyasi bir necha narsa yoki hodisalarni ayni bir vaqtda yoki ketma-ket idrok qilishdan hosil bo'ladi. Masalan, bog'chada bolasi bar kuni o'zining tarbiyachi opasi va tarbiyalanayotgan guruhini idrok qiladi. Keyinchalik, ya'm katta bo'lgandan so'ng bog'chasini eslasa tarbiyachi opasi aksincha, tarbiyachi opasini eslasa, bog'cha guruhi ko'z o'ngida gavdalanadi.

Xotiramning inson hayotidagi o'rni.

Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qoladi, balki o'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg'u, fikrlar ham aks etadi. Odam xotira tufayli malaka va ko'nikmalar hosil qiladi, bilimni boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayon-larning faoliyati va taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egaadir.

Xotira inson faoliyatining hamma xillarida ancha muhim rol o'ynaydi. Hatto yosh bolalar ham agar ularda ba'zi bir bilim, ko'nikma va malaka-lar bo'lsagina o'ynay oladilar, bo'lmasa o'ynay olinaydilar. Har qanday mehnat xoh jismoniy, xoh aqliy mehnat zarur bilim, malaka va ko'nikmalar mavjud bo'lgandagina amalga oshmog'i mumkin.

Xotiraning ahamiyati ta'lim ishlarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Maktahdagi ta'lim ishlarining eng birinchi va asosiy vazifasi o'quvchilarni fanlar asosi bilimi bilan qurollantirish, hayitishdir. Xotirada mukammal hilmay turib fan asoslarini o'qib olish mumkin emas. Maktablarda ta'lim ishlari shunday yo'lga qo'yilmog'i kerakki, o'quvchilarga o'qitilayotgan material ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladigan bo'lsin. Shu sahadan, o'qituvchi ta'lim jarayomida o'z o'quvchilarini o'rganib, har bir o'quvchisini yaxshi hilishi, jumladan, har bir o'quvchisining xotirasi qanday ekanligini, bu xotiraning qanday o'sib borayotganligini, xotira-ning o'sishiga nimalar sabab bo'layotganini va o'quvchilarning xotirasini maktah ta'limi ishlari jarayonida qanday yo'l va vositalar bilan o'stirish kerakligini bilmog'i lozim.

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalanadi. Bu farqlar malum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bog'liqdir. Individual farqlar yana shunday hollarda namoyon bo'ladi, ha'zi odamlar obrazli materiallarni, rang, tasvir, narsa, tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar so'zlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa malum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Shunga muvofiq psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: ko'rgazmali obrazli xotira, so'z mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan, ko'rgazmali obrazli xotira tipi ko'proq rassomlarda, so'z mantiqiy tipi nazariyotchi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotirlash va esda qoldirish jarayonlarida analizatorlarning qatnashishiga qarab, xotira quyidagi tiplarga ajraladi:

a) ko'rish; b) eshitish; v) harakat; g) aralash xotira.

Bir xil kishilar ko'rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to'rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo'shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar.

Xotiraning aralash tiplari eng ko'p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog'liqdir. Esda olib qolish va unutish tezligiga ko'ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

- 1) tez esda qoldirib, sekin unutish;
- 2) tez esda qoldirib, tez unutish;
- 3) sekin esda qoldirib, sekin unutish;
- 4) sekin esda qoldirib, tez unutish.

Xotira tasavvurlari

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga xotira tasavvurlari deyiladi.

Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir-biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishdan iborat.

Masalan, yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvurlari bo'ladi. Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlar tajribalarimiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog'liq.

Masalan: entaklar, romanlar umuman bitor asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalanishi xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so'zning ahamiyati katta. So'z bilan nomlash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan, "ildiz", "o't" so'zlarini to'rt kishiga berib,

qanday tasavvur qilishlarini so'rasak, ularning tasavvurlari bir-biridan farq qilishini ko'ramiz. chunki, har bir kishi tajribasiga ko'ra, kashiga ko'ra tushunadi. Masalan, matematik ildizni sonning ildizi deb, botanik o'simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi. Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarning hosil bo'lishi, hosh miya po'stida paydo bo'lgan izlarning jonlanishidir.

Tasavvur bitorta turtki ta'sirida jonlanadi, masalan, biror odam haqida tasavvurlarning tug'ilishi uchun bitorta so'z yoki hodisa turtki bo'ladi. Asosan, maxsus qo'zg'ovchi so'zdir, shuning uchun so'z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug'iladi. Xotira borasidagi nazariyalar

Inson xotirasining qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, insonning har qanday kechirma, xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma'lum bir sharoitda qayta namoyon bo'luvchi izlar qoldiradi. Shuning uchun, xotira deganda, inson tabiat, jamiyat, koinot to'g'risida ma'lumot, xabar va taassurot to'plash imkoniyatini beradigan hamda ilgangi tajriba izlarini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutilishni tushuniladi.

Bunga bog'liq mavzuda psixologiya fan oldida xotira jarayonlarini o'rganish bilan aloqador bo'lgan qator murakkab muammolar masalalarini tadqiq qilish masalasi turibdi. Bular quyidagilardan iborat: izlarni esda olib qolishning fiziologik mexanizmlari qanday, esda olib qolishga qanday ob'ektiv (tashqi), sub'ektiv (ichki), tabiiy, biologik va ijtimoiy, psixologik sharoitlar ta'sir qiladi, ularning chegaralari qanday kahi masalalarga qaratilgan.

Hozirgi zamon xotirani tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarda markaziy o'rin xotira jarayonining asoslariga ajratilgan. Xotira jarayonining asoslari 3 yo'nalishda o'rganilgan: psixologik, neyro-fiziologik, biokimik.

Xotiraning psixologik nazariyalari inson faolligi bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlarini shakllantirishni tadqiq etadi. Ulardan birinchisi assosiativ nazariyadir. Ma'lum bir bilimlar inson ongida birin kelin o'rin olishi tufayli ularda assosiativ bog'liqlikni yuzaga keltiradi va ushbu bog'liqlikda biror bir narsa esga tushiriladi. Ushbu assosiasiyalarni 3 turga bo'lish mumkin, ya'ni ob'ektlarning fazoviy bog'liqligi, hix-biriga mosligi va qarama-qarshiligidir. Bundan 3 ta assosiasiya kelib chiqadi: bir-biriga bog'liqlik, o'xshashlik va qarama-qarshilik. Assosiasiya nazariyasi bo'yicha xotira assosiativ bog'lanishlar asosida mavjud ma'lumotni saqlash va qayta fikrlash imkoniyatiga ega.

Ikkinchi psixologik nazariya xotiraning geshiali nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asosiy ta'limoti narsaning negizi, yaxlitligi, yig'indisidir. Ushbu nazariyaga asosan xotira yaxlit hodisa sifatida tahlil etiladi.

Bixeviorizm - inson xotirasida, esda olib qolishda takrorlashning ahamiyatiga diqqatni qaratadi.

Freydizm xotirani emosiyalar, motivlar va ehtiyojlar bilan bog'laydi.

Xotiraning mantiqiy nazariyasi A.Binc va Byullerlar tomonidan ilgari surilib, ular xotiradagi materialni xotiraning mantiqiy esda olib qolinishi bilan bog'laydi.

A.N.Leontev, N.I.Zinchenko, A.A.Smimovlar tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turli tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingani materialning qandayligiga

emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir.

Bioximik nazariya tashqi ta'sir ostida nerv hujayralarida yuz beradigan o'zgarishlarni qayd qilish va xotira jarayonida DNK va RNK ahamiyatini aniqlashga qaratilgandir. DNK xotiram genetik tug'ma tashuvchi sifatida, RNK esa individual xotiraning ontogenetik asosi sifatida qabul qilinadi. Kibernetik nazariya bo'yicha xotira ma'lumotni qabul qilib olish, qayta esga tushirish va unutishdir.

Adabiyotlarda keltirilishicha, navbatdagi nazariya xotira jarayonlari asoslari haqidagi fiziologik nazariyadir. Vaqt oralig'ida esda olib qolish, saqlash va esga tushirish xotiraning asoslari fiziologik nazariyasini tashkil qiladi. Har qanday tashqi ta'sir nerv tizimida izsiz o'tmaydi va qandaydir "iz" qoldiradi. "Iz"ning fizik ta'siri qayta impuls harakatini engillashtiradi. Vaqtinchalik nerv munosabatlarning yuzaga kelishi, ularning izim va keyinchalik faollashtirilishini xotira jarayonlari asoslari nazariyasi sifatida ko'rib chiqiladi.

80-yillarda nemis psixologi German Ebbingauz o'z "sof" xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayoni tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub Ebbingauzga materialni esda olib qolishning egr chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerikalik psixolog Eduard Torndaykning tekshirishlari paydo bo'ldi. U birinchi bo'lib tekshirish predmeti sifatida hayvonlarda ko'nikmalarni paydo bo'lish jarayonini tanlagan edi.

XX asrning birinchi 10 yilida xotirani tekshirish yangi ilmiy talqiniga ega bo'ldi, uning moddiy asosi to'g'risidagi muammolarga mohiyati jihatidan mutlaqo boshqacha yondashish ro'yobga chiqdi.

Xuddi shu davr xotira psixologiyasida keskin burilish nuqtasini vujudga keltiradi. Akademik I.P. Pavlov shartli reflekslarni o'rganishning ilmiy metodini taklif etadi, bu narsa o'z navbatida bosh miya yarim sharlarida yangi bog'lanishlar paydo bo'lishiga va mustahkamlanishning asosiy fiziologik mexanizmlarini tekshirish imkoniyatlarini tug'dirdi. Ana shunday qilib, ushbu bog'lanishlar paydo bo'lishiga va saqlab qolishga yordam beradigan shart-sharoitlar, shuningdek, bog'lanishlarning saqlanishiga ta'sir qiluvchi holatlar, omillar va mexanizmlar tasvirlab berildi. I.P. Pavlov oliy asah faoliyati ta'limoti va uning asosiy qonunlari xotiraning fiziologik mexanizmlariga oid bilimlarning asosiy manbasiga aylanib qoladi.

Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakllarini birinchi marta tadrjijiy ravishda tadqiq qilish tanqli psixolog L.S. Vigotskiyga nasib etgan. U 20-yillarning oxirlarida maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va u o'z shogirdlari A.N. Leontev (1905-1979) va A.V. Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllari ruhiy faoliyatning murakkab shakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab berdi.

Psixologlardan A.A. Smirnov, P.I. Zinchenko lar ham xotira bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini olib bordilar, uning yangi qonunlari va mexanizmlarini ochdilar. Esda olib qolishning faoliyat maqsadiga bog'liqligini yoritdilar, murakkab materialni esda olib qolishning oqilona usullarini ko'rsatib berishga muvofiq bo'ladilar.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, psixolog olimlar tomonidan xotira borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va borilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Xotira deb nimaga aytiladi?
2. Xotiraning qanday turlari mavjud?
3. Xotira jarayonlarini yoriting
4. Esda olib qolish nima?
5. Esda tushirish nima?
6. G.Ebbingauz unutishning nimaga bog'liqligini tajriba orqali aniqlagan?
7. Reminissensiya nima?
8. Xotiraning nerv-fiziologik asosini nimalar tashkil etadi?
9. Xotiraning inson hayotida qanday ahamiyatga ega?
10. Xotiraning psixologik nazariyalarini bayon eting.

XXI bob. XAYOL

Asosiy savollar:

1. Xayol va xayol to'g'risida tushuncha
2. Xayol sifatleri.
3. Xayol turlari
4. Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyat
5. Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida xayol va fantaziyaning roli

Tayanch tushunchalar: xayol yoki fantaziya, orzu, xayol operatsiyalari, aglyutsinatsiya, giperbolizatsiya, sxematizatsiya, tipizatsiya, xayol fenomenlari, analitik-sintetik faoliyat.

Xayol va xayol to'g'risida tushuncha.

Biz Antarktikada, Janubiy qutbda bo'lmagan, uzoq ulkalarda tadqiqotchilarning hayotini va ishini ko'rmagan bo'lsak ham, lekin ular haqida bizning tasavvurimiz bor. Biz kosmik kemalarning Oyga va boshqa planetalarga uchishini tasavvur qilishimiz mumkin. Bu tasavvurlarni xayolimiz yaratib beradi, xotira tasavvurlaridan farq qilgan bu tasavvurlar xayol tasavvurlari yoki fantaziya tasavvurlari deb ataladi.

Xayol vujudga keltirayotgan obrazlar (tasavvurlar) faqat ongning sub-ektiv mazmunigina bo'lib qolmaydi, shu bilan birga, bu obrazlar odamlarning hayoti va faoliyatida og'zaki va

yozma nutqda ifodalanadilar; narsalarda, bo'yoqlarda, tovushiarda, she'r va proza tarixidagi adabiy asarlarda va san'atning boshqa turlarida gaudalanadi.

Xayol ong faoliyatidir, hu faoliyat ilgari biz idrok qilmagan, tajribamizda uchratilmagan narsa va hodisalarning obrazlarini mavjud tasavvurlarimiz asosida miyamizda yaratishda ifodalanadi.

Ongning boshqa funksiyalari kabi xayol ham, tarixan, avvalo odamning mehnat faoliyatida rivojlanib kelgan. Odamlar o'z ehtiyojlarini qondirmoq uchun odam aralashmasdan oq tahtat berayotgan mahsuldan ham ko'ra ko'proq mahsul olish niyatida tevarak-atrof olamni o'zgartirganlar va uni o'zlariga buysundirganlar. O'zgartirmoq va yaratmoq uchun esa istalgan narsani oldindan tasavvur qilish, shunday o'zgartirishga qanday yo'llar bilan erishishni va uning natijalarini tasavvur qilish lozim bo'lgan.

Bora-bora odamning xilma-xil ehtiyojlarini ijtimoiy, bilish, estetik va shu kabi ehtiyojlarini rivojlana borgan sari xayol ham rivojlana borgan.

Jamiyatdagi odamlarning ijodiy faoliyatida namoyon bo'layotgan xayol ham ijtimoiy hayot sharoitiga va umumiy madaniy rivojlanish darajasiga qarab, shu jamiyatdagi odamlarning asosiy intilishlariga qarab, alohida xarakter, alohida yo'nalish kasb qilaveradi.

Xayol sifatlari

Kishilarning xayoli kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziya boyligi natidan farq qiladi. Xayol kengligi voqelikning kishilar faoliyati uchun bo'ladigan doirasi bilan belgilanadi. Masalan, kishi san'at, texnika, sport, bilimga qiziqsa va ular haqida xayol qilsa, hunday kishining xayoli keng bo'ladi.

Xayolning unumdorligi biror narsaga nishatan xayolning hoyligi, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Xayol keng bo'lsa, u mazmundor ham bo'ladi. Xayol faoliyatning biror sohasida namoyon bo'ladi. Xayolning kengligi va mazmundorligi kishining bilim va tajribasiga bog'liq. Xayol kuchi kuchsiz va kuchli bo'ladi.

Kuchli xayolda odam juda tez ta'sirlanadi. Masalan, biz "O'tgan kunlar" romanini, "Shaytanat" romanlarini o'qiganimizda xayol kuchli bo'lishi natijasida ta'sirlanamiz. Ilmiy asarni, zenkarli, hikoyalarni o'qiganimizda esa xayolimiz kuchsiz bo'ladi. Qiziqishi kuchli bo'lsa, xayol ham kuchli bo'ladi. Bolalarning xayoli fantaziyaga boy bo'ladi. Mehnat faoliyati natijasida xayol sifatlari rivojlanadi. Xayol kuchi quyidagilarga bog'liq bo'ladi.

□ Xayol kuchi ehtiyoj, qiziqish, istaklarning kuchiga bog'liq bo'ladi. Masalan: faqat shu bugungi kun haqida o'ylasa, odamning xayoli kuchsiz bo'ladi.

□ Xayol kuchi hissiyotga bog'liq bo'ladi, hissiyot qanchalik kuchli bo'lsa, xayol shunchalik erkin bo'ladi. Xayol kuchi idrokka bog'liq bo'ladi. Biz idrok qilganimizda diqqat bilan idrok qilsak, xayol kuchayib, kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa, unda idrok qilsak, xayol kuchayib kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa unda idrok susayadi. Masalan, ba'zan bir xayolga berilib, atrofdagi narsalarni ko'rmaymiz, eshitmaymiz.

Xayol turlari

Xayol har xil turlarda namoyon bo'ladi: **Tasavvur xayoli**, **ijodiy xayol**, **ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol**.

Tasavvur xayoli va ijodiy xayol. Tasavvur xayoli deb, hozir yoki o'tmishda aslida mavjud bo'lsa ham, lekin bizning tajribamizda hali uchramagan va biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to'g'risida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turini aytamiz. Bu narsalarning obrazlari boshqa kishilarning aytib bergan so'zlari asosida, shuningdek, yozma va boshqa hujjatlar asosida yaratiladi.

Tasavvur xayoli jarayomda odam o'zi ko'z oldiga keltirayotgan obrazning obekti haqiqatan ham muayyan joyda bo'lganligini yoki muayyan vaqtda bo'lganligini anglaydi.

Ijodiy xayol deb, bizning tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turiga aytiladi.

Odam o'zining ijodiy xayolida o'zi biror yangi, original narsa yaratadi. Masalan, yozuvchi o'z asari uchun personajlarning tipik obrazlarni yaratayotganida uning xayoli mana shunday ijodiy xayol bo'ladi. Ixtirochining yangi mashina, yangi asbob loyihasini yaratayotganidagi xayoli mana shunday ijodiy xayoldir. Ijodiy xayolning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi. Avvalo yaratilayotgan obrazning obekti haqiqatda yo'qligi, qandaydir biron yangi narsa yaratilayotganligi anglanadi.

Orzular va shirin xayol surishlar ijodiy xayolning alohida turlaridir. Orzu ijodiy xayolning ilakdagi kelajakka qaratilgan faoliyatidir. Orzu qilish ko'nglimizga yoqadigan istiqbol obrazlarini yaratish demakdir. Yoshlardan ayrimlari kelgusida pedagog, muhandis, tokar, vrach, trak-tor haydovchi, uchuvchi va bokazo bo'lishni orzu qiladi. Shirin xayol surish muayyan bir narsaga qaratilmagan muayyan bir sistemaga ega bo'lmagan xayol jarayonidir. Shirin xayolga bo'lgan vaqtda turli obrazlar ko'z o'ngidan birin-ketin betartib o'ta beradi.

Ixtiyorsiz xayolda oldindan belgilangan maqsad bo'lmaydi, bunda iroda faol ishtirok etmaydi. Bu holda obrazlar o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Ixtiyorsiz xayol avvalo qondirilmagan shu topdagi ehtiyoj sababli tug'iladi. Masalan, odam suvsiz cho'l- biyobonda yurib, juda chanqab qolgan vaqtida uning xayolida buloq, daryo va suv kabilarning obrazlari beixtiyor paydo bo'la boshlaydi. Biror narsa yoki hodisani idrok qilish, tasavvur qilish, biror fikr, nutq, hislarning ta'siri bilan ham ixtiyorsiz xayol suriladi. Tarix, geografiyaga oid kitoblarni, texnikaga doir kitoblarni va, ayniqsa, badiiy asarlarni o'qigan vaqtda bizning ongimizda turli joylarning, voqealarning, shaxslarning va boshqa shu kabilarning obrazlari beixtiyor paydo bo'ladi.

Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyat

Yangilik elementlari, ba'zi jabbalarining qo'shimcha alomatlar bilan boyitilishi, ijo qilinishi xayolning asosiy vazifasi ekanligi g'oyasini aks ettiruvchi tendentsiya psixologiya fanida aksariyat ilmiy maktablar tomonidan tan olingan va taraqqiyot harakatlantiruvchisi sifatida qat'iy ravishda himoya qilinib kelinmoqda. Ikkinchi tendentsiya biosfera va neosfera

to'g'risidagi ma'lumotlar, tasavvurlar, ta'sirlanish, timsollar ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot davomida qaytadan tiklanish orqali xayol mahsuli sifatida saqlanib keladi, degan g'oyaga asoslanadi. Bu tendentsiyada obrazlarning tiklanishi, saqlanishi, kuchayishi yoki o'chmas iz tanqasida uzluksiz ravishda inson xotirasida, ko'z o'ngida namoyon bo'lishi, g'aydalanishi hayot va faoliyat uchun birlanichi ekanligi isbotlashga harakat qilinadi. Har ikkala tendentsiya ham xayol holatining analitik vazifasini bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, o'zaro bir-birni in'kor etish darajasiga olib bormaslikni taqozo qiladi. Shuning uchun ijodiy xayol yangi obrazlarni vujudga keltirish bilan taraqqiyotga ulush qo'shadi, yaqqol voqelik va ularning timsollar haqidagi ma'lumotlar, chizg'ilar tasviri hamda tasavvurlarini qayta tiklash orqali insoniyat bilimi, tajribasini boyitadi.

Xayol analitik holatdan tashqari sintetik xususiyatga ham ega. Xayolning sintetik holati ushbu fenomenlar orqali ifodalanadi: agglyutinatsiya (lot. Agglutinare yopishtirmoq, elimlamoq ma'nosini bildiradi) muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidan biridir; giperbolizatsiya (yunon. Huperbole ko'rsatish, kuchaytirish ma'nosini anglatadi); sxematizatsiya (yunon. "schema" obraz, shakl vujudga keltirish demakdir); tipizatsiya (yunon. "tupos" iz, chiziq degan ma'noni bildiradi).

Agglyutinatsiya fenomeni obrazlar (tasvirlar, timsollar) sintezlashuv jarayonining soddaroq ko'rinishidan biri hisoblanib, insoniyatning kundalik hayoti va faoliyatida ro'y-rost yaxlitlashtirish imkoniyati yo'q xilma-xil xislatlar, fazilatlar, sifatlar va qismlarni «qorishiq» tarzida (birlashtirilgan) shaklda aks ettiradi. Odatda agglyutinatsiya yordami bilan ionishmand xalq tomonidan yaratilgan erak timsollari, afsona tasvirlari yaratiladi yoki ayolij kompozitsiyasi to'qih chiqariladi (ettiboshli ilon ajdabo ot va qushdan iborat)

Hozirgi zamonda agglyutsinatsiyadan texnik, badiiy, san'at ijodiyoti keng ko'lamda foydalanilmoqda, chunonchi, samolet amfibiya (yunoncha amphibios ikkiyoqlama hayot kechirish ma'nosini bildiradi).

Giperbolizatsiya fenomeni xayol obrazlarini hamda tasavvur shakllarini o'zlashtirish jihatidan yaqin agglyutinatsiyaga yondosh, o'xshash psixik jarayondir. Giperbolizatsiya narsalar va jonivorlarni nafaqat haddan ziyod kattalashtirish yoki kichiklashtirish. Sxematizatsiya fenomeni xayolot (fantaziya) obrazlarini yaratish imkoniyati mavjud vositalardan biri hisoblanib, u horliqdagi narsa va hodisalarning u yoki bu alomatlari hamda sifatlarini ta'kidlashdan, shuningdek, ularga butun diqqat- e'tiborni markazlashtirishdan iborat psixik jarayondir.

Tipizatsiya fenomeni yordami bilan xayolda tasavvurlar sintezi ro'yobga chiqishim mumkin. Odatda badiiy adabiyotda tipizatsiya yoki tipiklashtirishdan keng ko'lamda foydalaniladi hamda uning yordamida ba'zi bir jabhalari bilan o'zaro o'xshash, hatto mutanosib narsa va hodisalarda aks etuvchi muhim belgilari ajratib olinadi hamda ular yaqqol obrazlarda mujassamlashtiriladi.

Xayolning individual farqlari: xayol faoliyati kengligi, mazmundorligi, kuchi va realij jihatlaridan farq qiladi.

Xayol kengligi va mazmundorligi. Xayol kengligi voqelikning kishilar xayol faoliyati uchun obekt bo'ladigan sohalari doirasi bilan belgilanadi. Tabiatning hozirgi va kelajak holati, odamlarning o'tmishdagi va kelajakdagi tarixiy hayoti, er ostidagi narsalar, osmon va undagi yulduzlar, texnika va san'at xayol faoliyati uchun obekt bo'ladigan ana shunday sohalar jumlasidandir. Xayolning mazmundorligi biror obektga nisbatan xayolda tug'ilayotgan tasavvurlarning boyligi, xilma-xilligi va ma'nodorligi bilan belgilanadi. Xayol kengligi va mazmundorligi, odatda, bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Kosmik kema vujudga keltirilganligi ham, ichiga adam tushgan shu kemaning uchishi ham inson fantaziyasi g'oyat yuksak darajaga ko'tarilganligining mahsulidir.

Xayol kuchi. Xayol kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Xayol kuchi avvalo odam ehtiyojining, qiziqishlarining va istaklarining kuchiga bog'liq bo'ladi. Faqat shu bugunligina o'ylaydigan o'zi-o'ziga mag'rur kishilarda xayol juda kuchsiz bo'ladi.

Tasavvur xayolning kuchi, jumladan, nutqda, suratlarda, bo'yoqlarda, chizmalarda, ohanglarda va boshqa shu kabilarda obrazning naqadar mahorat bilan ifodalanganligiga va gavdalantirilganiga bog'liq bo'ladi. Masalan, biz Navoiy, Bobur, Muqimiy asarlarini o'qiyotganimizda, shu asarlarda tasvirlangan ayrim personajlar, voqealar, tabiat manzaralari ko'z oldimizda yorqin va yaqqol gavdalanadi.

Xayol kuchli hissiyotga bog'liq bo'ladi, bu hissiyotlar xayoliy obrazlar tufayli tug'iladi va shu bilan birgalikda xayol faoliyatini ham rag'batlantiradi. Bu hislar qanchalik kuchli bo'lsa, xayoliy obrazlar ham shunchalik kuchli, yorqin va jonli bo'ladi. Hissiyoti kuchli, ehtirosli odamlarning xayoli ham kuchli bo'ladi. Hissiyoti kuchsiz, sovuqqon odamlarning xayoliy obrazlari odatda narsiz va zaif bo'ladi. Xayol kuchi diqqatga va tevarak-atrofdagi voqelikning idrok qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Nerv sistemasi kasallanishi natijasida, fantaziya obrazlari ko'pincha real idrok qilingan narsalardek kuchli va yorqin bo'ladi, gollutsinatsiyaga (alohislashga) aylanadi. Gollutsinatsiyaning o'zi aslida xayolning kuchli namoyon bo'lishidir. Bunday holatda xayoliy obrazlar kishining nazarida xuddi idrok qilinayotgan obrazlardek gavdalanadi. Nerv sistemasi kasallanishi natijasida ko'pincha real narsalarni ham kishi noto'g'ri idrok qiladi illuziya hosil bo'ladi.

Xayolning realligi. Xayol jarayonlardagi voqelik o'zgargan tarzda aks ettiriladi. Bunda xayol yaratayotgan obrazlar voqelikka mos kelishi, voqelikni to'g'ri aks ettirishi mumkin va bu voqelikka mos kelmasligi ham mumkin. Voqelikni to'g'ri aks ettirgan obrazlar *real obrazlar* deb aytiladi. Xayol yaratgan obrazlar turmushda gavdalantirilgan va gavdalantirilayotgan taqdirda, turmush shu obrazlarga muvofiq qayta ko'rilayotganida, yangi boyliklar yaratilayotganida bunday xayol ham real xayol bo'ladi.

Odaming kosmosga uchishi yaqin-yaqingacha ham ro'yobga chiq-maydigan orzu, deb hisoblanib kelgan edi, endilikda esa kosmonavtlari kosmosda bir necha o'n million kilometr masofani bosib o'tdilar. Endi biz Oy, Mars, Venera, Koinotning boshqa planetalariga uchishni orzu qilmoqdamiz. Bu orzu ham real orzudir. Bu orzu ham amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchisining «kelgusida qahramon bo'laman» degan orzusi va shu orzuning haqiqatan amalga oshirilganligi mana shunday real orzudir. Xayolning realligi odamning tajribasiga, uning bilimlariga, undagi tanqidiy tafakkurning qay darajada o'sganligiga va odamning turmush tajribasi bilan qay darajada aloqasi borligiga bog'liqdir. Xayolda yaratilayotgan obrazlar amalda ro'yohga chiqarilmaydigan bo'lsa yoki bu obrazlarni amalga oshirish keraksiz, bema'ni bir narsa bo'lsa, bunday xayol real xayol bo'lmaydi. Xayoli mana shunday real bo'lmagan kishilarni «quruq xayolparast», «fantazyor» deb aytadilar.

Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida xayol va fantaziyaning roli

Inson faoliyatining hamma turlarida: o'yinda, o'qishda, mehnatda, fan va ijodiyotda xayolning katta ahamiyati bor. Bolalikdagi o'yinlar asosan, bolalar fantaziyasining namoyon bo'lishidir. Bolalarning ijodiy o'yinlarida ularning organizmi kamol topadi va mustahkamlanadi, aqli, irodasi, ma'naviy va estetik hislari o'sadi.

Xayol bo'lmasa, o'qish ishlarining samarali bo'lishi mumkin emas. O'quvchilar o'zlarini bevosita idrok qilmaydigan narsalar to'g'risidagi bilimlarni xayol mavjud bo'lganidagina yaqqol tushunib, bilib olishlari mumkin. Mehnat qilish vaqtida hamisha shu mehnatdan kuzatilgan maqsad oldindan belgilab olinadi, shu mehnatning qanday natijalar berishi oldindan tasavur qilinadi. Shunday qilinmasa, ishlab bo'lmaydi. Ilmiy kashfiyotlarda va texnikaga doir ixtirolar qilishda juda katta ahamiyati bo'lgan ilmiy gipotezalar yaratishda xayolning roli, ayniqsa, katta. Gipoteza - haqiqiy sabablari noma'lum bo'lgan hodisalarning faktlarni izohlash uchun fanda qo'llaniladigan taxmindir. Odatda, gipotezalarning ko'pchiligi olimlarning xayolida ayrim faktlar yoki farazlar asosida vujudga keladi.

Odamda xayol ilk bolalik ebobidan o'sib boradi. Bolalardagi xayol ularning faoliyati arayonida taraqqiy qilib boradi: dastlab o'yinlarda, so'ngra esa o'qishda va mehnatda o'sib boradi. Bolalarda tajriba to'plana borishi hamda xotira tasavurlarining boyligi hosil bo'lishi bilan ularda xayol ham o'sib boradi va ulardagi ehtiyojning o'sishi uchun yo'l ochadi.

Psixikaning boshqa jihatlari kabi, bolalardagi xayol ham, asosan, tarbiya va o'qitishning ta'siri ostida o'sadi. Ikki yoshga kirgan bolada xayolning dastlabki kurtaklari o'yinchoqlar bilan har xil o'yinlar qilishda, qo'lga tushgan mayda-chuyda narsalar tayoqchalar, toshlar, qog'ozlar va boshqa shu kabilar bilan o'ynashda, egn-hugri chiziqlardan iborat rasm chizishda namoyon bo'ladi.

Yasli yoshidagi bolaning xayoli hali tor va mazmuni kamhag'al bo'ladi. Uning xayoli tevarak-atrofida ko'rgan narsalar doirasidan chetga chiqmaydi va asosan, o'z tevaragida, o'zi yashab turgan uy sharoitidagi narsa va hodisalarga taqlid qilish tariqasida namoyon bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada o'yin, mashg'ulot jarayonida, tarbiya ta'siri bilan tasavur boyligi ancha kengayadi, tafakkur o'sadi, yangi ehtiyojlar paydo bo'ladi, faollik ortadi, shular sababli, bu yoshdagi bolalarda xayol faoliyati ham kengroq va mazmunliroq bo'lib qoladi.

Bolalik yoshida, asosan, 5—7 yoshlarda, bolalar xayolda gajdalantiriladigan

obrazlarni (xayolda ilgari vujudga kelgan va xotirada saqlanib qolgan obrazlarni) ko'pincha xotira tasavvurlariga aynan o'xshatadilar.

Nazorat savollari:

1. Xayol qanday jarayon?
2. Xayol to'g'risida tushunchangizni bayon eting.
3. Xayol sifatlarini yoriting.
4. Xayol turlarini bayon eting.
5. Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyatning o'zi nima?
6. Bolalarning o'yin faoliyatida xayolning qanday ahamiyati bor?
7. Kattalarning ijodiy faoliyatida xayol va fantaziyaning roli qanday?

XXII bob. TAFAKKUR

Asosiy savollar:

1. Tafakkur. Tafakkur va hissiy bilish.
2. Tafakkur jarayon sifatida.
3. Tafakkurning zamonaviy nazariyalari.
4. Tafakkur operatsiyalari.
5. Tafakkur turlari.

Tayanch tushunchalar: tafakkur, ixtiyoriy tafakkur, hukm, xulosa, tushuncha, hissiy bilish, aks ettirish, abstrakt, mavhum va bayosita tafakkur, tafakkur operatsiyalari, abstraksiya, konkretlashtirish, sistemalashtirish, realistic, autistic, vizual.

Tafakkur. Tafakkur va hissiy bilish.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Tafakkurni ta'riflash. Tafakkur va hissiy bilish to'g'risida talabalarqa tushuncha berish. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyatni ajratish.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq til bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslah qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi.

Quyoshning har kun Sharqdan chiqib, G'arbga hotayotganligini hammamiz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz Erning qimirlamay turganligini, quyosh esa er atrofida aylanayotganligini ko'ramiz. Ko'p asrlar davomida juda ko'p kishilarning qilgan fikriy

faoliyati natijasida-gina, uzoq davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasidagina haqiqatda quyosh er atrofida aylanmasdan, balki er o'z o'qi atrofida va quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Demak, quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka, haqiqatga to'g'ri kel-mas ekan, voqelikning to'g'ri aks etishi, ya'ni haqiqat — bunda tafakkur yordami bilan aniqlandi. Yuqoriroq hosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonidagi hosil bo'lgan hukmlar va tushunchalar ularning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi.

Tafakkur — voqelikning umumlashtirib aks ettirishidir. Biz ayrim-ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavur qilamiz, ammo umuman stol va stul to'g'risida, umuman mehel va umuman narsa to'g'risida esa fikrlashimiz mumkin. Umu-miyash natijasida bir hukmning o'zida ayni vaqtda yakka bir narsa to'g'risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to'g'risida ham fikr yuritish mumkin. Masalan, «O'zbekistonning fuqarolari teng huquqlidirlar» degan hukmda ayrim bir kishi haqida fikr yuritmasdan, balki O'zbekistonning hamma fuqarolari haqida fikr yuritiladi.

Narsa yoki hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Hunday bir misolni olib ko'raylik. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan stoldan 20 santimetr balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillaganini (tovushi) eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarning ma'lum vaqt ichida birin-ketin sodir bo'lishini idrok qilamiz, xolos, ammo ayni vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir- biriga qonuniy bog'lanishidagi chuqurroq sabablar va hundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi. Biz hodisalarning birin-ketin o'tayotganliginigina qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo'lgani uchun ikkinchi hodisa ro'y beradi, undan keyingi hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldingi hodisa ro'y berganligi uchun (qalam stolga urilganligi uchun) sodir bo'ldi, deb aniq aytamiz va oldingi hodisaning ro'y berganligi keyin shu hodisani muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalarda ularning ma'lumi bir vaqt ichida birin-ketin sodir bo'lganligini idrok qilganimizdan tashqari, ular o'rtasida sabab-natija bog'lanishi, ya'ni qonuniy bog'lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz bu sabab-natija tariqasidagi bog'lanishning o'zini bevosita idrok qila olmaymiz, uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz (ko'rmaymiz, ushlab ko'rmaymiz, eshita olmaymiz), balki shu bog'lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo'li bilan topamiz.

Tafakkurning nerv-fiziologik asosi

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon tariqasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po'stining faoliyati mana shu jarayonning fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorlarning miyadagi uchlari o'rtasida vujudga keladigan murakkab bog'lanishlar

muhim ahamiyatga ega. Analizatorlarning bosh miya po'stidagi uchashtalari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli mazkur bog'lanishlarning vujudga kelishi yuqorida aytib o'tilganidek, tafakkurning maxsus nerv-fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signallar tizimining bog'lanishlari birinchi signal tizimidagi bog'lanishlarga tayanadi.

I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o'zaro o'tkazish jarayonida hozir bo'ladi, deb ta'kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida birinchi signal bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida dastlab umuminsoniy empirizmni va nihoyat odamning o'z tevaragidagi olamni va ummg o'zini bilish uchun oliy qurol bo'lgan oliy tafakkur voq'e bo'ladi. Tafakkurning muayyan hir narsaga qaratilishi uchun nerv- fiziologik asos bo'lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, "avvalo umuminsoniy empirizmni nihoyat, atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy oliy tafakkur zarurdir".

Tafakkurning zamonaviy nazariyalari

S. L. Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmeti- jarayon, faoliyat tarqasida namoyon bo'lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda-jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa-fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S. L. Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni sub'ekt tanlligining paydo bo'lishi deb ataladi.

A. N. Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy metodologik muammolarni o'rta tashlaydi.

P. Ya. Galperin fikriga ko'ra, tafakkur-bu orientirlash tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya'ni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yachishda sub'ektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiriladi. P. Ya. Galperin tafakkurning boshqa jihatlarni o'zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A. V. Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi. Yuqoridagi mualliflardan o'laroq, A. V. Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mavjudligini dafillab ko'rsatadi.

Tafakkur atrof-muhitdagi voqealarni nutq yordami bilan bivosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri

Z.I.Kalmikova o'z tadqiqotlarida tafakkurni produktiv va reproduktiv turlarga ajratib o'rgangan edi, qisqa vaqt birligi ichida yangi original fikrlar yaratish yoki muhim ilmiy, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv tafakkur deb ataladi. Reprodktiv tafakkur esa passiv, tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga va "tayyor holda" undan foydalanishga qaratilgan insonning hish faoliyati ko'rinishidir.

Fazoviy tafakkur muammosi atoqli rus psixologi B.G.Ananov va uning shogirdlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, keyingi yillarda hu muammo yuzasidan tanikli psixolog I.S.Yakimanskaya tomonidan kasb-hunar kolleji o'quvchilarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fazoviy tafakkur deganda narsa va hodisalarning fazoda rasional joylashishi, zamon va makon munosabatlarini, murakkab bog'lanishlarini adekvat ravishda aks ettirishdan iborat fikr yuritish jarayoni tushuniladi, tasavvurlar, xotira va xayol tasavvurlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Tafakkur operatsiyalari

Tafakkur qilish operativ jarayondir.

Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiydastirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash — shunday bir aqliy operatsiyadirki, hu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki jarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

Taqqoslash fikr qilish jarayoni bo'lib, hu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o'xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo'lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita o'xshashlik va tafovutni topish lozim bo'lgan hollarda paydo bo'ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi narsaga solishtirib ko'rilayotganda, masalan bir qalamni ikkinchi qalamga, o'lchov ebizig'ini taxtaga va shu kabilarga solishtirib ko'rilayotganda sodir bo'ladi. Biz masofani santimetrli lenta bilan o'lchayotganimizda, og'urlikni tortib ko'rayotganimizda va boshqa shu kabi hollarda taqqoslash jarayoni sodir bo'ladi. Taqqoslash tasavur qilinayotgan yoki o'ylanilgan narsalarni bir-biriga fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan ham bo'ladi. Masalan, biz o'zimiz turgan binoni boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin.

Analiz — narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo'lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo'lish uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni biridan ajratib olish mumkin. boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin.

Sintez — analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon

objektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kuzgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari, sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda birlashtirilganda, ya'ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo'ladi. Kislorod bilan vodorodning kimyoviy birlashishi natijasida suv hosil bo'ladi. Mana shu va shunga o'xshash hollarning hammasida sintez fikr qilish jarayonlarida va ish-harakatlarda sodir bo'ladiki, bu ish-harakatlar natijasida bir butun, yaxlit moddiy narsa hosil bo'ladi.

Analiz singari, sintez ham, o'qish jarayonida katta o'rin tutadi. Masalan, o'qishga o'rganish vaqtida tovushlar va harflardan bo'g'mlar, bo'g'mlardan so'zlar, so'zlardan gap tuziladi. Mana shuning o'zi sintezdir. Adabiy asarlardagi ayrim qahramonlarning yoki tarixiy arboblarning qilgan ishlarini, fikrlarini, hislarini tasvirlash va analiz qilish yo'li bilan hamda sintez qilish natijasida shu arboblarning, shu qahramonlarning xarakteristikasi hosil bo'ladi.

Abstraksiya - shunday fikr tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz. Abstraksiya jarayonida ob'ektdan ajratib olingan belgi, alomatning o'zi tafakkurning mustaqil ob'ekti bo'lib qoladi. Abstraksiya operatsiyasi tahlil natijasida vujudga keladi. Masalan, sinf devorini tahlil qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya'ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to'g'risida emas, balki devorning og'ligi to'g'risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin. Kishilar quyosh, oy, yulduz, elektr, olov ba'zi planetalar, ayrim tosh va hokazolarning ko'z o'ngilarida yoritishni kuzala turib ularning bitta umumiy belgisini, ya'ni yoritishni fikran ajratib olib, umuman yoritish to'g'risida muhohaza yuritiladi.

Umumlashtirish - tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o'xshash muhim belgilarning shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo'yicha yagona yo'nalishdagi nazariya mavjud emas. Shuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlarga bo'lib o'rganadilar. Shuningdek, maktab ta'limini qaysi umumlashtirish usuli asosida amalga oshirish to'g'risida olimlar turlicha nuqtai nazardan yondashadilar.

S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov tomonidan ta'limda nazariy jihatdan umumlashtirish usulini yoqlah chiqsalar. N.A.Menchinskaya, D.N.Bogoyavlenskiylar ham nazariy, ham amaliy usulni qo'llashni tavsiya etmoqdalar. Ammo o'quv faoliyatining turli-tumanligi dars jarayonida har xil umumlashtirish usullaridan foydalanish kerakligini taqazo qiladi.

Konkretlashtirish - hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg'iz ob'ektlarga tadbiq qilish bilan

ifodalangan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi. Voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglash yetadi. Insonlar dastavval tevarak atrofini aniq belgilariga asoslanib, aniq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyak tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu boisdan to hozirgacha kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib isoblanadi.

Klassifikatsiyalash - bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va hoshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimidir. D.I.Mendeleevni "Elementlarning davriy tizimi" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarning bir tipligiga va hoshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirish chiqqan. O'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko'pchilik narsalarni guruhlar, turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik narsalarni hodisalarni guruhlar, turkumlarga bo'lish klassifikatsiyalash yoki turkumlarga bo'lish deb ataladi.

Sistemalashtirish - tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o'rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlarga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o'tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo'la oladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo'la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasi.

Tafakkur shakllari

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odamda nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalaniib keladi.

Hukmlar. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi. Hukmlar ob'ektiv voqelikni aks ettirilishiga qarab chin yoki xato bo'ladi. Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o'zaro bog'liq bo'lgan belgilar, alomatlar hukmlarda bog'liq ravishda ko'rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsalar hukmlarda ajratib ko'rsatilsa bu chin hukm deb ataladi. Masalan, metallar elektr tokini o'tkazuvchidir; metallar qizdirilganda kengayadi, degan chin hukmlardir. Chunki elektr tokini o'tkazish qizdirilganda kengayishi metallarga xos xususiyatdir.

Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm xato hukm deb ataladi. Masalan, hozir tashqarida yomg'ir yog'yapti; yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukmlar doirasiga kiradi. Dorliqdagi narsalar, hodisalar va voqelikni miqdoriga ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa va munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

- Hukmlar sifatiga ko'ra: tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm;
- Hukmlarning miqdoriga qarab: yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukmga;
- Hukmlarning munosabatiga ko'ra: shartli, ayruvchi, va qat'iy hukmlarga;
- Hukm taxminiy ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin.

Xulosa chiqarish Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz. Masalan, har qanday harakat materiya harakatidir, issiqlik harakat shaklidir, degan ikkita hukmni olaylik. Bu ikki hukmdan, demak issiqlik materiya harakatidir degan yangi hukm chiqariladi. Bunda birinchi hukm hamisha umumiy hukm bo'lib, ikkinchi hukm yakka hukm bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, mulohaza yuritish ham xulosa chiqarish ham vaqelikm bevosita bilishning asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan oldingi ikki hukmga asoslamb, uchinchi hukm chiqariladi. Mazkur xulosani bevosita tekshirib ko'rishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Shu sababdan xulosa chiqarishda fikr o'rtasidagi shunday bog'lanish natijasida bir yoki undan ortiq hukmlardan uchinchi hukm keltirib chiqariladi.

Xulosa chiqarish uch turga bo'lmadi: induktiv, deduktiv va analogiya.

Tushunchalar.Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi. Tushuncha deganda biz narsa va hodisalarning eng muhim va eng asosiy xususiyatlarini aks ettirishni tushunamiz. Tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. Shu sababli tushunchaning mazmunini ochib berish uchun bir qancha hukm yurtishga to'g'ri keladi. Masalan, odam ongli mavjudoddir degan tushuncham oladigan bo'lsak, bu yerda odamning eng muhim xususiyati uning ongliligi ekanini qayd qilinyapti.

Tushunchalar odamning turmush tajribasi va bilimlarining ortishi jarayonida tarkib topa boradi. Ana shu jihatdan olganda maktabdagi o'qish jarayonida holada asosan tabiat va jamiyat hodisalari haqida tushunchalar tarkib toptirishdan iboratdir. Demak, katta odamlarga nisbatan bolalarda hali tushunchalar juda oz bo'ladi.

Tafakkur turlari

Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehtiyojlari xatti-harakat motivlari narsalarga qiziqishlar, intilishlar, mayllar, aqliy qobiliyatlari, hatto faoliyatlari ham turli tumandir. Xuddi ana shu boisdan ularning tafakkuri ham har xil holatlarda vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo'ladi.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikasiya qilinadi.

Professor E.G'.G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi:

Shakliga ko'ra: ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, Topshiriq xarakteriga ko'ra: nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy

Fikr yoyiqligiga ko'ra: konkret, abstrakt, realistik, autistik intuitiv, diskursiv Fikrning originallik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy

V. Karimovaning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilingan.

Shakliga ko'ra: ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy Ko'riladigan masalaning

xarakteriga ko'ra: nazariy, amaliy Ijodiylik elementiga ko'ra: konvergent, divergent

Yangiligi va noyobligiga ko'ra: reproduktiv, produktiv (ijodiy)

Shuningdek, ayrim adabiyotlarda tafakkur klassifikatsiyasi quyidagi tarzda ham ifodalanadi.

Shakliga ko'ra : ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, so'z-mantiqiy Topshiriqni hal qilish usuliga ko'ra: Ijodiy, amaliy

Ijodiylik darajasiga ko'ra: diskussiv, intuitiv Yangiligi va noyobligiga ko'ra: mahsuldor bo'lmagan, mahsuldor

A.V.Petrovskiy muharrirligida chop etilgan, "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkurni quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi: ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mavhum nazariy tafakkur turlari va boshqalar.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turi. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turpan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan yechganlar, keyinchlik unda nazariy faoliyat ajralib chiqqan, amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bir-biri bog'langandir.

Ko'rgazmali-harakat tafakkur turiga psixologik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-harakat tafakkuri odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytda fikrlash jarayonini nazarda tutadi. "Psixologik lug'atda" ko'rgazmali harakatlil tafakkur amaliy tafakkurning bevosita idrok qilayotgan narsa va hodisalar haqida harakatlilar yordami bilan amalga oshiriladigan fikrlash turi, deb tavsiflanadi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur turi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Psixologik lug'atda" ta'riflanishicha u konkret tafakkurning bevosita idrok qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat bo'lgan turi. Professor E.G'oziev fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi ko'rgazmali- obrazli tafakkur deb ataladi. V.Karimova tomonidan ko'rgazmali-obrazli tafakkur esa ko'rgan kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chug'da ularning mohiyatini umumlashitirilib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi. Tafakkurning mazkur ko'rinishi 4-7 yoshgacha bo'lgan holalarda namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichiga o'tgandan so'ng ham saqlanib qoladi, lekin u o'zining yetakchi rolini yo'qota boshlaydi.

Tafakkur faolligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. **Intuisiya** deb mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satidan, kutilmaganda hal qilib qolishi jarayoniga aytiladi.

Ko'pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni yechish jarayoni. Bundan tashqari ixtiyoriy tafakkurga mantiqiy yoki nazorat (kontrol) tafakkuri ham kiradi.

Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin. Lekin bu holda ular ixtiyoriy

tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish holari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr yuritayotganini yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga javob topadiganday, shinni his-tuyg'ularni boshdan kechirayotiganday bo'ladi, shuning uchun ko'pincha "tilimning uchida turibdi" deyiladi. Odamlar qandaydir ma'n yoki muammo, masala ustida bosh qotirib, o'tirganlarida fikr yuritish mutlaqo beixtiyor ro'y berib qoladi va ular asosiy topshiriqni bajarishdan uzoqlashtiradi.

Fikr yuritilishi lozim bo'lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo'lsa, bunday tafakkur **konkret tafakkur** deb ataladi. U o'z navbatida yaqqol-predmetli va yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi. Agar fikr yuritish ob'ekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-predmetli tafakkur deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur yaqqol-obrazli tafakkur deb ataladi.

Abstrakt tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oily matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan g'oyat keng ma'no anglanishi bilan qator narsa va hodisalar to'g'risida, abstrakt tafakkur yordamida mulohaza borliq to'g'risida cheksizlik, sifat, miqdor, tenglik to'g'risida, go'zallik yuzasidan mavhum abstrakt mulohaza yuritish mumkinligi bilan farq qiladi.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur **nazariy tafakkur** deb ataladi. Tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yoritib borish va shu bog'lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo'li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida izohlanayotgan narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar, jism va predmetlar, umuman butun voqelik ma'lum turkumdagi tushunchalar qatoriga kiritiladi.

Nazariy tafakkur tufayli voqelikdagi umumiy va muhim bog'lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab olamiz. Shuning uchun quyosh va oy tutilishi, yulduzlar tizimini harakatini, ob-havo ma'lumotlarini, yer qimirlash o'choqlarini, voqea sodir bo'lishini ancha ilgari aytib berishimiz mumkin. Shu sababdan nazariy tafakkurni oldindan ko'rish imkoniyatini yaratadigan **umumlashgan tafakkur** deb ataydilar.

Ijodiy tafakkur - murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrjijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani echish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo'lgan vazifa ko'pincha ifodalanishi shart bo'lgan maqsad ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma'lum voqelikni topishga gumon va hayajon, shubha qislaridan xalos etishga qaratilgan maylidir.

Psixologiya fanida tafakkurni **realistik va autistik** turlarga ajratiladi. **Realistik**

tafakkur qurshab olgan atrof-muhitni o'rganishga, aks ettirishga qaratilgan fikr yuritish bo'lib, u mantiqiy qonun va qoidalar yordami bilan voqelikni in'ikos qiladi. **Autistik tafakkur** insonning hohish va istaklarini amalga oshirish bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tafakkur harakatlari o'sha shaxsning o'z tilaklarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan fikr yuritilishdan iborat individuallik yoki individualistik tafakkurdir.

Masala yechimini qabul qilishga va informasion tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan fikr yuritish **vizual tafakkur** deyiladi. Vizual tafakkur maqsadga muvofiq xarakatlar yoki anglanilmagan operatsiyalar, chunonchi obrazlar manipulyatsiyasi va transformatsiyasi yordami bilan amalga oshiriladi va "aqliy anglamish"dan namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Tafakkur nima?
2. Tafakkur va hissiy bilish haqidagi bilimlaringizni bayon eting.
3. Tafakkur qanday jarayon?
4. Tafakkurning shakllarini yoriting.
5. Tafakkurning zamonaviy nazariyalari borasida qaysi olimlarning qarashlarini bilasiz?
6. Tafakkur operatsiyalarisanang va yoriting.
7. Tafakkur turlarini sanang va izohlang.

XXIII bob. NUTQ

Asosiy savollar:

1. Nutq haqida tushuncha
2. Nutq faoliyati
3. Nutq turlari
4. Og'zaki nutq turlari
5. Yozma nutq turlari

Tayanch tushunchalar: noverbal nutq, imo-ishora, mimika, pantomimika, dialogik nutq, tovushli nutq, exologik (aks-sado), signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar), verbal nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, monologik nutq, poliologik nutq, tashqi nutq, ichki nutq.

Nutq haqida tushuncha

Inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon vakelajakka oid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berishim mumkin. Odamdagi shaxsiy individual tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bog'liqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izohlanib, u oddiy qilib tushuntirilganda so'z va belgilar tizimi hamda yiq'indisidan iboratdir. Belgilar va ularning ahamiyati insonning yuksak psixik funksiyalari (ya'ni idrok, xotira, tafakkur, xayol)ning vositasidir. Odatda belgilar turli-tuman bo'lishidan qat'iy nazar ularning

eng muhimi- bu soʻzdir. Har bir soʻz maʼlumoi, xabar, axborot vazifasini bajaradi va muayyan mazmunni oʻzida aks ettiradi.

Tilning asosiy funksiyalari

- 1) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va oʻzlashtirish quroli tarzida vujudga keladi;
 - 2) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon boʻladi;
 - 3) til intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qiladi(muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, echishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).
- Odam oʻzi xoh amaliy xoh aqliy harakat qilishdan qatʼiy nazar unirejalashtirib, buning echimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarini hal qilishning asosiy quroli til hisoblanadi.

Nutq faoliyati

Nutq faoliyati- odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani oʻzlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya oʻrnatish, oʻz shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. N.L Jinkin boʻyicha nutq mexanizmlari quyidagicha izohlanadi:

- Biron fikrni nutq vositasi yordami bilan bayon qilishdan oldin, maxsus kod orqali bu fikrning asosini tuzamiz- u programmalashtirish mexanizmidir.
- Undan keyin rejalashtirishdan gapning grammatik tuzilishiga oʻtish bilan bir guruh mexanizmlar keladi.
- Esda olib qolish soʻzlarning grammatik xususiyatlarini amalda qoʻllashni taʼminlovchi mexanizm.
- Bir xil tipdagi tuzilishdan boshqa tipdagi tuzilishga oʻtish mexanizmi. Programma elementlarini grammatik tuzilishga yoyish mexanizmi.
- Soʻzni maʼnosiga qarab qidirishni taʼminlovchi mexanizmlar.
- Sintagmalarni barakat jihatidan programmalashtiruvchi mexanizmlar.
- Nutq tovushlarini tanlash va barakat programmasidan tovushlarni oʻtish mexanizmlari.
- Nutqni amalga oshirishni taʼminlovchi mexanizm.

Nutqning rivojlanishi quyidagi xususiyatlari va turlari

Nutqning rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga

- a) gugulash.
- b) gʻudurlanish(soxta soʻzlar).
- v) paradigmatic fonetika(1,3 - 1,5 yoshgacha) - buvi, buva, oʻtir, oʻtirdioʻtiradi va h.k.
- g) nutqning vaziyatbopligi(I.Piaje- situativ nutq).
- d) nutq egotsentrizmi(I.Piaje- egotsentrik nutq).

Nutq turlari

Nutq turlarining psixologik tavsifi F.G'.G'oziev fikricha, nutqning muayyan asoslariga suyangan holda noan'anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson-texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilib, u noverbal va verbal turlarga bo'linadi.

Noverbal nutq genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so'zsiz nutq turlari paydo bo'lgan bo'lib, u o'z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgan. Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin: imo- ishora, mimika, pantomimika, exologik, ya'ni aks-sado, signifikatsiya, daktologik (barmoq nutqi).

Imo-ishora inson hayot va faoliyat ko'rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Etnikstereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma'lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma'noli, mazmunli nutq turi imo- ishorali nutq deyiladi. Masalan, o'zheklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosib siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma'noni hulg'orlarda bosibni sarak-sarak qilish anglatadi.

Mimika yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o'zgalar fikriga javob qaytarish jarayonida shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo'luvchi noverbal nutq (tabassum, jilmayish, miyiq'ida kulish, lab qisish va h.k.) turidir.

Pantomimika yuz gavda harakatlari, tana a'zolari, qaddi-qomat yordam bilan fikrlarni uzatish, syujetli, qoidali, ma'noli, dramatik kechinmali no-verbal nutq turidir. U o'z mohiyati ko'lamini bilan mimikadan ustuvor xususiyatga ega bo'lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmalaryuzasidan o'zgalarga ma'lumot uzatish tarzida hukm surish, yumor hissini, qo'rqinch tuyg'usini, zahmat obrazini, dahshat kechinmasini o'zida aks ettirib, ko'pinch kommunikativ funktsiyani ijro etadi, hissiy aloqa o'rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta'minlanadi. Exologik yoki sado deganda ayrim his-hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi, tabiiy to'nsiqlarga unilib qaytuvchi aloqa vositasi tushuniladi.

Noverbal turkumga kiruvchi signifikatsiya boshqalardan o'z tuzilishi, mazmuni, shakli bilan keskin ajralib turib, u aniq shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy yuklamani o'zida aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatli noverbal nutq turidir. U shartli belgilar, signallar, modellar shaklida ifodalanishi mumkin. Har bir signal o'z ko'lamini, takrorlanish sur'ati, tempi, chastotasi bilan muayyan ma'lumot uzatish yoki qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, shartli alomatlar negizida mazmun yoki mohiyat yotadi. Morze alifbosi va shunga o'xshash hozirgi zamon aloqa qurilmalari qo'l yordami bilan (asbobni bosish orqali) xabar uzatishga yoki qabul qilishga mo'ljallangan.

Hozirgi zamon ratsiyalari ham xuddi shunga o'xshash kommunikatsiya quroli vazifasini bajaradi. Noverbal nutqning yana bir turi daktologik (barmoq) nutq deb atalib, u inson tana a'zolari, imo-ishoralar, mimika, xullas hissiyot yordami bilan muomala o'rnatishga qaratilgan aloqa vositasidir. So'z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma'noli qo'l yuz harakatlari, ayrim hayajonli sadoga, qahr-g'azab, iliq tabassum, qahqahaga ko'chirilib, bunda harakatning takrorlanishi axborot mazmunini boyitadi, kuchaytiradi, ma'lumotlar

uzluksizligini ta'minlab turadi.

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) og'zaki;
- 2) yozma;
- 3) monologik;
- 4) dialogik;
- 5) polilogik;
- 6) tashqi;
- 7) ichki;
- 8) ekspressiv;
- 9) impressiv;
- 10) lakonik (qatra, yig'iq);
- 11) epik (yoyiq);
- 12) affektiv (jahol holatidagi)

O'g'zaki nutq turlari

Og'zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo'lgan nutq turidan biri hisoblanib, u shartli ravishda quyidagi nutq ko'rinishlarida ifodalanaadi: monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahol). Og'zaki nutq pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqatashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalarini, qonunlarini, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanadi. Kommunikativ xususiyatli axborotlar oddiy xabar, so'roq, undov ma'nosini anglatuvchi ma'lumotlar og'zaki nutqning murakkab hamda rang-barang tuzilishga ega ekanligidan dalolat beradi. Og'zaki nutq o'zining jarangdorligi, ta'sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatishdagi ixchanligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi uning keng qirrali ekanligini bildiradi. Monologik nutq og'zaki nutqning dastlabki turi bo'lib, u yakka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asoslangan holda aks ettiruvchi, uning o'ziga qaratilgan (egotsentrik), ta'sirlanishini ifodalashga va axborot uzatishga mo'ljallangan nutq turidir.

Dialogik nutq ikki shaxs o'rtasida namoyon bo'luvchi, axborot uzatishga va qabul qilishga mo'ljallangan nutq turidir. Uning monologik turidan farqlanishi fikr mohiyati nutq faoliyati qatnashchilarida anglangandan keyin u yoki bu shaklda qisqartirish imkoniyatiga ega.

Polilogik nutq deb bir nechta kishilar bilan amalga oshirishga mo'ljallangan, triada va poliada negiziga quriluvchi, axborot uzatish va qabul qilishga yo'naltirilgan, bahs tarkiblari ishtirok etuvchi og'zaki nutq turiga aytiladi. Artikulyatsion apparat orqali vujudga keluvchi, verbal holatlarda aks etuvchi, o'zgalarga yo'naltirilgan, har xil xususiyatli vaziyatlarda namoyon bo'luvchi nutq tunga tashqi nutq deb atalib, unda tilning barcha qoidalarini va qonuniyatlarini mujassamlashtirgan bo'lib, u uzatish va qabul qilish, idrok etish

vatashunishdan iborat muomala quroli, vositasi vazifasini ijro etadi. Muayyan axborotlarni tartibga keltirish, g'oyalarni yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo'ljallangan, lekin latent davridagi ma'lumotlar majmuasidan tuziluvchi nutq turi ichki nutq deyilib, uning muhim xususiyatlaridan biri- bu ko'lam jihatdan tashqi nutqdan kengroq ekanligidir. Yana bir xususiyati esa tafakkur mexanizmi funksiyasini bajarishidir.

Ekspressiv nutq deganda axborotlar ichki mohiyatini tashqi his-hayajontarkiblari bilan kuchaytiruvchi, shaxslararo munosabatni yaqqol ifodalashini aks ettiruvchi, ovozli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turi tushunilib, u o'zining tezkorligi va vaziyat bopligi bilan boshqa nutqturlaridan ajralib turadi.

Ichki kechinmalar: shaxsiy fikrlash bilan uyg'unlashishi tufayli fikriy bog'lanishni vujudga keltiruvchi, holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga esa **impressiv nutq** deyiladi. Millat va elatlarning til boyligi maqollar, donishmandliklar, hikmatlar, matallar sifatida shakllangan, yuksak mantiqiy yuklamaga ega bo'lgan yig'iq nutq turi lakonik, ya'ni yig'iq, qatra nutq deyiladi. Masalan, «Etti o'lchah- bir kes», «Sabming tagi- sariq oltin».

Affektiv nutq turli omillar ta'sirida birdaniga vujudga keluvchi, jahlning mahsuli bo'lib, bunda u to'saldan suhbatdosh, raqib tomonga uzatiluvchi, o'la ta'sirchan, xavfli, ruhiy nishon vazifasini bajarib, zarbasi jihatidan alternativi yo'qligi bilan boshqa nutq turlaridan keskin ajralib turadi. Jahl, qasos, alam, tajovuz kechinmalarni o'zida aks ettirib, o'tatanglik, zo'riqish(stress) mahsuli bo'lib hisoblanadi («Jahl kelganda- aqlketadi»; «Hissiyot bilan emas, balki aql bilan ish tut»).

Yozma nutq turlari

Yozma nutq insoniyat tarixining taraqqiyot bosqichida paydo bo'lib, hozirgacha u o'z rivojlanishida davom etmoqda. E.G' G'oziev ta'rificha, tilning barcha qoidalariga(orfografik, morfologik, sintaksik, leksik, orfoepik, lingvistik, fonematik, fleksiv va h.k.), qonuniyatlarga, mexanizmlariga(jonli ifodalarni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda, muayyansizli alomatlar(grafiklar) yordamida shakl, tuzilish, ma'no, mazmun va mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutqturi yozma nutq deyiladi.

Yozma nutq turlari: a) monologik(drama), b) dialogik(badiiy asar janrlarida), v) ichki, g) lakonik(yig'iq, qatra), d) epik(yoyiq, yirik roman, qissa va boshqalar). Yozma nutqning monologik va dialogik turlari badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, og'zaki nutqdagidan farqli o'laroq til boyliklarigabevosita asoslanib, yangiliklar yaratish, ijod qilish so'zlar orqali mohiyat kasb etadi, u yoki bu shaklda tartibga keltiriladi. Lakonik(yig'iq, qatra) nutq ham og'zaki nutqdagiday ma'no kasb etsa, epik(yoyiq) nutq yirik asarlar, monografiyalar mohiyatini to'laqonli aks ettirish bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi.

Nutqning buzilishi. Bosh miyaning organik zararlanish kasalliklari, jarohatlarida, kalla chanoq suyaklari shikastlanishida, isteriyalarda nutqning buzilishi kuzatilib, u afaziya deyiladi. Afaziyaning bir necha turlari farqqilinadi, ularning ko'pgina umumiy va bir-biridan

farq qiladigan xususiyatlari ham mavjud. Afaziya bilan og'riqan bemorlarda so'zlar va ularni tashkil etuvchi nutq tovushlarini to'g'ri tanlash buziladi, shuningdek, mustaqil nutqning grammatik tuzilishi ham buziladi. Bunday bemorlarning nutqi kambag'al, ishlatiladigan so'zlar zahirasi ancha cheklangan bo'ladi. Bir xil so'zlarni va bo'g'inlarni boshqalari bilan almashtirish kuzatilib, gapning ayrim qismlari o'rtasidagi bog'lanish buziladi. Shuningdek, o'qish va yozishning yomonlashuvi ham kuzatilishi mumkin.

Afaziylar motor, sensor, amnestik, totalafaziyalarga ajratiladi. Motor afaziya so'zlarni talaffuz qilishga qobiliyatsizlik yoki bu qobiliyatning sezilarli ravishda pasayishidir. Bemorlar gapirishga harakat qiladilar, lekin faqat bir necha so'z yoki bo'g'inlarigina aytib oladilar. Bunday buzilish kalla chanoq'ining peshona qismi shikastlanganda kuzatilib, bunda bemorlar o'zlariga qaratilgan nutqigina tushunadilar. Sensor afaziya atrofdegilar nutqini yomon tushunish bilan xarakterlanib, yozuvda qo'pol buzilish kuzatiladi. Sensor afaziya bilan og'riqan bemorlarda o'zlariga nisbatan qaratilgan nutqni tushunish ko'proq yomonlashgan bo'ladi. Ular ko'pincha o'zlariga berilgan savollarni anglash u yoqdatursin, hatto oddiy imo-ishoralarni ham tushunmaydilar. Bunday bemorlar erkin gapiradilar, lekin ancha buzilgan va birmuncha tushunarsiz bo'lgan nutqda bir xil so'z va bo'g'inlarni boshqalari bilan almashtirishga ko'p marta yo'l qo'yadilar. Sensor afaziya uchun nutq beqarorligi (logoreya) xosdir. Amnestik afaziya narsalarning nomlarini aytish qobiliyatining buzilishida namoyon bo'ladi. Kerakli so'z ko'pincha bevosita so'zning narsa bilan bog'liqligidan emas, balki bemorning nutqi kontekstini anglashidan paydo bo'ladi.

Total afaziya nutqning barcha turlari yo'qolishi bilan xarakterlanadi. Bemor gapirishga harakat qilib, ba'zan u yoki bu tovushni talaffuz qilishim mumkin. Bu holat bosh miyada qon aylanishi buzilganda va atrofikshikastlanishda kuzatiladi.

Nazorat savollari:

1. Nutq haqidagi tushunchangizni bayon eting
2. Nutq faoliyati deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqning qanday turlarini bilasiz?
4. Og'zaki nutqning turlarini yoriting.
5. Yozma nutq turlarini yoriting.
6. Afaziya nima?
7. Afaziyaning qanday turlarini bilasiz?

V BO'LIM. HISSIY-IRODAVIY SOHA

XXIV bah. HISSIYOT

Asosiy savollar:

1. Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha
2. Hissiyotning fiziologik asoslari.
3. Hissiyotning ifodalanishi

4. Hissiyotning shakllari

5. Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislari.

Tayanch tushunchalar: his-tuyg'ular, affektlar, kayfiyat, stress, g'azablanish, nafratlanish, Jirkanish, qo'rquv, uyalish, ehtiros, emotsiya, salbiy his-tuyg'ular, ijobiy his-tuyg'ular.

Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha

Kishi biror narsani idrok va tasavur qilganida, Eslah qolganida va esga tushirganida, fikr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli (xush) yoki yoqimsiz (noxush) holatni kechiradi, bu holat huzur qilish yoki ranjishdan, maza qilish yoki qiynalishdan iborat bo'ladi. Bu kechinmalarda odamning o'z tevarak-atrofidagi narsalarga (hodisalarga), odamlarga va o'ziga nisbatan subektiv munosabati ifodalanadi. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning (emotsiyalarimizning) birinchi belgisi va elementidir.

Yoqimli kechinmalarda odamning voqelikdagi ayrim narsalarga, hodisalarga va o'ziga nisbatan ijobiy munosabati ifodalanadi, yoqimsiz kechinmalarda esa bunga odamning salbiy munosabati ifodalanadi. Shuning uchun ham subektiv kechinmalardan iborat bo'lgan hissiyotlar ijobiy va salbiy hissiyotlar deb ajratiladi. Hissiyotlarga shaxsiy nuqtayi nazardan beriladigan baho bilan ijtimoiy nuqtayi nazardan beriladigan baho hamisha bir-biriga muvofiq bo'lmaydi. Subektiv ravishda noxush, kishini ranjitadigan kechinmalar tariqasidagi ko'pincha hissiyotlar, ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda, ijobiy hissiyotlar hisoblanadi. Masalan, kishidagi uyalish vijdon azobi yoqimsiz va hatto qattiq azob hissi bilan kechiriladi. Lekin ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu hislar yuksak, ijobiy axloqiy hislardir.

«His» degan termin ko'pincha «sezgi» degan termin bilan bir ma'noda ishlatiladi. Masalan, ba'zan: «Men yorug'likni his qilyapman, men issiq-likni his qilyapman» deyish o'rniga: «Men yorug'likni sezyapman, men issiqlikni sezyapman» deb ham aytishadi. Shu maqalgacha biz psixologiya-da ham sezgi organlari deyish o'rniga his qilish organlari deb aytishga odatlanib qolganmiz.

Sezgi bilan hisni bir-biridan farq qilish kerak. Sezgi odamdan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi, u narsalar va hodisalarning in'ikosidir. Hissiyot esa odamning shu narsalarga va hodisalarga munosabatini ifodalovchi tuyg'ular, kechinmalardir.

Hissiyotning fiziologik asoslari

Emotsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar, hisoblanadi. Emotsional kechinmalar chog'ida qon aylanishi o'zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi, odam esa qizaradi, oqaradi yoki bo'zaradi, nafas olish ham o'zgaradi: nafas olish tezlashadi, yoki susayadi. Emotsional jarayonlarning yurak faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi shu qadar ayon sezilib turadiki, hatto oddiy tilda «his» bilan «yurak» degan so'z bir-biriga o'xshash ma'noda ishlatiladi.

Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi, avvalo, hosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayonlardir.

Bosh miya po'sti hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, miya yarim sharlari olib tashlangan hayvonlar eng arzimas sabablar bilan muttasil va shu bilan birga kuchli ravishda hayajonga kelaveradi. Miya po'sti zaiflangani natijasida bet muskullari falaj bo'lgan kishilar har xil narsalarga, hatto juda arzimas narsaga ham hamisha va qattiq kula beradilar.

Hissiyotlar bosh miya po'stining ostki qismlari faoliyati bilan ham bog'langandir. Jumladan, ko'rish bo'rtig'i hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazlaridir. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, ko'rish bo'rtig'ining shikastlanishi natijasida, hissiyotni ifodalovchi yuz harakatlari ham izdan chiqadi. Bosh miya po'sti ostidagi markazlardan mahrum bo'lgan hayvonlarda hissiyotlarni ifodalovchi harakat belgilari bo'lmaydi.

Hissiyotning ifodalanishi

Psixik jarayonlarning hammasi organizmning tashqi o'zgarishlarida va harakatlarida ma'lum darajada ifodalanadi. Lekin odamning hissiyotlari ayniqsa, yaqqol ifodalanadi.

Rizning emotsional kechinmalarimiz mimikada, gavda harakatlarida va imo-ishoralarda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Kishining emotsional kechinmalari fiziologik jarayonlarda yig'i, kulgi va boshqa shu kabilarda ham namoyon bo'ladi.

Hissiyotlarning harakatlarda, mimikada, gavdada, imo-ishoralarda va ma'noli ko'z qarashlarda, boshqa shu kabilarda mana shu tariqa tashqi ifodalanishlarining hammasi suratga va kinoga olish yo'li bilan qayd qilinishi mumkin.

Kishining emotsional kechinmalari uning nutqida ham ifodalanadi. Nutqning tezligi va intonatsiyasi o'zgaradi. G'amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi nutq vaqtida shu nutqni so'zlovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, nutqning o'zi susayib qoladi, so'zlayotgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi. Xursandlik holatida bir nima so'zlayotgan kishining nutqida bunga butunlay teskari holat namoyon bo'ladi. Hissiyotlarning mana shu tashqi ifodalari, odatda, ixtiyorimizdan tashqari namoyon bo'ladi.

Hissiyotlar paydo bo'lish tezligi, kuchi va davomiyligi (barqarorligi) jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Hissiyotning paydo bo'lish tezligi. Emotsional kechinmalar turli hollarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyotlar juda tez to'satdan, darhol paydo bo'ladi.

Hissiyotning kuchi. Emotsional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotning kuchi, avvalo, yoqimli yoki yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Shuning uchun ham «juda xursand bo'ldim», «unchalik yoqmadi» va shu kabi iboralar ishlatiladi. Subektiv jihatdan olganda, hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros ila kechirayotganligi bilan ham belgilanadi.

His-tuyg'ularning barqarorligi. Emotsional kechinmalar qanchalik uzoq davom etishi (barqarorligi) bilan ham bir-biridan farq qiladi. Paydo bo'lgan kechinmalar uzoq vaqt davom etilsa, bunday his-tuyg'ular barqaror kechinmalar deb ataladi. His-tuyg'ular paydo bo'lishi bilan darrov so'nib qolsa, yoki boshqa biror emotsional kechinmaga tez o'tib ketisa, bunday

his-tuyg'ular beqaror his-tuyg'ular deb ataladi.

Hissiyotning shakllari

Hisslarning ayni vaqtda naqadar tez, kuchli va barqaror bo'lishiga qarab, emotsional holatlarning turlari farq qilinadi. Emotsional holatlarning asosiy turlari kayfiyat, ehtiros, ruhlanish va affektlardir.

Stress. Stress inglizcha stress so'zidan olingan bo'lib, jiddiylik, keskinlik, zo'rliq degan ma'no anglatadi. Stress- og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, islar me'yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'rliqlar. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron bir emotsiya turi ro'yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo'lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha dispatcher ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma'nosini anglatadi) uchun, balki sudyalor, korxonalar rahbari, ta'lim tizimi xodimlari uchun alohida ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G. Sele (1936) sanaladi. Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'atishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni echishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati engil tormozlanadi, idrok ko'lanmish torayadi va boshqalar.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim rol o'ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, hurch, javobgarlik, vatandorlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Kayfiyat zaif yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan va, odatda, ancha barqaror emotsional holatdir. Odamdagi ba'zi bir kayfiyat bir necha kun, bir necha hafta, bir necha oy va undan ham ko'proq davom etishi mumkin. Quvnoq kayfiyat, ma'yus kayfiyat, g'amginlik kayfiyati, g'azab kayfiyati va shu kabi kayfiyatlar, yaxshi yoki yomon kayfiyatlar bo'lib turishi hammaga ma'lum. Biz biror kishidan, ahvollarimgiz qalay, deb so'raganimizda, biz, asosan, uning kayfiyatini nazarda tutamiz.

Odaming barcha psixik jarayonlarida va faoliyatida kayfiyat katta rol o'ynaydi. Masalan, odaming kayfi chog' bo'lsa, u ancha faolroq bo'ladi, odam ma'yus bo'lsa, unchalik faol bo'lmaydi. Odaming kayfiyati uning tevarak-atrofdagi kishilarga va narsalarga munosabatiga ta'sir qiladi. Chunonchi, odam xursand bo'lib turganida uning ko'ziga hamma

narsa yaxshi bo'lib ko'rinadi, odam xafa va ma'yus bo'lib turganida, uning ko'ziga hamma narsa yomon ko'rinadi. Ijobiy kayfiyat, xushchaqchaqlik va xursandlik kayfiyati ustun bo'lib turganida, odam vaqtincha muvaffaqiyatsizliklarni va xafagarchilikni ham osonlik bilan o'tkazib yuboradi.

Bardamlilik, xushchaqchaqlik kayfiyati bizning kishilarimizning asosiy xususiyatidir. O'zbek xalqi mustaqillikka erishishini o'z maqsadi va maslagi deb biladi. U o'z mehnatining erkinligini anglab, Vatani uchun siddiqidildan harakat qilish ularda mana shunday kayfiyatni vujudga keltirdi. Bizda har bir kishi nima uchun mehnat qilayotganini, kim uchun mehnat qilayotganini biladi. Mehnatning tagi rohat ekanligini his qiladi.

Ehtiros. Ehtiros ham uzoq davom qiladigan va barqaror bo'lgan emotsional holatdir. Lekin kayfiyatdan ehtirosning farqi shuki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan obektiqa muttasil intilishda kuchli sur'atda ifodalangan kuchli emotsional holatdir. Ehtiros hamisha aniq bir narsaga qaratilgan bo'ladi. Masalan, odamlarda bilimga, ixtirochilikka, musiqaqa bo'lgan ehtiros mana shunday aniq ehtirosdir. Bular ijobiy ehtirosdarga misol bo'la oladi. Bizning axloqimiz nuqtayi nazaridan qaraganda, salbiy ehtiroslar ham bor.

Masalan, ichkilikbozlikka, alkogolga, qimorga, kartahozlikka hirs qo'yish, pulparastlik mana shunday salbiy ehtiroslardir. Ijobiy ehtiroslar odamni ulkan ijodiy faoliyat yo'liga etaklovchi kuchdir.

K.E. Siolkovskiya kosmosga uchish masalalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqishga xuddi mana shunday katta ehtiros bor edi. U butun umr bo'yi mana shunday ehtiros bilan yashadi.

Affektlar. Tez paydo bo'ladigan, nihoyat darajada kuchli, g'oyat jo'shqinlik bilan o'tadigan qisqa muddatli emotsional holatlar affektlar deb aytiladi. Masalan, birdaniga achchiqlanish, g'azablanish, to'satdan qo'rqish va shu kabi holatlar affektlarning bir ko'rinishidir. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan atigi bir necha daqiqa davom etadi. Affekt holatida kishining ongi, tasavur qilish va fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Mana shunday kuchli emotsional qo'zg'alish shiddatli harakatlarda, tartibsiz gaplarni gapirib yuborishda, ko'pincha, haqirib yu-borish tarzida namoyon bo'ladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda, «portlash» singari, birdaniga boshlanib ketadi.

Ba'zan affektlar tormozlanish holati tariqasida namoyon bo'ladi va hunday holatda organizm bo'shashib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Chunonchi, kutilmagan bir quvonchli holatni ko'rib suyunib ketgan kishi «o'zini yo'qotib qo'yadi» va «nima deyishni bilmay qoladi». Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqanida, to'satdan quvonganida, birdaniga g'azablanganida va shu kabi hollarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi.

Affektlar kishining irodasi bo'shashgan vaqtida paydo bo'ladi, affektlar odamning o'zini tiya olmasligini, o'zini tuta bilmasligini ko'rsatadigan alomatdir.

Lekin har bir kishi o'zi etarli daraja ongli bo'lganligi uchun, o'zida affekt paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligi yoki affekt paydo bo'lishi bilan o'zini darhol bosib olishi mumkin. Odam affekt juda zo'r kuch bilan paydo bo'lgan vaqtda ham «o'zini tutib qolishi» mumkin. Albatta, buning uchun kishida kuchli iroda bo'lishi, unda o'zini tuta bilish, o'zini

tiya bilish singen iroda sifatleri mavjud bo'lishi kerak. Odamda bu sifatlar tarbiya va o'z-o'zini tarbiya qilish yo'li bilan paydo qilinadi.

Emotsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar hisoblanadi. Emotsional kechinmalar chog'ida qon aylanishi o'zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi, odam esa qizaradi, oqaradi yoki bo'zaradi, nafas olish ham o'zgaradi: nafas olish tezlashadi, yoki susayadi. Emotsional jarayonlarning yurak faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi shu qadar ayon sezilib turadiki, hatto oddiy tilda «his» bilan «yurak» degan so'z bir-biriga o'xshash ma'noda ishlatiladi.

Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi, avvalo, bosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayonlardir.

Bosh miya po'sti hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, miya yarim sharlari olib tashlangan hayvonlar eng arziyas sabablar bilan muttasil va shu bilan birga kuchli ravishda hayajonga kelaveradi. Miya po'sti zaiflangani natijasida bet muskullari falaj bo'lgan kishilar har xil narsalarga, hatto juda arziyas narsaga ham hamisha va qattiq kula beradilar. Bosh miya po'stining faoliyati buzilishi natijasida ba'zi kishilarda har xil taassurot, bu taassurotga butunlay muvofiq bo'lmagan teskari emotsional alomatlarni qo'zg'atadi kuldiradi yoki yig'latadi. Bunday hollarda bemor kishilar ko'pincha o'zlari kulib tursalar ham, aslida g'amgin bo'ladilar, ko'z yoshi to'ka turib esa xursandlik his qiladilar.

Hissiyotlar bosh miya po'stining ostki qismlari faoliyati bilan ham bog'langandir. Jumladan, ko'rish bo'rtig'i hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazlaridir. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, ko'rish bo'rtig'ining shikastlanishi natijasida, hissiyotni ifodalovchi yuz harakatlari ham izdan chiqadi. Bosh miya po'sti ostidagi markazlardan mahrum bo'lgan hayvonlarda hissiyotlarni ifodalovchi harakat helgilari bo'lmaydi.

Ba'zi hissiyotlar vegetativ nerv sistemasi faoliyatining hamda bu sistema boshqarayotgan organlar faoliyatining oshib ketganligi sababli tug'iladi. Shu sahalii, ba'zi emotsional kechinmalar vaqtida qon aylamish organlarining faoliyati, ovqat hazm qiladigan organlar faoliyati kuchayganligini, nafas olish o'zgarganligini, ko'zning nurlanishini, rangning qizarganligini ko'ramiz va hokazo.

Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislari

Beshinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislarini ajratish. Axloqiy, aqliy, estetik, praksik hislarni ajratib, farqlarini o'rgatish.

Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o'rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o'z ifodasini topadi. Yuksak hislar ongli harakatlarni bajarishning ob'ektiv sharoitlari, yo'nalishlari, mazmuni bilan uyg'unlashgan shaxs emotsional holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo'ladi va kechadi. Ko'plab kechinlayotgan emotsiyalarda, affektalarda, kayfiyatlarda yaqqollashgan umumlashma hislar yuksak hislar deb ataladi. Ular o'z tarkibiga

sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi. lekin oddiy hislar yig'indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan alohidalikka ega.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi:

1) mehnat faoliyatini davomida kechiriladigan hislar-praksik hislar (yunoncha- praxis so'zidan olingan bo'lib, ish, faoliyat, yumush degan ma'noni anglatadi);

2) intellektual hislar (latincha intellectusdan so'zdan olingan bo'lib, tushunish, aql degan ma'noni bildiradi);

3) axloqiy hislar (latincha moratis so'zidan olingan bo'lib, axloqiylik degan ma'noni anglatadi);

4) estetik hislar (yunoncha aistesis degan so'zdan olingan bo'lib, hissiy idrok, hissiy degan ma'nomi aks ettiradi).

Praksik hislar. Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmog'i, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.

Motivatsiya sohalarining umumiy tuzilishini tushuntirish. Motivlar va ustanovkalar haqida ma'lumot berish. Ehtiyojlar va emotsiyalarni ajratish.

Motivatsiyani o'rganishga oid asosiy yondashishlarni o'rganib, qiyosiy solishtirish. Emotsional jarayonlarga tavsif berish. His-tuyg'ularning fiziologik asoslarini ko'rib chiqish. Emotsional holatlarning xilma-xilligini aniqlash. Kayfiyat, stresslar, affektlarni ta'riflash. Emotsiyalarning ifodalanishini misollar yordamida ko'rib chiqish. Yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislarni belgilash. Emotsiya haqidagi psixologik nazariyalarni o'rganib, qiyosiy solishtirish.

Nazorat savollari:

1. Hissiyot to'g'risida tushunchangizni hayon eting
2. Hissiyotning fiziologik asoslarini yoriting.
3. Hissiyotning ifodalanishi qanday namoyo bo'ladi?
4. Hissiyotning shakllari hayon eting.
5. Kayfiyat nima?
6. Ehtiros nima? 7. Stress nima?
8. Affekt holati nima?
9. Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislari borasidagi bilimlaringizni hayon eting.

XXV bob. IRODA

Asosiy savollar:

1. Iroda haqida tushuncha.
2. Iroda akti va uning tuzilishi.
3. Shaxsning irodaviy xususiyatlari.
4. Irodaviy sifatlarning tuzilishi.

5. Irodaviy harakatlar va irodani boshqarish

6. Irodaning nerv-fiziologik asoslari

Tayanch tushunchalar: iroda, lokus nazorat, irodaning fiziologik asosi, iroda akti, irodaning nerv-fiziologik asoslari, iroda va tavakkal, irodaviy zo'r berish.

Iroda haqida tushuncha

Iroda tushunchasi uzoq tarixga ega bo'lib, inson ongining mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to'planishi tufayli ilmiy yondashuvlar asosida vujudga kelgan. XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaming paydo bo'lishi deb tushunish mumkin emas, chunki um shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qaramoqlik lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Uning iroda haqida bunday fikri irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan. V. Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida ichki faollik etish yotadi. Tadqiqotchi V. A. Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi. Psixologiyada irodani eksperimental o'rganishga oid qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning ayrimlaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Ko'pchilik tadqiqotchilar E. I. Ignatev qo'llangan metodikasi va uning natijalarini qo'llab-quvvatlaydilar. Ushbu metodikaning mohiyati shundan iboratki, muskulning kuchli qisqarishidan keyin o'zining tinch holatiga qaytishdagi qarshiliklarni engish xususiyatini tajribada tekshirishdir. Xuddi shu vaziyatda irodaviy zo'riqishni bartaraf etish namoyon bo'ladi. Muallifning ta'kidlashicha, zo'riqishdagi muskullarning qisqarishini bir lahza to'xtatib qolish irodaning shartli ko'rsatkichi tariqasida qabul qilish mumkin, chunki mazkur jarayonda inson o'z tana a'zolari muskulini ongli boshqarish uquvi aks etadi. E. I. Ignatev tadqiqotida maksimal qisilishdan keyin irodaviy zo'riqishni (zo'r berishni) 5kg ortiq bo'lmagan og'irlikda pasaytirishga yo'l beriladi, uning taxminicha, bu kattalik (og'irlik) zo'riqish kuchini kamaytirmaydi va zo'r berishni vaqtincha to'xtatib qolishga ta'sirini o'tkazmaydi. Tadqiqotchi materiallarini tahlil qilishning ko'rsatishicha, muskul zo'r berishi 9-17 yoshdagi sinaluvchilarda 14 kgdan 40 kggacha og'irlikni tashkil qiladi, zo'r berishning 5kg kamayish doirasi maksimal holatga nisbatan 35,7 protsentdan to 12,5 protsent miqdorlarda mujassamlashadi.

Iroda- kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish natijasida bosil bo'ladi.

Iroda, avvalo, kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tutib bilishi demakdir.

Iroda — kishining o'z-o'zini iroda qila bilishi, o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish hamda boshqara olish qobiliyatidir.

Iroda akti va uning tuzilishi.

Shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psixologik mazmun, mohiyat, ma'no kasb etishi bilan tavsiflanadi. Ixtiyoriy yoki irodaviy harakat oldindan qo'yilgan maqsad asosida, bizning xohishimiz bilan bo'ladigan faollikdir. Bu harakat bizning «o'zimiz» bilan bog'liqdir va u ongli ravishda zo'r berishimiz natijasida sodir bo'ladi. Psixikaning faolligi ish-harakatlarda juda yaqqol sodir bo'ladi. Ish-harakatlar ham ixtiyorsiz va ixtiyoriy (irodaviy) bo'ladi. Biz iroda haqida gapirar ekanmiz, faoliyatimizda sodir bo'ladigan ongli harakatni ko'zda tutamiz.

Irodaviy harakatlar deganda faqat jismoniy (ya'ni muskullar bilan bog'liq bo'lgan) harakatlarnigina emas, balki shuning bilan birga axloqiy harakatlarni ham tushunish lozim. Aqliy ishlar jarayonida odam ko'pincha qiymchiliklarga duch kelib qoladi. Bunday hollarda irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Lekin shunga qaramay, iroda haqida gapirganimizda, asosan odamning tashqi harakatlarida namoyon bo'ladigan ongli faolligini nazarda tutamiz.

Shaxsning irodaviy xususiyatlari, irodaviy sifatlarning tuzilishi. Iroda aktining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, nafaqat xohish-istakdagi maqsadni tanlay olish, balki uni amalga oshirish imkoniyati aniqroq ekanligini tushunish hamda anglashdir. Xuddi shu tariqa irodaviy harakatning muhim tarkibi, binobarin, ajratib olingan maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlari shakli va mohiyati to'g'risida mulohaza yuritish, uning ustida bosh qotirish davri boshlanadi. Mazkur jarayonda fikr yuritilayotgan vositalarning maqsadga erishish yo'liga muvofiqligi tahlil qilinadi, aqlan chamalab ko'riladi, uni ro'yobga chiqarishga mutlaqo mos yordamchi uslublar, harakatlar tanlanadi. Yuqorida mulohaza yuritilgan aqliy xatti-harakatlarning barchasi o'zining mohiyati bilan iroda aktining tarkibiga kiruvchi aqliy jarayonlar, aqliy lahzalar, aqliy vaziyatlar sifatida mujassamlashadi.

Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishish yo'l-yo'riqlari haqiqatdan ham aniq istaklarning ushaliishiga xizmat qilishi to'g'risida oqilona qarorga kelishda o'z ifodasini topadi. Psixologik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tanlangan harakatlar oqilona, omilkor, odilona ekanligi to'g'risida qarorga kelinganida, maqsadga muvofiqligi ishonarli dalillar ustiga qurilganida ushbu jarayon qiyinchiliklarsiz sodir bo'ladi. Biroq aksariyat hollarda qarorga kelish murakkab jarayonga aylanadi, huning natijasida motivlar kurashi yuzaga keladi, binobarin, tanlash, yakdillikka kelish muddati birmuncha cho'ziladi. Masalan, shaxsda ish joyini almashtirish xohish-istagi tug'ildi deb aytaylik, biroq unda boshqa xususiyatga ega bo'lgan intilishlari hukm surishi mumkin, o'z navbatida ular ishxonani o'zgartirishga to'sqinlik ham qiladi. Jumladan, ish joyini o'zgartirish maoshning yangi ishxonada hiroz yuqoriligi bilan bog'liq bo'lsa-da, lekin yangi muhitga va jamoaga, notanish shart-sharoitga, boshqacha talabga moslashish (ko'nikish) zarurligini taqozo etadi.

Ana shu tarzda munosabatlar bilan motivlar kurashi yuzaga keladi, uning negizida: a) yangi ish joyidan, b) icbki qanoatlamish tuyg'usidan voz kechish kerakmi; yoki v) qimmatli imkoniyat tug'ilishi, g) uning istiqboli evaziga o'zining hoshqa ehtiyojlaridan yuz o'girishi lozimmi degan motivlar kurashi boradi.

Motivlar kurashida u yoki bu tarzda qarorga kelishni ma'qullash (e'tirof qilish) yoki

ma'qullamaslik (e'tirof etmaslik) to'g'risidagi mulohazalarni tahlil qilish (ularni chamalash) bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zaro ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi harakatlarni tatbiq etishga undovchi qabildagi motivlar kurashi ham tug'ilishi mumkin. O'zaro qarama-qarshi motivlarning salmog'i qamrovli bo'lsa, shaxsni faoliyatga undovchi ehtiyojlarning ob'ekti o'zining qiymati (ahamiyatligi) bilan o'zaro baravarlashsa, u holda bunday motivlar kurashi ularga hamohang tarzda kuchli kecladi.

Irodaviy harakatlar va irodani boshqarish

Irodaviy harakatlar deyarli hamma vaqt ixtiyorsiz faollik bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi.

Reflektor harakatlar, masalan, chuchkurish, ko'z pipiratish, qo'lga bexosdan nina qadalganda yoki qo'l sinib qolganda qo'lni siltab tortib olish ixtiyorsiz harakatlar jumlasidandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi shartsiz reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning maxsus turi *avtomatlashgan* harakatlar, ya'ni malaka va odatlardir. Bunday avtomatlashgan harakatlar odamning amaliy hayoti davomida hosil qiladi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi.

Ixtiyorsiz harakatlar ongsiz ravishda voqe bo'ladi. Ammo ixtiyorsiz harakatlarning ko'pchiligini kishi ma'lum darajada o'sha ish-harakatlar voqe bo'lgan paytda va ayniqsa ular bo'lib o'tigandan keyin *bilib-anglah* oladi.

Harakat maqsadini belgilash: Irodaviy jarayon va irodaviy harakatning dastlabki momenti maqsad qo'yishdan iboratdir. Maqsad deganda odam nima qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligi va qanday qiyinchiliklarni engishi lozimligini anglashi tushuniladi.

Irodaviy harakatlar - ilgari mo'ljallangan xohish bilan amalga oshiriladigan harakatlardir. Irodaviy harakatlar ixtiyorsiz harakatlardan dastavval shuning bilan farq qiladiki, ularda oldindan mo'ljallangan va to'la anglanilgan intilish bo'ladi.

Maqsad va vositalarni belgilash: Kishida ayni bir vaqtning o'zida bir necha tilak va istaklar tug'ilishi mumkin, chunki kishining ehtiyojlari juda ham xilma-xildir. Masalan, kishi kechqurun ho'sh bo'lgan paytida teatrga yoki hiron do'stining oldiga borishni xohlashi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir istak, ayni bir maqsadga erishish yo'li va erishish vositasi turlicha bo'la olishini tasavvur etish istak va maqsadga erishmoq uchun qilingan ish-harakatlardan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish mumkin.

Biron maqsad va uni amalga oshirish vositalarini tanlash jarayonida ularning ma'qul yoki noma'qul ekanliklari chamalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa harakatning motivi deb ataladi. Motiv deb — kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki ayni shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmoq uchun, hoshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak, degan savollarga javobdir.

Irodaviy harakatlarning ixtiyorsiz harakatlardan farqi yana shundan iboratki, ular motivlar asosida amalga oshiriladi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyotning o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi; odam ba'zan go'yo ikkiga ho'linib ketadi; «Aql uni deydi, hissiyot (ko'ngil) buni deydi».

Biron maqsad yoki biron maqsadga olib boruvchi yo'llar aqlga muvofiq kelsa-yu, lekin kishida noxush hissiyotlar tug'dirsa va, aksincha, biron maqsad yoqimli hislar tug'dirsa-yu, lekin aqlga muvofiq kelmasa, ana shunday bo'ladi.

Qarorga kelish: Motivlar kurashi bilan bog'liq bo'lgan biron maqsadni amalga oshirish yo'llarini tanlash jarayoni qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish ma'lum bir maqsad va bu maqsadni amalga oshirishning hiron usuli yoki ma'lum yo'llari haqida to'xtash demakdir. Bu esa motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynaydi, demakdir. Masalan, kechqurun qaerga borish kerak: teatrgami yoki do'stimning oldigami degan fikrdagi motivlar kurashi natijasida kishi do'stining oldiga borishga qaror qiladi.

Ba'zi hollarda kishi qabul qilmadigan qarorning amalga oshirish im-koniyatlariga ishongan holda juda tez ma'lum bir qarorga keladi. Buni biz *qat'iyat* deb ataymiz. Boshqa bir hollarda esa, motivlar kurashi uzoq, vaqtga «cho'zilib ketadi» va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu - *qat'iyyatsizlikdir*. Masalan, o'rta maktabni tugalayotgan va tugalgan ba'zi bir yoshlar qaysi institutga kirish masalasini juda tez hal qiladilar, boshqa birlari bo'lsa juda uzoq vaqt ikkilanib o'ylab yuradilar.

Bir marta qabul qilishgan qarorni keyinchalik o'zgartirish yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirish, yoki bo'lmasa, batamom bekor qilib yu-borish subutsizlik deyiladi. Qat'iy qaror qila olmaslik - kishi irodasi bo'shligining alomatidir.

Qarorni ijro etish: Biron qaror shu qarorga muvofiq keladigan choralar ko'rish va ish-harakatlar qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish, bajarish deyiladi. Irodaviy jarayonlarda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni bajarishdir. Kishining irodasi xuddi mana shu qarorni bajarishda namoyon bo'ladi deyish mumkin.

Irodasi kuchsiz bo'lgan kishilar ko'pincha juda ko'p yaxshi qarorlarga kelishlariga qaramay, bu qarorlarning ijro etilishini sustlashtirib, cho'zib yuboradilar va hoshqa muddatlarga qoldiradilar. Bajarilishi galdan-galga qoldiriladigan yoki batamom bajarilmaydigan qarorlarni *niyat* deb ataladi.

Ichki qarshiliklarni engish: Ichki qarshiliklar kishining o'ziga xos bo'lgan ma'lum holatidir. Kishi tinch, harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin. Masalan, bunday holat dam olayotganda, uxlayotganda, toliqqan paytda va kasal paytda bo'ladi.

Irodaviy zo'r berish vositasi bilan kishining aqliy faoliyati ham faol holatga keltiriladi. Masalan: ma'ruza boshlanishi bilan oq talaba iroda kuchini ishga solib, diqqatini bir erga to'playdi, irodaning barqarorligini saqlab turadi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

Parashutchilar birinchi marta o'zlarni samolyotdan tashlaganlarida (irodaviy harakatlarida) tabiiy ravishda paydo bo'ladigan qo'rqish hissini engib horishlari lozim

ho'ladi.

Odamning ichki to'liqlarini engib, o'zini boshqarib va o'z ustidan hukmronlik qila bilish qobiliyatini odatda *ichki iroda* deb yuritiladi.

Tashqi qarshiliklarni engish: Odamning tashqi to'siqchiliklarni tashqi qiyinchiliklarni engib olish qobiliyatini *tashqi iroda* deb yuritiladi. Obektiv voqeelikka ta'sir qilishda kishi iroda kuchining yordami bilan dastavval o'z organizmini harakatga solishi lozim va shu bilan birga, har qanday ixtiyorsiz harakatni doimo bosib va o'zgartirib turishi kerak. Shuning uchun kishining tashqi qarshiliklarni engishga qaratilgan irodaviy zo'r berishlari va irodaviy harakatlari ayni vaqtning o'zida kishining ichki holatini ham o'zgartiradi. Kishi tashqi muhitni o'zgartirishi bilan birga, u o'z-o'zini ham o'zgartiradi.

Iroda borasidagi nazariyalar

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, u inson ongining mohiyatini kashf qilishdan boshlanib, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishini boshqarib imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi.

Gumanitar yo'nalish, ya'ni inson muammolariga e'tiborning o'tishi bilan o'z-o'zidan irodani o'rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII-XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro'y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o'tib qoldi, uni mutlaqo inkor etish mumkin emas.

XVII asrdayoq Gohs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbaini bemahsul sohaning paydo bo'lishi, deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday yondashish irodani ilmiy nuqtayi nazardan tushuntirishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi. V.Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining subyekt tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U Djeymning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qarishtirib bo'lmaydigan hirlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning hoshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

Yetarli darajada qat'iy fikr qaror topganligi, iroda — bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo'ya olish kabi shaxsiy g'oyasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. I.V.Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalarni chiqaradi:

a) iroda — bu shaxsning o'z faoliyatini va olamdagi o'zini- o'zi boshqarish shakllarini

anglashning tavsifidir:

b) iroda — inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir.

d) iroda — bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi alam, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;

e) iroda — bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi, turtkisi hisoblanadi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jahlalarini yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insonning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o'zining tuzilishiga ko'ra bir davrning o'zida ham aqliy, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchi V.I.Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi. Shuningdek, harakat ma'nosining o'zgarishi hisobiga tarmoqlovchi yoki qo'shimcha turini yaratuvchi imkoniyat yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi, ya'ni vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqaruv esa harakatni «ixtiyoriy boshqaruv ko'rinishlarining bittasi sifatida» tushuniladi, bunda boshqaruv motivatsiyaning ixtiyoriy o'zgarishi orqali amalga oshirilishi sifatida qaraladi.

Keltirilgan mulobazalardan ko'rinib turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganday, irodaviy sifatlarning ma'naviy asosini tahlil qilish yuzasidan ham umumiylik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlilikni kiritadi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatlari sifatida mustaqillik, qat'iylik, tirishqoqlik o'zini uddalashni ko'rsatadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlari sarasiga A.I.Shcherbakov quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlilik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, urinchoqlik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

Iroda borasidagi tadqiqotlarda «ishonch» atamasi kamdan kam hollarda qodlaniladi. Shunga qaramasdan ishonch, iroda sifati tariqasida tadqiq etilishga haqlidir. Buning uchun A.I.Shcherbakov tomonidan quyidagicha tadqiqot ishi amalga oshirilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga qisqa vaqt(fursat) ichida institutni tugatish taklif qilingan, lekin sinoluvchi bu ishni uddasidan chiqa olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng tadqiqotchi talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga musharraf bo'lgan. Xuddi shu bois hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili ishlab chiqilmagandir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tirishqoqlik, qat'iyatlilik sifatlari bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy xislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubhasiz. Lekin og'riqqa chidash, bardoshlilikka moyillik nuqtayi nazardan yondash:

nilganda esa irodaning erkinligi ta'bir, irodaviy sohaning paydo bolishi va amalga oshishi mohiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, to hozirgacha psixologiya fanida asosiy, muhim irodaviy sifatlarni tasniflashning umumbirlik tamoyili mavjud emasligi tufayli aksariyat hollarda bir irodaviy xislat qo'shaloq atama bilan belgilanishi davom etib kelmoqda (masalan, mustaqillik va tashabbuskorlik, jur'at va dadillik, tirishqoqlik va qat'iyatlilik, vazminlik va o'zini uddalash kabilar).

Irodaning nerv-fiziologik asoslari

Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi. I.P. Pavlov limotiga ko'ra, irodaviy harakatlarning hamma mexanizmi yuksak nerv faoliyatining butun qonunlariga bo'ysunuvchi shartli bog'lanishlardan, ya'ni assotsiativ jarayonlardan iboratdir. Irodaviy harakatlar mexanizmlarida, asosiy rolni kinestezik qo'zg'atuvchilar tufayli, ya'ni muskullar harakati tufayli yuzaga keladigan maxsus shartli reflekslar o'ynaydi. Kinestezik hujayra va harakat analizatori turli-tuman qo'zg'atuvchilar bilan muvaqqat aloqa bog'lay olishligi I. P. Pavlov hamda uning hamkorlari tomonidan o'tkazilgan maxsus tajribalarda isbotlab herilgan.

Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signal sistemasining faoliyati bilan bog'liqdirlar. Xususan, ichki nutqqa tegishli so'zlar kerakli harakatlarni yuzaga keltiruvchi va boshqaruvchi signal hisoblanadilar. I.P. Pavlov fikricha, ikkinchi signal sistemasi odam xulqi va xatti-harakatlarining oliy regulatori, ya'ni boshqaruvchisidir.

Ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari birinchi signal sistemasining signallariga va ixtiyorsiz harakatlarning miya po'sti ostki markazlariga hularning ishlarini tartibga solish yuzasidan ta'sir etib turadi. Agar ikkinchi signal sistemasi tormozlansa, bunday holatda «voqelik bilan deyarli hisoblashmaydigan va asosan miya po'stining ostki markazlarining emotsional ta'siriga bo'ysunadigan» faoliyat haqida gapirish mumkin. Ana shunday paytda odam, masalan, affektiv holatda bo'ladi.

Nerv sistemasining tetik hamda sog'lom holati har qanday faoliyat va odamning umumli ishchanligi uchun asosiy sharoitdir.

Nerv sistemasining kuchsizlanishi irodaning zaiflanishi va inson faol faoliyatining susayishiga asos bo'ladi. Bunday sustlik holati xususan toliqish paytida yorqin namoyon bo'ladi.

Jismoniy toliqishning asosiy belgisi muskullar ishchanligining susayishidir. Masalan, jismoniy toliqish, jumladan, muskul kuchlarining zaiflamshi, harakatlarning holatni abuliya deb ataladi. Abuliya holatidagi kishi juda chanqab turgan bo'lsa ham, o'z oldida sekinlashishi, harakatlar miqdorining kamayishi, ishdagi jadallikning sekinlashuvi, harakatlardagi aniqlikni, moslikni, tekislikni va bularni boshqarishning buzilishi bilan harakatlanadi. Jismoniy toliqish odam butun organizmining madorsizlanish holati bilan xarakterlanadi.

Nerv sistemasining kasalligi irodani haddan tashqari susaytirib yuboradi. Bunday tupan stakandagi suvni olib ichishga o'zini majbur qilolmaydi.

Nazorat savollari:

1. Iroda haqida tushunchangizni bayon eting
2. Iroda akti va uning tuzilishi nimalardan iborat?
3. Shaxsning irodaviy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Irodaviy sifatlarning tuzilishi haqidagi bilimlaringizni bayon eting
5. Irodaviy harakatlar va irodani boshqarish deganda nimani tushunasiz?
5. Irodaning nerv-fiziologik asoslarini yoriting

VI BO'LIM. INDIVIDUAL FARQLAR PSIXOLOGOYASI

XXVII bob. TEMPERAMENT

Asosiy savollar:

1. Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi
2. Temperamentning fiziologik asoslari
3. Temperament tiplarining tavsifnomasi
4. Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari

Tayanch tushunchalar: labillik, melanxolik, rigidlik, sangvinik, temperament, flegmatik, xolerik, ekstraversiya, introversiya, astenik, atletik, piknik.

Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi (birlashtirish).

Temperament deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug'ma xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarini tushunamiz. Temperament latince «temperamentum» degan so'zdan olingan bo'lib, uning ma'nosi «aralashma» demakdir.

I. P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta'riflaydi: «Nag bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir»

Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'atishlarida va kishidagi umumiy individual xususiyatdir. harakatchanlikda ko'rinadigan

Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'atish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil bo'ladi. Bir xil odamlarning hissiyoti tez, kuchli qo'zg'atadi va barqaror bo'ladi. Ba'zi kishilarda esa bunday qo'zg'atish sust, zaif bo'lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo'zg'atishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhim ta'siriga javoban ko'rsaladigan ixtiyorsiz reaksiyalarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida, pantomimikalarida, har xil beixtiyor ish-harakat va imo-ishoralarda ko'rinib turadi.

Kishi hissiyatining bunday qo'zg'aluvchanlik xususiyatlarini diqqatning kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab, bir xil odamlarni «tez», «betoqat», «serg'ayrat», «jo'shqin» deyimiz. Ba'zilarini esa «sustkasb», «lapashanq» va hokazolar deb yuntamiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan kishining temperamenti (mijoz) tarkib topadi. Aynim temperamentlarning alomatlarini kishining bolalik chog'larida yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir kishining o'z temperamenti bo'ladi. Lekin har qaysi odamning temperamentlarida mana shunday individual tafovutlar bo'lishi bilan birga, bu temperamentlarning umumiy, o'xshash belgi va alomatlarini ham bo'ladi. Hamma xilma-xil temperamentlarni mana shunday umumiy belgilariga qarab ajratish, ya'ni klassifikatsiya qilish mumkin.

Temperamentning fiziologik asoslari

Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlarini jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xillarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha "chole"), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunoncha "phlegma") kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

1. O'tning xususiyati - quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlash turish yoki badanni quruq tutishdir.
2. Qonning xususiyati-issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.
3. Qora o'tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi hadan namligini saqlab turishdir.
4. Balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunki xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, flegmatikda halg'am, melanxolikda qora o't ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov (1849-1936) hisoblanadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual

xususiyatlari to'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasini xususiyatlari mohiyatidandir.

Unga ko'ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko'rsaladi:

- 1) qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;
- 3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemasi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Kuchli, muvozanatli, epchil;
2. Kuchli, muvozanatsiz epchil;
3. Kuchli, muvozanatli, sust;
4. Kuchli, muvozanatsiz sust.

Yirik rus psixologlaridan biri B.M.Teplov (1896 - 1965) va uning shogirdlari maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv- fiziologik jarayonlarning nozik hiralarni o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. Shuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabining namoyondalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgan. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayoni to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunki: senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

Faoliyatning individual uslubi va temperament

Faoliyatning individual uslubi insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tarkib topiradi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubi deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi.

Temperament xususiyatlarining o'ziga xos yig'indisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon bo'ladi.

Faoliyatning individual uslubi faqat temperamentga emas, balki hoshqa sahablarga

shaxsiy tajriba jarayonida hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarga ham bog'liqdir. Faoliyatning individual uslubini inson organizmini tug'ma xususiyatlari va asab tizimi tiplarining faoliyat sharoitlariga moslanishi deb qarash mumkin. Faoliyatning individual uslubi asosini asab tizimi xususiyatlari yig'indisi tashkil qiladi. Faoliyatning individual uslubiga kiruvchi ikki xil xususiyatlar mavjud:

1. Asab tizimi individual xususiyatlari nuqsonlarining o'rmini to'ldiruvchi tajriba jarayonida shakllangan xususiyatlar.
2. Insonda mavjud layoqat va qobiliyatlardan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi xususiyatlar.

Temperamentning xususiyati faollikning samaradorligida emas, balki usullarning o'ziga xosligidadir. Shu ma'noda Ye. A. Klimov tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, stanokchi, to'quvchilarning ishini kuzatish natijalari muhim sanalgan. Ma'lum bo'ldiki, bir necha stanokda ishlashda nerv tizimi harakatchan tipdagi ham, harakatsiz tipdagi xodimlar ham ishlab chiqarishda muvaffaqiyatlarga erishadilar. Temperamentni harakatchanligiga ko'ra qarama-qarshi xususiyatli kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Harakatchanlari shoshilinch, tezroq bajaradi, temperamentning sust tipdagi kishilar esa shoshilinch harakatning zarurligini bildiradigan tayyorlov ishlariga ko'p e'tibor berishi bilan ajralib turadi.

Faollikning individual uslubini V.S. Merlin, Ye. A. Klimovlar o'rganib, uning kishida darrov paydo bo'lmasligi va faqat stixiyali tarzda paydo bo'lishini ko'rsatishdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq yaxshi natijalariga erishishiga yordam beradigan o'zining qo'llari va usularini faol izlasa, individual uslub yuzaga keladi.

Odamlarning birgalikdagi faolligi sharoitlarida ular temperamentning dinamik fazilatlarini ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan holdagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarini birga qo'shib ketishi aniq bo'ladi. Chunki, xolerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki xolerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganiga qaraganda flegmatik yoki melanxolik bilan birgalikda ishlagan hollarda ancha samarali bo'ladi. Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlarining ahamiyatini ko'pgina faoliyat turlarini birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi. o'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rmini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillaridan boshlab, ta'lim va tarbiya ta'sirini negizida yuzaga keladi.

Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari

Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari. Forobiydan keyin jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri buxorolik Abu Ali ibn Sinodir. U tibbiyot, falsafa, psixologiya, matematika kabi fanlarning rivojlanishiga e'tibor berdi. U mavjudodni, ya'ni barcha mavjud narsalarning kelib chiqishi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama o'rganadi. Ibn Sinoning fikricha, olam yaxlit murakkab bog'liqdir.

Bu bog'liqni har tomonlama tekshurish uchun u zaruriyat, imkoniyat, voqelik va sababiyat tamoyillarini asos qilib oldi. Uning fikricha, materiya to'rt shakldan havo, o't, suv, tuproqdan iborat. Ularning o'zaro turli xil birlikvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi, deb yozadi. Bu moddiy narsalarning moddiy asosi bo'lgan havo, o't, suv, tuproq o'zgarmaydi ham, yo'qolmaydi ham. Ibn Sino materiya harakat, vaqt, fazo bilan uzviy bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. Ibn Sino tushunchasi organizmni sezish, eshitish, ko'rish qobiliyati deb tahlil qilingan. U jon haqida ajoyib ta'limot yaratdi. Bu haqdagi fikrlar uning «Tib qonunlari» kitobida o'z aksini topgan.

Abu Ali ibn Sino Sharq tabobatida keng qo'llaniladigan «mijoz» tushunchasiga alohida e'tibor berdi. Uningcha, «mijoz» insonning xususiyati uning sifati, tana va ruhga tasbiq muhit faktorlarining ta'sirini idrok qilishdir. «Mijoz» organizmning ruhiy va jismoniy barqarorligini ko'rsatgan jismoniy va psixik idrok hamda turli ta'sirlarga javob bo'lib, bu so'z qadimgi grek tabibi Gippokrat tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, u organizmda bo'ladigan 4 suyuqlik qon, safro, balg'am, qora o't haqida ta'limotini ishlab chiqqan.

Ibn Sino tibbiyot muammolarini hal qilishda Gippokrat ta'limotiga suyanadi. «Tib qonunlari» asarida bir necha bor tibbiyot fanini otasi Gippokrat fikrlaridan foydalanadi.

I.I. Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limoti temperamentning fiziologik asosi ekanligi.

Temperament haqidagi ta'limot dastlab qadimgi (bizning eramizdan oldingi 460—356-yillarda yashagan) grek olimi Gippokrat tomonidan yaratilgan. Uning ta'limotiga muvofiq sur'atda, keyinchalik «temperament» termini ham ishlatiladigan bo'ldi, shuningdek, hamma to'rt tip temperament nomlari o'mashib qoldi.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq, odamlarning temperament jihatidan turlicha bo'lishi, ularning organizmidagi suyuqliklarning (xillarning) turlicha nisbatda bo'lishi bilan bog'liqdir. Gippokrat fikricha, odam tanasida to'rt xil suyuqlik (xil) bordir. Chunonchi, o't yoki safro (grekcha - shole), qon (lotincha — sandus), (qora o't — grekcha melanhole) va balg'am (grekcha — rhlegma) bordir. Bu suyuqliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, ularning o'z vazifasi, ishi bordir. Chunonchi, o'tning xususiyati — quruqlikdir. Uning ishi — organizmdagi quruqlikni saqlab turish, ya'ni badanni quruq tutishdir. Qonning xususiyati — issiqlikdir. Uning ishi — organizmni isitib turishdir. Qora o'tning xususiyati - namlikdir. Uning ishi badan namligini saqlab turish, uning namligini tutib turishdir. Balg'am (shilimshiq modda)ning xususiyati sovuqlikdir. Uning ishi — badanni sovitib turishdir. Gippokrat fikriga muvofiq, har qaysi odamda shu to'rt xildagi suyuqlikdan biri ko'proq bo'lib, ustun turadi. Bu aralashma (lotincha — temperamentum) lardan qaysi biri ustun bo'lishiga qarab, odamlar temperament jihatidan har xil bo'ladilar. Xolenklarda sariq o't ustun; sanguiniklarda qon; melankoliklarda qora o't; flegmatiklarda esa balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Gippokratning mana shu to'rt xil moddalar aralashmasi to'g'risidagi ta'limotidan kelib chiqqan *temperament* so'zi qadimgi zamonlardan beri hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Temperament xususiyatlarining ilmiy sabablari I.P. Pavlovning yuksak nerv faolivi-

tiplari haqidagi ta'limotida uchib berildi. I.P. Pavlov yuksak nerv faoliyat turlari deganda hayvon bilan odam nerv sistemasining faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning chatishuvini tushunar edi. I.P. Pavlov itlar ustida ko'p tajribalar o'tkazib, reflekslarni tekshirishi natijasida, hayvonlar nerv sistemasining

- a) qo'zg'alish va tormozlanishning kuchiga,
- b) bu jarayonlarning muvozanatiga va
- d) ularning ildamlilik darajasiga qarab bir-biridan farq qilishini aniqladi.

I.P. Pavlov ajratishicha, nerv sistemasining kuchi hujayralardagi fiziologik moddalarning zapas miqdori bilan belgilanadi.

Kuchli tipdagi nerv sistemasida bunday zapas ko'p miqdorda bo'lib, kuchsiz tipda ozdir. Nerv sistemasining kuchi qo'zg'alish jarayoniga ham, shuningdek, tormozlanish jarayoniga ham tegishlidir. Nerv sistemasining kuchi, avvalo, kuchli qo'zg'ovchilarga «bardosh» hera olish qobiliyatida ko'rinadi.

Nerv sistemasidagi muvozanat, I.P. Pavlov ta'limotiga muvofiq, nerv sistemasining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuch darajasini teng baravar holda tutib tura bilish qobiliyatida ko'rinadi. Qo'zg'alish va tormozlanish baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lganda, nerv sistemasida muvozanat bo'ladi. Shu jarayonlardan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo'lsa, nerv sistemasida muvozanat bo'lmaydi.

Nerv sistemasining ildamligi miya po'stining biron qismidagi qo'zg'alishning tormozlanishi bilan yoki, aksincha, tormozlanishning qo'zg'alish bilan naqadar engil almashinishidan iborat. I. P. Pavlov nerv sistemasining bu xususiyatiga, ayniqsa, katta ahamiyat bergan edi.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilariga qarab, nerv sistemasining quyidagi to'rt asosiy tiplarni ajratiladiki, bular I.P. Pavlov fikricha, Gippokratning to'rtta temperament tipiga to'g'ri keladi:

a) kuchli muvozanatli va epchil tip. Serharakat tip. Bu tip sangvinik temperament asosini tashkil etadi;

b) kuchli, muvozanatli inert (sustkash) tip og'ir vazmin tip. Flegmatik temperamentning asosini tashkil etadi;

d) kuchli, lekin muvozanatsiz, ya'ni qo'zg'alish tormozlanishdan ustun chiqadigan, qizg'in, jo'shqin, tip. Ru - xolerik temperamentning asosini tashkil etadi;

e) kuchsiz tip. Melanxolik temperamentning asosini tashkil etadi.

I.P. Pavlov nerv faoliyatining bunday tiplari odamlarga ham xos deb hisoblaydi. «Hayvonlar nerv sistema tiplarini klassifikatsiyalashning elementar fiziologik asoslariga suyanib turib, - deydi I. P. Pavlov, - ana shu tiplarni ko'pchilik odamlarga nisbatan ham qabul qilish lozim».

Shunday qilib, temperament, I. P. Pavlov ta'limotiga muvofiq, yuksak nerv faoliyat tiplarining kishi xulqida namoyon bo'lishidan iboratdir.

Temperament tiplari

Barcha temperamentlarni qadimdan to'rt tipga: 1) xolerik, 2) sangvinik, 3) melankolik va 4) fleqmatik temperamentga ajratishgan.

Xolerik temperament — hissiyatning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarda, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rinib turadi. Xolenklar qizg'inlik va tajanglikka moyil bo'ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan, serg'ayrat va har doim urinuvchan bo'ladilar.

Bu xil temperamentli bolalar serg'ayrat bo'ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishini oxiriga etkazadigan bo'ladilar. Ular ko'pchilik bilan jamoa o'yinlar o'tkazishni sevadilar va bunday o'yinlarni ko'pincha o'zlari hoshlab, oxirigacha faol qatnashadilar. Xolerik temperamentli bolalar arazchan, serjahl va tajang bo'ladilar. Bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik ularda uzoq saqlanadi. Ulardagi kayfiyat ancha barqaror va davomli bo'ladi.

Sangvinik temperament — hissiyatning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi.

Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmogi mumkin. Sangvinik temperamentli kishilarda psixik jarayonlar, xolenklardagi singari, tez o'tadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat va jo'shqin bo'ladilar. Sangvinik temperamentli kishilar tevarak-atrofdagi voqealardan tez ta'sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz hodisalar uncha qattiq xafa qil-maydi. Ular ko'p ishga tez va g'ayrat bilan kirishadigan bo'ladilar, lekin ishdan tez soviydilar. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli sur'atda bajarishga moyil bo'lmaydilar.

Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chaqqon bo'ladilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo'ladilar.

Sangviniklar chin ko'ngildan va'dalar berishlari, lekin, ko'pincha, va'dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu xil temperamentli bolalar o'yinlarga tez va zavq bilan kirishadilar, lekin o'yin davomida, o'z rollarini tez-tez o'zgartirib turishga moyil bo'ladilar. Ular darruv xafa bo'lishlari va yig'lashlari mumkin, lekin ular xafalikni tez unutadigan bo'ladilar. Ularning yig'isi kulgi bilan tez almashadi.

Melankolik temperament hissiyatning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melankoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar, lekin hissiyotlarning tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melankolik temperamentli odamlar sustkash bo'ladilar. Melankolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishini oxiriga etkazmay qo'ymaydi.

Bunday temperamentli bolalar mo'min-qobil, yuvosh bo'ladilar, ko'pincha, birov savol bilan murojaat qilsa, uyaliq, tortinib javob beradilar. Ularni darruv xafa yoki xursand qilish engil emas, lekin bir narsadan xafa bo'lsalar, bu xafalik uzoq davom etadi, barqaror bo'ladi. Ular bir ishga yoki o'yinga tez yopishib kirishmaydilar, lekin qandaydir ish yoki bir o'yin

boshlasalar, bunda chidam va matonat ko'rsatadilar.

Flegmatik temperament hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuchsiz bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin.

Flegmatiklarning psixik jarayonlari sust bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlar nihoyat og'ir, yuvosh, bosiq, barakatlari salmoqli bo'ladi. Agar bir faoliyatga kirishsalar, uni qat'iyat bilan davom ettiradilar. Flegmatik temperamentli bolalar yuvosh, mo'min qobil bo'ladi. Ular ko'pchilikka aralashmaydigan, tortinchoq va hech kimga tegmaydigan, birovni ranjitmaydigan bo'ladilar. Agar birov ular bilan urish chiqarmoqchi bo'lsa, o'zlarini chetga olishga harakat qiladilar. Ular shovqin-suronli, harakatli o'yinlarga moyil bo'lmaydilar. Bu xil temperamentli bolalar jizzaki bo'lmaydilar va odatda ular o'yin-kulgilarga moyil emaslar.

Har qaysi odam temperamentida o'ziga xos individual xususiyatlari bo'ladi, bu xususiyatlarni hatamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya'ni shu shaxsning o'zigagina xos xususiyatdir. Ko'pchilik odamlarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo'shilgan bo'lishini ko'ramiz; chunki, xolerik temperamentli kishida melanxolik yoki flegmatik temperament alomatlari bo'lishi, sangvinik temperamentli kishida xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkin va hokazo.

Odamlarni faqat ularda qaysi temperament belgilari ustun bo'lsa, shunga qarab, ma'lum bir temperament tipiga kiritish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi ekanligini bayon eting.
2. Temperamentning fiziologik asoslarini nimalar tashkil etadi?
3. Temperament tiplarining tavsifnomasi
4. Flegmatik temperament tipini tavsiflang
5. Xolerik temperament tipini tavsiflang
6. Sangvinik temperament tipini tavsiflang
7. Melanxolik temperamen tipini tavsiflang
8. Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlarini yoriting

XXVIII bob. XARAKTER

asosiy savollar:

1. Karakter haqida tushuncha
2. Karakterning fiziologik asoslari
3. Karakter tarkibi va karakter aktsentuatsiyasi
4. Karakter tipologiyasi

5. Xarakter borasidagi nazariyalar

Tayanch tushunchalar: xarakter, xarakter xususiyatlari, xarakter va temperament, xarakterning shakllanishi, xakterning namoyon bo'lishi, xarakter aktsentualsiyasi, gipertim tip, distim tip, sikloid tip, qo'zg'aluvchan tip, kuchaytiruvchi tip, pedant tip, xavotirli tip, emotiv tip, namoyishkorona (demonstrativ) tip, ekzaltirlashgan tip, ekstrovertlashgan tip, introvertlashgan tip.

Xarakter haqida tushuncha

Shaxs xulqining tipik usullari bilan bog'liq, faoliyat, muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi, uning barqaror individual xususiyatlari majmuasiga xarakter deyiladi.

«Xarakter» yunoncha «xarakter» degan so'zdan olingan bo'lib, «qalqiq chiziq» ma'nosini anglatadi. Bu erda tanga, chaqa yuziga tushirilgan bo'rtma tamg'a ko'zda tutiladi.

Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. Shaxs xulqining tipik usullari bilan bog'liq, faoliyat, muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi, uning barqaror individual xususiyatlari majmuasiga xarakter deyiladi. Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo'ylik, sof-dillik ko'rsatishi mumkin. Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan bunday xususiyatlar hali uning barqaror xarakter xususiyatlari bo'la olmaydi. Biz kishi xarakterini ta'riflamoqchi bo'lganimizda, bu odam mardlik qildi yoki rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatdi demasdan, balki bu odam mard, rostgo'y, sofdil deb gapiramiz. Bu degan so'z, mardlik, to'g'rilik, sofdillik shu odamga xos fazilat, uning xarakter xislati degan so'zdirki, tegishli paytda mardlik, rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatishni biz muqarrar ravishda bu odamdan kutib olamiz. Agar biz bir kishining xarakter xususiyatini bilsak, bu odamning tegishli paytda qanday xatti-harakat ko'rsatishni oldindan to'g'ri taxmin qila yoki aytib olamiz.

Xarakter tarkibi

Shaxsning xakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarning muayyan qismidan xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. "Simptom" yunon symptoma belgi, mos tushish, "kompleks" lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish o'zidan mag'rurlanish, maqtaniboklik, o'zbihtarmonlik, urushqoqlik, kek saqlash kabilar birkmasida yuzaga keladi.

Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyligi bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o'zaro bir-binga bog'liqligini bildiradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining lo'rila tizimi farqlanadi.

□ Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar).

□ Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar).

□ Narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish kabilar).

□ Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat- nafslilik, shuhralparaslik, mag'rurlik, o'zini kalla olib, kamtarlik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan hoshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbiarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqlanchoqlik.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir bulun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir.

Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paylda odamning xalli-harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan, xatti-harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma-xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xalli-harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning plastikliigi ikki xil ma'noga ega, birinchidan, xakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchungina islalgan odamning xakterini qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatlari xakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridan, bu sifatlal alohida ko'rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, g'at'iyat, sabr-toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, ma'suliyatni his qilish, o'z-o'zini tanqid qilish axloqiy xislatlardir.

Xarakter aksentuatsiyasi

Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marta yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) deb ataladi.

Xarakterga ortiqcha urg'u berilishi aynim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik bo'lgan holda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Xarakterning aksentuatsiyasi o'la noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorining o'zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xarakter shaxsning adekvat ijtimoiy adaptatsiyaga to'sqinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to'g'ri davolash sharoitlarida ba'zi tuzatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noto'g'ri.

Xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) turlarini tasniflash ancha murakkablik tug'diradi va har xil nomenklaturasi bo'yicha bir-biriga mos kelmaydi. (K. Leongard, A. Lichko). Lekin aksentuatsiyalashgan xususiyatlarning tavsifi ma'lum darajada bir xil bo'lib qoladi. Bu har ikkala tasnif sxemalaridan muvaffaqiyatli terminlarni olib va bunda psixiatrik terminologiya ("shizofreniya xususiyatligi", "epilepsiya" xususiyatlari va hokazo) bilan to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik bo'lishidan qochgan holda ortiqcha urg'u beriladigan xususiyatlar ro'yxatini keltirish imkoniyatini beradi. Xarakterni ortiqcha urg'u berilgan holda baholash psixiatrikning emas, balki pedagogning diqqatini jalb qilishini taqozo etadi, garchi aksentuatsiya muammosining o'rta qo'yilishi tarixi psixiatriya va psixonevrologiyaga borib taqalganda ham shunday hisoblanadi.

Nemis psixiatri K. Leongard fikricha, 20-50% kishilarda ha'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aksentuatsiyasi - biror xususiyatning hoshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. o'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi.

K. Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammasi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi:

- **Gipertim tip** - haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga hoy, subbat mavzusini hurib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.
- **Distim tip** - kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.
- **Sikloid tip** - kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.
- **Oo'zg'aluvchan tip** - muloqolda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori.

□ **Kochaytiruvchi tip** - kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni bohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rtirishga moyil.

□ **Pedant tip** - ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim.

□ **Xavotirli tip** - kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

□ **Emotiv tip** - tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, hamxo'r, ma'suliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.

□ **Namoyishkorona (demonstrativ) tip** - muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqto'vni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyoh tafakkurga, xulq-atvoriga ega.

□ **Ekzaltirlashgan tip** - o'ta muloqotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlarga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.

□ **Ekstrovertlashgan tip** - muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

□ **Introvertlashgan tip** - muloqotga kirishishga qiynaladi, "ichimdagini top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustaqkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Xarakter tipologiyasi

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsifa etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.Sheldon, E.Fromm, K.Leopard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsifa etilgan. Inson xarakterining harcha tipologiyalari quyidagi asosiy g'oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan.

1. Inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida namoyon bo'la boshlaydi va butun hayot davomida barqaror bo'lib boradi.

2. Xarakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushgan emas. Ular xarakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir-biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko'ra ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlariga birlashtirish mumkin.

E.Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitusiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik). Ularning har biri shaxsni ma'lum xarakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham, aslida hech qanday ilmiy asoslab bo'lmaydi.

1. **Astenik tip** - Krechmer fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishli, o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli, oriqli kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi nozik, yelkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

2. Atletik tip - skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rtaqadaman yuqori, baland bo'yi, keng elkali, kuchli ko'krak qafasi, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

3. Piknik tip - bosh, ko'krak qafasi va qonin bo'shlig'i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch-barakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E. Krecbmer mazkur tiplar bilan ayrim ruhiy kasallik o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplar shizofremiyaga moyilroq deb hisoblaydi.

E. Krecbmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum ana tuzilishiga ega kishilar ruhiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aksentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Xarakter borasidagi nazariyalar

Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Xususan, Arastu va Afilotun kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xarakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Jumladan, Arastuning aytishi bo'yicha, buqamki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun ahmoqlikni, arslonnikabi kabi burun may'rurlikni, echkilar, g'ylar, va qyonlarniki singari junining mayinligi qo'rqqoqlikni, sherlar va yovvoyi chuchqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi.

Xarakterni aniqlashning bu va shunga o'xshash fiziologik tizimi aql-sadosini biz, masalan, o'ra asrlik Suriyalik yozuvchi Abul-Faraj Bar Ebreyda ko'ramiz. Uning kitobida shunday ko'rsatma mujassamlasbgandir: "Yo'g'on va katta bo'yi kishi bo'yval singari qahr g'azabga kelishi moyilligiga ega". Uzun va ingichka bo'yi qo'rqqoqlik alomati. Bunday kishi bug'u singari hurkadigan bo'ladiki, "Qaysi birining bo'yni juda kichik bo'lsa, tulki singari makkor bo'ladi".

XVIII asrda Iogann Kaspar Lafaterning fiziologik tizimi mashhur bo'lib ketdi. U inson boshi "qalbini ko'rsatadigan oyna" bo'lib sanaladi va uning tuzilishini, bosh suyagining konfiguratsiyani, imo-ishorasini o'rnanish kishi xarakterini o'rganishning asosiy yo'li deb hisobladi. Lafater tanikli odamlar shaxsi ustidan bir qator oqilona kuzatishlar qoldirdi. Ular uning ilmiy jihatdan mutlaqo ahamiyatsiz, lekin juda qiziqarli "Fiziopnomika" kitobida yig'ilgandir. Lafaterning fikriga ko'ra, Gyotening geniyligi haqida eng ko'p darajada uning, "burni dalolat beradiki, u Gyote pozisiyasining "mahsuldorligini, mazmuni va muhabbatini" qayd etadi".

Lafaterning o'limidan keyin ko'p o'tmay paydo bo'lgan yangi xarakterologik ta'limot frenologiya degan nom oldi.

Frenologiya nemis vrachi Frans Gallning nomi bilan boqlangandir. Gall ta'limotining asosida xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy

ixtisoslashtirilgan markazlarga ega degan tasdiq yetadi. Bu fazilatlarining rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Gallning maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning ruhiy belgilarini aniq aytib berish uchun kishining bosh suyagiga bir nazar tashlash yoki shunchaki boshning "Bo'rtik joylarini" ushlab ko'rish affidan yetarli bo'lsa kerak.

Bu ta'limda umuman miya yarim sharining tuzilishi shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, degan to'g'ri boshlang'ich fikrdan tashqari barchasi nihoyat darajada noto'g'ridir.

Charlz Darvin ham o'zining "Odamda va hayvonlarda his-tuyg'ularning ifodalanishi to'g'risida" degan kitobida yozgan ediki, fiziognomistik "Har bir individning o'z shaxsiy qiziqishlariga erishib, faqat yuzlaridagi asosan ma'lum bir muskullarni qisqartirishi, bu muskullar kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkinligi va shuning uchun bu liniyalar va ularning odatdagi qisqarishidan paydo bo'ladigan yuz qisqarishi ancha chuqur va ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkinligini jiddiy ravishda bilishi kerak.

Darvinning bu g'oyalari ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo'ldi. Ular o'zlarining fiziognomik ta'limotlarini yuz ifodasining tavsiflanishi va tushuntirilishi hamda uning yumshoq to'qimalari holati asosiga qurila boshladilar. Mumkin psixologik jihatdan tushuntirib beradigan o'ziga xos fiziognomik ma'lumotlar tuzildi.

Xarakterning shakllanishi

Organizmnining nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlardan bilan belgilanadi (egizaklar). Egizaklar temperament xususiyatlari jihatdan o'xshashlar ham xarakter xislatlari bir-biridan farq qiladi. Xarakterning har bir xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin, shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlardan bilan belgilanadi. Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarimchan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqoq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xarakteri, temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z-o'zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xarakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining rivojlanib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilariga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o'zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklar va jonivorlarga munosabatlarini kuzatadilar. Ota-onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlari hunday sifatlarga ega bo'lishlari lozim. Xarakterning o'sishida

tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning roli katta, o'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta ma'suliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamenti ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo'qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotish, ijobiy tomonlarini tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining o'z temperamentini o'zi idora qilishiga o'rnatishi lozim. o'z temperamentini idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka, bir-biridan ajralgan tarzda hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya'ni muayyan oilada, maktabda, sexda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir. Har bir o'qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta'sir qilib, ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat'iyatlik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog'chasida o'yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To'g'ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o'quvchilarda uyushqoqlik, intizom, sarajom-sarishtalik, o'z-o'zini tuta bilish, o'zini idora qilish, o'ziga nisbatan talabchan bo'lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib yetishadi. Kishi jamoada bir-bir bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o'zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterni bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o'z xarakterini o'zi tarbiyalash, jumladan, o'z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo'lga soladi.

Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning sifatleri uchun o'zi javobgardir. o'z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko'zda tutmog'i lozim. o'z kamchiliklariga iqror bo'lish kamchiliklarini yo'qotishga boshlaydi.

Xarakter xislatlari. Ekstroversiya va introversiya to'g'risida tushuncha

Shaxsning xarakteriga tegishli bo'lgan xususiyatlarni xarakter xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo'lmay, balki kishining xulqidagi doimiy, barqaror xususiyatlar bo'lib, bu xususiyatlar shaxsning o'ziga xos bo'ladi.

Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo'ylik, sof-dillik ko'rsatishi mumkin. Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan hunday xususiyatlar bali uning barqaror xarakter xususiyatlari bo'la olmaydi.

Kishi xarakteri tarkibiga kiradigan ayrim xislatlari ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotiga bog'liq holda, tarixiy ravishda vujudga kelgan va o'zgargan. Sinfy jamiyatda xarakterning ham sinfiy xislatlari tarkib topgan. Kishilar xarakteridagi ayni bir xislatning o'zi turlicha ijtimoiy muhit-da turlicha baholanadi: bir ijtimoiy sinf, bir tarixiy davr uchun ijobiy hisoblangan xarakter xususiyati ikkinchi bir sinf, ikkinchi bir ijtimoiy davr uchun salbiy bo'lib qoladi.

Xarakter va uning shakllanishi, namoyon bo'lishi uchun kishilarimizni o'ralgan muhiti, turli faoliyatlarga turlicha munosabatlar, yashab turgan jamiyatimizdagi munosabatlar sabab bo'ladi. Bu esa xalqimizda yangicha xarakter xislatlarining shakllanishiga, asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan saxiylik, samimiylik, o'zaro hamkorlik, bir-biriga yordam, iffat, sharm-hayo, kamtarlik, mehmondo'stlik kabi sifatlar barqaror xususiyatlarga aylanib qolmoqda. Bu xususiyatlar yana avlod-dan-avlodga o'tadi va mazmun, sifat jihatidan o'zgaradi va u kishilarni o'z-o'ziga, jamiyatga, mehnatga, narsalar va hodisalarga bo'lgan muno-sabatlarda yangicha xarakter xislatlarni shakllantiradi.

1. Hozirgi kunda laganbardorlik, xushomadgo'ylik, takabburlik, egarizm, tamoyilsizlik kabi salbiy illatlar o'rnini o'zaro muruvvat, hamkorlik, kishilarni hurmat qilish, ularga qo'llaridan kelguncha yordamlashish, mehr-saxovat, adolat, savobli ishlar qilish, halol va baromni, vijdonni his qilish yaxshilik kabi ijobiy sifatlar egallab bormoqda.

Eksravertirovanlik va introvertirovanlik. Shaxsning faoliyati va reaksiya ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertirovanlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (introvertirovanlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Kishi xarakteri tabiiy, tug'ma bo'lmay, balki keyin hosil bo'ladi va tarbiyalanib etishadi. «Xarakter tarkib topadi, xarakter hosil bo'ladi» degan iboralar shuni ko'rsatadiki, odamlar kishi xarakterining tarbiya ta'siri bilan o'zgarishi xususiyatiga ega ekanligini o'zlarining kundalik oddiy ku-zatib horishlaridan bilib olganlar.

Burjua olimlaridan bir qanchasining Krechmer va uning izidan boruv-chilar, odam xarakteri va uning taraqqiysi tamomila kishining tana tuzilishi bilan, faqat shu bilan belgilanadi, deb isbotlashga urinishlari fanga xilof reaksiya urinishidir. Bunday olimlar xarakterning tarkib topishida, shuningdek, shaxsning psixik hayotining taraqqiy etishida ijtimoiy sharoit ham, insonning faoliyati ham, tarbiya ham hech qanday rol o'ynamaydi, deb la'vo qiladilar.

Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki munofiq, botir yoki qo'rqqoq, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi.

Har bir odamning xarakteri temperamentli asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi.

Xarakterning taraqqiysi kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bog'liqdir. Shu sababli, kishining irodasi, aql-idroki va tuyg'u-hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi va ularning tarbiyalanishi haqida aytilgan fikrlarning hammasi kishi xarakterining taraqqiysiga ham tegishlidir.

Nazorat savollari:

1. Xarakter haqida tushunchangizni bayon eting.
2. Xarakterning fiziologik asoslarini yoriting.

3. Xarakter tarkibiga nimalar kiradi?
4. Xarakter aksentualsiyasi nima?
5. Xarakter tipologiyasi deganda nimanı tushunasiz?
6. Xarakter tipologiyalarini yoriting.
7. Xarakter haqidagi qanday psixologik nazariyalarnı bilasiz?

XIX bob. QOBILIYAT

Asosiy savollar:

1. Qobiliyat haqida tushuncha.
2. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi.
3. Qobiliyatlarning tuzilishi.
4. Qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlar.
5. Qobiliyat va faoliyat.
6. Qobiliyat va qiziqishlar.

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, iqtidor, iste'dod, intellekt, ko'nikma, malaka, bilim, qobiliyatning biologik asoslari.

Qobiliyat haqida tushuncha

Shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi.

Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida — mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kash kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir — har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo'ladi.

Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallash iga hamda o'z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

Qobiliyat va iste'dodda kishining aqli (intellekti) ham, ya'ni idrok va

kuzatuvchanligining, tafakkur, xayol, nutq va xotiraning qanchalik o'sganligi ham ko'rinadi. Aql faoliyati diqqat va iroda bilan bog'liq bo'lgani uchun qobiliyat va iste'dod diqqat va irodaning qanchalik kuchli va barqarorligida ham ko'rinadi. Kishining qanchalik kuzatuvchan ekanligi, bilimlarni qanday o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni qanday hal qilishi, qanday qimmatli yangiliklar yaratishi, o'z bilim va malakalarini turmushga qanday tatbiq qila bilishidan ham, kishining qobiliyat va iste'dodini bilish mumkin.

Qobiliyat va iste'dodni bilim yoki ma'lumotga teng haravar deb, ya'ni u bilan aynan bir narsa deb qarash yaramaydi. Kishining muayyan bir xildagi qobiliyati va iste'dod darajasi uning ma'lum sohada bilim va ko'nikma hosil qilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. Shuningdek, qobiliyat amalda qo'llay olish va ijodiyotda undan foydalana bilishda ham ko'rinadi. Bilim olish va ko'nikma hosil qilish esa, o'z navbatida, qobiliyat va iste'dodning yuzaga chiqishiga hamda o'sishiga sabab bo'ladi.

Ma'lum soha yoki biror ixtisos bo'yicha faoliyat samarasi jihatidan odamlarning qobiliyat darajasi har xil bo'ladi. Ba'zi odamlar o'zining yuksak darajali qobiliyatlari bilan boshqa odamlardan ajralib turadi. Bunday odamlarni talantli va genial deyiladi, ularning yuksak qobiliyatini esa geniallik va talantlilik deyiladi.

Qobiliyat, odatda, ishtiyoq va moyillik bilan bog'liq bo'ladi. Muayyan faoliyatga bo'lgan moyillik va unga bo'lgan qobiliyat, ko'pincha, bir-biriga mos keladi, birgalikda o'sadi. Kishidagi moyillik ko'pincha, undagi mavjud qobiliyatlarning ko'rsatkichi bo'ladi.

Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi

Bizga ma'lumki qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar hisoblanadi. Buning asosida bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlarini yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifatni kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo'lishi mumkin. Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, engil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyatlarning miqdoriy tavsifi va ularni o'lchash muammosi psixologiya fanida o'ziga xos rivojlanishning tarixiy o'tmishiga ega. Hozirgi davrda fanning mumtoz psixologlariga aylangan Spirmen, Pirson, Kettell va boshqalar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridayoq muayyan ixtisoslar uchun kash tanlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadigan talablar tazyiqida o'quv yurtlarida sahoq olayotgan shaxslarning qobiliyat darajasini aniqlashga kirishdilar. Ularning taxminlaricha, insonning lavozimiga loyiqligi, uning mehnat faoliyatiga layoqatini, shuningdek, oliy o'quv yurtlariga, harbiy xizmatga, rahbarlik martabasini egallashga nisbatan imkoniyatlarini aniqlash mumkindir.

Qobiliyatlarning tuzilishi

Insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat harchand ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurhiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan babbatavaz kuch- quvvat tariqasida vujudga keladi degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir, deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) **tematik qobiliyat:** Matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan engil o'tishlik, masala echishda fikr yuritishning epchilligi kabilar.

2) **adabiy qobiliyat:** Nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajarab ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir- biringa o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktivlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlarini orasida ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida etakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga uquvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarining etakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabbalarni ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birkuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik individual faoliyatini tashkillashtiradi.

Qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlar. Qobiliyat va faoliyat.

Qobiliyat va qiziqishlar

Qiziqish-havas iborasini biz ko'pincha maroqli, ajoyib, yoqimli ma'nolarda ishlatamiz. Qiziq spektakl, maroqli roman, ajoyib odam va hokazolar deganimizda, odatda, shu ma'noda gapiramiz.

Bunday ma'noda tushuniladigan qiziqish-havasni bevosita qiziqish-havas yoki qisqa muddatli qiziqish-havas deyimiz. Bu xildagi qiziqish-havas, asosan, kishidagi ixtiyorsiz

diqqat jarayonida ro'y beradi va u kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi.

Bevosita qiziqish-havasni uzoq muddatli, nisbiy barqaror qiziqish-havasdan farq qilmoq kerak. O'ziga xos tor ma'noda ishlatiladigan qiziqish so'zi aslida shu xildagi barqaror qiziqish-havasni bildiradi.

Qiziqishning bu xili (barqaror qiziqish-havas) shaxsning diqqat-e'tiborini muayyan narsaga, voqelik va hayotning muayyan sohasiga, muayyan bir faoliyatga birmuncha uzoq vaqt va barqaror qaratilishida ifodalanadi.

Qiziqish-havas, jumladan, kishining o'zini qiziqtirgan narsaga erishuviga doim intilishida, bu narsani bilib ishga, shu narsani o'ziga yaqinlashtirish va uni egallab olish uchun har doim intilishida ifodalanadi. Odamlarga xos bo'lgan turli xil qiziqishlar orasida har bir kishining biton-bir sohaga asosiy qiziqish-havasi bo'ladi.

Shunday qiziqish-havasning bo'lishi shaxsning individual xususiyatini tashkil etadi.

Individual qiziqish-havas — kishining o'z hayotida, dunyoda ma'lum bir narsani eng muhim, eng qimmatli hisoblab, shu narsaga erishmoq uchun intilishidir.

Shaxsning asosiy hayot yo'li individual qiziqish-havaslarida namoyon bo'ladi. Qiziqishning bu turi faoliyatning uni qiziqtirgan narsaga moyilligida, shu narsani eslaganda har doim yoqimli tuyg'ular his qilishida, shuningdek, shu narsa va u bilan bog'liq bo'lgan ishlar haqida doim papirishga moyil-likda ko'rinadi.

Bu qiziqish hutun diqqat-e'tiborimizni o'sha bizni qiziqtirgan narsaga qaratishimizda, shu narsaga nimaki yaqin aloqador bo'lsa, shuni tez-tez esga olishimizda, xayolimizning hadeb shu narsa tevaragida aylanaverishida, fikrimizni o'sha biz qiziqtirgan narsa bilan bog'liq bo'lgan masalalar juda ham chuq'ab olishida ifodalanadi.

Individual qiziqishni kishidagi diqqatning individual xususiyatlari bilan, yoki his-tuyg'ular bilan yoki undagi orzu, intilishlar bilan aynan bir narsa deb tusbunish yaramaydi. Qiziqish-havas - shaxsning individual xususiyati bo'lib, uning diqqat-e'tibori real olamdagi muayyan bir sohaga muttasil qaratilishidir. Lekin kishidagi bu xil qiziqish-havas uning diqqat-e'tiborida ham, hissiyotlarida ham, intilishlarida ham, fikrlarida ham, faoliyatlarida ham namoyon bo'ladi.

Qiziqish hammadan ko'ra ko'proq kishining kasbi, ixtisosi ho'yicha qiladigan mehnati, o'qishi bilan bog'liq bo'ladi. Odamda shaxsiy qiziqishlar bilan birga, u ijtimoiy ozod bo'lgani tufayli, unga yana ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy qiziqishlar ham xosdir.

Ijtimoiy-siyosiy qiziqishlari ham mavjuddir. Bu qiziqishlar jamiyatga foyda keltiradigan yoki reaksiya jamiyat uchun zararli, emiruvchi qiziqish bo'lmog'i mumkin.

Progressiv ijtimoiy-siyosiy qiziqishlar kishidagi eng yuksak, qimmatli qiziqishdir. Kishilarning individualligi faqat unda ijtimoiy qiziqishlarning mavjudligi bilan emas, balki yana mana shu ijtimoiy qiziqishlarning undagi shaxsiy qiziqishlar bilan bo'lgan nisbatida hamdir. Kishidagi ijtimoiy qiziqishlar uning shaxsiy qiziqishlaridan ustun bo'lganda, undan ham muhimrog'i, kishining shaxsiy qiziqishlari ijtimoiy qiziqishlar bilan mos bo'lgandagina shaxsning ma'naviy hayoti ko'rkamroq bo'ladi.

Intellektual (aqliy) qiziqishlar yuksak ijobiy qiziqishlardir. Ana shunday qiziqish egalari

uchun o'z hayotlarida eng muhim narsa - fan bilan mashg'ul bo'lish, kerakli nazariy va amaliy masalalarni hal etishdir. Chunonchi, huyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur, musiqashunos, olim, maqol janrining ijodkori, Muhammadjon Mirzaev, matematik, fizik olim Qori Niyoziy, O'zbekiston FA akademigi I.S. Salimov va boshqalar ana shunday qiziqish bilan yashadilar.

Estetik qiziqishlarning o'ziga berilib ishlaydigan kishilar ham bo'ladi. Bunday odamlar uchun o'z hayotlarida eng asosiy narsa san'at va unga xizmat qilish qimmatbaho san'at asarlari yaratishdir. Chunonchi, rus kom-pozitorlaridan Glinka, Musorgskiy, Chaykovskiy va Moskva badiiy teat-riga asos solgan Stanislavskiylar mana shunday kishilardandir.

Ayrim kishilarda past va sayoz qiziqishlar ham bo'ladi. Bunday past qiziqishga faqat o'zining hissiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qiziqishlar kiradi.

Shuningdek, faqatgina shaxsiy boylikka - pul yig'ish, dunyo to'plashga qiziqadigan pastkash odamlar ham bor. Bunday odamlar o'zining eng zarur ehtiyojlarini qondirishdan ham voz kechib, emay, ichmay, kiyin-may, faqat dunyo to'plashga, mol yig'ishga harakat qiladi.

Faqat o'z nafsini ko'zlash, dunyo to'plash, molparastlikka qaratilgan tuban qiziqishlar xudbinlik xarakteridagi qiziqishlardir. Bunday qiziqishlar jamiyat manfaatlariga zid bilib, boshqa kishilar farovonligiga zarar etkazadi.

Kisbidagi qiziqishlar doirasi har xil bo'ladi. Odamlar o'zidagi qiziqish doirasining keng yoki tor bo'lishiga qarab ham bir-biridan farq qiladilar. Faqat birgina narsaga qiziqish bilan cheklanib, boshqa narsalarga e'tibor bermaydigan odamlarni qiziqish doirasi tor kishilar deb ataladi.

Voqelikdagi ko'p sohalarga qiziqadigan kishilarning qiziqish doirasi xilma-xil va keng bo'ladi. Lekin shu bilan birga bunday kishilarda bir qiziqish asosiy, markaziy o'rinni oladi.

Ba'zi odamlar bir narsaga juda qattiq qiziqadilar, kuchli, zo'r havas qo'yadilar, lekin ulardagi qiziqish-havaslar uzoqqa bormaydi; bunday odamlardagi hiron narsaga, biron-bir faoliyatga bo'lgan zo'r qiziqish-havas o'rinni darrov boshqa bir xil va shunday zo'r qiziqish-havas oladi.

Bunday kishilarning qiziqish-havaslari tez o'zgaradi. Bunday odamlarni, odatda, «juda qiziqib ketadigan» ishqiboz kishilar deb yuritiladi.

Nazorat savollari:

1. Qobiliyat haqida tushuncha ngizni bayon eting.
2. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Qobiliyatlarning tuzilishi. Bo'yocha bilimlaringizni hayon eting.
4. Qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlar haqidagi bilimlaringizni t. eting.
5. Qobiliyat va faoliyatning bog'liq tomonini yonting.
6. Qobiliyat va qiziqishlar. Haqblagi bilimlaringizni bayon eting.

GLOSSARIY:

Aqliy harakatlilar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli - tuman harakatlardir.

Akmeologiya - grekcha acme - «cho'qqi, yuqori pog'ona, gurkiratuvchi kuch» ma'nolarini bildiradi va ummg predmetini insonning o'z - o'zini rivojlantirish va o'zligini anglashning yuqori darajalariga etishga o'rgatuvchi fanlar majmui tushuniladi.

Bilish faoliyati — o'qish va mustaqil bilim egallash. U professor-o'qituvchilar rahbarligida amalga oshiriladi va bu jamiyonda talabalar ma'naviy-axloqiy jihatdan ham shakllana boradi.

Dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

Dialog - o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir.

Dunyoqarash — tabiat va jamiyat haqidagi falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, estetik, ilmiy qarashlar va nuqtai nazarlar tizimidir.

Yozma so'roq yoki anketa - yozma savol - javoblar orqali bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganiladi.

Psixologiya - grekcha «psyche» - jon, rux va «logos» - ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil qiladi.

Psixanaliz - ruhiy kechinmalar tabiatini negizidan, ich - ichidan o'rganish yo'nalishi.

Ego - tashqi olam bilan bog'langan, uning ta'sirlariga beriluvchan shaxs xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

Superego - odam kishilik jamiyatida yashagan sari undagi e'tiqod, ideallar, vijdonga havola xislat.

Pedagogik psixologiya — kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'z predmeti deb biladi.

Ijtimoiy psixologiya - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda xosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq atvorlarini o'rganadi.

Mehnat psixologiyasi - kishining mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi.

Muhandislik psixologiya - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorlarining faoliyatini, «odam - texnika» orasidagi funktsiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi.

Yuridik psixologiya - huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi.

Xarbiy psixologiya - kishilarning xarbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq - atvorini, boshliqlar bilan ijrochilar orasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi.

Savdo psixologiyasi - jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, haridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarni ko'radi.

Tibbiyot psixologiyasi - shilokor faoliyati psixologiyasini, hemor xulq - atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Tashqi kuzatuv - mohiyatan kuzatiluvchi xulq - atvorini bevosita tashkaridan turib kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usuli.

O'z - o'zini kuzatish - odamning o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani shaxsan o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usuli.

Standartlashtirilgan kuzatuv - qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilanadi va maxsus dastur doirasidan chiqmay, kuzatuv olib boriladi.

Ichkaridan kuzatuv - kuzatuvchi shaxs o'rganilyapgan guruh hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi.

Og'zaki so'roq - suhbat o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach, so'roq o'tkaziladi.

Erkin so'roq - oldindan nimalar suralishi qat'iy belgilab olinmaydi.

Standartlashtirilgan so'roq - hatto kompyuter dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkaziladi.

Test - so'rov - oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo qiladi.

Test - topshiriq - odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholash.

Proektiv test - tekshiriluvchiga shunday topshiriq beriladiki, u topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlayotganini, natijasi qanday bo'lishini oldindan bilmaydi.

Eksperiment - bir omilning ta'siri ikkinchi bir omil ta'sirini ta'minlashi yoki hodisaning ro'y berishi qo'lib kelganligi ishotlanadi.

Tabiiy eksperiment - qiziqtirayotgan fenomen tekshiriluvchiga tabiiy hisoblangan sharoitlarda maqsadli tashkil etilib o'rganiladi.

Laboratoriya eksperimenti - fenomen maxsus joylarda, maxsus asbob - uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi.

Modellashtirish - ko'pgina usullar yordamida o'rganilyapgan hodisaning tub mohiyati ochilmaganda qo'llaniladigan usul bo'lib, o'sha hodisaning umumiy hossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Mantiqiy modelllar - inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish tamoyillari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oya va simvollar ishlatiladi.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatning sub'ekti

bo'lmish individdir.

Konformizm – o'zgalar borligidan, ularning xulq - atvoridan ta'sirlanish bo'lib, yoshlar qanchalik o'ziga xoslikka intilmasinlar, barcha bir yahlit ijtimoiy qatlam sifatida bir - birlariga taqlid qiladilar.

Refleksiya - odamning o'ziga qarab, g'oyoki uzini oynada kurganday tasavvur qilishi.

«Men» obrazi - shaxsning uzi, uz xulq - atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavkeini tasavvur qilishidan hosil bulgan obraz.

O'z – o'ziga nisbatan baholash - turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu asosda yotgan yutuklarga bog'liq xolda turlicha bulishi mumkin. Ya'ni, Ayni biror ish, yutuk yuzasidan ortib ketsa, bosbkasi ta'sirida, aksincha pastlab ketishi mumkin.

Referent guruhi - shaxs uchun etalon, ibratli xisoblangan insonlar guruxi.

O'z – o'zi bilan dialog - shaxsning hoshkalar bilan buladigan tashki dialoglar asosida rivojlanadigan uzi bilan uzi gaplashish kabiliyati.

Shaxsning yo'nalganligi - ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning xayot faoliyatini yunaltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turgun, barkaror motivlar majmuiga ega bulishlik.

Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashkari orzu umidlari, ular ongida bor, lekin xar doim xam amalga oshmaydi.

E'tiqod - insonga uz karashlari, tamoyillari va dunyokarashiga mos tarzda yashashiga imkon beradigan shaxsning ongli yunalishi.

Imon (arabcha «ishonch») - shaxsning e'tikodiga mos keladigan, biror anik narsa va xodisalar ta'sirida ongda umashib koladigan tasavvurlar majmuu.

Oila - haqiqiy ma'naviyat uchog'i, mafkuraviy tarbiyaning omili va shart - sharoiti.

Elementar ustanovkalar (sej) - oddiy, kundalik extiyojlar asosida kupincha ongsiz tarzda hosil buladigan ustanovkalar. Ularni uzgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi extiyojlar tizimini uzgartirish kifoya.

Qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo mulokot jarayonining maxsuli sifatida jamiyatda kadr - kimmat topgan narsalarqa nisbatan ustanovka.

Ob'ektivlashish - kaytarilgan va natijada inson ongida uzok muddat saklanayotgan obrazning vaziyat paydo bulganda uz kuchi va mavjudligini kursatishi.

Shaxsning faolligi - jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlah turuvchi, uz - uzini anglab, xar bir xarakatini muvofiklashtiruvchi shaxsga xos bulgan eng muxim va umumiy xususiyat.

Faollik (latincha «actus» - xarakat, «activus» - faoliyat) - shaxsning xayotdagi barcha xatti - xarakatlarini namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriya.

Tashqi faollik - tashkariidan va uz istak - xoxishlarimiz ta'sirida bevosita kurish, kayd kilish mumkin bulgan xarakatlarimiz, mushaklarimizning xarakatlari orkali namoyon buladigan faollik.

Ichki faollik - bir tomondan, u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, kon aylanish, nafas olish, bosim uzgarishlari), ikkinchi

tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida kuringmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir kursatuvchi omillarni uz ichiga oladi.

Faollik - ongli ravishda boshkariladigan aktiv jarayon.

Faoliyat - yangi kashfiyotlar ochishga karatilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati.

Tashqi faoliyat - shaxsni urab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni uzgartirishga karatilgan faoliyat.

Ichki faoliyat - avvalo akliy faoliyat bulib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chikadi.

Fikrlash faoliyati - aql, fahm - farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboklarni echishga karatilgan faoliyat.

Interiorizatsiya - tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga utish.

Eksteriorizatsiya - aklda shakllangan goyalarni bevosita tashqi xarakatlarga yoki tashqi faoliyatga kuchirilishi.

Malaka - harakatlarning kayta - kayta bajarilishi natijasida uni bajarishda ongning ishtiroki kamayib, kuppina kislmlarning avtomatlashib borishi.

Ko'nikma - malakalarning kat'iy tarzda bilimlarga tayanilishi, faoliyatning maksadi va talablariga kura xarakatlarni samarali bajarishni ta'minlashining maxsuli.

Atuloqot - shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon buladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri.

O'yin - bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydigan, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma - xil faoliyat normalari, xarakatlarning andozalari bola tomonidan uzlashtiriladigan faoliyat turi.

O'qish - bilimlar, malaka va turli kunikmalar uzlashtiriladigan faoliyat.

Mehnat qilish - eng tabiiy ehtiyojlarga asoslanadigan faoliyat bulib, uning maksadi biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat tarakkiyotiga xissa kushish.

Faoliyat motivlari - xar bir shaxsni yoki bu faoliyat turi bilan shugillanishga majbur kiladigan sabablar.

Motivatsiya - inson xulk - atvori, uning boglanishi, yunalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sahablar majmui.

Shaxsiy dispoziyalar - shaxs xulk - atvorni ichkaridan, ichki psixologik sahablar tufayli boshkarish.

Motiv - shaxsdagi u yoki bu xulk - atvorga nisbatan moyillik, xozirlikni tushuntirib beruvchi sahab.

Ijtimoiy ustunovka - shaxsning ijtimoiy ob'ektlar, xodisalar, guruxlar va shaxslarni idrok kilish, baxolash va kabul kilishga nisbatan shunday tayyorgarlik xolatiki, u bu baxo yoki munosabatning aslida kachon shakllanganini anik anglamaydi.

Harakat komponenti - sub'etning ob'ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkm bulgan xarakatlari majmui (xulkda namoyon bulish).

Yopiq test - test sharti savol yoki vazifa, topshiriq va qisqa javoblardan iborat tuzilib,

ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri, qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi.
Yopiq tesida bir necha to'g'ri javob bo'lishi ham mumkin.

Iqtidorli talabalar - O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omildir.

Kuzatish hu -bu aniq vaqt davomida u yoki bu ma'lum bir ta'sir o'tkazish ta'sirida o'tkaziladigan hodisalarning va o'zgarishlarning rivojlanishni kuzatishga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari — oliy maktabda egallanadigan ijtimoiy-gumanitar, kasbiy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'mikma va malakalar hosil qilishga xizmat etadi.